It can be concluded that authentic materials are materials created by native speakers for native speakers for non-educational purposes.

Of course, it is preferable to study the language on the basis of authentic materials, that is, materials taken from original sources and not intended for educational purposes. But on the other hand, such materials are sometimes too complicated in the linguistic aspect and do not always meet specific tasks and training conditions. Therefore, it is advisable, in our opinion, to single out a separate group of methodological or educational authentic texts.

The central problem for discussion and debate is the authenticity of the text as the main link in the educational process. The use of authentic, non-adapted texts intended for learners of this language, reveals the following advantages:

1. Processed or simplified teaching materials lack the characteristic features of the text as a special unit of communication; they have lost their individuality and national color.
2. Artificial and simplified texts will impede the transition to understanding texts that the learner will encounter in "real life".
3. Authentic texts are an effective tool in teaching the country's culture of the language being studied.

4. Authentic texts are more diverse in style and topic, work on them is of interest to students.

5. Authentic texts illustrate the functioning of a language in a form that is accepted by its speakers and in a natural social context.

Successful mastery of listening involves removing or overcoming its difficulties [1]. Removing difficulties facilitates the mastery of listening and gives quick and tangible results. However, such artificial facilitated listening does not prepare for the perception of natural speech, since all the removed difficulties are present in it, and the student is not prepared to overcome them. Therefore, it is necessary that in the learning process, the student encounter the difficulties of natural speech and learn how to overcome them. Texts compiled directly for native speakers create enormous obstacles to their use for educational purposes [2]

An integral part of natural communication is the simplification of the language in accordance with the needs of the learner.

Summarizing the above, it should be noted that only on the condition that materials are used in the classroom that were taken from the life of the native speakers of the studied language or were compiled taking into account the peculiarities of the foreign mentality, culture in accordance with the speech standards adopted in this language, it will be possible to effectively learn a natural foreign language. The use of authentic and educational-authentic materials, namely, natural speech works created for methodological purposes, will contribute to greater effectiveness in teaching all types of speech activity, and will help simulate a complete immersion in a natural speech environment in a foreign language class.

**References:**

1. Galskova N.D., Gez N.I. (2006) Theory of teaching foreign languages. - M.: Academy. - p. 237–245

2. Kolomiytseva N.V., Sizova Yu.S. (2016) Efficiency of using certain authentic YouTube video materials in teaching a foreign language // Pedagogy of higher education. - No. 1. - p. 87–94

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNI NAZARIY ASOSLARI

**Almanova Gavxar Abdurashitovna**
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Kalit so'alar: Jimjitlik,** «Zanjircha», «Narvoncha»,«Doiraviy misollar», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog'chasida mehmondorchilikda»

Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yinning o'tkazilish formalari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir. Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik; «Nima o'zgardi» tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan va shu singari o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi.

Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10, «Do'koncha»da 8—12 bola, «Narvoncha» da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo. Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar vositasida bavosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» va shu o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu o'yinlarda bolalarning o'z-o'zlarini boshqara, bilishga o'rganishlarini ta'kidlab o'tgan edi. Bu o'yinlar bolalarni intizomli qiladi. etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yin qaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10—15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari bajonu dil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji

boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Tajriba shuni koʻrsatadiki, didaktik oʻyinlar bolalarda doʻstlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvoncha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari oʻyinlar oʻtkazilayotganda bolalar oʻz oʻrtoqlari, oʻzi turgan saf va oʻz sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Didaktik oʻyinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir oʻyin, oʻning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda boʻlishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik oʻyinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, «Doiraviy misollar» oʻyinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga toʻgʻri kelish-kelmasligini bilib boʻlmaydi. Ana shuning oʻzi bolalarni aktivlashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qoʻymaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xoliqov A ‖Pedagogik mahorat‖ – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil, 350 b.

2. Abdullayeva B.S va b Boshlangʻich sinf oʻquvcnilariga geometrik materiallarni oʻrgatish metodikasi -Toshkent:OOO ―Jahon print‖, 2011,90 b.

3. A’zamov A. ‖Yosh matematika qomusiy lugʻat‖- Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, 478 bet.

# TARBIYA DARSILARIDA O'ZBEKISTONNING MADANIY MEROSINI O'RGANISH

**Hakimova Habiba Normurodovna**
Navoiy viloyati , Navbahor tumani
10 - maktabi, tarbiya fani o'qituvchisi
Habibanavbahor@inbox.uz, tel:+998933112545

**Annotatsiya.** Tarbiya darslarida madaniy merosimizni o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirildi. "Tarbiya" fanini o'qitishda milliy qadriyatlarimizni o'quvchilarga o'gatish borasida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy meros, tarbiya, metodika, qadriyat

O'zbekiston mustaqillikka erishgach siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davr boshlandi. Xalqimizning madaniyati tarixini o'rganish mustaqillik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirishda tarixdan ko'p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun shubhasiz foydali ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi milliy manaviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qiladi. Hozirda mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z milliy madaniyatini yuksak darajada rivojlantirishning eng muhim shartini, omilini qo'lga kiritdi.

Har bir xalq madaniyatining asoslari, o'ziga xosligi, xususiyatlari, uning tarixi, rivoji davomida shakllanib, "taxlanib" boradi va ularning majmui ushbu madaniyatning milliyligini belgilaydi. Shuning uchun xalqimiz madaniyatining o'ziga xos tomonlari, mazmunini bilish, uning tarixini, o'tmishdagi rivojlanish davrlarini o'rganishni talab etadi. Hozirgi tarixni bilish, uni obyektiv yoritishga bo'lgan talabning kuchayishi milliy madaniyatimizning to'liq mazmunini, tarixini, yutuqlarini o'rganishga ham bevosita oiddir. Bu milliy madaniyatimizning jahon madaniyati tarixidagi roli va o'rnini aniqlash uchun ham zarurdir. Har bir xalqning o'z tarixi, o'tmishi bor. Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim-fozil, donishmand, adib, din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Albatta, turli an'analar,arxeologik yodgorliklar, buyumlar va boshqalarda ham xalq ma'naviyati yutuqlari ifodalanadi, lekin yozma adabiyot, qo'lyozmalar bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o'rganish, ularni hozirda nashr etish, targ'ib qilish, yubileylarini o'tkazish, madaniyat tarixini – ma'naviy boyligimizni chuqur bilish ishida nihoyatda muhim va katta rol o'ynaydi. Mustaqillik yillarida xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash va takomillashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada hozirgi davrda yurtimiz kelajagini o'ylab zahmat chekkan, Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashgan, millatimiz ravnaqi uchun umrini bag'ishlagan, o'zidan obod shahar-u vohalar, betakror go'zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun, bugungi avlodning zimmasidagi eng katta vazifasidir. "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.

Tarixiy xotiraning muhim vazifasi kishilarda o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash natijasida milliy g'urur va iftixorni vujudga keltirishdir. Milliy g'urur va iftixor tarixiy xotira asosida shakllanar ekan, u ajdodlardan qolgan moddiy va ma' naviy merosning boshqalar oldida nechog'lik ulkan ahamiyat kasb etishini anglashdan kelib chiqadi va kishida faxr tuyg'usini paydo qiladi, ajdodlardan, ularning insoniyat tarixidagi xizmatidan g'ururlanadi. Haqiqatan ham, tarixni bilish va undan ibrat olib yashash kishini hayot qiyinchiliklari va turmush mashaqqatlariga chidamli qiladi, uning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, matonatini oshiradi hamda orzu-umidlar ro'yobi sari muhim ma'naviy dalda bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch-T. Ma'naviyat, 2008
2. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. 2007
3. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat globallashuvining g'oyaviy asosi.-T . Tafakkur, 2009

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERFAOL METOD VA O‘YINLARNING AFZALLIK TOMONLARI

**Jo‘rayeva Manzura Abdulhamidovna**
Namangan viloyati Namangan
tumanidagi 12- sonli maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+ 998942721224

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada interfaol metodlarning afzalligi va qulaylik jihatlari, uning o‘quvchilarga ijobiy ta’siri hamda boshlang‘ich ta’limda undan qanday foydalanish mumkinligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z va iboralar:** zamonaviy ta’lim, o‘qitish jarayoni, interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim, tushuncha, o‘zlashtirish.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri o‘quvchilarni darsga jalb qilish orqali darsga qiziqtira olishdir. Bu borada pedagoglar ta’lim jarayonida turli xil metod va o‘yin turlarini dars jarayoniga olib kirishga intilmoqdalar va bu jarayon qanchalik muhim ekanligini tushunib yetmoqdalar.

Aslida ham fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega.Ta’lim faoliyatida foydalanilayotgan har bir metodni sinchiklab o‘rganish va amaliyotda qo‘llash o‘quvchi- talabalarning fikrini kengaytiradi. Hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi- talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Quyida ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan ayrimlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishdagi ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Klaster metodi.** Bu metod o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi.

Bu metodda o‘quvchilar chizmalar orqali mavzuga doir ma’lumotlarni tez o‘zlashtiradilar.

Bu metod, avvalo, mavzuni chuqur o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash , umumlashtiruvchi darslarda juda qo‘l keladi.

Masalan, boshlang‘ich sinflarda ona tili darsida “Ot so‘z turkumlari“ mavzusini ushbu metod orqali quyidagicha o‘rgatiladi.



Bu kabi chizmalar asosida o‘tilgan dars o‘quvchilar yodida qoladi. Shu mavzu qayta so‘ralganda chizma ko‘z oldiga keladi va tez xotirlaydi.

**“So‘z o‘yini”** metodida o‘qituvchi o‘quvchilarga bitta so‘z taqdim etadi.

O‘quvchilar shu so‘z ichidagi harflardan foydalangan holda yangi so‘zlar yasaydilar. Masalan, **O‘zbekiston** so‘zidagi **o‘,z,b,e,k,i,s,t,o,n** harflaridan foydalanib yangi so‘z hosil qiladilar.

O‘z, bek, is, ko‘z, ton, ek, bek, tok, bo‘z, bez, o‘s, o‘t, nok, kon, zeb kabi.

Bu metodni qo‘llaganda o‘quvchining yoshi va sinfini inobatga ham olish kerakligini nutmaslik kerak.

**“Davomini top” o‘yini.** Bu metodda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadilar. O‘qituvchi har bir gapni ikkiga bo‘lib , yarim bo‘lagini birinchi guruhga , ikkinchi bo‘lagini esa ikkinchi guruh a’zolariga tarqatadi. O‘quvchilarga biroz vaqt beriladi. Ular shu vaqt ichida gapni butun holatga keltirishlari kerak. Masalan:




Bu kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli qiladi.

Interfaol metodlar barcha ilg‘or metodlar singari kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratilgan eng samarali o‘qitish usulidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https:// shuhratbek .uz.
2. Tal’at Gaffarova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2011. 92-bet.
3. Д Сафин, Р Мусина. Интеракытивные метод преподавания и учения Душанбе, 2006. С. 317.

# MILLIY G‘OYA TUSHUNCHASI, UNING TUZULISHI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

**Kamolov Rahmatullo Erkinovich**
Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari fani o‘qituvchisi
Tel:+998933124552 Email:Rahmatullo13m@umail.uz

**Annotatsiya:** Milliy g‘oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida qisqacha yoritilgan
**Kalit so‘zlar:** Slayd shou , videolavhalar , animatsiyalar , videoroliklar

Milliy mafkura kecha, bugun yashab turgan barcha progressiv g‘oyaviy qadriyatlarning eng yaxshi tomonlarini o‘zida mujassam-lashtiradi. Xuddi shuning uchun ham O‘zbekiston milliy mafkurasining asosida nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar ham yotadi. Milliy mafkura respublikamiz xududida yashovchi barcha millat va elatlarning tarixiy taraqqiyot tajribasiga asoslanishi bilan birga xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham suyanadi.

Milliy mafkura ijtimoiy harakatlar va jamiyatning turli sotsial institutlari amalga oshirayotgan mafkuradan eng avvalo o‘zining integrativ xususiyatga ega ekanligi bilan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, integrativ maf-kura odamlarni yagona maslak atrofida birlashtiruvchi tarbiya-viy tadbirlarning summasi, bir butun sistemasidir. Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, Amir Temur davlatining ham, Petr I davlatining ham mafkurasi xuddi shunday integrativ xusu-siyatga ega edi.

Integrativ xususiyatga ega bo‘lgan milliy mafkura jamiyat bisotida mavjud bo‘lgan barcha tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ulug‘lashga, uni erkin fikr yuritishi, ozod farovon yashashini ta’minlashga qaratilgan eng yaxshi, eng ilg‘or umumbashariy g‘oyalarni to‘plashi va uni amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan obektiv shart-sharoitlar va subektiv omillarni yagona maqsad atrofida birlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkura uchun insoniyat qo‘lga kiritgan tarixiy tajriba ochiq, undan foydalanish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi. Faqat milliy tajribadan emas, balki, umumbashariy tajribadan fodalanish imkoniyati to‘g‘iladi. O‘tmish va bugun mavjud bo‘lgan fan, madaniyat, san’at, din, axloqning konstruktiv, ilg‘or element-larini o‘zida mujassamlashtiradi.

Milliy mafkura ijtioiy mafkuraning boshqa shakllaridan qudratli tashkiliy sistemaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xuddi o‘sha tashkiliy sistema yordamida jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha sotsial institutlar: oila, mahalla, bolalar muassasalari, umumiy ta’lim maktablari, maxsus va o‘rta oliy o‘quv yurtlari, mehnat kollektivlari, madaniy-ma’rifiy uyushmalar, jamoat tashkilotlarining mafkuraviy imkoniyatlarini muvofiqlashtiriladi va ularning bir maromda faoliyat ko‘rsatishlari ta’minlanadi. Xuddi shunday yo‘l bilan inson bilan jamiyat orasidagi aloqadorlik mustahkamlanadi.

Milliy mafkuraning insonparvarligi, uning ijtimoiy adolat prinsiplari, normalariga asoslanishi bilan o‘lchanadi. Faqat ana shunday mafkura ta’sirida faoliyat ko‘rsatagan fuqaro o‘zini hur va baxtiyor xis etadi. Kommunistik mafkura hukmron bo‘lgan mustabid tuzum sharoitida inson davlatga xizmat qiladigan bo‘lsa, milliy istiqlol mafkurasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida huquqiy davlat insonga xizmat qilmog‘i, chunonchi har bir fuqaroning huquqlarini himoya etmog‘i darkor.

Milliy mafkura xalqning, millatning ma’naviyati bilan bog‘langan. Mafkura xalqning ma’naviyatiga tayangan taqdirda-gina qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Boshqacha aytganimizda, mafkura ommaning ma’naviyatiga, odamlarning ma’naviy qiyofasi esa mafkuraga uzluksiz ta’sir o‘tkazib turadi. Ana shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat bo‘lsa, milliy mafkuraning xalqchilligi shuncha mustahkam bo‘ladi. Shuning uchun ham odamlarning ma’naviyatini boyitmasdan turib, ularning ma’naviy qiyofasida sunib ketish arafasida bo‘lgan milliy qadriyatlarni tiklamasdan turib, insonparvar, demokratik jamiyat qurib bo‘lmaydi. Bu esa mamalaatimizda mavjud bo‘lgan barcha intellektual, ma’naviy potensiallar imkoniyatlaridan, chunonchi, maorif, madaniyat, fan, madaniy-ma’rifiy tashkilot va muassasalari erishgan yutuqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ko‘pmillatli O‘zbekiston sharoitida milliy mafkuraning samaradorligi, ta’sirchanligini oshiruvchi eng muhim omil-lardan biri, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushta-rakligiga

asoslanishidir. Boshqacha aytganimizda, milliy maf-kura respublika xududida yashovchi yerlik xalqning tarixiy, madaniy-ma'naviy urf-odatlari, rasm-rusumlari, bayram va marosimlariga asoslangandagina, qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Xuddi shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat boʻlsa, milliy mafkuraning xalqchilligi ham shuncha mustahkam boʻladi.

Bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy mafkuraning asosini tashkil etuvchi umummilliy, umumdavlat gʻoyasining boʻlishi ham tarixiy zaru-ratdir. Chunki har qanday davlat sharoitida ham uning turli millat va elatlarga, maslak va manfaatlarga mansub fuqarolari uchun umumiy gʻoya zarur. Yagona davlat xududida yashovchi, barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi umummil-liy, umumdavlat gʻoyasi boʻlmasa, koʻpmillatli davlat sharoitida u yoki millat manfaati oyoq osti boʻladi. Umummilliy gʻoya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sifatiy ijtimoiy oʻzgarishni harakatga keltiruvchi qudratli motor vazifasini bajaradi. U ommaning ma'naviy-ma'rifiy energiyasini oshirishda ichki stimul beruvchi buyuk genera-tordir. Shunday ekan milliy mafkuraning asosida qanday umummilliy gʻoya yotishi mumkin? Bizning fikrimizcha, mustaqil Oʻzbekiston milliy mafkurasining asosida adolatli, insonparvar, demokratik jamiyat qurish, oʻsha jamiyatning bunyodkori boʻlgan jismonan baquvvat, ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega boʻlgan zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-kor mahoratini oʻzida mujassamlashtirgan barkamol inson shaxsini shakllantirish gʻoyasi yotmogʻi darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Milliy istiqlol gʻoyasining amal qilish tamoyillari.
2. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING MAZMUNIGA QO‘YILGAN TALABLAR

**Mirzaboyeva Gulsanam Azamjonovna**
Furqat tumani 31-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail:mirzaboyeva@mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich ta’lim va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchu qo‘yiladigan talablar, boshlang‘ich ta’lim oldida turgan vazifalar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, davlat ta’lim standarti, talab, yuklama.

Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti umumiy o‘rta ta’limning tarkibiy qismi bilan bo‘lgan boshlang‘ish ta’limning tarkibiy tuzilishi, mazmuni, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o‘quv yuklamasi hajmiga qo‘yiladigan meyor va talabalar majmui bo‘lib, u davlatning me’yoriy hujjati sifatida e’tirof etiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning nutqiy tafakkur qila olish salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, milliy urf-odatlarini o‘ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta’lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta’lim standarti asosida davlat boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan standartda belgilab qo‘yilgan minimal ko‘rsatgichlarga erishishni talab qiladi va o‘z navbatida bu ko‘rsatgichlarga erishish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy xizmatlar va vositalar bilan ta’minlaydi. Boshlang‘ich ta’limga davlat standart o‘quv predmetlari bo‘yicha emas, balki ta’lim sohalari belgilanadi. Ta’lim sohalari bo‘yicha standart ko‘rsatgichlar 7,(6)-II yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqoza qilgan ta’lim mazmunining minimal miqdoriga belgilandi. Boshlang‘ich ta’limga davlat ta’lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta’lim mazmuni sohalarini integrasiyalash imkonini beradi. Davlat ta’lim standartini belgilash boshlang‘ich ta’limning mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizasiyalash (davr talablari nuqtai nazaridan yangilash) ni ko‘zda tutadi. Davlat talim standartini boshlang‘ich ta’lim jarayonini oldiga qo‘yilgan iltimoiy talabga asoslangan holda o‘quvchilar egallashlari 9 taqozo qilinadigan ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi. Boshlang‘ich ta’lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda ayni shu boshlang‘ich sinf o‘quvchilardan ko‘nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan talim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi. Boshlang‘ich ta’lim standarti mazkur ta’lim bosqichining har bir ta’lim sohasining tarkibiy qisimlari, ta’lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik texnologik tizmi va darajasini belgilash xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talabga ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta’minlangan bo‘lmog‘i lozim. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim standartini belgilash ta’lim jarayoning tarkibini va xuddi shu tarkibiy komponentlarning mazmunini modernizasiyalash, boshlang‘ich ta’lim berish jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun asos yarata oladi:

-boshlang‘ich ta’lim jarayoniga kiritilgan har bir ta’lim sohasi bo‘yicha belgilanadigan ta’lim mazmuniga mos tarzda o‘quv materiallarini tadrijiy tarzda berilishini ta’minlash;

- ta’lim jarayonini ta’lim sohalarining maqsadiga bo‘ysundirish va ta’lim sohalariaro maqsadlar mutanosibligini ta’minlash;

- har bir ta’lim sohasi bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda hosil bo‘ladigan ko‘nikma va malakalarning aniq darajalarini hamda ta’lim natijalarini baholash mazmuniga qo‘yiladigan talablarni boshlang‘ich ta’lim standartining asosiy parametrlari bo‘yicha ishlab chiqish.

Boshlang‘ich ta’lim standarti ta’lim sohalariga qo‘yilgan standart ko‘rsatkichlarining mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta’lim sohalariga belgilab qo‘yilgan ta’lim standartining ko‘rsatgichlari tashkil etadi. Ta’lim sohalari bo‘yicha ta’lim natijasining sifati xuddi mana shu ko‘rsatgichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o‘rinda belgilab qo‘yigan ko‘rsatgichlar umumlashtiriladi hamda aniq o‘lchov birliklarida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta’limi sohasi bo‘yicha o‘rtaga qo‘yilayotgan vazifalarini bajarish ko‘p jihatlarda o‘qituvchilarga bog‘liq. Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli, ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatga bog‘liq. O‘qituvchilik sharafli,

juda murakkab kasbdir, yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik naziriyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun - qoidalar, tamoillar, umumlashtirilgan, metodik g‘oyalar bayon etiladi, o‘quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma- xil va murakkabdir. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamrayev Sh.”Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiyaga doir adabiy kechalar o‘tkazish” Qarshi “Nasaf” 1999.
2. Maqsadova M. Jabborov A. “O‘qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari” Qarshi 2009.
3. G‘afforova T . “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar” Qarshi 2009.
4. www.ziyonet.uz.
5. www.edu.uz.

# 4 – SINFLARDA O‘QISH FANINI O‘QITISHNING AFZALLIKLARI VA O‘QITISH ME’YORLARI

**Mirzoyeva Gulshoda Kaxxorovna**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
32- umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’limi fani o‘qituvchisi
Telefon: + 998 99 427 40 03

**Annotatsiya:** ushbu maqola 4-sinflarda o‘qish fanining o‘qitilishi, afzalliklari, o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, o‘quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishdagi o‘rni bo‘yicha ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish fani, pedagogik texnologiya, o‘quv dasturi, kompetensiya, davlat ta’lim standarti, ifodali o‘qish.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni bo‘lgan yoshlarimizni har tomonlama yetuk, dunyoqarashi keng, tafakkurli qilib tarbiyalash har bir pedagodning burchidir. O‘quvchilarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti hamda xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun o‘qish fani dasturi amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘qish fanini o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o‘quv dasturlari asosida 4-sinf o‘quvchilari uchun hamkorlik, didaktik o‘yin texnologiyalari va integratsiyalashgan ta’lim mazmunini ochib berishga qaratilgan darslik va qo‘llanmalar yaratilgan. Ushbu qo‘llanma darsliklarda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalar hamda kompetensiyalar yoritib berilgan. O‘quvchilar jamoada ishlash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish hamda maqsadli foydalanish hamda o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘qish darslarini davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy–tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O‘qish darslar davomida o‘quvchilar so‘zdagi harflarni bir-biriga bog‘lab yozish, so‘z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darsalri yuqori sinflardagi o‘zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o‘zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslariga jiddiy e’tibor talab qilinadi. O‘qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o‘qituvchi asosan quyidagilarga e’tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo‘ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzilishi qoyil harakatda, xayoli o‘yinda bo‘ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinlglayolmaydilar. Shu tufayli bu sinflarda ta’lim-tarbiya vazifalari, asosan, o‘yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o‘qish orqali amalga oshiriladi.

O‘qish darslarida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishning, asosan, ikki yo‘li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish;
2. O‘qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o‘qish dasturlari tashkil etish.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi

xususiyati oʻquvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, oʻquvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Oʻqish darslari uchun tanlangan mavzular oʻquvchilarga kundalik hayot mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar boʻyicha ham bilim va tarbiya berishni koʻzda tutadi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. T.Gʻafforova. Boshlangʻich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2011-yil.
2. Umumiy oʻrta ta'limning Davlat ta'lim standarti va oʻquv dasturi. Toshkent. 2017-yil.
3. S. Matjonov va boshqalar. "Oʻqish kitobi".4-sinf. Toshkent. 2017-yil.

# MUSIQIY ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Nishanbekova Jadira Oʻrinboy qizi,**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada musiqiy estetik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari toʻgʻrisida bayon qilinadi. Shuningdek, oʻquvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni toʻgarak darslarida rivojlantirishning samarali uslubiy, pedagogik-psixologik yoʻllarini aniqlashga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari oʻzining alohida dolzarbligi va ijtimoiy qiymati bilan ajralib turadi. Mazkur holatlar oʻquvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni toʻgarak darslarida rivojlantirish masalasini taqazo qiladi.

**Kalit soʻzlar:** musiqiy-estetik kompetentlik, musiqa, ta’lim, texnologiya.

Mamlakatimizda yangilangan, jahon andozalariga mos keladigan ta’lim mazmuni oʻz-oʻzidan emas, balki, ilgʻor pedagog-olimlar, metodist oʻqituvchilar, talabalarda musiqiy estetik kompetentlikni rivojlantirish va jahon miqiyosida orttirilgan pedagogika fani yutuqlari orqali takomillashib boradi.

Shu bois ham ta’limni hozirgi bosqichida uni isloh qilish vazifalari yangicha fikrlovchi, shiddatli axborot va axborot texnologiyalari, kompyuterlashgan modelli oʻqitish tez rivojlanayotgan sharoitda yosh avlod ta’lim tarbiyasi uchun mas’ul ijodkor oʻqituvchilarni shakllantirish vazifasini asosiy oʻringa qoʻymoqda.

Mavjud tajribalar shuni koʻrsatadiki, ta’lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal oʻquv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, oʻquv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda oʻqituvchining pedagogik mahorati, yangi ta’lim texnologiyalarini oʻzlashtirishi va ulardan ta’lim jarayonida unumli va oʻrinli foydalana olishiga bogʻliq boʻladi. Hozirgi kunda respublikamiz ta’lim tizimida “Ta’lim toʻgʻrisida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazifalarni roʻyobga chiqarish boʻyicha chuqur oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Milliy dasturda koʻzda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta’minlash jadal rivojlanmoqda.

Fan va ta’limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, oʻquv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashib oʻquv jarayoniga tadbiq qilinmoqda. Ma’lumki, didaktikaning predmeti oʻrgatish, oʻrganish hamda ta’lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini e’tiborda tutmaslik ta’lim mazmunini yoʻqqa chiqaradi. Oʻrgatish ham, oʻrganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta’lim mazmuniga bogʻliqdir. Ta’lim jarayonida har xil mavzularni oʻziga hos usullar bilan oʻrganish uni oʻziga xosligi va mazmunidan kelib chiqadi, bu esa asosan oʻrganishni tashkil etuvchi, yani oʻrgatuvchiga (pedagog oʻqituvchiga) bogʻliq. Har qanday fanni, shu jumladan, musiqa fanini oʻqitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fkirlovchi mushohada qiluvchi oʻz fikrlarini bildira oluvchi oʻquvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu oʻqituvchidir. Oʻqituvchi oʻzi va oʻrganuvchi oʻquvchilar uchun qulay va qiziqarli boʻlgan oʻqitish usullari, yoʻllari, shakllari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilgʻor pedagogik texnologiyalar yordamida oʻquv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta’lim texnologiyalariga oʻquv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda. Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida boʻlgani kabi bizning respubliksmizda ham ta’lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bogʻliq ishlarda ustuvor oʻrini egallamoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor boʻlishi, ta’lim jarayonida ularni qoʻllab dars oʻtishlariga muhim e’tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos boʻlib, jamiyat taraqqiy etishi bilan ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bogʻliqdir.

Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yoʻnalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni toʻliq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya’ni ta’limni texnologiyalashtirishga

aylanib bormoqda. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoillari asosida barcha oʻquv predmetlari qatori musiqa predmeti boʻyicha ham oʻqitish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda musiqiy ta'lim mazmunini milliy negizda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan toʻlaqonli foydalanish, xalq kuy-qoʻshiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta'sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida oʻquvchi yoshlarni milliy qadryatlarimizni teran anglaydigan, Vatanga, oʻz xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san'atimizga ongli munosabatda boʻladigan va unga vorislik qila oladigan ma'nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida koʻrsatilgan. Ta'lim jarayonida oʻquvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan oʻrganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa boʻlib qoʻshiq kuylash, nazariy bilimlarni oʻzlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholgʻu asboblarida chalish va musiqa ritmek joʻr boʻlish masalalarini shakllantirish musiqiy ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi. Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qoʻllaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat boʻlib, ular soʻzlash, koʻrsatish va mashqlar bajarishdan iborat boʻlib musiqa darslariga uni tadbiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bogʻliqlikda amal qiladi.

Musiqa ta'limining oʻziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, oʻqitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy-ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa ta'limini oʻzigagina xos boʻlgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Bular ham oʻz maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga koʻra pedagogik texnologiya boʻlib, ularni musiqa mashgʻulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar oʻquvchilarda yaxshi kayfiyat, joʻshqinlik, koʻtarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. Иброхимов О.А. Ўзбек халқ мусиқа ижоди (методик тавсиялар, I қисм). - Т.: «Ибн Сино», 1994.
2. Каримова Д.А. Мусиқий педагогик маҳорат асослари. - Т.: «Иқтисод-молия», 2008. -103-б.

# DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATION AS A REQUIREMENT OF MODERN EDUCATION\

**Nishanbekova Saida**
Teacher, Uzbek State
World Languages University

**Abstract:** This article presents the analysis of the concept "Intercultural communication", introduces the subject and object of its study, with the main directions of the study.

**Keywords:** intercultural communication, precedent phenomenon, cross-culture, worldview, concept.

The obvious need for a careful consideration of the problem of communication and mutual understanding of different peoples and cultures lead to the emergence of another new field of scientific knowledge - the theory of intercultural communication, the very original name of which (cross cultural communication) shows its inextricable connection with the concept of cross-cultural.

In accordance with the focus of this work, the theory of intercultural communication is the interest to the extent that its problems borderline with cultural linguistics, since it is the cross-cultural features of linguistic and verbal communication and effective language learning are the focus of this study.

E. Hall determined the founder of the theory of intercultural communication, who proved convincingly the connection between culture and communication, stated: "communication is culture, culture is communication" [1, p.87; 2 p.42;], and he drew an analogy with the study of foreign languages, with using grammatical categories.

During the acceptance and discussion by the scientific community of E. Hall's ideas that the concepts of "intercultural", "cross-cultural" and "multicultural", which, having not received an unambiguous strict distinction, coexist in scientific research. However, the term "intercultural" is most widespread, so that a new direction of scientific knowledge is called the theory of intercultural communication. It should be noted that, cross-cultural studies can serve as a basis for further development of the problems of intercultural interaction at different levels. The main idea of E. Hall and his followers is the recognition of the thesis about the need of teaching the culture of communication with other people, because if the culture can be studied, then the knowledge gained can be taught, it is proposed not only to make intercultural communication for subject of scientific research, but also to refer to it as the topic of an independent training course. We perceive this provision as one of those basic moments that turn out to be the basis of the linguodidactic study of cross-cultural problems.

It seems interesting that the initial appeal to the problematic intercultural communication in the European scientific community is made precisely by pedagogues-practitioners who used certain regional aspects in their work development of cultures. It is the same initiative of foreign language teachers that lead to the formation of the study of intercultural communication in the domestic science and education system. It become obvious that successful contacts with representatives of other cultures are impossible without knowledge of the characteristics of these cultures and practical skills of cross-cultural interaction.

This development of new scientific and educational direction is vital, necessary. However, at the level of school education, the manifestations of these trends are not observed. This position is relevant in the relation to the national educational organizations in the country, in particular, communication, due attention is not paid to this aspect, although contacts with residents of foreign countries. occur in the daily life of a person, especially a child, contacts with representatives of various nationalities of a particular region of their country living and studying areas.

It is noted that modern researchers work in line with the theory of intercultural communications, in turn, indicate that "many more questions and problems of intercultural communication have not become a subject of scientific interest until now" from representatives of various humanities [6,p. 274]. We hope that this study will contribute to change the current situation, at least in one of the possible aspects of the practical application of cross-cultural communication. Answering to the question – "Why cognize culture through", the need for one culture, knowledge of another culture, the need for interpenetration, primarily in order to understand another culture, different from own

world, is formed by the space of another culture. Therefore it is possible to conclude cross-cultural ties to permeate all spheres of life in modern society, which is clearly manifested in the life of our state, and therefore, should be reflected in the education system as a cross-cultural aspect of the formation of the personality paradigm of the student.

Thus, having considered the manifestations of cross-cultural communication as a defining element of the modern worldview, we can conclude that cross-cultural communication is a kind of linguo-philosophical paradigm. One of the methodological foundations of cross-cultural communication, which acts as an integrated synthesizing approach to the relationship, interaction of language and culture in their functioning with an orientation on the system of universal humanistic values. Another methodological basis for cross-cultural communication is the theory of intercultural communication. In other words, cultural linguistics and the theory of intercultural communication serve to embody the ideas of cross-cultural communication. Cross-cultural is not only a tool or method of cognition reality, but also a new way of perception of the world, attitude and a new approach to education, which is embodied in cross-cultural trends in the development of linguodidactics (in particular, the need to study the process of forming a system of ethnopsychological personality traits, the development of a person's ethnic self-awareness lead to the emergence of area of knowledge with an interdisciplinary approach.

**References:**

1. Elizarova G.V. Culture and teaching foreign languages. SPb., 2005Hall E.T. Beyond culture. New York: Anchor Books, 1981.
2. Hall E.T. The hidden dimension. New York: Ancor Books Doubleday, 1982.
3. Hall E.T. The silent language. Westpoint: Greenwood Press Publishers, 1959.

# THE ROLE OF TEACHER ON APPLYING METHODS AT ENGLISH CLASSES

**Nishanbekova Saida**
Teacher, Uzbek State
World Languages University

**Abstract:** The following article devoted to the methods of teaching a foreign language at non-linguistic universities. It suggests some methods with fundamental components of a practical lesson. There are given questions and solutions to them. It provides data with eight methods and teacher's role concerning to these methods.

**Key words:** general developmental, competitiveness, practical application, iceberg, interaction, activities, materials, approach, methods, principles, illumination

At all periods, a teacher, both a beginner and an experienced one, was faced with the question of the peculiarities of organizing foreign language classes in a non-linguistic university, it should be noted that thanks to the achievements of modern teachers, methodologists and didactics, the question has not exhausted its relevance, it is still relevant in modern teaching methods. The problem is that the study of any foreign language belongs to the linguistic or humanitarian disciplines, which in a non-linguistic (technical) university are among the general developmental disciplines, therefore, most often, teaching the above discipline in technical universities requires special attention.[1] Since in the paradigm of modern world education and on the international labor market a foreign language is by no means the last, it should be remembered that it is not so much an educational non-core discipline or a field of science, but also a very important element in the education system, which reflects the general level of competitiveness of a future specialist at the world labor market. Accordingly, the possibility of his self-realization in the profession he has chosen for himself will depend on the level of mastering and proficiency in a foreign language. It must be remembered that the level of mastering the material directly depends on the teacher and his teaching methodology. In the modern world, the most important personality traits are still initiative, the ability to think creatively and find non-standard solutions, the ability to choose the right professional path, and the willingness to learn during all professional activities.

Therefore, a modern teacher should not only equip the student with a set of knowledge, but also help him become independent, creative and self-confident. At the same time, there is a growing need in society for the quality of education and the demand for successful people who are fluent in a foreign language in their professional activities and interpersonal communication. When teaching students English, one of the main problems is the low intensity of students' speech activity. This is due to the lack of practical application of the language. With the existing workload, which is 2 hours a week and without using the target language in real life, students quickly forget what they studied earlier in the classroom. The problem of insufficient speech activity is currently relevant not only for students of higher educational institutions, but also for society as a whole, since now people have the opportunity to travel, communicate with representatives of other nationalities. This requires not only knowledge of English, but also the ability to apply this knowledge in practice. Often students, even those who know English well, are afraid to make mistakes in their answers during classes and when communicating with foreigners.

A language barrier arises, to overcome which means to eliminate a psychological problem, which disappears as confidence grows when communicating with other people. The work of a teacher implies not only the correct structure of the lesson, but also the constant improvement of their skills and professionalism, since the atmosphere of the course of a foreign language lesson and the motivation of students directly depends on the teacher. When a teacher enters a lesson, he sees only the tip of the "iceberg": interaction, activities, materials, and does not always think about its underwater part: theory of teaching, theory of learning. That is why, in due time, the teacher faces the following questions: How to build an effective learning process? How to improve the

[1] Batunova I.V. Modern pedagogical technologies in foreign language lessons as an important condition for improving the quality of the educational process. / Batunova I.V. // IV International Scientific and Practical Conference: Scientific Perspectives of the XXI Century. Achievements and prospects of the new century - Novosibirsk: International Scientific Institute "EDUCATIO", 2014. - pp. 126-128

necessary skills, knowledge and skills of students? How to motivate students to learn a foreign language? Foreign language teachers have always been interested in methods of approaches to teaching foreign languages.

The above parts were highlighted by us, since the assessment of the lesson, from the point of view of effectiveness, begins with visual perception: the interaction of the teacher and the student, the procedure, materials and activities. In the first two sections, the teacher will be able to find for himself the illumination of some theoretical concepts that will be used to compile a questionnaire, the purpose of which is to clarify the gaps in the effectiveness of the lesson. Thus, each of the sections of the teacher should consist of the following parts: theoretical part, questionnaires for self-assessment of the teacher's activities. The third section should consist of a set of criteria for the effectiveness of the lesson, covering all components of the educational process, highlighted taking into account the opinions of practicing teachers. Our practical component of this article is to analyze the activities and role of the teacher in foreign language classes and create a list of necessary questions and problems that he encounters for the teacher, and thereby help novice and practicing teachers to determine how effective the educational process is in their classes, to identify the components that make up this educational process in order to improve it, regardless of the teaching method or approach, since it is assumed that the effectiveness of the practical lesson depends directly on the professional and personal teachings of the teacher to organize the educational process.

**References:**

1. Bayborodova L.V. Organization of psychological and pedagogical research: textbook / L.V. Bayborodova // - Yaroslavl: YAGPU Publishing House, 2013. - P.331
2. Batunova I.V. Modern pedagogical technologies in foreign language lessons as an important condition for improving the quality of the educational process. 2014. - pp. 126-128

# ОИЛА – ТАРИХИЙ ХОТИРА ВА ХАЛҚИМИЗ ҒУРУРИ, КЕЛАЖАК АВЛОД ДАВОМЧИСИ

**Носирова Нилуфар Солиевна,**
Бухоро муҳандислик-технология институти ўқитувчиси,
Телефон:+998906129756
shaxidkayusupova@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги кунда айнан инсон камолотида оиланинг ўрни ғоят беқиёс эканлиги қадим-қадимдан бизнинг онгимиз, шууримизга сингдирилган. Мазкур мақола оила – тарихий хотира ва халқимиз ғурури, келажак авлод давомчиси эканлигини очиб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** оила, маънавий, ахлоқий, омил, муҳаббат, садоқат, зийнат, ғамхўрлик, инсон камолоти, руҳият.

Шарқда қадим-қадимдан оила муқаддас Ватан саналган. Агар оила соғлом ва мустахкам бўлса, маҳаллада тинчлик ва ҳамжиҳатликка эришилади. Бу эса ўз навбатида, оилада шаклланган маънавий-ахлоқий анъаналар ва шу асосида келиб чиқувчи вазифаларнинг нечоғли адо қилинишига узвий боғлиқдир. Чунки оилада икки ёшни бир-бирини тенг кўриши, бир-бирини ҳурмат қилиши ва кечира билиши, ўзаро муносабатларидаги сирларини махфий тута билиши ва эъзозлай олишлари, бир-бирларига чексиз самимият кўрсата билишлари, ғамхўрлик қилишлари, ҳар қандай вазиятларда бир-бирларига суяна олишлари, ишончлари, бардошларидан иборат. Маънавий-ахлоқий омилсиз оила мўрт, омонат бўлади. Оилани бунёдга кетиришдан кўра уни сақлаб қолиш ва мустахкамлашнинг чандон оғирлиги ҳам шунда. Ўзбек оилаларида муҳаббатга садоқат алоҳида зийнат саналади. Ғарбдагидай эркин муҳаббат туйғуси ўзбек оиласига ётдир. Шу боисдан ўзбек оиласи жаҳондаги энг мустаҳкам оилалардан ҳисобланади.

Айнан инсон камолотида оиланинг ўрни ғоят беқиёс эканлиги қадим-қадимдан бизнинг онгимиз, шууримизга сингдирилган. Биз ана шу мўъжаз макон, Ватанимиз ичра кичик Ватан - оилада туғилиб, вояга етамиз. Жамият тараққиётига ҳисса қўшишга қодир шахс сифатида шаклланамиз. Шу азиз макон сари ҳар лаҳзада талпиниб турамиз.Чунки бу маконнинг бағри иссиқ, меҳригиёси одамни ўзига тортиб турувчи оҳанрабоси, қалбларимизни равшан қилгувчи нурафшон зиёси бор. Бундан ҳам муҳимроғи эса, бизнинг ҳар бир қадамимизни жиддий назорат қилиб, хулқ-атворимизни одамийлик тарозиси ила ўлчаб, яхшиликларга йўллаб тургувчи ота-онамиз, бобо ва бувиларимизнинг меҳр-муҳаббати ҳоким унда. Асрлар давомида шаклланган оила қадрияти миллатимиз учун том маънодаги интеллектуал маънавий мероски, бу маънавий меросни ҳеч қандай моддийлик билан қиёслаб бўлмайди. Оилада фарзанд тарбияси масалаларида ва умуман жамият ҳаётида аёлларнинг ўрнига катта аҳамият берила бошланди. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари аввало оила бағрида шаклланади. Айнан оила муҳитида пайдо бўладиган ота-онага ҳурмат, уларнинг олдидаги бурчларига содиқлик, инсонга хос бўлган одамийлик фазилатлари оилавий муносабатларнинг негизини, оиланинг маънавий оламини шаклланишида зарур бўлган хислатлар ҳисобланади.

Азал-азалдан ҳар қайси ота-она ўз боласининг соғлом ва баркамол, ақл-заковатли, бахтли бўлишини истайди. Шундай фарзандни вояга етказиш, унинг ҳаѐтда муносиб ўрин эгаллашига эришиш – оилада ота-онанинг энг улуғ, энг муқаддас орзуси, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз. Тарих ва аждодлар қолдирган буюк маънавий мерос ва миллий қадриятларимиздан маълумки, қадимда ота-боболаримиз ўз наслларини умумбашарий туйғулар, ўлмас Шарқ фалсафаси, миллий қадриятларимиз руҳида тарбия қилиб келганлар ва улар асрлар давомида тилимизни, дилимиз ва динимизни, ўзбекнинг ўзлигини ҳар томонлама асраб-авайлаб, баркамол авлодларни вояга етказишни асосий мақсад қилиб қўйганлар. Илмий кузатишлар натижалари шуни кўрсатадики, инсон ўз умри давомида оладиган маълумотларнинг 70 фоизини 5 ёшгача бўлган даврида олар экан. Айнан ана шу даврда (5-7 ёшларда) унинг қалбида оиладаги муҳит таъсирида маънавиятнинг илк куртаклари ёзила бошлайди. Мана шу даврда бола ҳамма яхши-ёмон нарсани тушуниб, англай бошлайди, унинг беғубор онгида барча воқеа-ҳодисалар, таассуротлар шакллана

бошлайди.

Маълумки, аёл оила руҳиятининг барометри ҳисобланади. Бу нозик хилқатни яратган тангрим унга - Инсон наслини ўз вужудида асраб-авайлаб дунёга келтиришни мартаба қилиб бергани бежиз эмас. Ҳар бир фарзанди учун Она умрининг сўнгигача кўзида нур, билагида куч-қудрати бор экан, тоабад ҳимоя қилади. Онасининг тарбиясини олиб, унинг этагидан тутиб, оналик, бекалик санъатини ўрганади.Онанинг йўриғидан юриб илму-маърифатга интилади.

Бугунги ёшларимизни маданий, тарихий анъаналаримизга ҳурмат, Ватанга муҳаббат, истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш, қизларни оилавий турмушга тайёрлаш, тадбиркорлик ва касб-ҳунарга ўргатиш давримизнинг долзарб масалаларига айланди. Ёш аёллар ва қизларни иш билан банд этиш, тадбиркорлик ташаббусларини амалга оширишда, кичик ва ўрта бизнесда, айниқса қишлоқ жойларида хотин-қизлар ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларга ҳуқуқий ва ижтимоий шарт-шароитларни кенгайтириш муҳим аҳамиятга эга.

Фикримизга якун ясар эканмиз, ҳақиқатан ҳам шуни очиқ эътироф этиш зарурки, инсон чинакам ва ҳақиқий тарбияни дастлаб оила бағрида топади ва бутун умри мобайнида мазкур даргоҳда онг-шуурига сингган туйғулар қанотида яшайди. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деган нақл бежиз айтилмаган. Шундан ҳам аёнки, оила – чиндан ҳам тарихий хотира ва халқимиз ғурури, келажак авлод давомчисидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ш. М. Мирзиёев. Буюк келажагимтзни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т-2017
2. Носирова Н. С. НОВЫЕ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ ВОСПИТАНИЯ //Человекознание. – 2018. – С. 22-24.

# GENETIKADAN ISHCHI DAFTARNING MAZMUNI VA TUZILMASI

**Olimov Xurshid Avazbekovich**
TFI akademik litseyning biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Genetikani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyati ularning o'rganish faolligini oshirish orqali tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi ularning mustaqil o'quv faoliyatini boshqarib boradi. Mustaqil o'qish va o'z-o'zini nazorat qilish sistemasi o'quvchilarning o'quv yili davomida uzluksiz chuqur bilim olishiga imkon beradi. O'quvchi ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisi va markaziy obyektiga aylanadi.

**Kalit so'z:** ko'p tanlovli javobli testlar, rasmli topshiriqlar, tayanch konspekt

O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga keng o'rin beriladi. Shu sababli Genetikani o'qitish jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning o'rganish motivatsiyasini shakllantirishni ularning o'quv predmetiga qiziqishlari asosida amalga oshiriladi. Bu kursning o'quv materiali o'rganiladigan fakt va hodisalar hamda irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlariga taalluqli sir-sinoatni tushuntirish, ijodiy fikrlash darajasida qiziqtirish imkoniyatiga ega.

Genetikani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyati ularning o'rganish faolligini oshirish orqali tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi ularning mustaqil o'quv faoliyatini boshqarib boradi. O'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-sinf, o'qituvchi-sinf munosabatlarida o'qituvchi yetakchi pozitsiyani egallab turishi lozim.

Mashg'ulotlarning asosiy shakli o'quvchilarning individual faoliyatiga asoslangan guruhiy ishlardir. Har bir ish yakunida barcha o'quvchilar ishtirokida frontal muhokama o'tkaziladi.

Genetika fanidan o'quvchilar uchun tuzilgan ishchi daftarda beriladigan topshiriqlar darslik va o'quv qo'llanmalarni mustaqil o'qib, tayanch konspekt tuzishdan iborat.

Bu texnologiyaning asosini darslikdagi mavzular bo'yicha oldindan ishlab chiqilgan va o'quvchilaiiga uyga vazifa sifatida tarqatib beriladigan topshiriqlar tashkil etadi. Bunday topshiriqlardan o'quvchilar bilimini baholashda ham foydalanish mumkin. Topshiriqlarning **5 xil (A, B, D, E, F) shakli mavjud:**

**A–ko'p tanlov javobli topshiriqlar.** Bunday topshiriqlar teng nisbatdagi to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'ladi.

*1. Quyidagi berilgan genotiplarning qaysi biridan 4xil tipdagi gametalar olish mumkin?* A) AABB; B) AaBB; D) AaBЬCC; E) AABbCcDD; F) AABbCCDD; G) AaBBCcDD; H) AaBЬCc; I) AABbCcDd; K) AaBBCCDd.

Javob: D, E, G, J, K.

**B–o'zaro mos kelmaydigan tushurichalarni aniqlaydigan juft topshiriqlar.** Bunday topshiriqlarda berilgan javoblarning bir qismi birinchi topshiriqqa, qolgan qismi ikkinchisiga mos keladi.

*2. To'satdan vujudga keladigan va qat'iy ravishda nasldan- naslga o'tadigan mutatsiyalarni aniqlang.* A. Xushbo'y no'xotning kalta poyali navlari. B. Qat-qat tojibarg hosil qiladigan o'simliklar. D. Odamlarda oltita barmoq bo'lishi. E. Terida pigmentlarning bo'lmasligi. F. Xo'rozlarning bo'yin qismida pat bo'lmasligi.

Javob: A, B.

*3. Aniq ko'zga tashlanadigan irsiy o'zgaruvchanlikni aniqlng? (ikkinchi topshiriqqa qarang).* To'g'ri javoblar: D, E, F.

**D–Ketma-ketlikni aniqlash topshiriqlari.** Ular biologik jarayonlar, xronologik voqelik, organlarning joylashuvi tartibini aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, faqat to'g'ri javobni shakllantirish uchun zarur bo'lgan tushunchalardan iborat.

*4. Sutemizuvchilarning kichik qon aylanish doirasi bo'ylab qon aylanadigan organlarini tartib bilan ko'rsating.*

A) O'pka arteriyasi. B) O'pka venasi. D) O'ng yurak qorinchasi.

E) O'pka kapillyarlari. F) O'ng yurak bo'lmasi.

Javob: 1-D, 2-A, 3-E, 4-B, 5-F.

Topshiriqlarga javob berish uchun o'quvchi undagi tushunchalarni tartib raqami orqali muayyan ketma-ketlikda joylashtirishi lozim.

**E–Bir-biriga mos keladigan tushunchalarni juftlash topshiriqlari.** Bunday topshiriqlarda

ikki guruh tushunchalar beriladi. Ulardan birinchi guruhi harflar, ikkinchi guruhi raqamlar orqali kodlanadi. O‘quvchidan ikkinchi guruhdan birinchi guruhdagi tushunchalarga mos keladigan tushunchalarni topib, juftlab yozish talab qilinadi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Tashqi belgilar | A | Tana tuzilishi, organlar joylashuvi; |
| 2 | Biokimyoviy belgilar | B | Hujayraning shakli, to‘qimalar va organlar tuzilishi; |
| 3 | Gistologik belgilar | C | Oqsilning tuzilishi, ferment faolligi, qondagi gormon konsentratsiyasi; |
| 4 | Anatomik belgilar | D | Teri rangi, soch, quloq yoki burun shakli, gullarning rangi, meva shakli va rangi. |
| Javob: | | 1 – D, 2 – C, 3 – B, 4 – A. | |




**G – Rasmlarni o‘qish topshiriqlari.**

Rasm yordamida hayvonlarning tashqi va ichki tuzilishi, hayot siklini, belgilarning irsiylanish qonuniyatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan:

Rasmga e’tibor berib birinchi va ikkinchi bo‘g‘in duragaylarning genotipini aniqlang. Bu qanday irsiylanishga misol bo‘ladi?

Shunday qilib 4, 5, 6-topshiriqlarga faqat to‘g‘ri javoblarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tushunchalar berildi. Tushunchalarni muayyan tartibda joyjashtirish, ya’ni kombinatsiyalash orqali to‘g‘ri javobni shakllantirish mumkin. Shuning uchun bunday topshiriqlar kombinatsiyaii topshiriqlar deyiladi. 1-, 2- va 3-topshiriqlarda tushunchalarning teng yarmisi to‘g‘ri bo‘ladi. Tushunchalarni tanlab olish orqali ularga to‘g‘ri javob beriladi. Shuning uchun ular ko‘p tanlov javobli topshiriqlar bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan topshiriqlardan o‘quvchilar bilimini o‘z-o‘zini nazorat qilishda ham foydalanish mumkin. Mustaqil o‘qish o‘z-o‘zini nazorat qilisfebiian birga bir butun sistemani tashkil etadi.

Mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini nazorat qilish sistemasi o‘quvchilarning o‘quv yili davomida uzluksiz chuqur bilim olishiga imkon beradi. O‘quvchi ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi va markaziy obyektiga aylanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quv jarayonini tashkil etish va yo‘naltirishdan iborat. O‘quvchilar darslik yordamida topshiriqdagi to‘g‘ri javoblarni aniqlab, tayanch test konspekt tuzib olishadi. Konspektda mavzuning nomi, topshiriqlar savoli va ularga benladigan to‘g‘ri javob yoziladi. Navbatdagi darsda o‘quvchilar o‘z javoblarini o‘qituvchi doskaga yozib beradigan javob bilan solishtirib, o‘z bilimlarini baholaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova. Biologiya. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. «Sharq» nashriyoti, 2017.

2. A.T.G‘ofurov va boshq. “Biologiya”. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 2010.

3. С.Мамонтов, В.Захаров, Н.Сонин. “Биология” Общие закономерности. 4 - издание. М, Дрофа, 2003.

# TEXNOLOGIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA TO‘GARAKLARNING AHAMIYATI

**Rahmonova Asila Xakimjonovna**
Namangan viloyati Namangan tumani
11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya**: maqolada ta’lim tizimida texnologiya darslarining ahamiyati hamda ushbu darslarning samarali tashkil etishda sinfdan tashqari to‘garaklarning foydali jihatlariga oid fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:**texnologiya,to‘garaklar, texnologik madaniyat, kompetentsiya

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. “Texnologiya” fanining o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarni ma’naviy va moddiy madaniyat dunyosiga jalb qilishdir. Agar o‘quvchilar adabiyot, tarix va boshqa darslarda ma’naviy madaniyat bilan tanishsalar, unda zamonaviy inson bo‘lgan moddiy madaniyat dunyosi boshqa maktab fanlarini hisobga olmaydi, bu esa o‘quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashishini qiyinlashtiradi.

Texnologiya fani o‘quvchilarda sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish, qulay sharoitni tashkil etish va hokazolar orqali o‘z salomatligini saqlashga ongli ehtiyojni yuzaga keltiradi. Umumiy ta’lim tizimida “Texnologiya” fanining vazifalari o‘quvchilarning mehnat va texnologik madaniyatini, texnologik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va mehnatni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Uning shaxsiyatining fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini, mehnat bozori sharoitida ularning ongliylik va erkinlik bilan o‘ziga maqul bo‘lgan kasbni o‘zi tanlashiga, gumanistik va pragmatik yo‘naltirilgan dunyoqarashni shakllantirishda yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Texnologiya fanini o‘zlashtirgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, boshqacha qilib aytganda yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida “drayver” rolini bajaradi.

Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Izrail, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida ham texnologiya fani umumiy ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan, fan – texnika yutuqlarini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk kasb egalarini tayyorlash masalasi turibdi. Bu masalani hal etishda sinfdan tashqari to‘garaklarning o‘rni katta. Umuman texnologiya fani insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda zarur o‘rin tutadi.

Texnologiya fanidan to‘garaklarni maxsus jihozlangan xonada o‘tkaziladi. Texnologiya fanidan o‘quvchilarning jinsi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Texnologiya fanidan to‘quvchilik to‘garagi ham qizlarimizga yoqib, ko‘proq mavsumiy hisoblanadi. To‘qish o‘rganish uzoq vaqt talab etmaydigan hunar bo‘lib, unchalik katta tajribaga ega bo‘lmasdan ham bu ishni uddalasa bo‘ladi. To‘garakda mashg‘ulotlar ham nazariy ham amaliy tarzda olib boriladi. Oddiydan murakkabga, kichik hajmli buyumlardan katta kiyim – kechaklar tikishni o‘rganishadi. O‘g‘il bolalar uchun texnologiya fanidan to‘garak tashkil etishda ularning qiziqishlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Maktabda to‘garak darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning keng tarqalgan va chuqur tadbiq etilgan shakli hisoblanib, ixtisoslashuvidan qat’iy nazar ularning ko‘plab umumiy tomonlari mavjud. Shuning uchun turli to‘garaklarning rahbarlari boshqa ixtisosdagi to‘garaklar ishidagi ijodiy mehnatga yonaltirishga oid ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganib, zamon bilan hamnafas bo‘lishi, o‘z ustida ko‘p ishlashi, eng ilg‘or tajribalarini chuqur

o'rganib, eng yaxshi tomonlarini o'z ishida qo'llashlari yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Texnologiya fanidan tashkil etilgan sinfdan va maktabdan tashqari to'garaklarda o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- to'garaklarga o'quvchilar jalb qilina oladilar;
- o'quvchilarning ehtiyoji va qiziqishlari qondiriladi;
- o'quvchilarni manbalar ustida mustaqil ishlashga o'rgatiladi;
-to'garaklar davomida o'rgatiladigan kasblar bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka, kompetentsiyaga ega bo'lishini o'rgatiladi;
-har bir o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi oshiriladi;
-iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy madaniyatni tarbiyalab shakllantiriladi;
-iqtidorli o'quvchilarni rahbatlantirish amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, texnologiya fanini ta'lim tizimiga joriy qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish orqali o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetentsiyalarni shakllantirishga erishiladi. Bu esa o'z navbatida kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish uchun keng yo'l ochadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. –T.: 2017
2. Aliyeva K. Ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondoshuv. O'quv-uslubiy majmua. –T.: 2020
3. Mavlonova R, To'raeva O, Xoliqberganov K. Pedagogika. –T.: 2001

# ENGLISH AND GERMAN IN BILINGUAL SETTINGS OF UZBEKISTAN

**Rasulova Zarifa, student of UzSWLU**
Alimkhanova N.A., Scientific supervisor, teacher, UzSWLU

**Abstract:** The generic field this paper relates to is multilingualism, especially the acquisition of multilingualism by bilinguals in Uzbekistan. The paper might be of practical use and benefit for those who seek to acquire multilingualism by learning a third language, in this case European languages such as English and German, and assuming that the learner in question is speaking Russian at a native level and speaks Uzbek as an inheritance language. This article sets out to infer or extrapolate conclusions applicable to the learning process of the third language of the readers of the paper, and to provide further avenues for research, by looking into the way multilingualism is acquired here in our society, choosing and preferences of their own regarding the third language.
**Key words:** Uzbek speakers, historical settings, language, multilingualism.

**Introduction**

Let's start with a quick flashback to Uzbekistan's history: It used to be a former Soviet Republic, which accounts for the fact that the Russian was a must at the time for the Uzbek speakers who want to advance or make their way into higher job positions or simply not being laughed at. So, the historical settings of Uzbekistan were largely predominated by the use of Russian apart from Uzbek among citizens and still are despite the fact that the independence of it was declared after the dissolution of Soviet Union. This is a mixed-methods research type of article, which is done to allow for some flexibility in conducting it. So, we first conducted a vignette-based questionnaire to look into people's opinions and then followed up with a few individual cases (meaning that quantitative data was collected first followed by collecting qualitative data second). The key results are subjective, meaning that every individual responded drawing on their case or experience. A significant proportion of citizens have Russian in their linguistic repertoire from an early stage of their learning. For many of them, it is a second language to acquire after Uzbek hence we can assume that Russian plays the role of inheritance language for some. But for other Uzbeks Russian transcends the border of second language and becomes dominant one because of the schooling in this language or even more raising into a community where Russian is spoken. So how Uzbek-born people (who know Russian fluently) learn languages, specifically German and English? Pegging it down, the primary focus of this feature article is to look deeply into the cognitive process of those who speak Russian from early on in their lives while learning German and English or both of them.

**Theory / Literature Review**

One of the important things to consider is that knowledge of the Russian language should be capitalized on in learning cognate language systems or languages, such as English and German since Russian, English, and German are classified as one Indo-European language family, with the Russian being the East Slavic branch of Indo-European language family, and German and English being Germanic living branch respectively. In particular, third language learners can draw on their knowledge of the previously acquired language, where related language learning experiences have a good chance of bringing about cognitive factors such as metalinguistic awareness. As stated in Wikipedia, the "concept of metalinguistic awareness helps explain the transfer of language knowledge across languages." That said, as German and English are considered foreign languages.

**Research method/process**

Citing the research methods, in principle, qualitative research is at the base of this paper, with the looking over of opinions outside as a building block. It deems relevant to mention the core of the questions that were asked. For the present paper, the main research questions that have been proposed are as follows(These are not all of them but the following two represent the kernel of the questions that were asked during the anonymous poll:

RQ1: Do you consider the German language dislodged by English nowadays in many areas of life?

RQ2: If you would be given a chance to learn a language of your choosing, what it would be? German or English? Or both?

**Results**

Writing up the analysis of results, it is consequential to note that 3 out of 4 people surveyed denied the knocking over of German completely, as it is still taught and studied in universities of our country. The most arresting finding extracted from people surveyed is that those who are already able to shuttle between bi-, tri- speech modes start considering learning the third language. As for choosing of their own, participants of the survey split into two parties, with one half wanting to study German, and the other English. So, the language an individual is to study is determined by a range of factors, taking into account the English being the international-communication language.

**Conclusion**

After the experience with the first language, in this case, German or English, learners would upgrade to a higher metalinguistic level, thus contributing to the easier acquisition of the third language, again German or English or vice versa, given to the fact they are cognate and the acquisition of one of them only supports the acquisition of another.

**References:**

1. Agustín-Llach, Maria del Pilar. 2017. The impact of bilingualism on the acquisition of an additional language: Evidence from lexical knowledge, lexical fluency, and (lexical) cross-linguistic influence. International Journal of Bilingualism. 1–13. DOI: 10.1177/1367006917728818.
2. The Multilingual Challenge: Cross-Disciplinary Perspectives. Trends in Applied Linguistics [TAL]: Vol. 16, U. Jessner & C.J. Kramsch (eds), 175–198. Boston: Mouton de Gruyter.
3. Bardovi-Harlig, K. 1992. The relationship of form and meaning: A cross-sectional study of tense and aspect in the interlanguage of learners of English as a second language. Psycholinguistics

# BIOLOGIYA DARSLARIDA ILG'OR TA'LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

**Tursunmurodov Hikmat Karomatulloyevich.**
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya
ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru
**Hamroqulov O'tkirbek O'ktam o'g'li**
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya
ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru
**Fayzullayev Sayidkamol Sayidahmat o'g'li**
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya
ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish metodlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** suhbat metodi, hikoya metodi, ma'ruza metodi, ko'rgazmali metodlar, ko'rgazmali dasturlar.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida samarali foydalanishni talab etadi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi. O'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi: Suhbat metodi suhbat savollarini ketma-ketlikda qo'yish, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'z vaqtida berish, o'quvchilarni faollashtirish, o'quvchilar javobidagi xatolarni to'g'rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi. Hikoya metodi o'quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarliligi, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi. Ma'ruza metodi o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi. Ko'rgazmali metodlar guruhiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, AKTning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o'quv kinofilmlari, videofilmlar, AKTning ta'limiy, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi. Amaliy metodlar guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o'tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo'ladi. Muammoli izlanish metodlari muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflash uslublarini o'z ichiga oladi. O'qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo'lib: a) induktiv metod xususiy

faktlarni muammoli bayon qilish, o‘quvchilar faoliyatini xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirish, muammoli topshiriqlami berish uslubi; deduktiv metod umumiy qonunlarni bayon qilish, o‘quvchilarning faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish uslubi; d) tahlil metodi axborotni anglab idrok etish, o‘rganilgan obyektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o‘rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi; e) bosh g‘oyani ajratish metodi — o‘quv materialidagi asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi; f) qiyoslash metodi qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtrish uslubi; g) umumlashtirish metodi o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mustaqil ish metodlari guruhiga ko‘rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishlash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. A. G‘ofurov A. Abdukarimov va b Biologiya 11-sinf uchun darslik “Sharq” Toshkent 2018

2. T. G‘ofurov va boshqalar ,,Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi“ O‘quv metodik qo‘llanma Toshkent 2005 yil

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

**Xayrullayeva Gulhayo**
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
25-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifatli bilim bilan ta'minlash to'g'risida so'z boradi. Shu bilan birga o'quvchilarni to'g'ri ta'lim olish va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish to'g'risida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** hamkorlikda ishlash, ko'nikma, malaka, mustaqil fiklash, tafakkur.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari - mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent.

# PEDAGOGIKA VA TARBIYA PSIXOLOGIYASI

**Xoliqova Gullola Qaxramonovna**
Toshkent viloyati Qibray tuman 19-maktab
Amaliyotchi psixologi
Tel: -99891146-95-35

**Annotatsiya:** Ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxslarni, ya’ni Komil insonni voyaga yetkazish — shakllantirishdan iborat. Shunday ekan, biz ta’lim-tarbiya samaradorligini o‘quvchilar ning qay darajada bilim, ko‘nikma va malakaga ega ekanliklari, tarbiyalanganlik darajalari, mustaqil bilim olishga, hayotda o‘z o‘rinlarini topish uchun qanday tayyorgarligi bilan o‘lchashimiz, baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart. Ushbu maqolada pedagogik tajribalarning psixologik nigohda aks etishiga e’tibor qaratmoqchimiz.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik tajriba, o‘quvchi faoliyati, psixologik qonuniyat, pedagogik psixologiya, interfaol usul, tarbiya psixologiyasi

Biz bu sohada pedagogik tajribani o‘rganar ekanmiz, ko‘pincha o‘qituvchiga, uning faoliyatiga, usul-uslubiga, qo‘llayotgan didaktik materiallariga, vositalariga baho bera olamiz. Ammo shular o‘quvchiga nima berayapti, yuqoridagi tamoyillar qanday bajarilayapti — bu tahlilimizda ikkinchi darajali bo‘lib soyada qolib ketadi. Shuning uchun biz ushbu tavsiyada pedagogik tajribani psixologik nigoh bilan, ya’ni o‘quvchi faoliyatiga shu tajriba nima beradi deb, nima berishi kerak degan fikr asosida, pedagogik tajribaning shaxs kamolotidagi o‘rnini quyidagi mezonlar bilan o‘lchamoqchimiz:

1.Ushbu pedagogik tajriba psixologik qonuniyatlar asosida tuzilganmi? U shaxs rivoji qonuniyatlariga bo‘ysunadimi?

2. Agar shunday bo‘lmasa ayrim olingan shaxs xususiyatlarini ochib bera oladimi?

3.Bunda (pedagogik tajriba) ta’lim va rivojlanish hamkorligining qaysi jihatlari maksimal darajaga (samaraga) ega.

4. Tafakkurning qaysi turi bu tajribada to‘liq shakllantiriladi?

5. Qanday munosabat turi ko‘proq qo‘llaniladi va uning ta’limiy
va tarbiyaviy ahamiyati nimalarda o‘z aksini topgan?

6. Shaxsiy pedagogik xususiyatlarning qaysilari ko‘proq rivojlantiriladi va uning komil inson xususiyatlarida tutgan o‘rni.

7. Pedagogik tajribada psixologik iqlim, tashkiliy qism, o‘quvchi faoliyati, dars yakuni, motiv, maqsad, vazifaga moslikning darajasi qanday? kabilar asosida ko‘rib chiqamiz va baho beramiz.

Ilg‘or pedagogik tajriba bilan ilg‘or pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, mezonlari va tamoyillarini bir-biriga aralashtirib yubormaslik kerak, ammo ular bir-birini to‘ldirishini, uyqash ekanligini, bir xil maqsad va vazifani **- komil insonni** shakllantirishini unutmasligimiz lozim. Ilg‘or pedagogik tajriba bir fanga, fanlarga oid bo‘lsa, ilg‘or pedagogik texnologiya esa barcha fanlarga oid bo‘lib, interfaol usullar asosida ish ko‘radi

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘iganishda, tahlil qilishda ta’limning didaktik tamoyillari va o‘quv jarayonini tashkil etish va olib borishning xususiy tamoyillari:mustaqillilik, rivojlantirish, kollektivlik, jamoaviy ish, o‘z-o‘zining faoliyatini tashkil etish,rolli ishtirok, javobgarlik, psixologik ta’lim kabilar nuqtayi nazaridan kelib chiqamiz. Har bir pedagogik tajribada esa yuqoridagi xususiy tamoyillarni qay darajada hayotga — amalga tatbiq etilishining samaradorligi bilan o‘lchaymiz. Yakuniy xulosa esa o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malaka darajasi, tarbiyalanganligining ko‘rsatkichlari bilan baholanadi.

Tarbiya psixologiyasi — pedagogik psixologiyaning g‘oyat murak kab va kam ishlangan bo‘limi bo‘lib, keyingi vaqtlarda bunga ko‘proq e’tibor berilmoqda. U shaxsning bir butun holda tarkib topishi va rivojlanishiga oid ichki (psixologik) mexanizmlarni, shuningdek, uning ay rim xususiyatlarini o‘rgatadi.

Shaxs faoliyati moddiy va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanib boradi. Faollik bo‘lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo‘lmaydi. Bunda ijtimoiy aloqalar jamiyat guruh hamda turli jamoalar hayotiga faol kirishib ketish shaxsni shakllantirishning muhim omillari sifatida maydonga chiqadi. Aniq maqsadni ko‘zlagan holda oldindan rejalashtirilgan

hamda tashkil etilgan jarayon boʻlishi tarbiya, shaxs va ijtimoiy muhitning oʻzaro taʼsir koʻrsatuvchi yoʻnalishlari hisoblanadi. Shaxsning shakllanib borish surʼati unga xos ayrim xususiyatlarning toʻla va butun holda barqaror paydo boʻlib borishi uning mehnatda, oʻqishda, oʻyinda, muloqotda va yurish-turish madaniyatida yaqqol koʻrinadi. Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, faoliyat nima sababdan amalga oshirilishi zarur ekanligini tushuntira olish bilangina har bir ishning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasi amalga oshadi. Bu fikrni shunday tushunish kerakki, tarbiyalanuvchi ongiga anglab yetilgan barqaror va kuchli ichki ehtiros paydo boʻlgandagina amalga oshirilayotgan faoliyat tarbiyalovchi kuchga aylanadi. Olimlarimiz va donishmandlarimiz tarbiyalanganlikni esa yaxshi va yomon xulqlarning qay darajada shakllanganligi bilan oʻlchaganlar.

Наг bir tarbiyachi — oʻqituvchi uchun yaxshi xulq, uning mezonini bilish — keyingi faoliyatini tashkil etishda yordam beradi deb oʻylaymiz. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash esa tarbiyalanuvchining kamchilik tomonlarini tuzatishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yoʻldoshev U.A. Interaktiv dars usullari. Navoiy, 2004.
2. Yoʻldoshev J.Gʻ, Usmonov S. Ilgʻor pedagogik texnologiya asoslari.-T., 2004.
3. Barotov Sh.B. Taʼlimda psixologik xizmat asoslari. - T., 1999.

# MATEMATIKA VA GO‘ZALLIK

**Xolmurodova Lobar Komilovna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
13-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan
ixtisoslashtirilgan maktabi matematika fani o‘qituvchisi
Tel:+998935002547 Email: Xolmurodovalobar@mail.com

**Annotatsiya:** Matematika fanining juda qiziqarli, go‘zalligi haqida fikr yuriltilgan. Bu fanni o‘qitishda zamonaviy usullar, fanga o‘quvchilarning qiziqishini oshirish borasida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Slayd shou , videolavhalar , animatsiyalar , videoroliklar

Hozirgi zamon talabiga mos har tomonlama rivojlangan o‘quvchilarni tarbiyalash, maktablarda olib borilayotgan ta’lim tarbiya ishlarini takomillashtirish, o‘quvchilarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, faolliklarini, mustaqilliklarini, ijodkorliklarini o‘stirib borish muhim vazifa sanaladi. Prezidentimiz ham matematika fanining o‘qitilishiga katta ahamiyat qaratyaptilar. Darhahiqat matematika fani barcha fanlarning negizidir.

Ko‘plab matematika olimpiadada g‘olib bo‘lgan bir o‘quvchidan jurnalist bu murakkab fanga qiziqishiga nima sabab bo‘lganligini so‘raganda, u o‘quvchi shunday javob berdi:

- Matematika qiyin va zerikarli fan emas, aksincha kim matematikani shunday deb o‘ylasa, unga matematikani sevuvchi o‘qituvchi ta’lim bermagan. Menga boshlang‘ich o‘qituvchim ham yuqori sinfdagi matematika fani ustozim ham ushbu fanni go‘zal ekanligini ko‘rsata bilgan ustozlar qo‘liga tushganim-mening baxtimdir-dedi.

Maktablarimizdagi ilg‘or o‘qituvchilarning mohirona ish tajribalari ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. O‘yin mashg‘ulotlar – o‘quvchilarga mavzuni chuqur va ongli tushunishga yordam beradi.Bu borada Paskalning “matematika fani shunchalik jiddiyki, uni biroz bo‘lsada ham qiziqarli qilish imkonini qo‘ldan chiqarmaslik foydali” – degan so‘zlariga amal qilish foydali.

Ilk bora sinf partasiga o‘tirgan o‘quvchilarga yozuv darsidan ko‘ra matematika darsligi ko‘proq yoqadi. Bora bora fandagi mavzular murakkablashib borgan sari bola undan zerika boshlaydi. Shunday paytda o‘qituvchidan mohirlik va izlanuvchanlik talab etiladi.

Darsliklarda hamma mavzularning qoidasi beriladi, uni tushuntirish, yechish usullari ham beriladi. Biroq o‘quvchiga bunday usul qiziq tuyulmaydi, shu o‘rinda o‘qituvchi zamonaviy o‘yinlar (telefon va kompyuter o‘yinlari misolida), bozor –do‘konlardagi savdoga bog‘lab tushuntirsa, bu o‘quvchiga ko‘proq qiziq tuyuladi.Har bir masalani ishlashdan oldin masalaga oid rasm ishlash masalani yaqqol ochib beradi.yoki masalaga jadval usulda , sxema ko‘rinishida ishlash ham maqsadga muofiqdir.Dars boshlashdan oldin o‘quvchilar fikrini jamlash uchun har kuni bir qiziq topshiriq tayyorlab qo‘yish kerak

Mashhur matematik Gauss kichkina shaharchadagi maktabda o‘qiyotganida olti yoshga endigina to‘gan edi. Kunlardan bir kuni o‘qituvchi barcha o‘quvchilarga 1, 2,3,4,5,…..10 gacha sonlar yig‘indisini kim tezroq hisoblay olishini aniqlash uchun vazifa qilib berdi. Zum o‘tmay qolgan bolalar hali hisoblashni davom ettirishayotganda kichkina Gauss qo‘l ko‘tarib natijani aytdi, oradan juda qisqa vaqat o‘tganligi sababli o‘qituvchi juda taajjublandi va natijani to‘g‘riligini ko‘rib, uning qobiliyatiga qoyil qoldi. Shu tarzda yangi bir yangilik dunyoga keldi. Shunday ekan biz ham har bir vaziyatdan yangilik, ijod kutib tashkil etishimiz darkor. Zamonaviy matematik bilimlardan qo‘rqmay uni o‘zlashtirish va o‘quvchilarni ham dunyoga raqobat qiladigan hech kimdan kam bo‘lmaydigan kadrlar tayyorlash uchun tinimsiz izlanishimiz kerak.

Hozirda o‘z ustida ishlash yo‘llari juda ko‘p bo‘lib, masalan internetdan halqaro matematik tanlovlar savollarini olib ishlash, turli hil mantiqiy kitoblardan foydalanib borish maqsadga muofiq sanaladi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar ham o‘quvchilarning ishtiyoq va layoqatlarini kamol toptirish, darsda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, nazariy bilimlarini hayotda qo‘llanilishi bilan kengroq tanishtirish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ularning asosiy ko‘rinishi - to‘garak mashg‘ulotlari, matematik kechalar, qiziqarli matematik tortishuv va bellashuvlar, matematik devoriy gazetasi chiqarish, matematik burchak tashkil qilish

va hokazolardir. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarni dunyoqarashlarini, mulohaza yuritishga, fikrlashga, fikrini to'g'ri va lo'nda bayon etishga, guruh bilan ishlashga, bir-biriga yordam berishga, o'zgalar fikri bilan o'rtoqlashishga o'rgatadi.

**Foydalanilgan internet saytlar:**

1. http:// ziyonet.uz//-Ta'lim va fan qidirish tizimi
2. http://www.ref.uz//-Mustaqil ish, referat va yozma ishlar qidirish tizimi
3. www.google.uz-axborot qidirish tizimi

# PECULIARITIES OF THINKING AND PROPERTIES OF THOUGHT ACTIONS

**Yusupova Shakhida Batirovna,**
Senior-teacher,
Bukhara Engineering-Technological Institute
Phone number:+998936237472
shaxidkayusupova@mail.ru

**Abstract.** The article deals with peculiarities of thinking and properties of thought actions. The abstractness of thought plays an enormous role in the construction of scientific knowledge. Every science studies one side of reality, abstracting from its other sides, but in this side it highlights the main, most important connections and relations and abstracts from the secondary ones.

**Key words:** thinking, generalization, abstraction, explanation, reproductive tasks, productive tasks, knowledge.

Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish

Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash

Ijodiy o'yin Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda

Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish

Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish

Ishbilar-monlar o'yini;

Auktsion Turli ob'ektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida konferentsiya mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi.

Konferentsiya mashg'ulotlari o'quvchlarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 - m i s o l. Kosinuslar teoremasini o'rganish uchun o'qituvchi oldin o'quvchilar bilan birgalikda to'g'ri burchakli uchburchakning elementlaridan birortasini topishga doir bo'lgan masalalardan yechadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matematik o'qitish metodikasi.A.Alihanov Toshkent 2009 yil
2. Algebra va matematik analiz asoslari oqituvchi nashriyoti 2014 yil

# BOLAGA KITOB BERING !!!

**Abdullayeva Aqljon Karimovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar 18-son
maktabning boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
+99862 2237696

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish orqali kitobga mexr uyg‘otish haqida, kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlar, ko‘rgazmalilikni o‘rni ko‘rsatilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar**: o‘qish darsi, ertak janri, adabiy ta’lim, ifodali o‘qish, og‘zaki nutqni o‘stirish,yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish.

***Bugun bitta kitob o‘qigan bola ertaga televizor ko‘rib***
***o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin.***
***Sh.M.Mirziyayev***

Har birimiz hayotimiz davomida do‘stlarga ehtiyoj sezamiz. Kim bilandir suhbatlashish, fikr almashish, ularning so‘zlaridan ko‘p ma’nolar olish bilan hayotimizga mazmun beramiz.

Kitob – inson ma’naviy dunyosining boyligi, fikrlash doirasining kengayishida katta yordam beruvchi vosita. Uni doimo do‘st tutish, undan ko‘p narsalarni o‘rganishga harakat qilish lozim. Ko‘p kitob o‘qigan bola asardagi fikrlarni o‘z qalbiga joylaydi. Yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga, yaxshi insonlar qatoridan o‘rin olishga harakat qiladi. Kutubxona – nurxona. Kutubxonaga tez-tez boradigan bola ko‘p narsalarni biladi. Chunki kitoblar inson umrining sermazmun o‘tishiga, bilimli, ilmli bo‘lishga yordam beradi.

Urganch shahridagi 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida kutubxona mudirasi va sinf rahbarlari bilan birgalikda “2 aprel – Xalqaro bolalar kitobi kuni” munosabati bilan “Kitobxonlik haftaligi” doirasida “Kitob – mening do‘stim”, “Men sevib o‘qigan asar” nomli ko‘rik tanlovlar bo‘lib o‘tmoqda. Maktabimiz o‘quvchilari bu tanlovlarda faol ishtirok etmoqdalar.

Barchamizga ma’lumki kitob qadim-qadimdan e’zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo‘lga olganda, uni o‘pib, ko‘zlariga surtganlar. Bu “Bizga bilim berasan, seni ko‘z qorachig‘imizdek asraymiz” degani uning varag‘ani yirtish, iflos joylarga qo‘yish gunoh sanalgan. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

Kitobni bekorga oftobga qiyos etishlari bejiz emas. Kitob dillarni uyg‘otib, munavvar qilish bilan birga hayot, mavjudot sirlaridan voqif etuvchi bebaho xazina. Kitob zehnlarni peshlab, bilimlar koniga eshik ochadi, ma’naviyatni boyitadi. Insonning jamiyatdagi mavqeyi-qadr-u qimmati bilimda, ilmlar konini egallashdadir. Buyuk mutafakkirlarning hayoti, tajribasi shunga guvohlik beradi. Ulug‘ alloma A.Jomiy: “Kitobdan yaxshi do‘sty o‘q jahonda, g‘amxo‘rlikning bo‘lgay u g‘amli zamonda”-deya kitobni behad ulug‘laganlar. Kitob asrlani-asrlarga, zamonlalarni-zamonlarga, rishtalarni-rishlarga ulovchi vosita. “Kitobsiz xonadon jaholatga o‘xshaydi”. Lekin to‘g‘ri kelgan kitobni o‘qish ham yaramaydi.

Inson tabiyati, fel-atvori, ruhiyatiga mos narsalarga qiziqadi. Kimdir tarixiy kitoblarga qiziqsa, kimdir falsafiy romanlarni o‘qiydi, kimdir sarguzasht asarlarni yo‘tirsa, yana kimdir hajviy asarlar ixlosmandi.

Kitob – hayot yolini yo‘rituvchi mash’ala. Kitob bilan do‘stlashish insonni yuksaklikka olib chiqadi va unga jahonni tanitadi. Shu bilan birga kitoblar zamon va elat tanlamasdan, doimo insonlarga hamroh bo‘lib kelgan. Buni yosh avlodga ham anglatib, ularni oshno qilish, bolalarmizning komil inson, kelajakning munosib egalari bo‘lib voyaga yetishlariga zamin yaratish – har birimizning asosiy vazifamizdir.

**Foydalanilgan abadiyotlar:**

1. Quronov D., Mamajonov Z., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, Akademnashr, 2013.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o‘qish. Toshkent, 2017.
3. G‘afforova T., Nurullaeva SH., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2018

# MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.

**Abdullayeva Gulnoza Axmadjonovna**
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 26-son
maktab musiqa fan o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada musiqa fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, pedagogik texnologiya, konsert, pedagog, bilim, ko‘nikma.

Har qanday fanni, shu jumladan musiqa fanini o‘qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fkirlovchi mushohada qiluvchi o‘z fikrlarini bildira oluvchi o‘quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o‘qituvchidir. O‘qituvchi o‘zi va o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan o‘qitish usullari, yo‘llari, shakillari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta’lim texnologiyalariga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya’ni ta’limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida bo‘lgani kabi musiqiy ta’limda ham yangi texnologiyalarga e’tibor kuchayib bormoqda. O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra 9+3 yillik majburiy umumiy va o‘rta maxsus ta’lim joriy etildi. Ta’limni demokratlashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoillari asosida barcha o‘quv predmetlari qatori musiqa predmeti bo‘yicha ham o‘qitish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda musiqiy ta’lim mazmunini milliy negizda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to‘laqonli foydalanish, xalq kuy – qo‘shiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta’sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o‘quvchi yoshlarni milliy qadryatlarimizni teran anglaydigan, vatanga, o‘z xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san’atimizga ongli munosabatda bo‘ladigan va unga vorislik qila oladigan ma’nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg‘u asboblarida chalish va musiqa ritmek jo‘r bo‘lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta’limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ma’lumki, musiqa o‘qituvchisi o‘quv tarbiya ishlarini baravariga olib boradi. O‘quvchilarni musiqa san’ati orqali tarbiyalashda o‘qituvchining yaxshi sozandalik mahorati, yaxshi ovozga ega bo‘lishi nota o‘qish, turli vositalardan oqilona va o‘rinli foydalana olishi, so‘z mahorati, o‘quvchilarni qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. Jonli ijro (cholg‘u asboblarda chalish, qo‘shiq kuylash) etilgan kuy- qo‘shiq sinfda o‘quvchilarga o‘zgacha ruhda ta’sir etadi, kayfiyatlarini ko‘taradi.

Musiqa o‘qituvchisi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o‘qituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholashga, o‘quvchilarni ichki tuyg‘u, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga o‘rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan -yettinchi sinfga qadar davom etadi. Bunda qo‘llanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik bolalar uchun qiziqarli va o‘ng‘aylik jihatlari aniqlanib boriladi.

O‘yin darslari juda xilma – xil shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Masalan, musiqiy cholg‘ular mavzusini o‘tganda o‘quvchilarga turli xildagi musiqa cholg‘u asboblari surati solingan kartochkalar beriladi. O‘qituvchi magnitafon yordamida biror bir milliy cholg‘u asbobida ijro etilgan musiqani eshittiradi. Oquvchilar o‘z navbatida musiqiy asar qanday cholg‘u asbobida ijro etilganligini qo‘llaridagi kartochkalar orqali ko‘rsatadilar. Eng faol qatnashgan va topqir o‘quvchilar baholanadilar va rag‘batlantiriladilar. Viktorina, konsert, bahs – munozara, kuyni top kabi darslar o‘quvchilarning nazariy va amaliy o‘zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda o‘tkaziladi. Dars

– sayohat esa ijodiy jamoalarga, turli madaniy – ma'rifiy tadbirlarga yoki bo'lmasa video tasma yordamida tabiat qo'yniga, shaharlarga musiqiy sayohat tarzida uyushtiriladi.

**Tarmoqlar (Klaster) metodi.** Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biror bir mavzuni o'rganishlariga yordam berib, mavzu haqida aniq fikr, tushunchani erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan tarmoqlashga o'rgatadi. Bu biron bir mavzuni chuqur o'rganish, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun yordam beradi. Mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.



# O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Abduraxmonova Aqida Ergashevna**
Furqat tumani 6-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail:abduraxmonova@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida innovatsion texnologiyalarning o‘rni va innovatsion texnologiyalardan foydalanishda ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, o‘qish darsi, innovatsion texnologiya, ta’lim samaradorligi.

Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishni yangi davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik fikrlashida o‘rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaryonida qo‘llashga oid tavsiyalar o‘qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan: o‘quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish. O‘zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olish, ishlatishga qaratilgan interfaol o‘qitish usullari tez suratlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O‘qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o‘quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruhlantirdi, natijada o‘quvchilar hamkorliik o‘rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to‘g‘ri va maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim tizimining rastional yo‘llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o‘quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishidan iborat. O‘quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l-atvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo‘lib, o‘qish, mutolaa qilish, chizma chizishni tushunib, bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, oldilariga qo‘yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlar o‘quvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o‘ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o‘zgarishning vatanparvarlik g‘oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko‘zda tutadi. Pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari mazmunli amalga oshirish uchun har bir o‘qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o‘stirishi, pedagogik texnologiyalari mustaqil o‘rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiya darslarning an’anviy darslardan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratilidi? O‘quvchiga hech qanday taziyiq o‘tkazmasdan,uni shaxsiyatiga tegmasdan, savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhiti yaratiladi. O‘quvchini ishlatish deganda, bir necha o‘quvchiga mavzularni bo‘lib berish orqali dars o‘tish emas balki, hamma o‘quvchilarni birgalikda ishlatilishni tushunamiz. O‘quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz. Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata boradigan kichik ixtiroday o‘tishi zarur. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o‘zini ko‘rsata olish, nimalarga qodirligini isbotlay olish juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. Sinfingizda “maqtanchoqlar kuni”ni e’lon qiling. Unda har bir bola o‘z ijodiy ko‘nikmalarini va yutuqlarini oladi. Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo‘llagan ota-onalar va bolalar ularning foydali tomonlarini sinfdan tashqari o‘tkazilgan tadbirlar va ota-onalar majlislarida o‘z tasdig‘ini topishga yordam beradi. 1-sinflardagi mashg‘ulotlarni tasavvur yordamida sirli bilimlar mamlakatiga tugamas sayohat tarzidada tashkil qilish mumkin. O‘quvchilar dastlabki xayolot usullarini o‘rganiladi va ertaklar

yuzaga keladi. O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini etarli darajada o'zlashtirgan bo'lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib ularning bo'linmalari va nima uchun xizmat qilishini o'rganish uchun dastlabki qadamlarni qo'yilishi kerak. 2-sinfda o'quvchilar dars mavzusi bilan bog'liq tayanch so'z va tushunchalar asosida kichik o'quv hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo'lishlari kerak. Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish ularning qanday bo'limlardan tuzilganini qanday xususiyatlarga va belgilarga ega ekanligini nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog'liqligini anglab etishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi «Nasaf», 2000-yil
2. Rozikov O., Og'ayev S., Maxmudov A, Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – Toshkent «O'qituvchi» 1999-yil
3. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalq ta'limi», 1999-yil
4. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003-yil
5. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A, Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUYUK ALLOMALAR IJODINI O‘RGANISH METODIKASI

**Ahmedova Mahliyo Ro‘ziboy qizi**
Samarqand Davlat Universitetuti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yunalishi 2- kurs Magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda o‘tmish mutafakkirlarining shaxsi va asarlariga oid mavzulardan foydalanib, o‘quvchiga tushunarli qilib yetkazib berish haqida fikr yuritgan.

**Kalit so‘zlar:** Irodali inson, pedagog, o‘quvchi, uslub, savodxonlik, interaktiv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Boshlang‘ich ta’limda buyuk ajdodlarimizni faoliyatlarini bolalar qalbi va ongiga singdirish vositalari juda ko‘p, albatta. Ulardan eng asosiysi badiiy adabiyot hisoblanadi, badiiy adabiyot orqali bolalar qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat vatanga sadoqat, ezgulik, fidoiylik, mardlik kabi tuyg‘ular singdirilib, ular ushbu ma’naviy-axloqiy muhitda tarbiyalanadi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-marifiy o‘zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e’tirof etgan inson ma’naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o‘quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko‘rsatadi. Madaniy merosimizga o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shgan allomalarimiz Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar ijodini o‘rganish kelajak avlod uchun katta ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning har biri jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo‘shib kelgan. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarlari ma’naviyat durdonalaridan biridir. Shu o‘rinda “qomusiy” so‘zini qo‘llaganimiz tasodifiy emas. Har bir yaratilgan asar o‘quvchini, kitobxonni bir yo‘nalishda tarbiyalaydi. “Qutadg‘u bilig” asari esa davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-rusumlarini, axloqiy prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan, qomusiy asar sifatida yuzaga keldi. Bu asar didaktik yo‘nalishga ega bo‘lib, unda davlatni idora qilish usullari, oddiy xalqdan tortib oliy darajadagi mansab egalari elikxonlargacha — olim, shoir, dehqon, chorvador, kosib singari ko‘plab tabaqa, toifa, ijtimoiy guruhlarning fe’l-atvori qanday bo‘lishi lozimligi, davlat qurilishi, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, umuman, siyosiy-ijtimoiy, moddiy-ma’naviy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar o‘sha davr talabi nuqtayi nazaridan yo‘l-yo‘riqlar badiiyat qonunlari asosida tavsiflangan. Yusuf Xos Hojib o‘z zamonasining donishmandi, mutafakkiri, ilg‘or fikrli faylasufi edi. U o‘z asarida ilm-fan, bilim va zakovatga alohida e’tibor bilan yondashadi:

Biligsiz kishi bir yemishsiz yig‘ach, Emishsiz yig‘achig‘ neku qilsu ach.

(Bilimsiz kishi bir mevasiz yog‘ochdir, Mevasiz yog‘ochni och kishi nima qilsin). Bu ifodalarning ixcham, lo‘nda, samimiyat bilan yo‘g‘rilganligi e’tiborni tortadi.Ifodaning ravonligi, tilga olinayotgan hodisaning tabiiyligi, bevosita kundalik turmush bilan zich bog‘lanib ketganligi ham uning ta’sir kuchini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, bilimli inson qilib tarbiyalash vazifasi ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinflarda ta’limni to‘g‘ri uyushtirish, xususan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning nutqini talab darajasida o‘stirish bilan o‘zaro bog‘liq. So‘z zahirasi boy o‘quvchining fikrlash doirasi keng, ma’naviyati yuksak, o‘qish-o‘rganishga ishtiyoqi baland bo‘lishi tabiiydir. Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslari orqali o‘quvchilarda savodxonlik sifatlari shakllantiriladi, kitobga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi uyg‘onadi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari kengaytiriladi, nutq va tafakkuri oshadi. Nutq tarbiyasida “matn” ham markaziy tushuncha hisoblanadi. Zero, umumiy o‘rta ta’lim maktabida nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlarning pirovard maqsadi o‘quvchini o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda erkin bayon qilishga o‘rgatishdir. Bola kichik yoshida ta’sirchan, atrofdan kelayotgan barcha ma’lumotlarni tez qabul qiluvchi bo‘ladi. U nimani eshitsa, eshitganicha talaffuz qilishga va uni, nutqida qo‘llashga intiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv yili boshidanoq nutq doirasini aniqlab, nutqidagi nuqsonlarni bartaraf

etish choralarini koʻrish va ular ustidan ish olib borish lozim. Soʻz boyligi oʻquvchilarga barcha fanlardan beriladigan bilimlarni tez va puxta oʻzlashtirib olish hamda ta'lim dasturlarida koʻzda tutilgan koʻnikma-malakalarni oʻzlashtirishga zamin yaratadi. Oʻquvchilarning oʻqish malakalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, nutqini oʻstirish talabi zaminida, nutq madaniyati turadi. Farzandlarning ma'naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berib kelingan. Shunday ekan, oʻquvchilar nutqini oʻstirishga yoʻnaltirilgan amaliy vazifalar hal etilishi lozim. Shu oʻrinda 1-sinf oʻqish kitobini "Biz-buyuklar avlodi" boʻlimi orqali birinchi boʻlib yozuvchi Muhammad Alining "Amir Temur" bobomiz haqida ibratli matn berilgan boʻlib, undan soʻng Amir Temur oʻgitlari oʻquvchilarga aniq va tushunarli holda bayon etilgan. Boʻlimdagi mavzularni oʻtishda quyidagicha usullarni qoʻllashimiz mumkin. Oʻquvchilar buyuk mutafakkirlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Bobur Mirzo va Amir Temur nomlarini esda saqlab qolishlari lozim. Agar oʻquvchilarni boshlangʻich sinfdan boshlab ma'naviy dunyoqarashini shakllantirar ekanmiz, birinchi navbatda ularning qiziqishlarini, bilish darajasini hisobga olishimiz kerak. Ma'lumki boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yoshi 7–11 yoshni tashkil etsa, ularning oʻyin faoliyatiga boʻlgan qiziqishi 75–80 foizni tashkil etadi. Shu oʻrinda oʻquvchilar ma'naviy dunyoqarashini oʻstirish va barkamol inson qilib voyaga yetkazishda quyidagi gapga ahamiyat qaratish lozim:

− oʻquvchilar ma'naviy dunyoqarashini oʻstirishda mavzularni, ma'naviy tushunchalarni bir-biri bilan chambarchas bogʻliq tarzda oʻrgatib borish.

−ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda oʻqish darslarida berilgan oʻtmish mutafakkirlarining asarlariga oid mavzulardan keng foydalanish va oʻquvchiga tushunarli qilib yetkazib berish. − oʻquvchilarning mavzularni oʻzlashtirishlariga, mustaqil fikrlashlariga erishish choralarini topish.

− har bir darsga ijodiy yondashish.

− darsda turli usullardan, interaktiv metodlardan, ilgʻor pedagogik texnologiyalardan, oʻrinli va maqsadga muvofiq foydalanish.

− turli didaktik oʻyinlar bilan oʻquvchilarni mavzuni oʻrganish va oʻzlashtirishga qiziqtirish.

− metodik yangiliklardan va pedagogik tajribalardan har doim boxabar boʻlib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Har bir o'qituvchining eng birinchi asosiy vazifasi :

sifatli dars oʻtib, yaxshi tarbiya berish ekanligini, darsning muqaddasligini mas'uliyat bilan anglashi lozim. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga koʻtarishni talab etmoqda. Bu oʻz oʻrnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, oʻqituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib boʻlmaydigan bir haqiqat bor — qilingan barcha say-harakatlar oxir-oqibat oʻqituvchi mehnati orqali oʻz natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorugʻ kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlilik, koʻrsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish talab etiladi.

Boshlangʻich ta'limda «,Alisher Navoiyning dostonlari tarkibidagi qator ibratli hikoyalar: "Donolar donosi","Sher bilan Durroj", "Ikki vafoli yor", "Bir kabutar", "Hotam toyi" kabi hikoyalari, "Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz", "Oz-oz oʻrganib dono boʻlur", "Bilmaganin soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻramagan oʻziga zolim" kabi hikmatli soʻzlari bolalarga turmushda, jamiyatda, oʻz jamoasida yurish-turishning toʻgʻri qoidalariniegallashida, ularda ijobiy fazilatlarning shakllanishida katta yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, boshlangʻich sinflarda maktab ta'limining yetakchi predmetlaridan boʻlgan oʻqish darslari orqali olingan bilimlar poydevori quriladi. Oʻquvchilar ma'naviy dunyoqarashini oʻstirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, ilgʻor pedagogik texnologiyalardan oʻz oʻrnida va maqsadga muvofiq foydalanish, oʻqish-oʻqitish ishlarida samarali natijalar beradi. Pedagog va oʻquvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning oʻzlashtirilishini osonlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Sariyev Sh. Ma'naviyat koʻzgusi. Oʻquvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlangʻich ta'limning oʻrni. — T.: "TDPU", 2009. — 250 b.
2. www ziyonet.uz

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMIY O‘YINLARNI TASHKILLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH.

**Axmedova Gulmira Ro‘zmetovna**
Xorazm viloyat Bog‘ot tumani
26-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarini didaktik o‘yinlar orqali olib haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yinlar, matematika, bilim, ko‘nikma, ta’lim, malaka.

Ma’lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatiga o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti – o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. O‘yin – bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atof – muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik his – tuyg‘ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatiga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar 2 xil tasnifga egadir.

1.Mazmuniga ko‘ra:

a) Tinch o‘yinlar:

b) Harakatli o‘yinlar;

s) Aralash turdagi o‘yinlar.

2. Amalga oshirish shakliga ko‘ra:

a) Musobaqali o‘yinlar;

b) Sahnali o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlarni xilma – xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra 4 omilni o‘z ichiga oladi: 1.O‘yinning vazifasi. 2. O‘yinning harakati. 3. O‘yinning qoidasi. 4. O‘yinning yakuni.

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan,

**ishoralar o‘yini**. O‘yinning maqsadi: Bir amalli masalalarni og‘zaki yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘yinning jihozi: “+”, “-” belgilari. O‘yinning borishi: O‘qituvchi masalani o‘qiydi, o‘q’uvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo‘lsa, o‘sha ishorani ko‘rsatadilar.

1. Begalining 3 ta qora va 5 ta qizil qalami bor. Hammasi bo‘lib nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?
2. Matematik Farruhda 5 ta daftar bor edi. 3 tasini akasi rassom Abduqodirga berdi. Farruhda nechta daftar qoldi?

Mustahkamlash: O‘qituvchi “+”, “-” qo‘shish, ayirish belgilari qachon qo‘shilishini so‘rab, ularning bilimini mustahkamlaydi. Yuqoridagi fikrlardan so‘ng, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida o‘tkaziladigan ayrim didaktik o‘yinlardan namunalarni ko‘rib chiqamiz.

**Jim o‘yini.** O‘yinning maqsadi – o‘quvchilar o‘n ichida “+”, “-” belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish hamda sinash. O‘yin guruhlarda o‘ynaladi. Raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar va jadvallardan o‘yin jihozi sifatida foydalaniladi. O‘yinning borishi: O‘yin ovoz chiqarmagan holda o‘tkaziladi. O‘qituvchi ko‘rsatgich bilan 7 va 5 ni ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘ylab 2 yozilgan tarqatmani ko‘rsatadilar.

**“Bilmasvoyning xatolari” o‘yini.** O‘yinning maqsadi – o‘quvchilar o‘n ichida “+”, “-” ishoralari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bilim va ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish hisoblanadi. O‘yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan

bittadan o‘quvchi doskaga chiqadi va xatolarni tuzatadi.

10-7=4 10-3=6 7-3=5

3+2=6 4+3=8 4+1=6

**“Kim epchil” o‘yini.** O‘yinning maqsadi – hozirjavoblik, topqirlik, malakalarini oshirish hisoblanadi. O‘yin jihozi esa 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar. 12-6, 2+8, 7+5, 4+8, 10-3va hakozo. Stol ustida “olmalar” yozib qo‘yiladi. Doskaga 2 o‘quvchi chiqadi. Stol ustidagi “olmalar”dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to‘g‘ri topmagan o‘quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o‘quvchi savatga ko‘p “olma” tergan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib chiqadi.

**“Zukkolar” o‘yini**. O‘yinning maqsadi – ko‘paytirish va bo‘lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash hisoblanadi. O‘yin jihozi esa 3 ta bayroqcha. O‘yinning borishi: Qatorlararo o‘tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o‘quvchilar soniga teng bo‘linadi. O‘qituvchi har bir qatorning oxirida o‘tirgan o‘quvchiga bayroqchani beradi. O‘qituvchi son aytadi. Masalan, 1-qatorda 6 soni, 2-qatorda 4 soni, 3 qatorga 5 soni. Bayroqchani olgan o‘quvchi 6*1=6 deb bayroqchani oldingi partadagi o‘quvchiga uzatadi. 12*2=24, 24:3=8, 8*5=40, 40:4=10.

O‘quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo‘ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o‘quvchi 6 soni hosil bo‘ladigan ifoda bilan o‘yinni yakunlashi kerak bo‘ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o‘sha qator g‘olib bo‘ladi. G‘olib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar yozib qo‘yiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1. Qurbonov. Didaktik o‘yinlar. Xorazm viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Urganch, 2011.

2. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005.

3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008.

# O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI

**Babanazarova Umida Jumabayevna**
Bog‘ot tumani 6-son maktabning fransuz tili
o‘qituvchisi Telefon: +998 (94) 311-37-76
babanazarova_6@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bilim, ko‘nikma va malakalarida bo‘shliqlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik mahorati, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, boshqaruv, oshkora axborot almashish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo‘lgan talablar kompleksini belgilaydi. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o‘quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta’lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi. Ma’lumki, inson har doim o‘sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to‘g‘ri tushunishlari lozim. Har bir o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta’sirida amalga oshiradi.

O‘qituvchining faoliyatiga ta’lim muassasidagi bugungi sharoit hamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarli amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli tasir qiladigan odamlar guruhi bo‘lgan pedagogik jamodagi shakllangan ta’limiy muhit o‘z hukmini o‘tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo‘lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Foyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma’naviy va boshka jabhalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani tayinlangan rahbar boshqaradi. Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta’sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog‘lik bo‘lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, «boshqaruv» tushunchasi, «rahbarlik» tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatidaqator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy- pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uninazorat qilishni amalga oshiradi va xokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh o‘qituvchining o‘zi tanlagan kasbga mehr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlanishiga ko‘p qirrali ta’sir qiladi. O‘z navbatida rahbar jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatda, maqsadga intilishda, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo‘lishi zarur, bundan jamoaning xar bir a’zosi o‘ziga xos ta’sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o‘zaro ta’sirning ikki yo‘nalishini, o‘qituvchining jamoaga va jamoaning o‘qituvchiga ta’sirini va bu o‘zaro ta’sir ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

O‘qituvchining jamoaga ta’siri uning obro‘si, bilimi, dunyokarashi, o‘zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o‘z fanini puxta bilishi, o‘quvchilar bilan munosabati, o‘z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi, faolligi va tashabbuskorligi singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning obro‘si deganda o‘qituvchining mutaxassis sifatida jamoa tomonidan tan olinishi, sub’ektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob’ektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda o‘qituvchining bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko‘ra ko‘proq ko‘zga tashlanishiga va obro‘ orttirishiga sabab bo‘ladi. Obro‘ga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo‘ladi, jamoada uning fikr-muloxazalariga quloq soladilar, undan maslahat so‘raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro‘ orttirishda shaxsiy sifatlarning o‘zigina yetarli bo‘lmay, u yoki bu o‘qituvchi haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ham o‘qituvchining jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo‘k, bu esa jamoaning o‘qituvchiga bo‘lgan ta’siridir. Ya’ni, jamoa o‘qituvchining ayrim sa’yharakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamoa bilan o‘qituvchining o‘zaro ta’siri ikki xil, ya’ni ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijobiy ta’sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta’lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, o‘qituvchilarning muvaffaqiyati hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, o‘qituvchining ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o‘z ismini boshliqdan eshitish yoqimli bo‘lishini esda tutishi) zarur. O‘qituvchiga nisbatan diqqat-e’tiborli bo‘lish, suhbatdoshini o‘zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho‘chimaslik, o‘qituvchiga uning jamoa uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir o‘qituvchining kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e’tirof etish kabi rahbarlikning eng maqbul uslublarini o‘z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Talim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe’l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo‘lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo‘ladigan o‘qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo‘lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ta’lim muassasasiga yangi kelgan yosh o‘qituvchilar jamoadagi tajribali o‘qituvchilarning faoliyatini, ularning o‘z funksional vazifasiga bo‘lgan munosabatini va u yerdagi shart-sharoitlarni to‘la o‘rgangunga qadar turlicha tasavvurga ega bo‘ladilar. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» deganlaridek, yosh o‘qituvchining ta’lim muassasasidagi shart-sharoitlarni, mazkur ta’lim muassasasida o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarni hamda yuklatilayotganvazifalarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko‘nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyatini va ularning o‘z ishlariga bo‘lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei hamda qo‘l ostidagilar bilan munosabatlarini o‘rganib, tahlil qilib, ijobiy xulosa chiqargan holda o‘z ustida ishlashi, izlanishi, tajriba opttirib borishi uchun mazkur ta’lim muassasasida qulay ta’limiy muhit hukmdor bo‘lishi zarur, aksincha yosh o‘qituvchilar loqayd bo‘lib qolishi mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina yosh o‘qituvchilar ancha vaqtgacha ta’lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo‘lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishmoqda. Buning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim ta’lim muassasalarida jamoaning yosh o‘qituvchilar bilan o‘zaro ta’siri (salbiy hususiyatlarga ega bo‘lib, rahbar va uning qo‘l ostidagi xodimlar yosh o‘qituvchiga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. Yosh o‘qituvchining izlanishi, bilimi, o‘z faniga bo‘lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o‘quvchilar o‘rtasida tez obro‘topayotganidan xursand bo‘lish hamda uni rag‘batlantirish o‘rniga uning yoshligini ro‘kach qilib, turli xil arzimas sabablarni bahona qilib yig‘ilishlarda uyaltirish, obro‘sini tushirish uchun qilingan xatti-harakatlar ta’lim muassasasidan bezib ketib qolishlarga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. J. Shustereder (2014): Yevropa Ittifoqida va Markaziy Osiyoda O‘qituvchilar Siyosati.
2. Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2016): PISA 2015 natijalari: Muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar uchun strategiya va amaliyotlar (II Bob).
3. Ulrich, D., Zenger, J. and Smallwood, N. (1999): Results-Based Leadership.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA YANGI INTERFAOL METODLAR TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Baratova Rokabodom Sotivoldiyevna**
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
33-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Baratova_school33@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun interfaol metodlar yordamida dars o'tish orqali ularda ta'lim sifatini oshirish, eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, faol metod, sayohat metodi,

Ushbu metodlarni ko'rib chiqishdan oldin quyidagi savollarga javob beraylik:

Faol ta'lim usullari qanday?

Ta'limning faol usullari "o'qituvchi = o'quvchi" o'zaro munosabatlar sxemasi asosida quriladi. Nomidan ko'rinib turibdiki, bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida teng ishtirok etishini anglatadigan usullar. Ya'ni, bolalar darsning teng ishtirokchilari va yaratuvchilari sifatida harakat qilishadi.

O'qitishning interaktiv usullari qanday?

Shunday qilib, "o'qitishning interaktiv usullari" tushunchasini aniqlaylik.

Interaktiv: ingliz tilidan. ("Inter" - "o'zaro", "harakat" - "harakat").

Shunday qilib, so'zma-so'z tarjima interaktiv usullarni bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishni o'rganish usullari sifatida bildiradi; va interfaol ta'lim - bu barcha talabalar, shu jumladan o'qituvchining o'zaro ta'siriga asoslangan ta'lim.

Ushbu usullar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga eng mos keladi, chunki ular birgalikda ta'limni (jamoaviy, birgalikdagi ta'lim) o'z ichiga oladi va talaba ham, o'qituvchi ham ta'lim jarayonining sub'ektlari hisoblanadi. Interfaol usullar "o'qituvchi = o'quvchi" va "o'quvchi = o'quvchi" o'zaro munosabatlar sxemalariga asoslangan. Ya'ni, endi nafaqat o'qituvchi bolalarni o'quv jarayoniga jalb qiladi, balki o'quvchilarning o'zlari ham bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lib, har bir talabaning motivatsiyasiga ta'sir qiladi. O'qituvchi faqat yordamchi rolini o'ynaydi. Uning vazifasi bolalarning tashabbuskorligi uchun sharoit yaratishdir. Interfaol ta'lim usullari va metodlari

Aqliy hujum - bu savolga javoblar oqimi yoki berilgan mavzu bo'yicha takliflar va g'oyalar bo'lib, unda bo'rondan keyin to'g'ri / noto'g'riligini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Klasterlar, taqqoslash jadvallari, boshqotirmalar - ma'lum bir mini-mavzu bo'yicha kalit so'zlar va masalalarni qidirish.

Audio va video materiallar, AKTdan foydalangan holda interaktiv dars. Masalan, onlayn testlar, elektron darsliklar bilan ishlash, o'quv qo'llanmalari, o'quv saytlari.

Davra suhbati (munozara, munozara) - bu o'quvchilar tomonidan muammoni jamoaviy muhokama qilish, takliflar, g'oyalar, fikrlar va birgalikda echim izlashni o'z ichiga olgan usullarning guruh turi.

Ishbilarmonlik o'yinlari (shu jumladan rol o'ynash, taqlid qilish, teshik o'yinlari) juda mashhur usuldir, hatto boshlang'ich maktabda ham foydalanish mumkin. O'yin davomida talabalar ma'lum bir vaziyatda ishtirokchilar rollarini o'ynaydilar, turli kasblarga harakat qilishdi.

Akvarium biznes-o'yin turlaridan biri bo'lib, realiti-shouni eslatadi. Bunda berilgan vaziyat 2-3 ishtirokchi tomonidan kaltaklanadi. Qolganlari yon tomondan kuzatadilar va nafaqat ishtirokchilarning harakatlarini, balki ular tomonidan taklif qilingan variantlar va g'oyalarni ham tahlil qiladilar.

Loyiha usuli - bu talabalar tomonidan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda loyihani ishlab chiqish va uni himoya qilish.

BarCamp yoki anjumanga qarshi. Usulni veb-usta Tim O'Rayli taklif qildi. Uning mohiyati shundaki, har bir kishi konferentsiyaning nafaqat ishtirokchisi, balki tashkilotchisi ham bo'ladi. Barcha ishtirokchilar ma'lum bir mavzu bo'yicha yangi g'oyalar, taqdimotlar, takliflar bilan chiqadilar. Bundan tashqari, eng qiziqarli g'oyalarni qidirish va ularning umumiy muhokamasi amalga oshiriladi.

Darsda oʻqitishning interaktiv metodlariga mahorat darslari, fikrlar koʻlamini yaratish, soʻzlar - formulalar, qarorlar daraxti ham kiradi.

Oʻqitishning barcha faol va interaktiv usullari Davlat Ta'lim Standartida bayon etilgan asosiy vazifani hal qilish uchun moʻljallangan - bolani oʻrganishga oʻrgatish.

Sinfda boshlangʻich maktabda interfaol shakllar va oʻqitish usullaridan foydalanish zarur, chunki ular sizga materialni tushunarli, qiziqarli, jonli va xayoliy shaklda oʻqitishga, bilimlarni yaxshiroq oʻzlashtirishga hissa qoʻshishga, bilishga qiziqishni uygʻotishga va kommunikativ, shaxsiy, ijtimoiy va intellektual vakolatlarni shakllantirishga imkon beradi.

Interaktiv didaktik materiallar turli xil vazifalarni oʻz ichiga oladi:

testlar;

yozishmalar yoki naqshlarni oʻrnatish uchun mantiqiy vazifalar;

matnni tiklash;

"ortiqcha tushuncha" ta'rifi toʻgʻrisida;

krossvord va filvord kabi oʻyin vazifalarini ishlab chiqish.

Barcha vazifalar quyidagilarga yoʻnaltirilgan:

Talabalarda erkin fiklashni shakllanishi toʻgʻrisida;

mantiqiy fikrlash asoslari;

mavzuni oʻrganishda olgan bilimlarini kundalik hayotda qoʻllash boʻyicha dastlabki tajribani toʻplash.

Elektron simulyatorlar talabalarga topshiriqlarni takroriy bajarish imkoniyatini beradi, bu esa materialni puxta oʻzlashtirishga yordam beradi, mavzuga qiziqishni uygʻotadi va bilish faoliyatini faollashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:**

1. Boshlangʻich sinflarni oʻqitish metodikalari. Namdu 2003
2. Interfaol metodlar. Boshlangʻich sinf jurnali 2020-yil sonlari
3. Boshlangʻich ta'lim fanidan ma'ruzalar matni. Namdu 2005
4. Internet ma'lumotlari.

# BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALAISH

**Boboqulova Venira Ne'matillayevna**
Toshkent shahar Yangihayot tumani
331- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: 998 90 916 07 13

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Didaktik o'yinlar asosida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda darsni jonli, qiziqarli o'tishini ta'minlashi mumkin. Ushbu maqolada matematika darslarda qo'llaniladigan bir nechta didaktik o'yin namunalarini tavsiya etmoqchiman.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, metod, ta'limiy o'yinlar, fikrlash qobiliyati, mustaqil izlanish.

Ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'quv, reja, dastur, darslik, standart, me'yor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi. Quyida matematika darslarida o'tkaziladigan ayrim didaktik o'yinlardan namunalar keltiriladi.

**"Jim o'yla!" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi.

**O'yin sharti**: ovoz chiqarmasdan ishlash! Tartibni ham o'rganadi o'quvchi.

**O'yin jihozi:** Raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval.

**O'yinning borishi:** Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O'yin ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab, "+" belgi uchun 9 raqamini, "-"belgi uchun 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar.

**"Xatoni top" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** o'quvchilarning o'n ichida "+", "-"ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

**O'yinning borishi**: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

10-7=4 10-3=6 7-3=5 3+2=6 4+3=8 4+1=6

**"Kim epchil" o'yini.**

**O'yin maqsadi**: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish.

**O'yin jihozi**: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8;... Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

**"Zukkolar" o'yini.**

**O'yinning maqsadi**: Ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. **O'yin jihozi**: uchta bayroqcha.

**O'yinning borishi**: Qatorlararo o'tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bo'linadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirida o'tirgan o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi. Masalan: 1- qatorga 6 soni, 2-qatorga 4 soni, 3-qatorga 5 soni.

Bayroqchalarni olgan o'quvchi 6 *1= 6 deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi.

12 * 2 = 24 ; 24 : 3 = 8 8 *5= 40 : 40: 4 = 10 O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo'ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o'quvchi 6 soni hosil bo'ladigan ifoda bilan o'yinni yakunlashi kerak bo'ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o'sha qator g'olib bo'ladi. Go'lib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar biriktirilib qo'yiladi.

**"Bu qaysi shakl ?" o'yini.**

**O'yinning maqsadi:** Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish.

**O'yin jihozi**: Konvertlarga solingan geomatrik shakllar.

**O'yinning borishi**: Doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. "Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomoni uch burchagi bor, uning tomonlari har xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?".

Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

"**Kosmos bahodiri kim?" o'yini.**

**O'yinning maqsadi:** 1) O'quvchilar kasb tanlashga qiziqtirish.

2) O'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatish.

**O'yin mazmuni**:Sinf taxtasi yoniga liar bir guruhdan bittadan uchta o'quvchi chiqariladi. Ular bittadan kartochka olishadi. Kartoclikalarning to'rt amal ichida misol yozilgan bo'ladi. Qaysi o'quvchi o'z qo'lidagi misollarni tez va to'g'ri bajarsa, shu o'quvchi fazogir, ikkinchi bo'lib bajargan o'quvchi uchuvchi va oxirida bajargan o'quvchi esa haydovchi sanaladi.

**"Mohir hisobchi" o'yini.**

**O'yinning maqsadi**: O'quvchilarda tez hisoblash malakalarini hosil qilish.

**O'yin mazmuni**: Sinf taxtasiga uchta ustundan iborat to'rt amal qatnashgan misollar yoziladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqadi. Har bir o'quvchi tegishli ustundagi misolni yechadi. Qaysi o'quvchi oldin yechib bo'lsa, uning ishi tekshiriladi. Agar to'g'ri yechgan bo'lsa. mohir hisobchi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, didaktik o'yinlar asosida o'qituvchi darsda ko'zlangan maqsadga oson erishadi, o'quvchilar esa tezkorlikka, mustaqil ishlashga, hamjihatlikka, ijodkorlikka o'rganishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: 2004

2. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: 2003.

# BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Boboyorova Laylo Furqat qizi**
Navoiy viloyati Xatirchi tumani
34-umumta’lim maktabining
ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dastuming eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlami tayyoriash va qayta tayyoriash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu - pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ulaming maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlami shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur..”[1] ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

**Kalit so‘zlar.** Psixologiya, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kasbiy mahorat, ilg‘or texnologiya, kasbiy kompetensiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dastuming eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ‘Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb nomlangan ma’ruzasida: ta’limning yangi zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish..., bu boradagi dolzarb vazifalami amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani... alohida ta’kidlab o‘tildi.

0‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos yo’lini tanlashi mutaxassislar tayyoriash tizimi va uning mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va bir qator chora- tadbirlar ko‘rishni, shu jumladan, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni joriy etish, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqish, o‘quv- tarbiyaviy jarayonni, ilg‘or o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassalalarini tashkil etish hamda eng asosiysi «Kadrlar tayyoriash milliy dasturi» ni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etishni taqozo etdi.

O‘qituvchi barkamol avlod taiim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs boiib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘mak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlami tayyoriash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish, o‘qituvchi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi zamin bo‘libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yolida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogic faoliyatga qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or texnologiya va innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda. Lekin o‘qituvchilar bu yangiliklarni aksariyat hollarda o‘z faoliyatida qo‘llay olmayaptilar. Chunki o‘qituvchilarning asosiy qismi ta’limdagi innovatsion jarayonlarga tayyor emas. Shu sababli o‘qituvchilarni qayta tayyoriash va malakasini oshirish, ularga ko‘rsatiladigan metodik xizmatni yangicha, ijodiy yondashib tashqil qilish ta’lim tizimining amaliy ehtiyojini ta’minlovchi asosiy vositaga aylanmoqda. O‘qituvchilaming pedagogik faoliyatini yangilash, innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalami kiritishga tayyoriash zarurati paydo bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari taxlili

Jamiyatimizning ma’naviy yangilanishi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivormezon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

«Kadrlar tayyoriash milliy dasturi»ni ishlab chiqishning asosiy omillaridan biri, respublikamizning demokratik va huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatqurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi; davlat ijtimoiy siyosatida shaxsmanfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi; milliy o‘zlikni anglashning o‘sibborishi, vatanparvarlik, o‘z vataniga iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boymilliy madaniy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosigahurmatning ortib borayotganiigidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach mamlakatimiz xalqi oldida iqtisodiy va ma’naviy mustaqillikka ham erishish vazifasi kun tartibigaqo‘yildi. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi sifatida, umumiyta’lim maktablari va o‘qituvchilarining maqsadi - har bir bolada mavjud bo‘lganqobiliyat va layoqatlami erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy- ma’naviy, madaniy, qadriyatlami o‘rganish, yuksak axloqiy fazilatlarni, fuqarolik burchini, milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirish, yoshlami mehnat faoliyatiga, mustaqii hayot kechirishga yo‘naltirishdan iborat.

Hozirgi davr taraqqiyotidan kelib chiqsak O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tobora rivojlanmoqda, o‘qituvchi kadrlar tayyoriash saviyasi davlatimiz’ko‘rsatmalariga muvofiq ravishda ortib bormoqda.

Ta’lim - tarbiyada o‘qituvchi - murabbiylaming pedagogik mahoratini mukammal egallashi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois jahonning barchaohy o‘quv yurtlarida bu masalaga alohida yondashuv amalga oshirilmoqda.O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalami o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun -qoidalar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar bayon etiladi.

Shuning uchun ham mustaqii O‘zbekiston davlatining umumiy ta’lim maktabida ishlaydigan o‘qituvchi:

- pedagogik faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlami, dunyoviy bilimlami mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol:
- O‘zbekistonning mustaqii davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e’tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, .psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlami mukammal egallagan;
- o‘qituvchilik kasbini va bolalami yaxshi ko‘radigan, har biro‘quvchisi ulg‘ayib yaxshi odam bo‘lishiga chin ko‘ngildan ishonadigan, ulaming

shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;

- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog‘I darkor.

Pedagogik, o‘qituvchilik faoliyatini, yoshlami o‘qitish va tarbiyalash ishini

samarali bajarish, ota - onalar va bolalaming izzat - hurmatiga sazovor bo‘lishuchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo‘lmog‘i lozim. Boshqakasblar kabi o‘qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatgalayoqatli, .bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmli kishilami tanlab olishkerak.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi awalo sog‘lom bo‘lishi, so‘zlami to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo‘lishi darkor. Shuningdek, bolalami yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqat qila olishi, xushmuomalaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o‘ziga va boshqalarganisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko‘rsatadi. Busifatlar kishida bor- yo‘qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og‘zakiva yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

«Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta’lim tizimi yosh avlodni barkamol ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir» - deyiladi. Kadrlar tayyoriash milliy dasturida.

Umumiy ta’lim, jumladan, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilami o‘rta ta’lim bosqichiga tayyoriash bilan birga ularda o‘qish, mehnat qilish, tashabbus ko‘rsatish, mustaqii faoliyatni egallash kabi sifatlami taraqqiy ettirish kabilar ham amalga oshirilmoqda.

Ta’lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat standard talablari asosida hamda ta’lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun awalo o‘qituvchilar, murabbiylar shaxsini har tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’suliyati katta, u umumiy ta’lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Barcha yaxshi ishlar, bolani ezgulikka yetaklash, o‘qituvchining pedagogic mahoratiga ko‘p

jihatdan bog‘liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu Ali Ibn Sino o‘zining «Tib qonunlari» asarida shunday fikr bayon qiladi: «O‘qituvchining barcha xatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo‘lmogT lozim».

Ezgulik awalo bola qalbiga yo‘l topishdan boshlanadi. U bilan hamkor, hamnafas bo‘lish, beg‘ubor qalb egasini hurmat qilish, hohish •- istaklariga befarq bo‘lmaslik, bir so‘z bilan aytganda bolajon bo‘lish zamr.

Yangilanayotgan boshlang‘ich ta’limda davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta’minlanishi lozim.

Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlami keng ko‘lamli olib borilishi kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklami qabul qilish doirasi keng, undan to‘g‘ri samarali foydalanish esa o‘qituvchilaming, tarbiyachilaming vazifasidir. Respublikamiz hukumati xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yoyatgan

vazifalami bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida ta’lim - tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilaming xilma - xil faoliyatini uyushtirish, ulami bilimli, odobli, e’tiqodli, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

O‘qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o‘z-ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega: Birinchidan, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan;

Ikkinchidan, o‘qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchilaming birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

1. Mahoratli o‘qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta’lim - tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma’lum vaqt ichida unga erishishni ta’minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to‘g‘risida xulosaqilishi mumkin bo‘lsin.

2. O‘qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to‘g‘ri keladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o‘quv dasturi bo‘yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o‘z pedagogik mahoratni ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqii ravishda kengaytirib borish lozim.

—O‘qituvchi o‘z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog‘i, mustaqii ishlashini o‘rganmog‘i lozimll - degan edi A. Jomiy.

O‘z bilimlarini mustaqii oshirish uchun quyidagi bo‘limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etiladi.

1. G‘oyaviy - siyosiy saviyani oshirish.
2. Ilmiy - nazariy bilimni oshirish.
3. Metodik bilim va mahoratni oshirish.
4. Pedagogik va psixologik nazariyani yanada puxta o‘rganish.

O‘qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlaming xizmati katta. Metod birlashmalarda o‘qituvchilar fikr almashadilar: o‘zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o‘qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg‘or tajribalami keng ommalashtiradilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Azizxo‘jayev N.N “Pedagogik texnologiyalar ve pedagogik mahorat” Toshkent. 2006

2. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya- zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

3. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o‘rgatish darslari” T, “O‘qituvchi”1996 yil. 18. Abdullayeva Q. va boshqalar “2- sinfda o‘qish darslari”, T., 2004 yil.

# КИМЁ ФАНИДАН ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ МАСОФАВИЙ НАЗОРАТ ҚИЛИШДА ЭЛЕКТРОН ТОПШИРИҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

**Болтаева Гулсанам Хасановна**
ТФИ АЛ кимё ўқитувчиси

**Аннотатция:** Олтингугурт ва сулфат кислотанинг хоссалари ўкитишда ўқувчилар билимини масофавий назорат қилишда олтингугурт ва сулфат кислотанинг физикавий хоссалари, аллотропик шакл узгаришлари, борадиган реакциялар мохияти реакцияларда буладиган жараёнларни компютер воситалардан ахборот технологиялар: презентатциялар анимацион роликлар, видеоиловалар, аудиоиловалар фойдаланиб ўкитиш ва масофавий назорат қилиш машгулот самарасини ошириши тушунтирилган.

**Калит сўзлар:**аллотропия, моноклиник, пластик, ромбик

Ҳозирги кунда анъанавий таълим шакллари билан биргаликда биологияда масофавий таълим технологиялари жадаллик билан кенг жорий этилмоқда. Бу ҳозирги ёшларнинг, яъни янги авлоднинг кўпчилиги шахсий компьютердан эркин фойдалана олиши ва ҳозирги кунда ҳар бир таълим муассасаси, ҳар бир шахс интернет тармоғи ва ундаги маълумотлардан моҳирлик билан фойдаланишига боғлиқ бўлиши мумкин

Кимё фанини масофавий ўқитиш асосланадиган технологиялар турли босқичлардан ўтиб келмоқда, жумладан, телефон, факс, оддий почта, телевидение ва бошқалардан фойдаланилади. Бугунги пандемия шароитида кимё фанини масофавий таълим модели интернет-технологияларга асосланиб асинхрон ўқитиш режимида олиб борилмоқда. Бунда ҳар бир таълим олувчининг ўзи учун қулай бўлган турли вақтларда мустақил ўқиш шаклида амалга оширилади. Бундай ўқитишда таълим муассасасидан узоқда бўлган таълим олувчилар мустақил шаклда ўқув методик материаллар асосида таълим олишади ва уларда танқидий ва ижодий тафаккур, коммуникатив, креатив ва рефлексив қобилиятларни ривожлантиради. Асинхрон ўқитишда ҳар бир таълим олувчининг ўзи учун қулай бўлган турли вақтларда махсус ўқув порталга жойлаштирилган ўқув-методик материалларини мустақил ўзлаштиради ва ўзлаштирилган билимлари турли хил интерфаол ва амалий топшириқлар орқали назорат қилинади.

Пандемия шароитида академик лицейларда хам интернет-технологияларга асосланиб асинхрон ўқитиш режими ташкил этилган. Ўқувчиларга Анорганик кимё фанидан "Олтингугурт ва сулфат кислотанинг хоссалари " мавзусини ўқитиш модули таълим технологиясига асосланиб ўқувчилар билимини масофавий назорат қилишда қуйидаги электрон топшириқлардан фойдаланиш мумкин.

Ўқувчиларга топшириқ беришдан олдин "Олтингугурт ва сулфат кислотанинг хоссалари " мавзусига оид презентация тайёрланиб уларга тақдим этилади. Шу презентация асосида уларга қуйидагича топшириқлар берилиши мумкин.

**1.** Интернет маълумотларидан фойдаланиб олтингугурт ва сулфат кислотага оид илмий-фантастик мақолалар устида ишлаш. Бу вазифа ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш қобилиятини ошириш ва ўз устида мустақил ишлаш кўникмаларини ҳосил қилади. Илмий-фантастик маълумотлар устида ишлаш ўқувчиларнинг билим доирасини кенгайтиришга ёрдам беради.

**2.** Ўйлаб топ (эврика) топшириғи ўқувчиларнинг топқирлик даражасини аниқлаш учун юқоридаги мавзу доирасидан қуйидагича вазифа берилади.

| Олтингугуртнинг аллотропик шакл узгаришлари. | Тузилиши | Физик хоссалари. |
|---|---|---|
| Моноклиник | | |
| Ромбик | | |
| Пластик | | |

**3.** Сулфат кислотанинг металл, оксид, гидроксид ва тузлар билан реакциясини ўрганишда қуйидаги жадвал фойдаланилса мақсадга мувофиқ булади.

| | Cu | Zn | MgO | KOH | $Cu(OH)_2$ | $Ba(NO_3)_2$ | $CaCO_3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $H_2SO_{4(suyul)}$ | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| $H_2SO_{4(kons)}$ | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| $H_2S$ | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 |

Масалан: 1,2,8,9 холатларда содир буладиган кимевий жараёнларнинг реакция тенгламаларини езинг.

Ҳозирги замон кимё фани математика, тиббиёт ва қишлоқ хўжалиги, экология, фанлари қисман бир-бирига боғланган, яъни интеграцияланган. Бу дарслар ўқувчи тафаккурини ривожлантиради, солиштириш, турли фактларни таҳлил қилиш, хулоса ва якунлар чиқариш каби фикрлаш қобилиятларини шакллантиришга, мустақил фаолиятларида эса муаммоларни ҳал қилишга ижодий ёндошишга ёрдам беради.

Бундан ташқари, бу ҳол ўқувчиларнинг кўпгина тушунча таърифларини ёдлай олишларинигина тақозо қилмай, балки тушунчалар тизимини ўзлаштиришни талаб қилади.

Юқоридаги таъкидланган барча фикрлардан келиб чиқиб, кимёни ахборот технологиялари орқали масофавий ўқитишнинг таълим тизимида устунликлари қуйидагилардан иборат:

• турли хил даражадаги ўқув дастурларидан фойдаланиш имконини беради;

• таълим олувчининг билим олишга бўлган эҳтиёжини қондиришга, уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга хизмат қилади;

• таълим олувчига яшаш жойини ўзгартирмасдан, ишдан ажралмаган ҳолда ўқиш имкониятини яратади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. И.Р.Аскаров, Н.Х.Тўхтабоев, К.Ғопиров Кимё. 8-синф. Т.: «Тошкент», 2016.
2. htt://www. Ziyonet.uz
3. htt://www. kimyo.ru

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LUG'AT USTIDA ISHLASHNING METODIK JIHATLARI

**Dadajonova Zuhra Hasanboyevna**
**Mirzayeva Maloxatxon Mamaro'ziyevna**
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
55-sonli boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya**: maqolada boshlng'ich sinf o'quvchilarining lug'atini boyitish, faollashtirish usullari haqida fikr yuritilgan va maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi misollar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar**: lug'at, matnni o'qish, nutq o'stirish, lug'atni faollashtirish, maxsus mashqlar.

Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlash va o'quvchilar lu'atini boyitish muhim jarayon hisoblanadi. Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba vazifasini o'taydi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi. Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan bin lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1.O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlami, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlash-tirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagi-larni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadi-gan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4.Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va tako-millashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suh-bat vaqtida ularning bilimi

chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqcpniy, botir, mard, ja-sur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishla-tiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matchonov S va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service'1, 2008.

2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.

# MAKTAB O‘QUVCHILARIGA NATURAL SONLAR BILAN ISHLASHNI O‘RGATISH

**Eraxmedova Dilnoza Ikromjonovna**
Toshkent shahri Yangihayot tumani
331-sonli maktab matematika fani o‘qituvchisi
+998-99-813-09-47

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matkabda matematika darslarida natural sonlar bilan ishlash va ularni o‘quvchilarga sodda usullarda tushuntirish haqida fikrlarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Pedagogik tajribamdan kelib chiqib berayotgan fikrlarim va pedagogik tavsiyalarim o‘qituvchilar va matematika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun foydali bo‘ladi degan umiddaman.

**Kalit so‘zlar:** natural sonlar, pedagogik metod, koordinata nuri, ayirma, yig‘indi, tenglama

Sonlar raqamlar bilan belgilanadi, bizning sanoq sistema o‘nlik sistema bo‘lganligi uchun u to‘qqizta qiymatli va bitta qiymatsiz raqam bilan belgilanadi: 0, 1,2, 3,4, 5, 6, 7, 8, 9.

Matematika kursida 1, 2, 3, ... qatorini natural sonlar qatori, deb ataladi. Natural sonlar to‘plami quyidagi xossalarga ega:

1. Natural sonlar to‘plamining birinchi elementi 1 ga teng.
2. Natural sonlar to‘plamida ixtiyoriy natural sondan keyin keladigan va undan bitta ortiq bo‘lgan birgina natural son mavjuddir.
3. Natural sonlar to‘plamida 1 sonidan boshqa har bir natural sondan bitta kam bo‘lgan va bu sondan oldin keladigan birgina natural son mavjuddir.

Bu mavzuni tushuntirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga koordinata nurining har bir nuqtasiga bittadan natural son mos kelmasligini, ya’ni koordinata nuridagi nuqtalar to‘plamini ortib qolishini ko‘rgazmali asosda tushuntirishi lozimdir. Bu mulohazaga ko‘ra natural sonlar to‘plamini yanada kengaytirish va natijada yangi sonlar to‘plamini hosil qilish ehtiyoji zarur ekanligini o‘qituvchi yana bir marta o‘quvchilarga tushuntirishi lozim. Bundan tashqari o‘qituvchi natural sonlar to‘plamida har doim qo‘shish va ko‘paytirish amallarini bajarish mumkin, ammo ayirish va bo‘lish amallarini har doim ham bajarish mumkin emasligini misollar yordamida ko‘rsatish kerak. Masalan, 5 + 3 = 8, 2 * 7 = 14. Bu yerda hosil qilingan 8 yig‘indi va ko‘paytma 14 sonlar natural sonlar to‘plamida mavjuddir, ammo 3-5 ayirmada chiqadigan - 2 soni natural sonlar to‘plamida mavjud emas, bu natural sonlar to‘plamida har doim ham ayirish amalini bajarish mumkin emas degan so‘zdir. Umuman olganda natural sonlar to‘plamida X + M = P ko‘rinishdagi tenglama P=M bo‘lgan holda yechimga ega emas. X+M=P tenglama yechimi X = P - M P < M bo‘lganda ham o‘rinli bo‘lishi uchun 0 soni va barcha butun manfiy sonlar to‘plami degan tushuncha kerakdir, shuning uchun ham natural sonlar to‘plamini kengaytirish orqali boshqa yangi sonlar to‘plamini hosil qilish g‘oyasi kelib chiqadi. Maktab darsligida “Koordinata to‘g‘ri chizig‘i” nomli mavzu o‘tiladi, ana shu mavzuni o‘tish uchun sanoq boshi degan tushuncha kiritilgan bo‘lib, shu sanoq boshi nomli nuqtani 0 (nol) soni bilan belgilangan. 0 so‘zi lotincha nallrse - so‘zidan olingan bo‘lib “hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan” degan ma’noni bildiradi. Nol soni natural sonlar to‘plamiga kirmaydigan qiymatsiz son hisoblanadi. Matematikadan bo‘sh to‘plam tushunchasini ham 0 soni bilan ifodalanadi. To‘g‘ri chiziqdagi sanoq boshi deb ataluvchi 0 nuqtadan unga 1, 2, 3 sonlari, chapga esa -1, -2, -3, ... sonlarni yozish va chapdagi sonlarni “minus bir”, “minus ikki”, “minus uch” ... deb o‘qishga kelishilgan. 0 soni to‘g‘ri chiziqda musbat va manfiy sonlarni ajratib turadi. 0 sonidan o‘ng tomonidagi natural sonlarni butun musbat sonlar, chap tomondagi sonlarni esa butun manfiy sonlar deb ataladi. Yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra butun sonlar to‘plamiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Ta’rif. Barcha natural, butun manfiy va nol sonlari birgalikda butun sonlar to‘plami deyiladi (1-chizma).




*1-Chizma.*

Bu yerda natural sonlarga nisbatan qarama-qarshi sonlar barcha butun manfiy sonlardir, masalan, 1 va - 1, 2 va -2, 3 va -3, -.... qarama-qarshi sonlar barcha butun manfiy sonlardir;

Butun sonlar to‘plamida faqatgina 0 soniga nisbatan qarama-qarshi bo‘lgan son yo‘qdir:

0=0 + 0

Maktab matematika kursida manfiy son tushunchasi kiritilganidan keyin sonning moduli tushunchasi ham kiritiladi. Ta’rif. Musbat sonning moduli o‘ziga teng.

|a| = a. |5| = 5.

Ta’rif. Manfiy sonning moduli o‘ziga qarama-qarshi songa teng.

|-a| = a. |-5| = 5.

Butun sonlar bilan to‘rt amalning bajarilishini ko‘rib chiqaylik.

1. Butun sonlar bilan qo‘shish amali quyidagicha bajariladi, masalan 3 soniga 2 sonini qo‘shaylik (2-chizma).




*2-chizma*




*3-chizma*

Butun sonlar qatorida 3 sonini belgilab, undan o‘ngga qarab ikkita sonni sanaymiz. Natijada 5 soni hosil bo‘ladi, demak, 3 + 2 = 5

2. -2 soniga -3 sonini qo‘shing (2-chizma).

Butun sonlar to‘plamidan -2 sonini belgilab, undan chapga qarab uchta sonni sanaymiz, natijada -5 soni hosil bo‘ladi, demak, (-2) + (-3) = - 5

*Q o i d a.*

Bir xil ishoradagi butun sonlarni o‘zaro qo‘shish uchun ularning modullarini o‘zaro qo‘shib yig‘indi son oldiga qo‘shiluvchilar oldidagi ishora qo‘yiladi.

Masalan. 5 + 4 = +(5+4) = +9 = 9

(-3) +(-2) =-(3 + 2) =-5

3. 4 soniga -2 sonini qo‘shing. Buning uchun butun sonlar qatorida 4 sonini belgilab, undan chapga qarab ikkita sonni sanaymiz, hosil bo‘lgan son izlanayotgan son bo‘ladi (3-chizma)

Xulosa o‘rnida aytishim kerakki, matematika darsida natural sonlarni tushuntirish o‘quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi. Natural sonlardan to‘g‘ri foydalanish har bir o‘quvchi kelajakda qaysi kasbni tanlashidan qat’iy nazar kerak bo‘ladi. Matematika fani o‘qituvchisi vazifasi natural sonlarni sodda usulada o‘quvchilarga yetkazishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi» Qayta ishlangan II nashri. T., «O‘qituvchi» 1997 yil.

2. Bikboeva N.U. va boshqalar «Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi», T., «O‘qituvchi», 1996 yil.

3. Galitskiy M.A. va boshqalar «Algebra va matematik analiz kursini chuqur o‘rganish» T., «O‘qituvchi», 1995 yil.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Ergashova Orzigul Ergashovna,**
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 5-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta’lim muasasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, nazorat qilish, bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash, qayta bog‘lanish yordamida imkoniyatlarni rivojlantirish haqida yozilgan. Bunday tizimli jarayonlar intellektual yoshlarning bilim olish sifatini oshirishga keng imkon beradi.

**Kalit so‘zlar:** ilm, ma’naviyat, intellektual, qomusiy olimlar, jadidchi-ma’rifatparvarlar.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiyki bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu vazifani bajarishning birdan-bir yosh avlodning o‘quv-biluv ko‘nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham xalq ta’limi oldidagi eng katta muammo o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga kelib taqalishi bejiz emas. Zero, o‘zlashtirishning pastligi o‘qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy fan, ta’lim tizimlari inson va shaxs rivojini tushunishning yaxlit nazariyasini yaratishda bugungi kun yoshlarining intellektual salohiyatini aniqlash va shu asosda ularning faoliyatini amalga oshirish o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, nazorat qilish, bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash, qayta bog‘lanish yordamida imkoniyatlarni loyihalash muhimdir.

Bu jarayonlar esa, o‘z navbatida, intellektual yoshlarning bilim olish sifatini oshirishga keng imkon beradi. Ta’lim sifati - bu “ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi” darajasida muntazam ravishda, ta’lim oluvchilarning real imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib yo‘lga qo‘yish, ya’ni yaqin rivojlanish zonasini nazarda tutishni anglatadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning qiziqishlari yo‘nalishlarini aniqlash, tashxis ishlarini tizimli tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda pedagog va psixologlarning diqqat markazini o‘quv predmetlarining nazariy asoslari va ularning tuzilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar faoliyati, unga dahldor psixologik va pedagogik qonuniyatlar hamda o‘quv faoliyatini samarali boshqarish omillari ham band etib turibdi. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o‘qishga qiziqtirish va ularning fanlarga qiziqishini oshirish dolzarb muammodir.

Bola tarbiyasi, uni kasb-hunarga qiziqtirish masalalari azaldan olimlar, pedagoglar, mutafakkirlar diqqat markazida bo‘lgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar, keyinchalik Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, XX asr boshlarida esa jadidchi-ma’rifatparvarlar kabi ko‘plab yurtdoshlarimizning pedagogik merosida bolani kichikligidan kasbiy ehtiyojlarni shakllantirish, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab o‘qitish, ta’lim-tarbiyada turli usullarni qo‘llash g‘oyalari ilgari suriladi. “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”. “Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo‘lsin”.

Maktabga qadam qo‘yish bilan bola hayotida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o‘zlashtiradi, o‘qituvchi va o‘rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatadi. O‘quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo‘lgan qiziqish asosida unda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi va sofligi, uning qiziquvchanligi va xayolining yorqinligi hammaga ma’lum. Buni uning o‘yinida, rasm chizishida, loy va plastilindan narsalar yasash ishlarida, oddiy qurish-yasash mashg‘ulotlarida yaqqol kuzatish mumkin.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o‘rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari,

atrofdagilar unga yosh boladek emas, balki oʻz vazifalari, majburiyatlari bor boʻlgan, oʻz faoliyati natijasiga koʻra hurmatga sazovor boʻlishi mumkin boʻlgan alohida shaxs deb munosabatda boʻlayotganlarini his qiladi. Buning natijasida bolaning oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi oʻz oʻrnini anglay boshlaganini koʻrish mumkin

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, pedagogik qonun quyidagini ta'kidlaydi: bolani biror faoliyatga undashdan oldin uning ushbu faoliyatga tayyorligini, bolaning bu ish uchun zarur barcha kuchi va imkoniyatlari safarbar etilgani va bola oʻzi harakat qilishini, oʻqituvchi esa faqat uning faoliyatini boshqarib, yoʻnaltirib turishini aniqlashidir".

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Farberman. B.Ilgʻor pedagogik texnologiyalar. T:. Fan, 2000-yil.
2. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar toʻplami. -Navoiy: 2000-yil.
3. Hamroyev M.A. Oʻzbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. –T:. 2007-yil.
4. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-oʻqituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste'dod, 2008-yil, 180-b.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Ergashova Orzigul Ergashovna,**
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 5-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta’lim muasasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, nazorat qilish, bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash, qayta bog‘lanish yordamida imkoniyatlarni rivojlantirish haqida yozilgan. Bunday tizimli jarayonlar intellektual yoshlarning bilim olish sifatini oshirishga keng imkon beradi.

**Kalit so‘zlar:** ilm, ma’naviyat, intellektual, qomusiy olimlar, jadidchi-ma’rifatparvarlar.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiyki bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu vazifani bajarishning birdan-bir yosh avlodning o‘quv-biluv ko‘nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham xalq ta’limi oldidagi eng katta muammo o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga kelib taqalishi bejiz emas. Zero, o‘zlashtirishning pastligi o‘qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy fan, ta’lim tizimlari inson va shaxs rivojini tushunishning yaxlit nazariyasini yaratishda bugungi kun yoshlarining intellektual salohiyatini aniqlash va shu asosda ularning faoliyatini amalga oshirish o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilish jarayonlarini ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, nazorat qilish, bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash, qayta bog‘lanish yordamida imkoniyatlarni loyihalash muhimdir.

Bu jarayonlar esa, o‘z navbatida, intellektual yoshlarning bilim olish sifatini oshirishga keng imkon beradi. Ta’lim sifati - bu “ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi” darajasida muntazam ravishda, ta’lim oluvchilarning real imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib yo‘lga qo‘yish, ya’ni yaqin rivojlanish zonasini nazarda tutishni anglatadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning qiziqishlari yo‘nalishlarini aniqlash, tashxis ishlarini tizimli tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda pedagog va psixologlarning diqqat markazini o‘quv predmetlarining nazariy asoslari va ularning tuzilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar faoliyati, unga dahldor psixologik va pedagogik qonuniyatlar hamda o‘quv faoliyatini samarali boshqarish omillari ham band etib turibdi. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o‘qishga qiziqtirish va ularning fanlarga qiziqishini oshirish dolzarb muammodir.

Bola tarbiyasi, uni kasb-hunarga qiziqtirish masalalari azaldan olimlar, pedagoglar, mutafakkirlar diqqat markazida bo‘lgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar, keyinchalik Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, XX asr boshlarida esa jadidchi-ma’rifatparvarlar kabi ko‘plab yurtdoshlarimizning pedagogik merosida bolani kichikligidan kasbiy ehtiyojlarni shakllantirish, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab o‘qitish, ta’lim-tarbiyada turli usullarni qo‘llash g‘oyalari ilgari suriladi. “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”. “Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo‘lsin”.

Maktabga qadam qo‘yish bilan bola hayotida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o‘zlashtiradi, o‘qituvchi va o‘rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatadi. O‘quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo‘lgan qiziqish asosida unda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi va sofligi, uning qiziquvchanligi va xayolining yorqinligi hammaga ma’lum. Buni uning o‘yinida, rasm chizishida, loy va plastilindan narsalar yasash ishlarida, oddiy qurish-yasash mashg‘ulotlarida yaqqol kuzatish mumkin.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o‘rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari,

atrofdagilar unga yosh boladek emas, balki o‘z vazifalari, majburiyatlari bor bo‘lgan, o‘z faoliyati natijasiga ko‘ra hurmatga sazovor bo‘lishi mumkin bo‘lgan alohida shaxs deb munosabatda bo‘layotganlarini his qiladi. Buning natijasida bolaning oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pedagogik qonun quyidagini ta’kidlaydi: bolani biror faoliyatga undashdan oldin uning ushbu faoliyatga tayyorligini, bolaning bu ish uchun zarur barcha kuchi va imkoniyatlari safarbar etilgani va bola o‘zi harakat qilishini, o‘qituvchi esa faqat uning faoliyatini boshqarib, yo‘naltirib turishini aniqlashidir”.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Farberman. B.Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T:. Fan, 2000-yil.
2. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma’ruzalar to‘plami. -Navoiy: 2000-yil.
3. Hamroyev M.A. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. –T:. 2007-yil.
4. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste’dod, 2008-yil, 180-b.

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI TASHKILLASHNING METODIK ASOSLARI

**O'ktamova Gulbahor Nu'monovna**
O'zbekiston tumani XTB metodisti,
Tel: +99891 688-02-88
**Erkaboyeva Ziyodaxon,**
O'zbekiston tumani 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail: erkaboyeva_list@mail.ru

**Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkillashning metodik asoslari haqida fikr yuritilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kitobni to'g'ri tanlash muhim ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** kitobxon, sinfdan tashqari o'qish, badiiy kitoblar, bolalar adabiyoti, mustaqil o'qish malakalari**.**

Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita ollshga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adib hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Sinfdan tashqari o'qish sinfda o'qish darslari bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish darslari sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

**I. Tayyorlov bosqichi.** Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi — 17—20 daqiqasi ajratilgani uchun „ Sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti" deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi. asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshit-ganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilibberishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

**2.Boshlang'ich bosqich.** Bu 1-sinfning 2-yarim yiiligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oidin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o'qiladigan o'rinlarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgata borishi lozim.

**3.Asosiy bosqich.** Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi.Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar.

Sinfdan tashqari o'qishning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun

sinf oʻquvchilari bir xil kitob bilan taʼminlanadi, barcha oʻquvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar koʻrgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda oʻqishga topshirilishi, albomlartayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar koʻrsatilishi, musiqiy daqiqalar oʻtkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, oʻrash oʻrgatiladi, ***„Ertaklar bayrami”, „Ifodali oʻqish tanlovi”*** oʻtkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi oʻquvchilar faol kitobxon uchun zarur boʻlgan yaxshi oʻqish koʻnikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil oʻqishni yaxshi koʻrishlariga erishish juda muhimdir.

Metodikaning vazifalaridan biri sinfdan tashqari oʻqish uchun kitoblar tanlash, oʻqiladigan adabiyotlar roʻyxatini tavsiya qilish, yillik oʻquv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari oʻqish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad koʻzda tutiladi.
- Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xiima-xilligi eʼtiborga olinadi.
- Kitobning oʻquvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.
- Kitob tanlashda oʻquvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil oʻqishi hisobga olinadi.
- Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, kitobni toʻgʻri tanlash sinfdan tashqari oʻqish muvaffaqiyatini taʼminlashniag muhim shartidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gʻulomov A. Ona tili oʻqitish printsiplari va metodlari. T., Oʻqituvchi. 1992.
2. Gafforova T., Sh. Nurullaeva, O. Haydarova. Boshlangʻich sinflar uchun ona tili va oʻqishdan didaktik materiallar. T., 2004. 3-77 b.
3. Husanboeva Q. Adabiy taʼlimda mustaqil fikrlashga oʻrgatish asoslari. T. Oʻqituvchi, 2003.

# O'QISH DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGATISH USULLARI

**Ermatova Shaxnoza**
O'zbekiston tumani
31-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail: ermatova _shaxnoza@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida Alisher Navoiy ijodini o'rganish va u orqali o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qish darsi, ta'lim samaradorligi.

Uzluksiz ta'lim mazmuni va tarbiya tizimi, xususan, «O'qish» darslari orqali o'quvchi-yoshlarda Vatanga, xalqiga mehr-muhabbat, milliy g'urur, diniy bag'rikenglik, tinchliksevarlik, millatlararo muloqot madaniyati, insonparvarlik, mustaqil va teran fikrlilik, fidoiylik, yuksak mas'uliyat va burchni his etish, qalbi poklik, mustahkam irodalilik, g'oyaviy pishiqlik kabi komil inson uchun zarur b o'lgan shaxslik xislatlari milliy qadriyatlar, diniy-axloqiy o'gitlar, ajdodlarimizning o'lmas merosi asosida shakllantirib borilsa, maqsadga muvofiq b o'ladi.

Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»da «Bobokalonimiz Alisher Navoiy», «Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari», «Alisher Navoiy haqida rivoyatlar», «Donolarning donosi», «Navoiy hikmatlari» kabi mavzular va Oybekning «Alisherning yoshligi» hikoyasi berilgan. Garchi ular qisqa b o'lsada, Alisher Navoiyning hayoti, uning bizga qoldirgan katta merosi, qilgan ezgu ishlari, insonparvarligi haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil qilishi mumkin va bu yosh avlod qalbida Milliy istiqlol g'oyasi va vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, bu mavzuni yanada ta'sirliroq chiqishi, o'quvchi Navoiy haqida kengroq tasavvurga ega b o'lishi uchun dars mashg'ulotlarida shoirning suratidan, asarlaridan foydalansak, hikmatli s o'zlari yozuvi k o'rgazmasini tashkil etsak maqsadga muvofiq b o'ladi. O'quvchilarga buyuk bobomizning tarjimai holi haqida gapirar ekanmiz, uning bolalik chog'laridayoq aqlli, odobli-zehnli b o'lganligini, ilm olishga juda chanqoq ekanligini chuqur tushuntirishimiz lozim. Toki bola ongida ana shu fazilatlarga ega b o'lishga harakat qilish fikri uyg'onsin. Buning uchun Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan o'rinli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, buyuk bobomizning xalqparvarligi, muhtojlarga yordam berishi, podshohlarni t o'g'rilikka, haqg o'ylikka chorlovchi ezgu ishlari haqida o'quvchilarga kengroq ma'lumot berish kerak. Misol uchun:

*Eyki, qaviy ayladi davlat qulung,*
*Zulm sori tushti va lekin y o'lung.*

Bu sartlar orqali Navoiy o'z davrida xalqqa zulm o'tkazgan, k o'pgina nohaqliklarga y o'l q o'ygan, faqat boylik orttirish maqsadida xalq yelkasiga k o'plab o'lpon soluvchi podshohlarga murojaat qilgan va: «Ey podshoh, baxt-davlat qushi boshingga q o'nib, sen el-yurtni s o'raydigan b o'lding. Lekin, sen bunday el-yurtni obod qilish, adolat uchun kurashmoq emas, o'z manfaatlaringni o'ylab, odamlarga zulm qilish y o'lidan borayapsan» degan fikrlarni ilgari surgan. Ya'ni Alisher Navoiy insonni o'zidan yaxshi nom qoldirishini istasa o'z xalqini o'ylashi, uning dardi bilan yonib yashashi, mushkulini oson qilishi zurur ekanligini uqtiradi. Uning bu fikri:

*Odami ersang demagil odami,*
*Onikim y o'q xalq g'amidin g'ami,*

deb bitgan s o'zlarida k o'rinadi.

Alisher Navoiy «Xamsa» asarida Farrux, Iskandar, Shopur, Dilorom kabi o'nlab adolat, ma'rifat, yaxshilik, insoniylik, baxt-saodat, d o'stlik, birodarlik, g o'zallik uchun kurashuvchi, zulm va adolatsizlikning, jaholatning hamma k o'rinishlariga qarshi jang qilib, o'z hayotini shu olijanob maqsadlar tantanasiga bag'ishlab, mard va jasur, haqqoniy va oqk o'ngil, xalqparvar va vatanparvar kishilarning yorqin obrazlarini yaratdi.

Farhod faoliyatidagi barcha xususiyatlar uning ana shu elparvarligi, insonparvarligi bilan bog'lanadi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul abror»da Navoiy kishilar munosabati va muomala mezoni, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar haqida qimmatli fikr-mulohazalarini bayon etadi. Dostonda odob bilan, har bir kishining holu ahvoliga yarasha muomala qilish, kattalarga

hurmat, kichiklarga shafqat masalasiga keng oʻrin berilgan. Alisher Navoiy oʻz asarlarida inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun q oʻyadi.

«Farhod va Shirin» dostonida Farhodning insonparvarligi, uning irodasi, Shirin uchun Armanistonning togʻlik-toshlik erida kanal qazish jarayonida namoyon b oʻlishi ifodalanadi.

Farhod bu oʻrinlarda oʻzining tinch mehnati bilan bogʻliq chinakam qahramonlik k oʻrsatadi. Butun xalq bir necha yilda ham bajara olmaydigan ishlarni bir necha kunda, bir oʻzi bajaradi va shu y oʻl bilan Shirinning muhabbatiga sazovor b oʻladi. Farhod g oʻzal Shirinni z oʻrlik bilan oʻz changaliga kiritmoqchi b oʻlgan Eron shohi Xisravga qarshi, sevgilisi yurtini himoya qilib, mardlarcha kurash olib boradi. Farhod va Shirin yovuzlikning, turli hiyla va nayranglarning, adolatsizlik va jaholatning qurboni b oʻladilar. Farhod oʻzining shoh farzandi b oʻlishidan qatʼiy nazar, avvalo, inson ekanligi sababli mehnatga mehr q oʻyadi, nochor kishilarga yordam berishni oʻzining burchi deb biladi.

Alisher Navoiy oʻz faoliyatida har bir kishini oʻziga doʻst deb biladi. Uning bizga qoldirgan boy merosi asrlar davomida insoniyatni mehr-oqibat manzillari tomon boshlab, insonparvarlik gʻoyalarini yuqori ch oʻqqiga k oʻtarib kelmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodimiz ham Navoiydek insonparvar ulugʻ zotning avlodlari ekanligini anglab oʻsishi va u kabi b oʻlishga intilishiga erishaylik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyonet.uz
2. Pedagog.uz

# SMART EDUCATION VA UNING IMKONIYATLARI

**Eshchanov Xayrulla Sharifbayevich, Beglimurodova Gulfiya Yarlkabovna**
Bogʻot tuman 6-maktabning jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi
Bogʻot tuman 2-maktabning jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi
Telefon:+998(93)752-41-35 eshchanov_6@inbox.uz
Telefon:+998(97)512-99-46 gulfiyabeglimurodova@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola smart ta'lim va uning imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi oʻrni haqida.

**Kalit soʻzlar:** Smart ta'lim, elektron hukumat, elektron uy, elektron ta'lim, aqlli ta'lim, internet, twitter, facebook.

XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. "Elektron hukumat", "elektron uy", "elektron tijorat", "elektron ta'lim" kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol boʻlib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot man'basi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qoʻymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qaysidir ma'noda odam oʻrnida "oʻylash"ga majbur qilishni talab qiladi. Bunday "aqlli", inson bilan muloqot qiluvchi va oʻrgatuvchi elektron resurslarni yaratish oʻta dolzarb va mashaqqatli ish boʻlib, uni yaratishga butun dunyoning eng malakali mutaxassislari imkoniyatlarini birlashtirishni taqozo qiladi. Bu yoʻnalishda qoʻyilgan salmoqli qadamlardan biri bu ta'lim sohasida dunyo boʻyicha amalga oshirilishi boshlangan Smart education loyihasini keltirish mumkin.

Smart education (yoki aqlli ta'lim) – bu ochiq axborot resurslari yordamida interaktiv vertual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va induviduallashtirilgan yangi global ta'lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati uning butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish va keng ta'lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir.

Smart education ta'lim muhiti oʻz navbatida uning qatnashchilaridan butun ta'lim jarayonini, foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi. Xuddi shu maqsadda Yevropa Ittifoqi davlatlari oʻz ta'lim tizimlarini bir xil standartga keltirish yoʻlidan borishmoqda va dunyoning boshqa davlatlarini ham bunga da'vat etishmoqda. Kelajak ta'limi muhiti sifatida e'tirof etilayotgan yagona Yevropa universiteti loyihasi bu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan salmoqli qadamlardan biridir.

Kecha ta'lim olishning yagona manbasi oʻqituvchi boʻlib, oʻquvchi ta'lim olish uchun sinfxonaga kelishi va oʻqituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilishi yoki kitob oʻqishi hamda tushunmaganlarini oʻqituvchidan soʻrab oʻrganishga majbur edi. Bugunga kelib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan oʻquvchi bilimni nafaqat sinfxonada oʻqituvchidan, balki istalgan

joyda, internetdagi boshqa faol bilim manbalardan ham olish imkoniyatlariga ega boʻldi. Shu bilan birga, hozirda qoʻllanilayotgan ta'limning pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari oʻqituvchining ta'lim jarayonidagi rolini oʻzgartirmoqda. Oʻqituvchining roli endi faqat bilim manbai emas, balki bilim olishga yoʻnaltiruvchi va bu jarayonni boshqaruvchisi sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu oʻrinda interfaol texnologiyalarning qoʻllanishi oʻquvchilarning oʻzi ham bilimlarni bir-birlariga uzatish va yangilarini shakllantirish manbai sifatidagi rolini oshirmoqda. Bundan tashqari, soʻnggi yillarda oʻquvchi yoshlarning Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarni ishgʻol qilganliklari va turli qiziqishlar, xususan ta'lim olish boʻyicha oʻz uyushmalarini tuzib, faol muloqot qilayotganliklari, ya'ni oʻzaro keng muloqot, ta'lim muhitining yaratilganligi mazkur ta'lim tizimiga boʻlgan qiziqishni orttirmoqda. Smart education ta'lim muhiti vositalari ham kun sayin oʻzgarib bormoqda. Endi istalgan joydan internetga ulanish imkoniyatining yaratilganligi, mobil kommunikatsiya vositalari, "aqlli" doska, "aqlli" ekran va ta'limning boshqa "aqlli" texnik vositalarining paydo boʻlishi va kun sayin takomillashib borishi Smart education ta'lim muhitida faol bilim olish nufuzini yanada oshirmoqda.

Bu oʻz navbatida bilim manbai sifatida kitob bilan bir qatorda undan ancha afzalliklarga ega boʻlgan faol, qulay va mobil ta'lim mazmuniga boʻlgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Buni birgina kitob va internetda joylashtirilgan ma'lumotlar, ta'lim mazmuni hajmlarini taqqoslash

orqali ham anglab yetish mumkin. Internetda joylashtirilgan va kun sayin, soat sayin karralab oshib borayotgan veb resurslardagi ma'lumotlar, ya'ni bilimlar xazinasidan oqilona foydalanish, internet qulayliklari va texnik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Bunday yagona ta'lim tizimi texnik jihatdan ta'minlangani bilan unda tegishli ta'lim mazmuni, mobil va interaktiv muhitda ishlaydigan ta'lim resurslari bo'lmasa, undan foyda yo'q, albatta. Bu masala yaqin kelajakda eng malakali mutaxassislar, olimlar va uslubchilar tomonidan yaratiladi va ochiq resrus sifatida taqdim etiladi. Bunday resursga misol tariqasida, AQShda 2015 yilda Discovery Education kompaniyasi tomonidan qator fanlardan texnologik darslikni keltirish mumkin. Mazkur darslik "Smart education" ta'lim muhitida ishlashga mo'ljallangan. Mazkur texnologik darslik o'zining tuzilmasi, o'quv materiallarining rang-barangligi, interfaol muloqot va o'quvchilarning individual ta'lim olish trayektoriyalarini tanlash imkoniyatlarining yaratilganligi, nazorat va tarqatma materiallar mavjudligi, o'qituvchilar uchun uslubiy ta'minotning berilganligi hamda uning mazmuni takomillashtirish uchun ochiqligi bilan ajralib turadi. Darslikdan o'rin olgan har bir mavzu bo'yicha nazariy materialni o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar va kundalik turmushdan olingan vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash va tadbiq qilishga doir turli tuman interfaol mashq va topshiriqlar o'rin olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2010.-140 bet.

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.

# VIJDON ERKINLIGIGA OID HUQUQ BUZARLIKLARNING PSIXOPROFILAKTIKASI

**Eshmanov Otabek**
Samarqand davlat universiteti magistranti

**Anntotasiya:** ushbu maqolada asosan o‘smir yoshdagi bolalarda uchraydigan vijdon erkinligiga oid huquqbuzarliklarning psixoprofilaktikasi keltirib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** vijdon erkinligi, tarbiya, psixologik, ta’sir, shaxs

Har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsga psixologik-pedagogik ta’sir etilmas ekan, tarbiyaviy shlarda samaradorlik bo‘lmaydi. Shaxslarga pedagogik ta’sir etish usullaridan asosiy maqsad – tarbiyalanayotgan shaxslarga yakka tartibda pedagogik ta’sir etish orqali ularni jamiyat uchun foydali ishga jalb qilish. Psixologik-pedagogik ta’sir etish – mavjud tarbiyaviy usullar yig‘indisi emas, balki tarbiyachining tarbiyalanuvchi ongiga ijobiy ta’siri, muomalasi va murojaatidir. Har bir shaxsga psixologik-pedagogik ta’sir etishning o‘z maqsadi bo‘lib, unga erishish uchun barcha mavjud chora-tadbirlar ko‘riladi. Shaxslarga yakka tartibda psixologik-pedagogik ta’sir etishda har doim ham ijobiylik bo‘laveradi, deb ayta olmaymiz. Chunki ba’zi bir shaxslarda salbiy jihatlar ustun bo‘ladi, masalan, janjal chiqarishga moyillik, boshqalarni tushunishni xohlamaslik va hokazo. Yakka tartibdagi huquqbuzarlikning oldini olish quroli tarbiya usullaridir.

Tarbiya usullaridan eng ko‘p tarqalgani mehnat qilishga undash bo‘lib, u mehnatga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish esa jinoyatning oldini olishning o‘ziga xos usuli. Bundan barcha huquqbuzarliklarning boshida bekorchilik turadi, deb xulosa qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham yakka tartibda huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarining xodimlaridan bosiqlik, bardoshlilik talab qilinadi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishdagi eng qiyin jarayon bu – psixologik tarbiyaviy ta’sir etish usullarini tanlash. Chunki har qanday yakka tartibda tarbiyaviy ta’sir etish o‘ziga xos tarbiya usullarini qo‘llashni talab qiladi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda pedagog nazariyachilar ilmiy kuzatishlarining ham o‘z o‘rni bor, masalan, amaliyotdagi tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi ichki ishlar organlarining xodimlari qo‘llamayotgan usullarni nazariyachilar aniqlashlari va organ xodimlariga o‘sha usullarni qo‘llab ko‘rishni tavsiya etishlari mumkin.

Tarbiya tizimida ichki ishlar organlari xodimlarining pedagogik faoliyatini quyidagilarga bo‘lib o‘rganilsa, to‘g‘ri deb o‘ylaymiz, ya’ni:

1) shaxslarning psixikasiga og‘zaki, yozma va texnik vositalar orqali ta’sir etish;

1) shaxslarning intellektual darajasi va uni rivojlantirishga pedagogik faoliyatni yo‘naltirish;

2) shaxslarning xatti-harakatida tarbiyaga bo‘ysuna bilish yoki bo‘ysuna olmaslik harakatlarini ham o‘rganib borish.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta’sir etishda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy jihatdan bunday tarbiyaviy faoliyatga tayyor emasliklari ham ularning tarbiyaviy ta’sir etish usullaridan to‘la foydala olmasliklariga sabab bo‘ladi. Bunday hol iloji boricha takrorlanmasligi kerak, agar yana takrorlansa, keyingi safar tashkil etiladigan tarbiyaviy profilaktik tadbirga fuqarolar kelmasliklari ham mumkin yoki kelganlarida ham ijobiy emas, balki salbiy fikr bilan qaytib ketadilar, o‘zlarida tarbiyaning hyech qanday ta’sir kuchini sezmaydilar. Bunday paytda tarbiyachi shaxs quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak: bilimli bo‘lish, notiqlik san’atini mukammal egallagan bo‘lishi (auditoriyani o‘ziga jalb qila olishi), hayotiy amaliy tajribaga ega bo‘lishi, auditoriyaning kayfiyatini tez ilg‘ay olishi.

Yakka tartibdagi profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda kuzatish usuli juda qo‘l keladi, chunki birinchi uchrashganlarida u doimo o‘ziga xos, hyech kim bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan shaxsdek tuyuladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda ana shunday to‘siqlarni yo‘q qila olish san’atini egallaganliklari bilan ham ajralib turishlari lozim. Birinchidan, profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda obyekt bilan subyekt o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarbiyaviy ta’sir etish ishlari olib boriladi, bunda dastlab, tarbiyaviy jarayon ataylab olib borilmayotgandek tuyuladi, lekin har qanday uchrashuv va tadbirning asosida o‘ziga xos tarbiya, ta’sir etish hamda uning elementlari mavjud bo‘ladi.Jinoyatlarning oldini olish ishlari ikki tomonlama – umumijtimoiy hamda kriminologik, ya’ni maxsus tashkil etilgan tadbirlar orqali olib

boriladi.

Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda tarbiya obyekti doimo shaxslar, ularning ongi, psixologiyasi, sezgisi va axloqi bo'ladi, boshqacha aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining tarbiya obyekti alohida shaxslar, bir guruh shaxslar, mehnat jamoalari, oilalar bo'lishi mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, qadim-qadimdan tarbiyachilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib bormoqchi bo'lsang, eng avvalo, kimga tarbiyaviy ta'sir etasan – o'shani bilishing kerak, degan fikr mavjud. Ushbu fikr juda to'g'ri bo'lib, haligacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'tkazilgan profilaktik tadbirlarning natijalarini, birinchidan, shaxsning ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida; ikkinchidan, uning ijtimoiy faolligida; uchinchidan, shaxsning o'zi doimo faol bo'lib, boshqalarni ham faolikka jalb etishida ko'rishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mahmudov R. Kasbiy pedagogika. Dasrlik. –T.: O'zb. Resp. IIV Akademiyasi, 2003
2. Karimova O., Rafiqov A. O'quvchi yoshlarni huquqiy tarbiyalash. -T.: O'qituvchi 2008
3. www.arxiv.uz

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BAYON YOZISH METODIKASI

**Gaipova Saodat Suyarkulobna**
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bayon yozish metodikasi o‘rgatish uchun o‘qituvchi ta’limning eng qulay usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.
**Kalit so‘alar:** og‘zaki, bayon, mustaqil, fikr, bola nutq.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda bayonning ahamiyati katta. O‘quvchilar bayon yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladilar, xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o‘zlashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Bayon – bolalar nutqini o‘stirish omilidir. O‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil yozishga, o‘qilgan matnni hikoya qilishga o‘rgatishni iloji boricha ertaroq boshlagan ma’qul. Buning uchun o‘quvchilar matnni og‘zaki hikoya qilayotganda qo‘llangan alohida so‘zlarni yozishdan gapni yozishga, so‘ng matnni qismlarini yozishga va ikkinchi sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o‘rgatiladi.

Bayon o‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir. O‘qish darslarida matn ustida ishlash, o‘qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og‘zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Bayon yozishning turlari hilma-hildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish sur’ati sekin, shunga ko‘ra bayon uchun kichik hajmdagi kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi.

Bayon matni asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi bir matn tanlansa unga yana bir qancha lavhalarning tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari qo‘shiladi; keyinroq shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi. Shunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus oladi. Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga ko‘ra 2-sinfda katta bo‘lmagan (30−40 so‘zli) matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida so‘roqlar asosida bayon yozish ko‘zda tutiladi. Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon o‘quvchilarda adabiy nutqni to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayoti, ona tabiat tasviri, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlari aks ettirilgan yuksak g‘oyali matn tanlanishi, bayon mavzusi o‘quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur. Qayta hikoyalash va bayonda o‘quvchilarning tabiiy nutqi eshitilishi, ya’ni berilgan matnni tushunmasdan yodlamasligi, nutq birliklaridan, sintaktik birlikdan foydalana olishi zarur. Til vositalari matnni o‘qish, suhbat, matn tahlili davomida o‘zlashtiriladi; matndagi so‘zlar va nutq birliklari “o‘ziniki” bo‘lib qoladi. Qayta hikoyalashda namunadagi u yoki bu gapni bola esga tushurishga harakat qiladi. Bu bilan o‘quvchining mustaqil fikrlash darajasi va bilish faolligi o‘sadi. Ijodiy elementlar qo‘shila boradi. Qayta hikoyalashda namunadagi izchillik, bog‘liqlik saqlanishi asosiy faktlar berilishi ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim o‘rinlar to‘liq bayon qilinishi zarur. Vaqt-vaqti bilan ilgari eshitilgan, o‘qituvchi o‘qib bergan yoki radio televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, o‘quvchi bir marta ovoz bilan yoki ichida o‘qigandan so‘ng qayta hikoyalashdan foydalanishni tajribada qo‘llab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi.

Bayon o‘quvchiga ta’lim beribgina qolmay, ularning tarbiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar bayon matnini yozish jarayonida barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun lozim bo‘lgan xislatlarni o‘zlarida shakllantirib boradilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xoliqov A ‖Pedagogik mahorat‖ – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,
2. Abdullayeva B.S va b Boshlang‘ich sinf o‘quvcnilariga geometrik materiallarni o‘rgatish metodikasi -Toshkent:OOO ―Jahon print‖, 2011

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TAHLIL - TARKIB TOVUSH METODI

**Hamrayeva Nasiba Fayzullajanovna**
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani
9-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarga savod o‘rgatishda tahlil-tarkib tovush metodining umumiy xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Maktab, tahlil-tarkib tovush metodi, nutq, harf, savod, tovush, ta’lim.

Tahlil – tarkib asosidagi metodda ish olib borilganda, tahlilda matndan (nutqdan) gap, gapdan so‘z, so‘zdan tilning eng kichik birligi - nutq tovushi (fonema) ajratiladi. Tarkibda esa tahlildagi usulning aksi, ya’ni nutq tovushidan bo‘g‘in, bo‘g‘indan so‘z, so‘zdan gap (jumla), gapdan nutq (matn) hosil qilinadi: bu ikki usul birgalikda amalga oshiriladi.

Tahlil – tarkib tovush metodi O‘rta Osiyoga ikki manba orqali yoyildi: rus - tuzem maktablari ruscha sinflarida xat savod tovush metodi bilan o‘rgatilgan; Rossiyadan O‘rta Osiyoga kelgan tatar muallimlari tovush metodida xat-savod o‘rgata boshlagan edilar. Oradan ko‘p o‘tmay bir qancha mahalliy muallimlar ham tovush metodi oson va qulayligini amalda o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgach yangi maktablar ochib bolalarga xat- savodni tovush metodida o‘rgata boshlashdi.

Tahlil – tarkib tovush metodi uzoq yillardan beri takomillashdi, shakllandi. Shuning uchun bu metodning an’anaviy prinsiplariga to‘xtalamiz:

**-**tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra, ta’limiy va o‘stiruvchi xarakterda bo‘ladi. Tovush metodi mashqlar tizimi orqali aqlning o‘sishini ta’minlaydi, o‘quvchining bilish qobiliyatini tezlashtiradi, o‘quv mehnat turlarini talab etadi.

**-**tovush metodi tashkiliy tomondan alifbegacha davr, alifbe davri, alifbedan keyingi davrni ham o‘z ichiga oladi. O‘qishga va yozishga o‘rgatishda ham parallel ravishda bu metodga amal qilinadi.

-tahlil-tarkib tovush metodi psixoligvistika tomonidan savod o‘rgatishda tovush asos qilib olinadi, bo‘g‘indan tovushni ajratishga, tovushni hosil bo‘lishi o‘rnini aniqlashga, bolalarga fonematik eshitishni rivojlantirishga ahamiyat beriladi. O‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi va bilan ishlashga katta e’tibor beriladi.

Tajribalar shuni isbotlaydiki, tahlil – tarkib asosida tashkil qilingan savod o‘rgatish darslari o‘qish tezligini samarali ta’minlamoqda. Harflab o‘qishga nisbatan o‘qish birligi- bo‘g‘inlab o‘qitish, ravon o‘qish muddatini 1–1,5 barobar tezlashtiradi. Buning uchun bo‘g‘inlar jadvalini yaratish va undan unumli foydalanish usullari ishga solinadi.

Psixoligvistik nuqtai nazardan bolalarning jonli nutqi, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi. Psixologik jihatdan bolaning yoshiga, tasavvur qila oladigan so‘zlar asosiga, lug‘at boyligiga e’tibor qilinadi. Beriladigan gaplar 3 – 4 so‘zdan iborat bo‘lishi, tovush va harf mos keladigan misollar olinadi. Bunda non, olma, gilos, kitob, maktab singari so‘zlarni tahlil-tarkib tovush metodi bilan ishlanayotgan misolga berib bo‘lmaydi, chunki so‘zlarning talaffuzi bilan yozilishi mos emas.

Tahlil – tarkib metodi tovush metodi nisbatan yaqinda shakllangan yoki tashkil topish jarayonida bo‘lgan xususiyatlaridan biri ta’lim jarayonida differensial va individual (yakka) yondashishdir. Differensial- tabaqalab o‘qitishda, orqada qolgan bolalarni mavzuni to‘la o‘zlashtirganlarga yetkazib olishda ularga hozirgi qobiliyatlari - ongiga yarasha mashqlar berish kerak. O‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmaslik uchun bo‘sh o‘zlashtiruvchiga topshiriq yengilroq beriladi. Individual yondashishda o‘qituvchi past o‘zlashtiruvchining topshiriqni qanday bajarganini doimo nazorat qiladi va yordam beradi. Topshiriqning bajarilishiga namunalar berib boradi.

O‘qitishning istiqboli nuqtai nazaridan grammatika so‘z yasalishi orfografiya, leksikologiyaga oid propedevtik elementlarni nazariy tushunchasiz amaliy asosda muntazam berib borish kerak.

Ma’lumki alifbegacha bo‘lgan davrda tovush va harf tanishtirilmaydi. Bu davrda maktabning ichki tartibi nutq, gap, so‘z haqida tushuncha beriladi. Darslar davomida bo‘g‘indan so‘z, so‘zdan gap, gaplardan nutq hosil bo‘lishi kabi nazariy ma’lumotlar “Alifbe” da o‘rganishga ishora qilinganligi uchun tushuntirishga to‘g‘ri keladi. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishi, gapning oxiriga nuqta qo‘yilishi tushuntiriladi. Bu usul propedevtik usuldir. Bu jarayon o‘quvchining bilim olish istiqbolini belgilaydi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan: tovush va harfni o‘rgatishning qulay tartibini izlash, unda

tovush va harfning mosligi va osonligi, ikkinchidan ta'limning tarbiyaviy va oʻstiruvchan xarakteri xisobga olinadi.

Savod oʻrgatish murakkab jarayon. Oʻqishni oson yoʻl bilan oʻrgatish uchun "Alifbe " tuzilishida tovushlarni quyidagicha ketma – ket berish foydalidir. Sonor tovushlar, unli tovushlar, sirgʻaluvchi tovushlar, portlovchi soʻngra afrikat (qorishiq) tovushlar tizimi ketma – ket joylashganda boʻgʻin hosil qilish, boʻgʻinlarni oʻqish osonlashadi. Sonor tovushlarda portlovchiga qaraganda bir necha marta ovoz koʻpdir. Ovozli undoshni choʻzib talaffuz qilib, unli tovushni qoʻshib boʻgʻin hosil qilish qulaydir: tana, mmma – nnna, ol – ma, oll – mma.

Ta'lim jarayonida oʻquvchilarni tarbiyalash didaktikaning muhim prinsipidir. "Alifbe" va "Yozuv daftar" larida tovush tanishtirish, harf yozish darslariga bolalarning yoshiga mos rangli rasmlar berilgan. Rasmlarda bogʻda meva terish, gullarga suv quyish, dasturxon tayyorlash, uy ishlariga koʻmaklashish singari mehnat turlari; tramvay, abtobuslarda kattalarga oʻrin boʻshatish, koʻzi ojizlarni yoʻldan oʻtkazib qoʻyish kabi ahloqiy mavzularda rasmlar berilgan. Bu materiallar tarbiyaviy ishlar sistemasida asos boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchilar savod oʻrganish davrida ommaviy – siyosiy tushunchalarni egallaydilar. Bolalar savod oʻrganish davrida oʻqish texnikasi, nutq texnikasini va boshqa bilimlarga ega boʻladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Qosimova "Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi".
2. Q.Abdullayeva va boshqalar. "Birinchi sinflar uchun dasturlar".
3. www.uzedu.uz

# JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**Hasanov Egamberdi Ollaberdiyevich**
**Xudayberganov Osqar Shonazarovich**
Bog'ot tumani 31- maktab
Jismoniy tarbiya fan o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni faollashtirish omillari, o'quvchilarning o'qish faoliyat motivlari va ularni rivojlantirish yo'llari belgilab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ta'lim, pedagogik texnologiya.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajasidagi istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'daniy sohalarida katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta'lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan."Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi – har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishni ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, "Baxtli tasodif" usuli.

"Baxtli tasodif" usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog'lik o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun qog'ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo'yiladi. Faqat bitta kartochkaga "Yutuq "5" baho" deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa "Baxtli tasodif" sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o'quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. Masalan, jismoniy tarbiya darsida "baxtli tasodif" o'yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin: "Baxtli tasodif" o'yini uchun tuzilgan kartochkalar:

1. Baxtli tasodif – 1Jismoniy tarbiya prinsiplari qaysilar?
2. Jismoniy tarbiya sistemasining asosini nimalar tashkil qiladi?
1. Baxtli tasodif – 2 Jismoniy tarbiyaning xarakterli belgilari?
2. Voleybol qanday sport turi.?

Baxtli tasodif – 3 Jismoniy mashklar ta'sirini aniqlaydigan omillar?

1. Basketbol qanday o'ynaladi?

Baxtli tasodif – 4Yutuq '5' baho. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan).
2. A.D.Novikov «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi» O'qituvchi nashriyoti 1975 y

# MAKTABLARDA RUS TILI FANINING O'QITILISHI

**Hasanova Gulchehra Aslidinovna**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
32- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Telefon: +998 91 991 57 95

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda rus tili fanining o'qitilishi, o'qitishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, rus tili faniga oid kompetensiyalarning qo'llanishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** rus tili, kompetensiya, pedagogik texnologiya, zamonaviy bilim, davlat ta'lim standarti.

Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor kundan kunga oshib bormoqda. Ularning har tomonlama yetuk, zamonaviy bilimga ega bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, o'quvchilarning dunyoqarashi keng, jahon standartlariga javob bera oladigan kadr bo'lib yetishishlari uchun chet tillarini o'rganish va bemalol suhbatda bo'la olish ko'nikmalari rivojlanmoqda va talab kuchayib bormoqda. Maktabda rus tili fanining o'qitilishi, yoshlarning rus tilida bemalol so'zlashishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda endi o'zbek tilida dars o'tiladigan maktablarda rus tilini o'qitishni yaxshilash maqsadida Rossiya Federatsiyasining Maorif vazirligi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, rossiyalik pedagoglar O'zbekistonga kelib hududiy malaka oshirish markazlarida rus tili o'qituvchilarimizning malaka oshirishlariga hamda o'zbek tilida dars o'tilayotgan maktablarda rus tilini o'rgatishni yaxshilashga yordam beradilar. Bu esa maktablardagi rus tili o'qituvchilarimiz uchun ham juda katta foyda bo'ladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarning rus tilini o'rganishiga bo'lgan talab ota-onalar tomonidan juda yuqori. Ko'pchilik ota-onalar uyda rus tilida so'zlashmasliklari sababli bolalari o'qishda qiynalsa ham, rus tilidagi maktabga berishga harakat qiladilar. Bunga asosiy sabablardan biri, men bilmasam ham bolam juda bo'lmasa rus tilini o'rganib chiqsin, deydi. Aslida esa bunday o'quvchilar maktabda boshqa fanlarni o'zi bilmaydigan tilda o'zlashtirishga qiynaladilar.

Rus tilini maktabarda o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni kattadir. Rus tilini o'rgatishda qo'llanadigan bunday texnologiyalar o'quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o'rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogi texnologiyalarni darsda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;
- yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;
- yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan izchililkda yetkazish;
- o'quvchilarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;
- dars jarayonida o'quvchilar ishtirokini kuchaytirib borish;
- lug'atlar o'rganishni qulay yo'lini aniqlash.

Har bir fanni o'qitishda shakllantiriladigan kompetensiyalar mavjud. Rus tili fanidan o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ham bor, bular quyidagilardir:

Коммуникативная компетенция – это способность индивида решать языковыми средствами коммуникативные задачи в разных сферах и ситуациях общения. Коммуникативная компетентность представляет собой нерасторжимое единство трёх компонентов: речевого, лингвистического и социолингвистического.

Коммуникативная цель предполагает решение следующих задач:

- формирование, развитие и совершенствование умений и навыков в разных видах речевой деятельности
- аудирование говорение чтение и письмо – речевая компетенция
- достижение определённых теоретических знаний о языковых аспектах ( о фонетике, лексике, грамматике ) – лингвистическая компетенция;
- формирование умений соотносить языковые средства с ситуацией общения -

социолингвистическая компетенция.

Maktabda o‘quvchilar rus tili va boshqa xorijiy tillarini bilishi kelajakda muvafaqqiyatga erishishiga yordam beradi. Shuning uchun ham jahonda keng foydalaniladigan, jumladan, qo‘shni davlatlar bilan muomala uchun kerak bo‘ladigan tillarni sifatli o‘rgatish zarur.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent. 2017-yil.
2. Internet ma’lumotlari.

# MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI MASHQLAR VA ULARDAN FOYDALANISH MAHORATI

**Ibragimova Nargizaxon**
O‘zbekiston tumani
14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail: ibragimova14@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun qo‘llanadigan mashqlar ahamiyati va ulardan foydalanish mahorati misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** fikr, mashq, fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar, mantiqiy fikrlash, ona tili, savodga o‘rgatish jarayoni.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim mazmunini savod o‘rgatish va nutq o‘stirish, amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o‘stirish kabi bo‘limlar tashkil etadi. Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi - o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Savodga o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta’lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob’ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiy o‘sishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib boriladi. Masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko‘ylak, kostyum*) va oyoq kiyimlar *(botinka, tufli )*; uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar *«Bu nima?»* so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi:

*Bu nima? - Ko‘ylak. Ko‘ylak nima? Ust kiyim.*

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko‘rsatish va umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash. Masalan, *stol, stul, shkaf* kabi narsa nomlarini bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? *(Mebel)*

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, *qalam, ruchka, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul* ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, *stul* o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

**O‘quv qurollari:** *qalam, ruchka, chizg‘ich, o‘chirg‘ich*;

**Mebel:** *stul*

Bunday mashq o‘yin tariqasida o‘tkazilishi ham mumkin: ma’lum so‘zlar berilib, ortiqchasini

topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.*

4. Narsa-buyum nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ...* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga ajratadilar.

| 1-guruh | 2-guruh | 3-guruh | 4-guruh |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: *qaldirg'och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo'roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)*

| | |
|---|---|
| ***Qushlar*** | *qaldirg'och, chumchuq, bulbul…….* |
| ***Parrandalar*** | *tovuq, xo'roz, g'oz…………* |

Mazkur mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995.
2. Matchonov S., G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, "Yangiyul" nashriyoti, 2008.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009.

# PEDAGOG XUSUSIYATLARI:PEDAGOGIK MAHORAT

**Jonzokova Sayyora Anvarovna**
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**.Mazkur maqolada pedagog xususiyatlari,pedagogik mahorat haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar**: tarbiya, mahorat,ta'lim, bilim, o'qituvchi, axloq, pedagogik faoliyat

*Tarbiya – buyuk ish: tarbiya bilan*
*inson qismati hal etiladi.*
***V.G.Belinskiy***

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri-o'qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib uning faoliyati orqali bu g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tadbiq etiladi.O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, ahloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish va hakazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi. Agar, bolani chuqur bilimli, etiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsak, shu fazilatlar o'qituvchida mujassamlangan bo'lmog'i lozim.Har bir pedagog bo'lajak o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni tashxis qilishda asosan metodlardan foydalaniladi, o'qituvchi bu faoliyatni amaliyotga oshirishga mutaxassis sifatida tayyorgarligini ko'rsatuvchi belgilarni o'rganish va baholash usullarning to'plamini tushuntirish lozim. Bu faoliyat muvofaqiyatliligini tashhis qilish butunlay mustaqil tadbir bo'lmay balki u yanada kengroq tashhis jarayonlar tarkibiga kiradi. Talim muassasalarida pedagogika fanlarning xususiyatlarini tahlil qilishda ko'pchilik o'qituvchilar faoliyati ijodiy uslubiga mo'ljallangan o'z ustilarida ish olib borishlarini ko'rsatishi lozim. O'qituvchlarning 45% yangi didaktik va tarbiyaviy kontseptsiyalar, ularning farqi avzalliklarini bilmas ekanlar. O'quvchilarni mustaqil erkin ijodkorlik bilan fikrlashga jadallikka, bilimga yangilik va murakkablikka o'rgatib borish kuchlari bilan bilim malakalarini rivojlantirish kabi bir qancha zaruriy metodlardan foydalana bilish bu pedagog-o'qituvchilarning oldida turgan eng ulug', buyuk burchdir.O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rin egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipda fikrlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. O'qituvchining hohish istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo'lsagina, o'quvchilar orasida hurmat qozonadi.Pedagogik mahoratning asosiy poydevorini kasbga doir bilimlar tashkil etadi. Bunday bilimlar mazmuni esa, o'qitilayotgan fan mazmuni metodikasi pedagogikasi va psixologiyasiga doir bilimlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida (5-modda): «Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi, boy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega», deb ta'kidlangan. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun talablarini bajarish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdir. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirishni zamon talab etadi.Pedagogik mahorat asosan, o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratga erishish uchun maxsus umumlashtira olish qobiliyati, o'zining va talabalarning faoliyatini boshqarish qobiliyati, yuqori bilim, yetarli malaka va ko'nikmalar bo'lishi talab qilinadi.

Pedagogik faoliyat – yoshlarni hayotga, mehnatga, vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida davlat va jamiyat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir. O'qituvchilarning faoliyati respublikamizda buyuk davlat jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi yetuk erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob yuksak va shu bilan birga eng sharafli va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq atvoriga, xarakteriga ega.

Ularni o'qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rgatish nixoyatda murakkabdir. Bunda insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Otavalieva U. Bola tarbiyasida bog_cha va oila hamkorligi. -T., 1994 yil.
2. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar asosida o_kuv-chi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. -diss.-T., 2000.-298 b.
3. Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari. — T.: o_qituvchi, 1991.-200 b.
4. Ochilov.M. Muallim — qalb me'mori. — T: O_kituvchi, 2001. -429b.
5. Rizouddin ibn Faxruddin. Nasihat.-T.: "Cho_lpon", 1993 yil.
6. Usmonov R. Saodatnoma.-T.: "O_qituvchi", 1995 yil.
7. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). — T.: O_zbekiston, 1995. - 246 b.

# PEDAGOGIK JARAYONDA AKTNING O‘RNI

**Jo‘rayeva Matlubaxon Abdujabborovna,**
Farg‘ona tumani 32-maktab
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
Telefon: +998916593395
jmatlubaxon32@gmail.com

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada AKT ning ta’limdagi ahamiyati va uni amaliyotga tatbiq qilish jarayoni haqida fikrlar berilgan. AKT ning o‘qituvchiga eng asosiy ko‘makchi ekanligi misollar bilan tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar;** barkamol avlod, zamonaviy o‘qitish uslublari, AKT vositalari, innovatsion texnologiya, taqdimot, internet tarmog‘i.

Hozirgi kunda aytish mumkinki bilimli va intelektual rivojlangan barkamol avlod,sog‘lom muhit mavjud bo‘lgan sog‘lom jamoada tarbiyalanadi.O‘qituvchi dars jarayonida birinchi novbatda sog‘lom muhitni yaratishi kerak. Shundagina o‘quvchiga bilimimiz tezda yetib boradi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazish va unda ta’limning dastlabki bilimlarni hosil qilish umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladi. Maktabda mashg‘ulotlarni tashkil etish aytib o‘tilganidek o‘qituvchidan yuksak bilim, iqtidor, yetarli ko‘nikma va malakalani talab etadi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan dars o‘quvchining kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari ,interfaol uslublar ,innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnalogiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Har bir darsda o‘quv predmetning o‘ziga xos texnologiyasi mavjud.O‘quvchilarni kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik o‘yinlarni AKT vositalarni ham ahamiyati kattadir. Bularning barchasini amalga oshirishda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisiga bog‘liq.

Hozirgi kunning o‘qituvchisi zamon shiddatlanib borayotgan bir pallada ana’anaviy darsdan voz kechib, yangicha qarashda, yangicha nigohda ishlashini talab etadi.

Xo‘sh shunday ekan bir savol tug‘lishi tabiiy AKTni qo‘llashdan maqsad nima?

-AKT o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

-AKT o‘quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko‘mak beradi.

-AKT o‘rganish va o‘qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

-AKT o‘z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi.

-AKT turli yoshdagi o‘quvchilarni, turli darajadagi o‘qituvchilar bilan tezroq moslashishiga ko‘makdir.

AKT va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijasida:

-O‘quvchilar mavzuni tez tushunib oladi, yaxshi o‘zlashtiradi, o‘sha mavzuga qiziqishi oshadi.

-O‘quvchilar olgan bilimlarini to‘laqonli o‘zlashtirib,hayotda qo‘llay olishiga va turli vaziyat va muammolarda tezkor javobini topishga o‘rganadi.

-Eng asosiysi,mustaqil fikrlovchi yoshlarni bugingi zamonga mos tarzda ta’lim berib tarbiyalashga erishiladi.

Har bir o‘qituvchi darslarni yuqorida ko‘rsatilgandek texnik vositalardan innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tsa maqsadga muvofiq bo‘lib nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta’lim jarayonida AKT’dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotliligi, ko‘rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo‘yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo‘shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Maktabda mavjud bo‘lgan Internet tarmog‘i ishimizda katta yordam ko‘rsatadi. U elektron pochta, izlash tizimlarini o‘z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko‘paytirib, barcha kompyuterlarga o‘rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o‘qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o‘quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab

topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish — zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKT'dan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'z kasbini sevib ma'suliyat bilan yondashadigan talabchan o'qituvchi pedagogik jarayonida faol bo'ladi. Uning ijodkorligi bolalarni fikrlashga undaydi. Shubhasiz, hozirgi kunning o'quvchilari har qadamda fan texnika yangiliklariga,yutuqlariga duch kelishadiva qiziqishadi.Ular nafaqat bilim oluvchi balki axbarot, yangiliklarni izlovchi tahlil qiluvchi va shu bilan birga tadqiqot qiluvchilardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**.

1. Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: "Akademiya", 2007 y.
2. G'ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari – T.: «Sharq», 2000 y.

# MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH GRAMMAR IN PRIMARY CLASSES

**Khasanova Mavluda Alisher kyzy,**
Master degree of UzWLU, Tashkent

The role of grammar instruction in an ESL/EFL context has been for decades a major issue for students and teachers alike. Researchers have debated whether grammar should be taught in the classroom and students, for their part, have generally looked upon grammar instruction as a necessary evil at best, and an avoidable burden at worst. The paper reports a study undertaken to investigate the difficulties teachers face in teaching grammar to EFL students as well as those faced by students in learning it, in the teachers' perception. The English teacher is often learning suggest a disparity between students and teachers. While students favour formal and explicit grammar instruction and error correction, teachers favour communicative activities with less conscious focus on grammar[1]. The foregoing review of literature shows that practicing teachers are faced with a range of options for grammar instruction in their classrooms. There are, however, many types of difficulties faced by students and teachers with regard to grammar instruction in an ESL/EFL context portrayed as an "unattractive grammar monger whose only pleasure in life is to point out the faults of others"[2] . For the most part, within the classroom, any mention of grammar causes the student moments of discomfort and sometimes even terror.

Many teachers have tried to make grammar teaching a non-threatening, imaginative and useful activity within the English curriculum. Previous studies on students' and teachers' attitudes and perceptions of grammar instruction in the context of language teaching and. Identifying such difficulties and being consciously aware of them would help teachers find ways of overcoming them and provide effective grammar instruction.

Teaching grammar at school be based upon the following principles:

***1. Conscious approach*** to the teaching grammar. This means that in sentence patterns teaching points are determined so that pupils can concentrate their attention on some elements of the pattern to be able to use them as orienting points when speaking or writing the target language. For example, I can sees a book. I can see many books. The man asked for your telephone number. The man was asked for your telephone number. The teacher draws pupils' attention to the new element in the sentence pattern. The teaching point may be presented in the form of a role, a very short one. It is usually done in the mother tongue. This ensures a conscious approach to learning. They only help to attain the practical goal. Conscious learning is also ensured when a grammar item is contrasted with another grammar item which is usually confused. The contrast is brought out through oppositions.

I get up at 7 o'clock.
It's 7. I am getting up.
I was reading at 2 yesterday.
Give me the book.
Give me a book.

Realise the difficulties the sentence pattern presents for your pupils. Comparative analysis of the grammar item in English and in mother tongue may be helpful. Think of the shortest and simplest way for presentation.

***2. Practical approach*** to the assimilation of grammar. It means that pupils learn those grammar items which they need for immediate use either in oral or written language. E.g. Pupils need the Possessive Case for aural comprehension and speaking about things or objects which belong to different people. E.g. Ann's book, the boys' room, etc. In the senior stage (8-9-10) pupils need the sequences of Tenses and so on. The learner masters grammar through performing various exercises in using a given grammar item. Rule for the teacher: Teach pupils correct grammar usage and not grammar knowledge.

---

1 Brindley, G. (1984). Needs Analysis and Objective Setting in the Adult Migrant Education Program. NSW Adult Migrant Education Service, Sydney

2 Baron, D. (1982). Grammar and good taste: Reforming the American language. New Haven, NJ: Yale University Press.

***3. Structural approach.*** It means that grammar items are introduced and drilled in structures or sentence patterns. It has been proved and accepted by the majority of teachers and methodologists that whenever the aim is to teach pupils the command of the language, and speaking in particular the structural approach meets the requirements. Rule for the teacher: Furnish pupils with words to change the lexical (semantic) meaning of the sentence pattern so that pupils will be able to use it in different situations. Remember that pupils should assimilate the grammar mechanism involved in the sentence pattern and not the sentence itself.

***4. Situational approach.*** Pupils learn a grammar item used in situations. E.g. The Possessive Case may be effectively introduced in classroom situations. The teacher takes or simply teaches various things and says: This is Ann's pen. That is Nick's book and so on. Complex Object. The teacher says: Pete, I want you to give me your book, and etc. Rule for the teacher: Select the situations for the particular grammar item you are going to present. Look through the textbook and other teaching materials and find those situations, which can ensure comprehension and provide the usage of the item.

***5. Different approaches*** to the teaching of active grammar (grammar for conversation) and passive grammar (grammar for reading). Grammar items pupils need for conversation are taught by the oral approach, i.e. pupils and them, perform various oral exercises, finally see them printed , and write sentences using them. Grammar items necessary for reading are taught through reading. (E.g. The Past Continuous). At present they do not need this tense form for conversation. They need it for comprehension of the text only. Rule for the teacher: If the grammar item you are going to present belongs to those pupils need for conversation, select the oral approach method for teaching. If pupils need the grammar item for reading, start with reading and writing sentences in which the grammar item occurs. In short new grammar it, may be introduced in two ways: a) inductive; b) deductive. Inductive way means to observe grammar facts (phenomenon) in the texts, to select them in the speech situations and generalise them.

# HAMKORLIKDA O‘QITISH TA’LIM YONDASHUVLARI

**Mamatov Otanazar Quronboyevich**
Bog‘ot tumani 2-son maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 429-33-23
omamatov2@inbox.uz
**Rozzoqova Guloy Maqsudovna**
Bog‘ot tumani 2-son maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 756-87-62
rozzoqovaguloy_8762@gmail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hamkorlikda o‘qitish texnologiyasini qo‘llanilishi va tizimli yondashuvi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiya, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, demokratlilik, sub’ektiv munosabatlar, tizimli yondoshuv, ta’lim texnologiyasi.

O‘tgan asrning 80-yillari ta’lim jarayoniga ko‘plab innovatsiyalarni kirib kelishiga asos bo‘lgan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasini amerikalik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bir qancha maktab namoyondalari ilg‘or tajribalarini umumlashtirib, tadqiq qilganlar.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish demokratlilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi sub’ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Mazkur pedagogik texnologiya yangicha pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar g‘oyalar manbai sifatida ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi faqat birgalikda biror ish bajarish emas, balki birgalikda o‘qishdan iborat.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining tasnifiy tavsifi:
- qo‘llanish darajasiga ko‘ra umumpedagogik;
- falsafiy asosiga ko‘ra-insonparvar;
- rivojlantirish omiliga ko‘ra majmuaviy: bio-, sotsio-, psixogenn;
- o‘zlashtirish asosiga ko‘ra assotsiativ, reflektor,bosqichma-bosqich;
- mazmuniga ko‘ra o‘rgatuvchi, tarbiyaviy, insonparvar, umumta’limiy, dunyoviy;
- boshqaruv turiga ko‘ra kichik guruhlar sistemasi;
- tashkiliy shakliga ko‘ra akademik, yakka, guruhda,tabaqalashtirilgan;
- bolaga yondoshuviga ko‘rashaxsiy-insonparvar, sub’ekt-sub’ekt;
- boshqaruvchi metodga ko‘ra muammoli-tadqiqiy, ijodiy, munozarali, o‘yinli;
- o‘rganuvchilar darajasiga ko‘ra ommaviy. Hamkorlikda pedagogikasiga yo‘naltirilgan;
- talab pedagogikasidan munosabatlar pedagogikasiga o‘tish;
- ta’lim va tarbiya birligi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarni turli o‘quv vaziyatlarida hamkorlikda faol harakatlariga shart-sharoitlar yaratishdir. O‘quvchilarning o‘quv materiallarnin o‘zlashtirish imkoniyatlari turlicha: ayrimlari o‘qituvchining tushuntirishlarini tez ilg‘ab oladi, ayrimlariga qo‘shimcha vaqt va tushuntirish ishlari zarur. Bunday o‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlari davomida passiv bo‘ladilar. Agar o‘quvchilarni 4-5 nafardan kichik guruhlarga ajratib, ishtirokchilarining har biri vazifasi aniq ko‘rsatib o‘tilsa, bunday vaziyatda har bir o‘quvchi o‘ziga yuklatilgan vazifa hamda guruh vazifasiga mas’uliyat sezadi. Bunda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ilg‘or o‘quvchilardan yordam so‘raydilar. Hamkorlikda kelib chiqadigan muammolar hal etiladi. Tajribadan ma’lumki, birgalikda o‘qish na faqat qiziqarli va oson, balki samarali hamdir.

Hamkorlikda o‘qitish turli variantlari mavjud bo‘lib, ular uchun umumiy bo‘lgan tamoyillar quyidagilar:

guruhlar o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulotdan oldin, o‘quvchilarning psixologik moslashuvchanligi e’tiborga olinib tashkil etiladi. Har bir guruhda «kuchli», «o‘rtacha»,»kuchsiz» va albatta qizlar va o‘g‘il bolalar bo‘lishi kerak;

guruhga bitta topshiriq beriladi va uning bajarilishida guruh a’zolarining har biri vazifasi o‘qituvchi yordamida aniqlanadi;

har bir o‘quvchi bajargan ish emas, guruh ishi baholanadi;

guruhning qaysi ishtirokchisi guruh topshirig‘i yuzasidan javob berishini o‘qituvchi aniqlaydi. Ayrim hollarda «kuchsiz» o‘quvchi tanlanishi ham mumkin, chunki har bir topshiriqning maqsadi uni bajarilishida emas, balki har bir o‘quvchi tomonidan uning o‘zlashtirilishida.

Hamkorlikda o‘qitishning texnologik jarayoni quyidagi elementlardan tashkil topgan:

o‘quv-biluv masalasini qo‘yish (muammoli vaziyat);

o‘quv maqsadlariga mos o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish;

didaktik materiallarni tarqatish;

guruhlardagi ishlarni rejalashtirish;

topshiriqlarni individual bajarish, natijalarni muhokama qilish;

guruhning umumiy topshirig‘ini muhokama qilish (eslatmalar, to‘ldirishlar, aniqlik kiritish);

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligini o‘zida mujassam etmog‘i lozim.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvjarayoniga qo‘llash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari T.: 2006.

2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

# INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Mamatqulova Umida Eshmirzayevna,**
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Tel.: +998915923076
mehribon@jspi.uz
**Mukumov Kamol Taxirovich,**
Jizzax davlat pedagogika instituti magistri
Tel.: +998915944225
chost_boy@bk.ru
**Nomozov Mehroj Ibrohim o‘g‘li,**
Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi
Tel.: +998973937732
mexroj.muallim@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, rebuslarni qo‘llash, ularning ahamiyati boradasidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Informatika, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, o‘yinli texnologiyalar, rebus, daturlash tillari.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqda. O‘yinlar turli maqsadlarda - didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi. O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi [1].

Rebus, krossvordlar ham o‘yinli texnologiyalarga sarasiga kiradi. “Rebus” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “So‘zlar orqali emas, balki rasmlar orqali ifodalash” ma’nosini anglatadi. Bu - biror so‘z yoki atamaning rasmlar, notalar, xarflar bilan birgalikda ifodalanishi orqali hosil qilingan jumboqdir.

**Rebus** – keng tarqalgan va eng mashxur o‘yinlar sarasiga kiradi. U orqali maqollarni, she’r qismlarini, biror iborani yoki so‘zni berkitish mumkin. Undan ilk bor Fransiyada XV asrda qo‘llanilgan. Eng birinchi rebuslar to‘plami Etenom Taburo tomonidan Fransiyada 1582 yili chop etilgan. Keyinchalik Angliya, Germaniya, Italiyaga tarqalgan. Rossiyada birinchi rebuslar “Illyustrasiya” jurnalida 1845 yili chop etilgan [2].

**Rebus -** bu atamalarni ko‘ngil ko‘taruvchi xarakterdagi shifrlashdir. Quyida rebus qoidalariga to‘xtalamiz:

- rasmning chap yuqorisidagi apostroflar soni rasm nomining chap tomonidan o‘chiriladigan xarflar soniga mos keladi;
- rasmning o‘ng yuqorisidagi apostroflar soni rasm nomining o‘ng tomonidan o‘chiriladigan xarflar soniga mos keladi;
- so‘z o‘rtasidagi xarflarni o‘chirish uchun bu harflar rasm ustida yozilib ustidan chiziladi;
- so‘zdagi belgini almashtirish: “2=d” 2 – xarfni “d” xarfiga almashtirish, “r=p” esa har bir “r” belgi “p” belgiga almashtirish tushuniladi;
- rasm nomidagi belgilarning joylashgan o‘rni tartib raqamini o‘zgartirish orqali yangi hosil qilish mumkin;
- rasmni teskari qo‘yish orqali so‘z ham teskari o‘qiladi.

**Dasturlash tillari mavzusiga doir REBUS namunasi**




"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun quyidagi rebuslarni taklif etish mumkin:

| Rebus | Tushuncha | Ta'rif |
|---|---|---|
|   | | |
|   | | |
|   | | |
|   | | |
|   | | |
|  | | |

| | | |
|---|---|---|
|   | | |
|   | | |

Ushbu rebuslar o‘quvchilar aqliy faolligini o‘stiradi, bilish jarayoniga haqiqiy qiziqish uyg‘otadi. O‘yin davomida o‘quvchilar ma’lum qiyinchiliklarni yengadilar, o‘z kuchlarini sinaydilar, malaka va bilimlarini rivojlantiradilar.

**Dasturlash tillari mavzusiga doir**
**ANAGRAMMA**

| | |
|---|---|
| **Plsaca** | **Pascal** |
| **traforn** | **FORTRAN** |
| **Ihpled** | **Delphi** |
| **Npoyth** | **Python** |
| **mitogrla** | **Algoritm** |
| **rtudas** | **Dastur** |

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, xususan, o‘yin texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlarni olib borishni faol o‘qitish shakllaridan biri deb qarash mumkin. Bunday darslar o‘qituvchi va talabalarning ijodiy yondashuvini, talabalarning faol bilish faoliyati jarayonida malakalarni o‘zlashtirishlarini, o‘zining kelajakdagi pedagogik faoliyatida o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. O‘yinli texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish o‘rganilayotgan materialga doir atamalarni mukammal tushunishda va eslab qolishda stimul bo‘lib hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учеб. пособие. - Тошкент. ТДПУ 2003. - 192 с. [http://www.aci.uz/uz/news/uzaaa/article/110/].
2. Xaytullayeva N.S. Informatikani o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish // Informatika o‘qituvchisi Xaytullayeva Nafisa Saxobiddinovna blogi [http://nafisaxaytullayeva.blogspot.com/2015/02/informatikani-oqitishda-oyinli.html].

# MAKTAB PSIXOLOGLARINING O‘QITUVCHILAR BILAN ISHLASHI.

**Marqaboyeva Inobat Fayzulloyevna**
Toshkent shahar Yashnabod tuman 30-maktab psixologi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktab psixologlarining pedagoglar bilan faoliyati haqida bayon etilgan.
**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, o‘qituvchi, psixolog, ta’lim, subyekt.

Bugungi kunda barcha umumta’lim maktablari o‘zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o‘qituvchilar ko‘pincha psixologning qo‘lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarni bir zumda hal qilib beradigandek tuyiladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o‘zgarmaganini ko‘rishgach, ularda “maktab psixologining o‘zi nima keragi bor?” degan tipdagi savollar tug‘iladi. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o‘rta ta’lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

- Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intelektual jihatdan to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash, ularda o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish,
- Har bir bolaga individual yondashuvi va uning psixologik-pedagogik o‘rganilishini ta’minlash,
- Bolaning intelektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o‘qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o‘tishi kerak bo‘lgan birinchi to‘siq- bu maktabning pedagogik jamoasiga qo‘shila olishdir. Bordi-yu, ularga qo‘shilib keta olmasa, o‘z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir. Ko‘pincha o‘qituvchilar psixologni bolalarnin qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o‘rgatuvchi inson sifatida ko‘rib, dastlabki kezlardayoq, unga nisbatan salbiy fikrni shakllantirib oladilar. O‘z-o‘ziga ishonchi sust bo‘lgan o‘qituvchilar psixologni go‘yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida qabul qiladilar. Bular esa, psixologning maktab sharoitiga tez ko‘nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishiga xalaqit beradi.

Buning oldini olish uchun psixolog o‘qituvchilar bilan o‘zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o‘zini bilag‘on qilib ko‘rsatmasligi, eng muhimi, bir-birini raqib deb hisoblamasligi zarur. Shunga erishish kerakki, o‘qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan mutaxasis sifatida qabul qilsinlar.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O‘zining pedagoglar jamoasi va maktab ma’muriyati bilan bo‘lgan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi;
2. O‘z ishining asosiy maqsadi- bu bolaning optimal rivojlanishini ta’minlash ekanini doim yodda saqlashi;
3. O‘zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan diagnostic va rivojlantiruvchi ishga alohida e’tibor bilan qarashi lozim bo‘ladi.

**O‘qituvchi psixologning mijozi va yaqin hamkori sifatida**

o‘qituvchilar ham alohida e’tibor talab qiladigan obyektdir. Amaliyot ko‘rsatadiki, ko‘pincha o‘qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar. Hamma gap psixologning o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o‘ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

a) Pedagog bilan bo‘lgan munosabatga ustanovka;
b) Pedagoglarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka;
c) Subyekt- subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.





Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo‘lgan konstruktiv hamkorlikni ta’minlay oladi.

O‘qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ‘ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad kimgadir o‘z bilimlarini ko‘z-ko‘z qilish emas, balki, pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir. Ushbu mashg‘ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o‘qituvchilar passiv tinglovchi bo‘lib, qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma’lumotga ularni o‘z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror-bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki, “ o‘zim yordamimni taklif qilaymi yoki o‘qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?” mayli shu savolga har kim vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin, psixolog bir narsani unutmasinki, o‘qituvchilarning unga murojaat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog‘liq emas. Bu ko‘proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqotga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi, yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog‘liq. O‘qituvchilar bolalar haqida har qanday uzoq muddatli psixologik tadqiqotlar natijalaridan ko‘ra, ko‘proq narsani biladi. Ular bolalar bilan har kuni muloqotga kirishadilar, va tabiiyki, ularga ta’sir etish uchun ko‘proq imkoniyatga egalar.

Shunday ekan, biz psixologlar maktab o‘qituvchilarining yaqin hamkori va yordamchisi bo‘lmog‘imiz darkor.

# YOSHLAR ONGI VA RUHIYATIGA MILLIY G'OYANI SINGDIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI

**Matyakubova Mo'tabarxon Durdibayevna**
Tuproqqal'a tumani 5-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 386 81 12
md_ matyakubova8112@inbox.uz
**Yaqubov Maxmud Urazoliyevich**
Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 221 81 02
maxmud.urazoliyevich_27@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim-tarbiyaning istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish imkoniyatlari hamda milliy g'oyani yoshlar ongi va ruhiyatiga singdirishda yangi innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayoni, g'oyaviy ta'lim-tarbiya usullari, milliy tarbiya, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya asoslari, g'oyaviy-mafkuraviy saviya.

Ma'lumki tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra, keng va tor ma'nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma'noda oladigan bo'lsak, tarbiya ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko'zlagan holda avloddan-avlodga o'tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir.

Tor ma'noda esa, ma'naviy madaniyatni tarbiyalash - yoshlarni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo'lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo'naltirgan faoliyatini, ya'ni etuk shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi.

Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shuning uchun ham yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Milliy ta'lim-tarbiya tizimining turli shakl va vositalari milliy g'oyani ro'yobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta'minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo'lishi lozim.Inson va insoniyat hech qachon tashqi dunyodan o'zini qurshab turgan olamdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar, ro'y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Dunyodagi davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyyosi kuchlar, ular o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta'sirlar odamlar ongi, tafakuri va dunyoqarashiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

Dunyoqarashimizga hamoxang tarzda shakllanib borayotgan amaliy hatti-harakatlarimizda yangiliklar shu qadar ko'pki, ularni oxirgi paytda ijtimoiy innovatsiyalar tushunchasi orqali izohlamoqdamiz.

Ijtimoiy innovatsiyalar - bu inson aqli va kuchi, ma'naviy dunyosini mutanosibligi sharoitida uning mohiyatini saqlash, himoya qilish, takomillashtirish, samaradorligiga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi qarashlar majmui bo'lib, u bugungi kunda har birimizning turli tashqi va ichki ma'naviy tazyiqlardan himoyalanishimizning kafolatlarini belgilaydi.

Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo‘lishini ta’minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo‘lishga o‘rgangan yoshlar mehnatsevar bo‘ladilar, ularda juda yoshligidanoq ma’lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo‘sh vaqtlarida, ular o‘zlari sevgan ish bilan shug‘ullanishga o‘rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo‘ya ishlar bilan shug‘ullanishga vaqti ham bo‘lmaydi.

Odobli, mehnatsevar, sabr-toqatli farzandlar ota-ona qoldirgan boylikka boylik qo‘shadi, halol mehnati bilan jamiyatda o‘z o‘rnini, qadr-qimmatini topadi. Ota-onadan meros bo‘lib qolgan axloq va odob esa bir umr tugamaydigan eng katta boylikdir. O‘zbek xalqi maqolida aytilganidek, meros yo‘li bilan orttirilgan moddiy boylik yomon, akadan qolgan boylik undan ham yomonroq, xotindan qolgan boylik esa bularning hammasidan ham yomonroqdir. Yoshlar o‘z mehnati, peshona teri bilan topgan boylikni ko‘proq qadrlaydilar.

Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga, davlat belgilagan rejalar tizimiga qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etishdir. Ota-onaning ko‘zi oldida shirin farzandlari bilan bir qatorda, ularning jamiyat, millat taraqqiyoti, davr ehtiyojlari va imkoniyati bilan uzviy bog‘langan kelajagi ham turmog‘i kerak.

Shu bois aqlan yetuk, ruhan tetik va sog‘lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas’uliyatni to‘g‘ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Milliy g‘oya:asosiy tushuncha va tamoyillar.(darslik) –T.: Akademiya, 2005.

2. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: Akademiya nashriyoti. 2007.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Matyoqubova Nigora Sadullayevna**
Bog'ot tumani 6-son maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 453-12-34
matyaqubova_6@inbox.uz
**Ataboyeva Noila Masharipovna**
Bog'ot tumani 6-son maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 (90) 986-58-09
Ataboyevan_09@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda og'zaki hisoblashni rivojlantirish texnologiyasi haqida.

**Kalit so'zlar:** Og'zaki hisoblash, yig'indi, ko'paytma, bo'linma, arifmetik amallar, distrebutevlik qonuni.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'ymoqda. Lotin yozuviga asoslangan matematika darsliklarimizda ayniqsa, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir. Yig'indidan, ko'paytmaga o'tish qoidasi, ko'paytma, bo'linma tushunchalari, ularning komponentlari orasidagi munosabatlarni mukammal o'zlashtirishni talab etadiki, bu yuqori sinf matematika fanidan oladigan bilimini mustahkamlash asosi bo'lsin. Boshlang'ich sinflarda eng qulay usul bilan hisoblash masalasi arifmetik amallar bajarishning asosiy tayanchi hisoblanadi. O'qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan balki ijodiy fikrlaydigan materiallar bilan darsni boyitish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10, 100, 1000 ichida ko'paytirishni turli ko'rinishlaridan foydalanish o'quvchilarni qiziqishini oshiradi.

$68\cdot5 = (34\cdot2)\cdot 5 = 34\cdot(2\cdot5) = 34\cdot10 = 340$

$68\cdot50 = 34\cdot100 = 3400$

Qo'shishning distrebutevlik qonuniga ko'ra:

$17\cdot50 = (16+1)\cdot50 = 16\cdot50 + 1\cdot50 = 800+50 = 850$

Sonlarni bo'lish texnikasiga ko'ra:

$135:5 = (135\cdot2) : (2\cdot5) = 270:10 = 27$

$2250:50 = 4500:100 = 45$

O'quvchilar diqqatini og'zaki va yozma ko'paytirishga jalb etish zarurki, bunda o'quvchilar qiziqishi ortib borsin.

$24\cdot25 = (6\cdot4)\cdot 25 = 6\cdot(4\cdot25) = 6\cdot100 = 600$

Bunda imkon boricha qisqa holat tanlashga intilish zarur:

$24\cdot25 = (24:4)\cdot(25\cdot4) = 6\cdot100 = 600$

Ko'paytirishning qavslardan foydalanish holatlari juda ham qiziqarlidir:

$37\cdot25 = (36+1)\cdot25 = 36\cdot25+25 = 900+25 = 925$

$35\cdot25 = (36-1)\cdot25 = 36\cdot25-25 = 900-25 = 875$

$38\cdot25 = (36+2)\cdot25 = 36\cdot25-2\cdot25 = 900+50 = 950$

25 ga ko'paytirishning og'zaki usulini 24 va 26 ga ko'paytirishni (25-1) va (25+1) ifoda bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

(Bu chorak, bo'lak, ulushlar tushunchasini o'tganda zarur bo'ladi.)

Masalan: $36\cdot26 = 36\cdot(25+1) = 36\cdot25+25+36\cdot1 = 900+36 = 936$

$36\cdot24 = 36\cdot(25-1) = 36\cdot25-36\cdot1 = 900-36 = 864$

25 ga bo'lish esa, 5 ga bo'lish qoidasidek bajariladi. Yuqoridagi hisoblashlarga teskari hisoblashlarni bajarish bilan mustahkamlaymiz.

Bo'luvchini 2 ga, 4 ga ikki martalab ko'paytirish bo'lgan hollar uchun xonalarni nollar bilan to'ldirish qoidalariga asoslanadi:

$225:25 = (225\cdot2) : (25\cdot2)$ yoki $(225\cdot4) : (25\cdot4) = 900 : 100 = 9$

Agar 9,99 va 999 ga koʻpaytirish kerak boʻlsa, u holda eng qulay usulda hisoblash qoidasiga koʻra (10-1), (100-1), (1000-1) koʻrinishlarda distrebyuterlik qonuniga koʻra:

678·9=678(10-1)=6780-678=6102

577·99=577(100-1)=57700-577=57123

34·999=34(1000-1)=34000-34=33966

3 sinfda (14·15) koʻpaytirish qoidasi

14·15=14(10+5)=140·14·5=140+70=210

Buni darhol hisoblashga shoshilmasdan bajarish zarur, chunki

14·15=14·10+14·5=(14+7)·10=21·10=210

koʻrinishda hisoblashni bajarishni unutmaslik kerak.

Agar 23·15 boʻlsa

23·15=(22+1)·15=22·15+1·15=330+15=345

Shuningdek, 14 va 16 ga koʻpaytirishni (15+1) va (15-1) ifodaga almashtirish mumkin.

66·14=66·(15-1)=66·15 - 66 = 990 - 66 = 924

62·16=62(15+1)=62·15+15·1=930+62=992

61·69=6(6+1)·100+1·9=4200+9=4209

243·247=24·25·100+3·7=60000+21=60021

Bunday usullardagi hisoblashlarni bajarish oʻquvchilarni ogʻzaki hisoblash texnologiyasini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati**

1. M.Jumayev. Matematika (1-sinf). Turon iqbol. 2018 yil 160 bet. Oʻquv qoʻllanma

2. M.Jumayev. Matematika daftari. Turon iqbol. 2018 yil 4,5 bet.

3. M.Jumayev. Boshlangʻich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm Ziyo.2018 yil.

4. Jumayev M., Yuldasheva M, Mingbayeva B., Mamatova G. Boshlangʻich taʼlim fanlarini oʻqitish metodikasi moduli boʻyicha OʻQUV-USLUBIY MAJMUA – T.: – Nizmiy nomli TDPU huzuridagi XTXQTMOHM‖ 2017

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK SAVODXONLIK

**Maxramova Nafisa Raxmatovna**
Buxoro viloyat Buxoro tuman
26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99891 403 79 98

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni oshirish va uning ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar**; matematika, boshlang'ich sinf, fikr, tushuncha, son, masala, misol.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'rganishda har bir amalning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi matnli mashqlar va ularni o'quvchilar hayotiy tajribasi bilan bog'lab taklif etish uzviylikka ega, bu esa o'quvchilarning fanga qiziqishlarini oshirish bilan birga fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi uchun asos bo'ladi. SHuningdek umumiy fikrlash usullari va ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish arifmetika materiallari mazmuni, o'rganilayotgan asosiy tushunchalar va ularga doir masalalarni yechish ko'rgazmali tasavvurlar bilan birga mantiqiy fikrlashni, asoslash va amaliy qo'llanishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum konponentlarni topishga doir sodda masalalar shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib yechiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

O'n ichida bajariladigan sodda masalalar yechishini o'qitish metodikasi bo'yicha mashq qildirish sodda masalalarni yechishda ko'rgazmali qo'llanmalarni qo'llashda ba'zi o'quv va malakalarini egalashadi. 2-sinfda masalalar ustida ishlash asosiy o'rinni egallaydi. Bu erda qo'shish va ayirishdan tashqari ko'paytirishga va bo'lishga bir xil qo'shiluvchilarni yig'indisini topishga teng bo'laklarga bo'lishga, sonni bir necha martta orttirish va kamaytirishga sonlarni qisqa taqqoslashga amallarning noma'lum konpanentini topishga doir har xil sodda masalalar shuningdek har xil ko'rinishdagi murakkab masalalar keltirish usuli bilan echiladigan masalalar ikkita ko'paytmaning yig'indisini topishga doir va bunga teskari masalalar yig'indisini songa ko'paytirish va bo'lishga keltiriladigan masalalar ko'rib chiqiladi. Har xil turdagi masalalar yechishini amallar ma'nosini ochib berish, u yoki bu tushuncha u yoki bu munosabatlarning shakillanishidan tashqari o'quvchilar bilim doiralarining kengayishiga ba'zi kattaliklar va ular orasidagi bog'lanishlar bilan chuqurroq tanishtirishga hizmat qiladi. O'quvchilar masalani yechishiga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy hollarda berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma'lum bog'lanishlarni tushungan holda topishga o'rgatish kerak. SHunday qilib masalalar yechishni ustida ishlaganda o'quvchi faqat u yoki bir xil masalani haqidagini o'ylamasdan balki masala yechish malakasini shakllantiruvchi xususiy malakalarni rejali va muntazam ravishda ishlab chiqilishi borasida g'amxo'rlik qilishi kerak. CHunki masala yechishning umumiy murakkab malakasi shu xususuy malakalardan tashkil topadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi.

O'quvchilarda ikkinchi sinfda birinchi sinfdagi kabi yangi masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkab masalarni yechishda to'la pridmet ko'rsatmalikda sekin -asta to'liq bo'lmagan ko'rsatmalikka o'tiladi. Masala sharti murakkab berilganlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish qiyin bo'lganda shunigdek yangi tipdagi masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sodda masalani yechishda amal tanlash masalasiga to'xtalib o'tamiz. Bu malaka 1-sinfda shakllantirib boriladi, o'quvchilarning 2-yilda shakllantirish yana davom ettiriladi. Sodda masalalarni arifmetik, arifmetik ham algebrik usul bilan yechish mumkin. Sodda masala arifmetik usul bilan yechilganda ifoda tuzib uning qiymati topiladi. Masalan: Ahmad bir kuni kitobning 15 betini o'qidi, 2-kuni esa birinchi kuniga qaraganda ikki marta ko'p o'qidi. Ahmad ikkinchi kuni kitobning necha betini o'qidi. Masalani yechilishini bunday yozish mumkin: 15-2=30 (bet). Javob: Ahmad ikkinchi kuni 30 bet kitob o'qigan. Masalay echimini tekshirish to'g'ri yoki

noto‘g‘riligini aniqlashdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflarda tekshirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi. Masalalarning shartlari bilan topilgan javoblar orasida moslik o‘rnatish. Bu usul bilan o‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab tanishtiriladi, shu usul 2-sinfda davom ettiriladi. Masalan: Vali 12 ta baliq Ahmad esa unga qaraganda 2 marta kam baliq tutdi: ikkalasi birgalikda qancha baliq tutishgan. Yechish: 12+12:2=12+6=18 ta (baliq). Tekshirish: masalaning shartiga ko‘ra Vali Ahmadga qaraganda 2 marta ko‘p baliq tutgan. 18-12=6 ta 2. 12:6=2 ta. Masalani o‘zi bilan va uning tarkibiy elementlar bilan bolalarni tanishtirish o‘qitish jarayonidagi navbatdagi eng muhim va juda javobgarlik bosqichidir. Bu ishni predmet ko‘rsatmalikdan foydalanib boshlash kerak.O‘qituvchi son ma‘lumotlarni va amallarni ko‘rsatadi ammo natijani ko‘rsatmaydi, o‘quvchilardan yashirishi juda muhimdir.

O‘qitishning dastlabki kunidan boshlab sonni bir necha birlik orttirishga doir qiyinroq masalalarni kiritishga tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Bunday masalalarda predmetlarning 2 ta to‘plami taqqoslanadi: Amaliy mashg‘ulot bajarish davomida bolalar predmetlarning 2 ta to‘plami elementlari orasida bir qiymatli moslik o‘rnatishni o‘rganib oladilar, shuningdek taqqoslanayotgan to‘plamlarning qaysisida predmetlar ko‘p -qaysisida kam ekanligini aniqlashni ham o‘rganib olishga harakat qiladilar. Hamma arifmetik amallar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab, sodda va murakkab masalaga bo‘linadi. Echilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo‘lgan masala sodda masala deyiladi. Yechilishi uchun bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta ular bir xil yoki har xil amal bo‘lishlari bilan amalni bajarish zarur bo‘lgan masala murakkab masala deyiladi.

**Adabiyotlar;**

1. Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent. TDPU, 2003 yil.
2. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi (KHK uchun ) Toshkent. ―Ilm Ziyo‖ 2003 yil.

# BOSHLAG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

**Mirsayidova Mavjuda Ablaberdiyevna**
Toshkent shahri Yangihayot tumani
331-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998-93-539-7790

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish pedagogdan mashaqqat va sabr talab etadi.
Bola shaxsini rivojlantirishda boshlang‘ich ta’limning ahamiyati juda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida qo‘llagan bir nechta samarali usullar va metodlar haqida tavsiyalar bermoqchiman.

**Kalit so‘zlar:** VARK modeli, “G‘ijimlangan qog‘oz”, kreativ, vizual, o‘qish, eshitish, kinestetik.

Boshlang‘ich ta’lim beruvchi o‘qituvchi haqiqiy fidokor va kreativ bo‘lishi lozim. Chunki bola o‘quvchilik olamiga tashrif buyurar ekan, uning uchun ustozidan boshqa bilimdon shaxs bo‘lmaydi. Bolaning maktabga ilk qadam qo‘yganidan boshlab yangi ijtimoiy muhitga singib ketishi ham birinchi ustozning mehnati va himmatiga bog‘liq bo‘ladiki, pedagog har bir o‘quvchiga psixologik yondoshgan holda o‘qitishi, bolalik o‘yinqaroqligidan mas’uliyat tomon olib o‘tishi lozim bo‘ladi. Bola jamoat joyida o‘zini tutishni, boshqalar bilan munosabatga kirishishni, inson sifatida ulg‘ayishni boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘rganadi va qabul qiladi.

Pedagog qanchalik ijodkor va tajribali bo‘lsa, shunchalik turli psixikaga ega bolalarga bir maromda bilim va tarbiya bera oladi. To‘g‘ri, o‘quvchilarning bilim olish saviyasi, nutqiy so‘zamolligi, fikrlash doirasi, xotirasi, bilim olish xususiyatlari, qobiliyatlari bir xilda emas, ammo o‘qituvchi dars o‘tish mahorati, o‘zini tutishi, so‘zlashi, fikrlashi orqali bolaga ta’sir o‘tkaza oladi. E’tibor bersangiz, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning katta foizi katta ehtimollik bilan o‘qitgan o‘qituvchisiga o‘xshab ketadi. Ya’ni madaniyati, tarbiyasi, ijodkorligi, o‘zini tutishi va xakozo. Shunday ekan, zamonaviy ijodkor shaxsni voyaga yetkazishni maqsad qilgan biz-pedagoglar o‘z ustimizda ishlashimiz turli yangiliklar va zamonaviy metodlardan foydalanishimiz zarur deb hisoblayman. Shu o‘rinda, bir nechta yangi usullar haqida sizlar bilan bo‘lishmoqchiman.

**VARK modeli** .Ushbu model dunyoning rivojlangan davlatlarida maktab o‘quvchilari uchun eng samarali deb topilgan. Dunyo tan olgan ushbu modelni siz ham dars mobaynida bemalol qo‘llab ko‘rishingiz mumkin.

Ushbu metodlar,albatta, o‘qituvchining ishini yengillashtirish, o‘quvchilar bilan oson kelisha olish, dars jarayonini tushuntirishda o‘qituvchiga ortiqcha yuklamalarni kamaytirish uchun kerak bo‘ladi. Bugungi modelimiz ham sizga, albatta, katta foydasi tegadi.

**VARK modeli haqida**

Vanderbilt universiteti ma’lumotlariga ko‘ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari **VARK modelida olingan to‘rtta uslublardir:**

**Vizual (kosmik) – o‘quvchilar ko‘rish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.**

**Eshitish (eshitish) – o‘quvchilar eshitish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.**

**O‘qish / yozish- o‘quvchilar o‘qish va yozish orqali eng yaxshi narsani o‘rganishadi.**

**Kinestetik (jismoniy) – o‘quvchilar harakat qilish va bajarish orqali yaxshiroq o‘rganadilar**.

Siz darsingizni yuqoridagi uslublardan foydalangan holda tashkillashtirganmisiz? Albatta bu uslublardan dars mobaynida foydalanasiz. Faqatgina ularning yanada chuqurroq mohiyatini bilib olsangiz darsingiz yanada oson tashkil qilinadi. Ushbu to‘rtta uslubni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Vizual ta’lim uslubi. Vizual o‘qitish uslubi video tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan va rasmlar, jadvallar va grafikalar singari taqdimotlarni ko‘rishni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Inson miyasi vizual ma’lumotni oddiy matnga qaraganda ancha tezroq qayta ishlaydi. Darsingizda ushbu vositalardan tez tez foydalanib tursangiz, o‘quvchilarda qiziqish yanada ortadi.

Eshitish orqali o‘rganish uslubi. Eshitish orqali o‘rgatish uslubi ma’ruzalar va audio kitoblarni tinglashni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Ushbu o‘quvchilar eshitgan narsalarini o‘rganishi oson bo‘ladi.E’tibor bergan bo‘lsangiz, o‘quvchilar film tomosha qilsalar, sodir bo‘lgan harakatlarni emas, balki filmda aytilganlarni yaxshi eslab qolishadi. Shuning uchun darsingizda

turli podcastlardan foydalanib turing.

O‘qish / yozish orqali o‘rganish uslubi. O‘qish va yozish orqali o‘rganish uslubi, siz kutganingizdek, o‘qish va yozishni yaxshi ko‘radigan odamlarga mos keladi. Buning sababi shundaki, ular o‘qigan va yozgan so‘zlar ongida osonlikcha saqlanib qoladi.Bu usul har bir darsda ishlatiladi. Chunki o‘quvchida o‘qish va yozish orqali ma’lumotlar yaxshi saqlanib qoladi.

Kinestetik ta’lim uslubi. Bu usul sinfda turli harakatlardan iborat o‘yinlar va musobaqalar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarni turli o‘yinlar orqali o‘rinlaridan turishi va turli harakatlar qilishi darsda tetik va diqqat bilan o‘tirishlariga katta yordam beradi.

“G‘ijimlangan qog‘oz” darsni faollashtiruvchi texnikalardan biri. Dars davomida mavzuni o‘tib, o‘quvchilarga qog‘ozda mavzu bo‘yicha savol yozish so‘raladi. O‘quvchilar savol yozgan qog‘ozlarni g‘ijimlab, savatga solishadi. Savatda to‘plangan qog‘ozlarni boshqa guruh o‘quvchilari olishadi va javob yozishadi va yana boshqa savolni yozib qayta g‘ijimlab, savatga solishadi va qayta egalariga yuborishadi. Bu mashg‘ulot o‘quvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Darsni ham oson o‘rganishadi. Qayta aloqa sifatida o‘quvchilar bir-birlarini baholashi hamda nazoratga olishi, murakkabroq savollar tuzishni, yechim topa olishni o‘rganishadi.

Xulosa qilish mumkinki, zamonamiz rivojlanishi natijasida yosh avlod ham qiziquvchan yangilikka o‘ch. Doim an’anaviylikda- bir xillikda o‘quvchi tezda zerikadi. Interfaol metodlar orqali dars o‘tish jarayonida o‘quvchining fanga qiziqishi ortadi, kreativligi namoyon bo‘ladi. Ularning mustaqil ishlashi, fikrlarini jamlash va xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Xoliqov. Pedagogik Mahorat T-2011

2. Ishmuhammedov M, Yo‘ldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998

# DUAL TA'LIM- NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI YOHUD "YANGI O'ZBEKISTON"NING YANGICHA TA'LIM OLISH SHAKLLARI.

**Mirzayeva Lola Naimovna**
Buxoro viloyati
yuridik texnikumi o'qituvchisi
Telefon: +998 91 975 08 89

**Annotatsiya:** Dual ta'lim tizimining O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes subyektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlashning yoritib berishdan iborat.

**Glossariy:** Dual ta'limi,professional ta'lim,kasbiy ta'lim,kompetensiya,mehnat bozori,-to'lov-kontrakt.

Har bir mamlakat o'z mezonlari asosida ta'lim tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli davlatlarda ta'lim olish imkoniyatlari turlicha bo'ladi. Tizimga asos solinayotganda mamlakatning tarixiy an'analari, bugungi kun talablari inobatga olinadi. Xususan O'zbekiston ham mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim sohasiga ham katta e'tibor qaratdi. Sohaga doir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Davr shiddat bilan o'zgarayotgan bir davrda har qanday oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga qo'shimchalar kiritish, zarur bandlarini olib tashlash majburiyatini yuklaydi.

Xususan yaqinda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 29.03.2021 yildagi «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida»gi 163-son qaror qabul qilindi. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etiladi.

Xo'sh dual ta'lim nima degani? Ham kasbiy ta'limda o'qib, ham o'z yo'nalishig mos ishda ishlash- dual ta'lim demakdir. Hukumat qaroriga ko'ra, dual ta'limda o'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi, qolgan kunlar ishlaydi, ishlagan kunlari uchun haq oladi.

Dastlab dual ta'lim tizimi Germaniyada 1969 yilda Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi qonun qabul qilingandan so'ng rasmiy ravishda paydo bo'ldi. Kasb-hunarga o'qitish to'g'risidagi qonun ushbu tizimni Germaniya bo'ylab kodlashtirdi va standartlashtirdi, bu davlat, xususiy sektor va kasaba uyushmalari zamonaviy Germaniya uchun ikkilamchi tizimni yetkazib berishni samarali muvofiqlashtirishi mumkin bo'lgan asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu yuqori darajadagi muvofiqlashtirish xalq ta'limi dasturlarini va bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan qat'iy maxsus o'quvchilarni tayyorlashga imkon berdi.

Talaba boshidanoq kompaniyaning xodimi bo'lib, uning o'sib borayotgan qobiliyatiga mos vazifalarni oladi. Agar kompaniya talaba bilan uning ikki tomonlama o'qish vaqtidan keyin mehnat shartnomasini tuzmoqchi bo'lsa, kompaniya kompaniyaning ish jarayonini biladigan xodimni oladi. Bundan tashqari, talaba ko'proq tajribali hamkasblarning tug'ma qattiq va yumshoq qobiliyatlari haqidagi bilimlardan foydalanishi mumkin. Talaba haqiqiy sharoitda rivojlanadi. Shuning uchun, u bu ishni faqat imtihonlardan keyin emas, balki juda erta bajarishga qodir emasligini yoki xohlamasligini ko'rishi mumkin. Qolaversa, talaba boshidanoq pul ishlab topadi.

Dual ta'lim tizimidagi talabalar yuqori sifatli kasb-hunar ta'limi va ta'lim olishlarini hisobga olsak, ular yoshligidanoq mehnat bozoriga kirishga yaxshi tayyor va ularning o'qitilishida qatnashadigan firmalar ularni bitirgach, ishga qabul qilishga tayyor.Natijada Germaniya yoshlardagi ishsizlik bo'yich eng past ko'rsatkichga ega mamlakat sanaladi. Evropa Ittifoqida va Avstriyada ham xuddi shunday past ko'rsatkichlar mavjud. Bundan tashqari, ushbu tizim firmalarga yollash xarajatlari bo'yicha katta tejamkorlikni ta'minlaydi, chunki ular potentsial yollovchilarning mahoratini bilishadi va ularga sarmoya kiritadilar. Shuningdek, bu Germaniyaning jahonga taniqli firmalarining iqtisodiy yutuqlariga hissa qo'shadigan omil sifatida qaraladi, chunki yuqori malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yaxshilashga bevosita hissa qo'shishi mumkin.

Germaniyada o'zini oqlagan ushbu ta'lim tizimini O'zbekiston ta'lim tizimiga olib kirib, amaliyotda qo'llash jarayonlari boshlab yuborildi, Xususan dastlab tajriba maqsadida Toshkent va

Buxoro viloyatlarida to‘qimachilik sohasi bo‘yicha dual ta’lim faoliyati boshlab yuborildi.

**Dual ta’limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:**

- korxona (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lim muassasalari o‘quv jarayonlarini o‘zaro bog‘lash;
- o‘quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismini korxona (tashkilot)larda hamda nazariy va o‘quv-amaliy qismini Ta'lim muassasalarida tashkil etish;
- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish;
- korxona (tashkilot)lar hamda Ta'lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;
- ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;
- kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;
- korxona (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;
- bitiruvchilarni baholashda korxona (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;
- turli yoshdagi aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo‘yicha kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.

**Dual ta'limni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:**

- Dual ta'lim tashkil etiladigan korxona (tashkilot)larni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida aniqlash;
- Korxona (tashkilot) va Ta'lim muassasasi hamda korxona (tashkilot) va o‘quvchi o‘rtasida shartnoma tuzish;
- O‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash;
- Kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;
- Ta'lim dasturlarni ishlab chiqish hamda yangilab borish;
- Mehnat bozorida kadrlarga bo‘lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda Dual ta'lim jarayonini tashkil etish;
- Dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shaklida ta’lim olayotgan o‘quvchilar dual ta’limga o‘qishini ko‘chirish taqiqlanadi. Shuningdek, Ta’lim muassasasi va korxona (tashkilot) o‘rtasida yoki korxona (tashkilot) va o‘quvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda o‘quvchi o‘qishi mos ta’lim darajasidagi kunduzgi ta’lim shakliga o‘tkaziladi.

Dual ta’limda o‘quvchilar to‘lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo‘yicha davlat granti asosida ta’lim olishlari mumkin.To‘lov-kontrakt miqdori tizimida Ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

**Dual ta’limni tashkil etishdan maqsad** – O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes subyektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta’limni uyg‘unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIKTANT VA UNING TURLARI.

**Musaboyeva Nodira Tulkunovna**
Namangan shahar 26- maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99891-359-69-19

**Annotatsiya:** ushbu maqolada diktant yozishning boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** diktant, orfografiya, malaka, bilim, ko‘nikma, uslubchilar, savod.

Diktant- eshitib yozishdir. O‘qituvchi butun matn, gap yoki so‘zni diktovka qiladi, o‘quvchilar yozadilar.

Diktant ko‘chirib yozishdan eshituv uquvi orqali qabul qilinishi bilan farq qiladi. O‘zbek tili orfografiyasi qoidalari faqat fonetik prinsip asosidagina emas, balki juda ko‘p so‘zlar morfologik prinsip asosida ham yozilishi sababli faqat diktant orqali o‘quvchilarni savodxon qilish mumkin emas. Uslubchilar o‘zlarining diqqat e’tiborlarini diktantni orfografik mashqlarning foydali turiga aylantirishga qaratib, uning juda ko‘p turlarini ishlab berdilar. Masalan; Ta’kidiy diktant, izohli diktant, ko‘rsatuv diktanti, saylanma diktant, eshitish diktanti, tayyorlov diktanti, erkin diktant va hokazo.

Boshlang‘ich sinflarda diktantlar kuzatilgan natijani berish uchun uni tashkil etish va o‘tkazishda ayrim talablarga rioya qilish zarur.

1. Kontrol ish ma’lum bir mavzu o‘tilib, O‘quvchilarda zarur malaka hosil bo‘lgach, o‘tkaziladi. Aks holda kontrol ish qiyinroq o‘tkaziladi.
2. Kontrol ish tekshirilganda yaqinda o‘rganilgan mavzular bilan bir qatorda ilgari o‘rgatilganlar yuzasidan yo‘l qo‘yilgan xatolar ham hisobga olinadi.
3. Diktant uchun materiallar sifatida ma’lum bir mavzudagi bog‘lanishli tekst ba’zan alohida gaplar olinadi. Har bir sinf uchun so‘zlar soni quyidagicha belgilangan:

1-sinfda ikkinchi chorak oxirida 20 so‘z, yil oxirida 40 so‘z;

2-sinfda ikkinchi chorak oxirida 55 so‘z, yil oxirida 65 so‘z ;

3- sinfda ikkinchi chorak oxirida 75 so‘z, yil oxirida 85 so‘z; Diktant matnining qiyinligi o‘rtacha bo‘lishi, ma’lum qadar imlosi o‘rganilmagan so‘zlar kiritilmasligi yaqinda o‘tilgan mavzuga oid 2-6 so‘z bo‘lishi talab etiladi.

Diktant matni O‘quvchilarning turli qoidalarga oid yo‘l qo‘ygan xatolarini aniqlash, taqqoslash imkoniyatini beradi. Matnda ma’lum bir qoidaga oid nechta so‘z bo‘lishini bilgan O‘qituvchiga O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolar hisobini olish, ular o‘rtasidagi farqni aniqlash oson bo‘ladi.

4. O‘qituvchi diktant matnini o‘qib, ayrim tushunarsiz so‘z va iboralarni yo‘l-yo‘lakay tushuntiradi, O‘quvchilar yozmay, faqat tinglab esda saqlab qolishlarini eslatib, har bir gapni alohida-alohida diktovka qiladi. O‘qituvchi yig‘ik sodda gaplarni butunligicha, yoyiq sodda gap va qo‘shma gapni esa qismlarga bo‘lib yana o‘qiydi, O‘quvchilar yozadilar. Gaplar qayta o‘qilganda O‘quvchilar yozganlarini tekshirib ko‘radilar. Matn diktovka bilan yozdirilgach, O‘qituvchi matnni yana bir marta sekin o‘qiydi, O‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

Masalan, 1-sinfda so‘zlarni so‘roq berish orqali bir-biridan farqlash; 2-3 sinflarda so‘z turkumlarini, otlarning egalik qo‘shimchalarini topib, shaxs-sonini aniqlash, qaysi kelishikda turlanganini farqlash, fe’llarning qaysi shaxs-sonda turlanganini, zamonini aniqlash, xatolarni hisobga olish va ular ustida ishlash. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining imlo va grammatikadan qay darajada malaka hosil qilganini aniqlash va bu malakani takomillashtirib borish uchun ularning yozma ishda yo‘l qo‘ygan xatolarini hisobga olib borishi zarur. O‘qituvchi diktant natijalarini hisobga olib boradigan daftariga eng bo‘sh o‘zlashtiruvchi O‘quvchilar uchun alohida varaq ajratib, ular yo‘l qo‘ygan xatolarni yozib boradi. Bu O‘qituvchiga O‘quvchilarning orfografik savodxonligi qanday o‘sishini ko‘zatib borishga, ayrim O‘quvchilarga sinfda va uyda bajarish uchun shaxsiy vazifalar berishga differensial yordam uyushtirishga imkon beradi.





O‘quvchilar yozma ishlarida yo‘l qo‘ygan xatolarini to‘g‘rilash ustida o‘zlari ham mustaqil ishlaydilar. Buning uchun ular xato yozgan so‘zlarini tug‘rilab ko‘chirib yozish bilangina chegaralanmay, ularni hisobga oladilar. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, O‘qituvchi frontal suhbat vaqtida yoki O‘quvchidan o‘tilgan mavzuni so‘rayotgan paytida zarur bo‘lgan so‘zlarni yozib berishini va qoidasini tushuntirishini so‘raydi. Bu hildagi ish O‘quvchilarni aktivlashtiradi. O‘qituvchi chorak oxirida, yarim yilda, yil oxirida O‘quvchilar ishida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni to‘la analiz qilishi mumkin. U tipik xatolarni yozib borish va ularni O‘quvchilar o‘rgangan qoidalari asosida klassifikasiya qilish natijasida sinfdagi O‘quvchilarning grammatika va imlodan o‘zlashtirishi xaqida to‘la tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi O‘quvchilar yo‘l qo‘yayotgan xatolarning sababini bilishi muhim ahamiyatga ega. Xatolarning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lib, asosiylari qo‘yidagilar hisoblanadi:

1. O‘quvchi qoidani bilmaydi;
2. Qoidani biladi, lekin uni yozuvda qo‘llay olmaydi;
3. Qoidalarni aralashtiradi;
4. Yozayotgan so‘zlarini ma’nosini tushunmay xato qiladi;
5. ayrim nutq tovushlarini xato eshitadi, yoki noto‘g‘ri talaffuz qiladi, yozish jarayonida o‘zini tekshirib bora olmaydi. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatoning oldini olish va to‘grilashda yozma ishlarni tahlil qilish darslari katta ahamiyatga ega. Bunday darsning ko‘rilishi kontrol ishning xarakteriga ko‘ra turlicha bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. K.Qosimova va b. Ona tili metodikasi.Toshkent. Nosir. 2009 yil
2. M.Jumaniyozova. M.Tilavova Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. (Ma’ruza matnlari) Urganch 2005 yil.
3. K.Abdullaeva. Savod o‘rgatish metodikasi. Toshkent "O‘qituvchi" 2006 yil

# BOSHLANG'ICH MATEMATIK TUSHUNCHARLAR SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI

**Narbayeva Nagima Abdireymovna**
Navoiy viloyati Konimex tumani 39 maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annatatsiya,** maqolada o'quvchilarni matematik tafakkurni rivojlantirishda boshlangich ta'limning o'rni haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar**, arifmetik masala, taqqoslash, analiz, sintez, misol

Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagogdan avvalo mohir kasb egasi, pedagogik muomala mahoratini sirlarini egallagan umuman pedagogika san'atini chuqur anglagan har tomonlama mukammal bo'lish shuni talab etiladi. Demak hozirgi davr talabini his qilgan har bir o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, mas'uliyatini oshirib borishi, zamondan orqada qolmasligi ta'lim tizimiga kirib kelyotgan raqobat muhitiga o'zini tayyorlab borishi lozim. Turmushda sonlar bilan bog'liq bo'lgan cheksiz ko'p hayotiy vaziyatlar vujudga keladiki, bu sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish talab qilinadi.

Bular masalalardir. Masalan:

1. Yosh tabiatshunoslarga 15 tup olma ko'chati va 10 tup olxo'ri ko'chati ajratildi .

Yosh tabiatshunoslarga qancha ko'chat ajratilgan?

2. Yengil mashina yo'lda 4 soat bo'ldi va soatiga 56 km tezlik bilan yurdi. Mashina qancha masofani bosib o'tdi?

3. Do'konda 2 bo'lak chit sotildi. Birinchi bo'lak uchun 180 so'm, ikknchi bo'lak

uchun ikki marta ko'p pul berishdi, ikkinchi bo'lak uchun qancha pul berishgan?

Ta'lim maqsadlarida ko'pincha mavhum vaziyatlardan foydalaniladi va muhim masalalar deb ataluvchi masala hosil qilinadi. Masalan: 8 ni hosil qilish uchun 12 dan qaysi sonni ayirish kerak? Biz marta arifmetik masalalarni ko'rib chiqdik. Ularda qanday umumiylik bor? Avvalo har bir masala berilgan va noma'lum sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi son to'plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi,munosasbatlarini ifodalaydi yoki berilgan mavhum sonlar bo'ladi. Masalan 1-masalada 15 soni olma ko'chatlari to'plamini sonini xaraterlaydi. 2-masalada 56 soni miqdor uzunlikning qiymatidir. 3-masalada 2 soni ikki sonning munosabatini 2 va 1-bo'lakdagi chitning bahosini ifodalaydi. 4-masalada 12, 8 mavhum sonlar berilgan bo'lib, bular mos ravishda kamayuvchi va ayirmadir. Har bir masalada shart va savol bo'ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanish ko'rsatiladi, bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi. Masalan, 2-masalaning sharti: yengil mashina yo'lda 4 soat bo'ldi va soatiga 56 km tezlik bilan bosib o'tdi? Masalani yechish bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish demakdir. Yuqorida keltirilgan masalaning yechilishini ko'ramiz.

1-masala sharli olma va olxo'ri ko'chatlari to'plamlar birlashmasi amalini aniqlaydi. Masala savoli mazkur to'plamlar birlashmasi amali masala yechilishi uchun zarur bo'lgan berilgan sonlarni qo'shish amaliga mos keladi. 15+10=25 masala savoliga javob: yosh tabiatshunoslarga 25 tup ko'chat ajratilgan.

2-masala shartidan mashinaning tezligi va uning harakaty vaqti ma'lum. Mashina bosib o'tgan yo'lni topish talab etiladi. Bu kattaliklar orasidagi mavjud bog'lanish dan foydalanib masalani yechamiz: 56*4=224 masala savoliga javob: mashina 224 km yo'l bosgan.

3-masalani yechishimiz uchun 2 marta ko'p ifodani ma'nosini bilishdan foydalani ladi. 18*2=36 masala savoliga javob: 2-bo'lak 36 so'm turadi.

Ko'rib turibmizki, hayotiy vaziyatdan arifmetik amallarga o'tish turli masalalarda berilgan sonlarva izlanayotgan son orasidagi turli bog'lanishlar bilan belgilanar ekan. Masalalarning turlari haqidagi masalaga to'xtalamiz: hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab soda va murakkab masalalarga bo'linadi. Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo'lgan masala sodda masala deyiladi. Yechilishi uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta ular bir xil amal bo'lishidan qat'iy nazar amaliy bajarish zarur bo'lgan masala

murakkab masaladir.

Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qoʻshish, ayirish, koʻpaytirish, boʻlish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilashi davomida shakillantiriladigan tushunchalarga bogʻliq ravishda turlarga

ajratish mumkin.

Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma’lum gruppalarga klassifikatsiyalashning yagona asosi yoʻq. Matematika boshlangʻich kursida sodda masalalar asosan 2-4 amalli murakkab masalalar qaraladi. Masala bilan savollar deb ataluvchi mashqlar arifmetik masala bilan yaqin bogʻlanishda boʻladi. Masala savollarda har masalalardek masala sharti (unda sonlar ham boʻlishi mumkin, boʻlmasligi ham mumkin) va savol boʻladi.

Masalan: ikki posyolkadan bir vaqtning oʻzida, bir-biriga qarab velosipedchi va motosiklchi yoʻlga chiqib, ular 36 daqiqadan soʻng uchrashdilar. Ularning har biri

uchrashguncha yoʻlda qancha vaqt boʻlgan?

Masalalar yechish jarayonining oʻzi ma’lum metodika oʻquvchilarning aqliy

rivojlanishiga ancha ijobiy ta’sir koʻrsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, oʻquvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish planini tuzayotganida sintez qiladi, bunda

konkretlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) soʻngra abstraklashdan foydalanadi (aniq vaziyatdan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdagi masalalarni koʻp marta yechish natijasida oʻquvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bogʻlanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi. Boshlangʻich sinfda masala yechishga oʻrgatish-bu berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bogʻlanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni bajarishni oʻrganish demakdir.

# MAKTAB O‘QUVCHILARIGA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXINI O‘QITISH METODIKALARI

**Negmatov Abdubanno Abdulatifovich**
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
33-maktab tarix fani o‘qituvchisi
Negmatov_scholl33@gmail.com

**Annotatsiya:** usbu tezisda maktab o‘quvchilariga Amir temur va Temuriylar tarixini o‘qitish metodikalarini va qo‘shimchama’lumotlarni ko‘rib chiqamiz
**Kalit so‘zlar:** Amir temur xayoti, Sohibqiron, Uch yillik urushlar, Turkistondagi ahvol

Amir Temur mavzusini o‘qitishda biz quyidagi usuldan foydalanishimiz mumkun. Bu usulda o‘quvchi ma’lumotlarni bo‘lim-bo‘lim shaklida o‘zlashtirganligi sababli unda ma’lumotlarni eslab qolish imkoniyati oshadi. Otasi – Amir Tarag‘ay, Tarag‘aybek (tug‘ilgan yili noma’lum, vafoti 1360) barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli edi. O‘zbek xalqi tarkibida to‘qson ikki urug‘ borligini bilamiz. Barlos ana shu "to‘qson ikki"ning biridir. Amir Tarag‘ay Turkistonning o‘sha paytdagi hukmdori Amir Qozog‘on oldida ishonch qozongan hurmati bor beklardan hisoblanar, Chig‘atoy ulusi beklari qurultoylariga qatnashib turardi. Harbiy ishlarga mayli yo‘q, taqvodor musulmon, vaqtini darveshlar bilan o‘tkazardi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Tarag‘aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...". Onasi – Tegina Xotun, Takina begim, Takina Mohbegim (taxm. 1318, Buxoro – 1353, Shahrisabz) Buxoro ulamolari peshvosi mavlono sadr ash-shari’a, ya’ni shariat qonunlarini sharhlovchi alloma Ubaydulloh al-Buxoriyning qizidir. Milodiy 1334-yil 16 yoshda Tarag‘aybekka uzatilgan. Oradan ikki yil o‘tgach, Temurbek tavallud topdi. Onasi va otasi Shahrisabzda dafn etilgan. Amir Temur onasi xotirasiga balandligi yetmish bir metr keladigan dunyoga mashhur Oqsaroy yodgorligini bunyod ettirdi. Bolaligidanoq tabiatan og‘ir-bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlash, o‘q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o‘rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o‘n ikki yoshida tengqurlari bilan "poshsho-vazir" o‘ynashar ekan. Temurbek podsho bo‘lar, qolganlarning har biriga bir "mansab" berilar, "gunohkor" odamni jazolab, "yurt" boshqarar ekan. O‘n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo‘lgan, niyatni katta qilgan. Milodiy 1358-yilda Turkiston (Movarounnahr) hukmdori Amir Qozog‘on o‘ldirilgandan keyin boshboshdoqlik avj olib ketdi. Tarixchi Xondamirning xabar berishicha, mamlakat o‘nga yaqin bekliklarga bo‘linib ketgan, hukmdorlar o‘zaro nizolar, janglar bilan ovora, birlashishni o‘ylamasdilar. Shu sababdan, Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurxon 1360–1361-yillarda yagona hokimi yo‘q yurtimizga bosqin uyushtirganda unga bas keladigan kuch topilmadi.

Amir Temur ana shunday vaziyatda tarix maydoniga kirib keldi. Xudo kelajakda ulug‘ saltanat barpo qilishni uning ko‘ngliga jo etgan edi. Buning uchun mamlakatni birlashtirish lozim bo‘lardi. U o‘zboshimcha amirlar boshini bir joyga qovushtira oldi. Og‘ir kurashlardan keyin milodiy 1370-yilda Amir Temur davlat boshiga keldi. Turkiston tarixida 1370-yil 9-apreldan boshlab mutlaqo yangi sahifalar boshlandi. «Sohibqiron» so‘zining arabcha «saodatli, zafarli, g‘olib» ma’nolari bor. Ilmi nujum (astrologiya)da va afsonalarda Zuhra (Venera) – do‘stlik va mehru muhabbat tug‘yonlarini in’om aylaguvchi, Mushtariy (Yupiter) – omadu iqbol, muzaffariyatu shodiyonalar sayyorasi deb ta’riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni qiron deydilar, shunday vaqtda tug‘ilgan bola o‘sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug‘ martabalar egasi bo‘lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida hukmdorlarga beriladigan sharafli unvon. Amir Temur Ko‘ragon ham shu unvonga musharraf bo‘lgan. Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilichu nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo‘ysunmaydigan o‘z qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o‘tish mumkin emasdi. Shuni ta’kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo‘lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda, qaysidir mamlakatda zulm ortib ketgan bo‘lsa, u joyning ulug‘lari sohibqiron Amir Temurga ko‘mak so‘rab murojaat qilishardi. Amir Temur o‘z "Tuzuk-

lar"ida davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash (diplomatiya)ga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozgan. U umr bo‘yi bunga rioya qildi. Muxolif mamlakatga takror-takror elchilar yuborar, quda-andachilikni yo‘lga qo‘yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo‘llarini izlardi. Buning yorqin misoli Xorazmning go‘zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi shahzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi.Amir Temurning "uch yillik" (1386–1388), "besh yillik" (1392–1396), "etti yillik" (1399–1404) yurishlari tarixdan ma’lum. Bu yurishlar zamirida Buyuk ipak yo‘liga egalik qilish uchun kurashlar ham yotadi. Savdo yo‘llari davlatga katta daromad keltirishdan tashqari, xalqaro siyosiy maydonda mavqe, obro‘-martabani yuksak darajaga ko‘tarardi. Amir Temur yurishlari, urushlar, albatta, o‘z asoratlarini qoldirdi, lekin ularning jahon tarixida ijobiy tomonlari borligi ham haqiqat. Sohibqironning yurishlari Xitoyda Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo‘g‘ullarning Xitoyga solayotgan xavfini bartaraf etdi. Oltin O‘rda hoqoni To‘xtamishxon bilan 1391, 1395-yillarda olib borilgan ulkan janglar Rossiyani mo‘g‘ullar zulmidan xalos qildi, rus xalqiga markazlashgan davlat tuzish imkoniyatini yaratdi. Amir Temurning Usmonlilar imperiyasi ustidan qozongan g‘alabasi Yevropani usmonlilar mustamlakasidan qutqarib qoldi, uni Yevropa xaloskoriga aylantirdi, Vizantiya imperiyasi umriga yarim asr umr qo‘shdi. Fransuz tarixchisi Rene Grusse XX asr boshlarida: "Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi", – deb yozgan edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Amir temur va Temuriylar tarixi. Toshkent 1995
2. Amir temur. Samarqand 1992.
3. Internet ma’lumotlari

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA ALLOMALAR MEROSIDAN FOYDALANISH

**Nurova Oydin**
Navoiy viloyati Karmana tuman
28- umumta'lim maktabi tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida tarbiya darslarida allomalarimizning boy merosidan unumli foydalanish, o'quvchilarni tarbiyalashda ular asarlaridagi noyob durdonalaridan ilmiy bilimlarni berishning bugungi kundagi dolzarbligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, mutafakkir, Axloq, qadr-qimmat, odob, ta'lim, ma'naviyat, ma'rifat.

Ma'lumki, tarbiya o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Barcha zamonlar donishmandlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz "Tarbiya" fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur".

Bu fikrlarning tub negizida tarbiya yotganligini anglab olish qiyin emas.

Demak, anglashiladiki, biz "Tarbiya" fanini yaratishda uzoq-yaqin o'tmishimizda yashab o'tgan ulug' zotlar merosidan, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanishimiz kerak bo'ladi. Ana shular asosida yaratilgan yangi fan farzandlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Barkamol avlodni tarbiyalash orqali esa oldimizga qo'ygan ulkan maqsadga erishamiz — mamlakatimizda uchinchi Uyg'onish ko'z ochadi.

Nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir. Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta'sirli narsa yo'qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmli va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston". Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U "Insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l — ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir", deya ta'kidlaydi. Olim, o'z navbatida, ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Shuning uchun ushbu g'oyalardan jamiyatning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlashda, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Navoiy inson qadr-qimmati uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini ko'p marta takrorlagan. Shoir she'rlaridan birida:

Tut bargichalik qimmating yo'qmi?
Ipak qurtichalik himmating yo'qmi?

— deya insonni o'ylashga, o'ylaganda ham o'z hayotidan kelib chiqib xulosa qilishga chorlaydi. Shu ikki satrda insonning dunyoga kelishidan tortib, bu yorug' olamda yashashning tub

mohiyati ochib berilgan.

Shoirning quyidagi so‘zlari ham tahsinga sazovor: “Kishilarning so‘z bilan naf yetkazish qo‘lidan kelmasa, loaqal ko‘nglidagi andishasi yaxshi bo‘lishi kerak. Ko‘ngli odamlarning xursandligidan xursand bo‘lishi lozim. Kimning xalq g‘amidan g‘ami bo‘lmasa, haqiqiy odam bo‘lsang, uni odam dema”.

Tarbiyaga e’tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o‘z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta’lim va tarbiya tufaylidir.

Ma’lumki, ulug‘ mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg‘unligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Allomaning “Tadbiri manzil” risolasida tarbiya masalasi ko‘proq tahlil etilgan. Xususan, “Tadbiri manzil”da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, avvalgi ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiya o‘zgalarning ta’siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo‘lsa, ma’naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo‘lish shunchalik murakkabdir.

Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma’qul: “Bola tana bo‘g‘inlari barqaror bo‘lgan, uning tili to‘g‘ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o‘zgalar so‘zlarini qabul qilish hamda o‘rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o‘rgatib borish lozim”.

Yuqoridagilardan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go‘zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ustoz-muallimlarning sa’y-harakatiga ham bevosita bog‘liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Ta’lim va tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta’lim, tarbiyaning bir juz’idir. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta’limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Tarbiyaning ma’nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish masalasi”ga bag‘ishlangan videoselektrdagi ma’ruzasi. 2019-yil 27-avgust №19750-xh

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-sonli qarori.

3. Xayrullayev M. M., O‘rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;

4. Xayrullayev M. M., Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri, T., 1971;

5. http://www.edunet.uz – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

# O‘QUVCHI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SHAXS TARBIYASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMO SIFATIDA

**O‘ktamova Gulbahor Nu’monovna**
O‘zbekiston tumani XTB metodisti,
Tel: +99891 688-02-88
**Tursunova Marg‘ubaxon**
O‘zbekiston tumani 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail: tursunova_list@mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil fikrlovchi, iqtidorli shaxs, mustaqil fikr, fikr mazmuni, shaxs tarbiyasi, mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan O‘zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo‘lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo‘ladilar. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o‘zgalar fikriga qaram bo‘lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma’naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. Ta’limdagi yangilanish faqat o‘quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o‘zgartirishni ham ko‘zda tutadi. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli-oliy natijasidir. U faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi. Narsa va hodisalarning mavjudligi aloqadorlikdan iboratdir. Aloqadorlik buzilsa, mavjudlikda ham o‘zgarish ro‘y berishini anglash, isbotlash, tushuntirish, fikrlash shakllanishining tadrijiy bosqichlaridir. Fikrlash insonga hayot baxsh etadigan kuchdir. Ya’ni, inson mustaqil fikrlash orqali tirik. Fikrsiz inson yaratish va o‘sishga qodir bo‘lmagan o‘lik jussaga aylanadi. Ta’limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligining past bo‘lishiga olib keladi. Fikrlash qobiliyati rivojlangan o‘quvchigina bilimlarni mustahkam o‘zlashtiradi. Shu sababli o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish juda muhim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslaridagi faoliyati ham elementar darajada bo‘ladi. Negaki u oddiy qayta ishlash ko‘rinishida tayanch tushunchalar asosidagi harakatlari fikrlash tarziga kam ta’sir o‘tkazadi. Tafakkurning yetarli darajada rivojlanmasligi, M.Saidov ta’kidlaganidek, «o‘quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so‘z qashshoqligi, fikrni mantiqan bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo‘lgan fikrlarni mantiqiy bo‘laklarga ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqishi»ga olib keladi. Bu esa masalaning g‘oyatda muhimligini ko‘rsatadi. Z.Nishonova esa mustaqil fikr rivojlanganligining mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. O‘zining va «o‘zgalarning» fikrini tanqidiy baholashda shaxsning tajribasi, o‘zga shaxsning fikrini tushunish qobiliyati, uning fikridagi mantiqni tushunish, suhbatdoshning fikrlarini o‘z fikrlari bilan taqqoslay olish va ma’lum xulosaga kelish; 2. Shaxsning fikr mazmuni bilan tashqi va ichki kelishuv; 3. Qarama-qarshiliklarni his qila olish; 4. Tafakkurda nazariy va amaliy umumlashtirishning nisbati; 5. Diqqatda namoyon bo‘ladigan aqliy funksiyalarning ixtiyoriy boshqarilishi; 6. Aqliy tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi.

Psixologiya fanlari doktori E.G‘oziyev va pedagogika fanlari doktori J.Ikromovalar mustaqil fikrlash jarayoni va uning komillikka ta’sirini tahlil qilar ekanlar, mustaqil fikr yuritish harakatini quyidagi bosqichlardan tashkil topishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadilar:

1. Muammoning paydo bo‘lishi. 2. Masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash. 3. O‘xshash ma’lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi. 4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning tug‘ilishi. 5. Taxminlarni tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash. 6. Yangi taxmin (faraz)ning yuzaga kelishi. 7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish. 8. Masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish). 9. Ixtiyorsiz aqliy hatti-harakatlar davom etishi (fikrlashning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

O‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o‘z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo‘lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta’limi oldida nechog‘li mas’uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari sifatida biz quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin: 1) o‘rganilayotgan materialni mustaqil tahlil qila bilish; 2) muammoni hal eta bilish; 3) hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, umumlashma xulosalar chiqarish; 4) o‘z fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash; 5) o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llay bilish.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak e’tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislarga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor. O‘quvchilarning shaxslik sifatlarini tarkib toptirishda o‘quv predmetlarning o‘rni beqiyos kattadir. Bu borada, ayniqsa, ona tili ta’limi zimmasiga katta mas’uliyat tushadi. O‘quvchilarni fikrlash qobliyatini rivojlantirish iqtidoriga ega bo‘lishi ularning o‘quv-biluv ko‘nikma va malakalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar**

1.Azizxo‘jayeva N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– T.:TDPU. 2003

2. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati.–Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

3. Амонашвили Ш.А. Воспитательная и образовательная функция оценки и учения школьников. – Москва: Педагогика, 1984.

# "EKOLOGIYA VA SALOMATLIK" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI

**Olimov Xurshid Avazbekovich**
TFI akademik litseyning biologiya fani oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Interfaol usullar koʻp turli boʻlib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, oʻqituvchidan mashgʻulot oldidan katta tayyorgarlik koʻrishni talab qiladi. Interfaol taʼlim usuli – har bir oʻqituvchi tomonidan mavjud vositalar va oʻz imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir oʻquvchi oʻz motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada oʻzlashtiradi.

**Kalit soʻzlar:** interfaol usul, tafakkur, baholash darajasi, metodik omillar, pedagogic omillar

Hozirda taʼlim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yoʻnalishlardan biri interfaol taʼlim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan oʻqituvchilari dars mashgʻulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Benjamin Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga koʻra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qoʻllash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida boʻladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi boʻlib, bunda oʻquvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega boʻlganda esa, oʻquvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud maʼlumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi.

Qoʻllash darajasidagi tafakkurda oʻquvchi olgan bilimlaridan faqat anʼanaviy emas, noaʼnanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni toʻgʻri qoʻllaydi.

Tahlil darajasidagi tafakkurda oʻquvchi yaxlitning qismlarini va ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni koʻradi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, maʼlumotlarning ahamiyatini baholaydi.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda oʻquvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba oʻtkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Maʼlumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi.

Baholash darajasidagi tafakkurda oʻquvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini koʻradi, xulosalarning mavjud maʼlumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Interfaol usullar koʻp turli boʻlib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, oʻqituvchidan mashgʻulot oldidan katta tayyorgarlik koʻrishni talab qiladi.

Hozir interfaol mashgʻulotlarni olib borishda maʼlumki, asosan interfaol usullar qoʻllanilmoqda. Interfaol taʼlim usuli – har bir oʻqituvchi tomonidan mavjud vositalar va oʻz imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir oʻquvchi oʻz motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada oʻzlashtiradi.

Interfaol taʼlim texnologiyasi - har bir oʻqituvchi barcha oʻquvchilar koʻzda tutilgandek oʻzlashtiradigan mashgʻulot olib borishini taʼminlaydi.

Bunda har bir oʻquvchi oʻz motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashgʻulotni oldindan koʻzda tutilgan darajada oʻzlashtiradi.

Interfaol mashgʻulotlarni amalda qoʻllash boʻyicha ayrim tajribalarni oʻrganish asosida bu mashgʻulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga taʼsir etuvchi ayrim omillarni koʻrsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda oʻqituvchiga, oʻquvchilarga, taʼlim vositalariga bogʻliq omillar deb atash mumkin. Ular oʻz mohiyatiga koʻra ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatishini nazarda tutishimiz lozim.

***Tashkiliy-pedagogik omillarga*** quyidagilar kiradi:

-oʻqituvchilardan interfaol mashgʻulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

-oʻqituvchilarga interfaol usullarni oʻrgatishni tashkil qilish;

-oʻquv xonasida interfaol mashgʻulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-maʼruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay boʻlishini taʼminlash;

-sanitariya-gigiyena me'yorlari buzilishining oldini olish;
-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
-davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

***Ilmiy-metodik omillarga*** quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;
-interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
-interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
-mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
-interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. G'afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov,M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova. Biologiya. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus,kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. «Sharq» nashriyoti, 2018.
2. Otaboev. Sh., Malikov. Z. va boshqalar. "Ekologiya". Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2011.
3 . Лемеза Н.Камлюк Л. Лисов Н. "Биология" Справочник для учителей. Москва. "Айрис пресс" 2003

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR BILAN ERTAKLAR MATNI USTIDA ISHLASH

**Otaboyeva Rashidaxon**
O‘zbekiston tumani
61-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail: otaboyeva_rashida@mail.ru

**Annotatsiya:** mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ertaklar matni ustida ishlashning metodik jihatlari haqida fikr yuritilgan. O‘qish darsligidai maxsus ruknlar ostida berilgan ertaklarni didaktik tahlil qilish usullari asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish darslari, adabiy matnlar, ifodali o‘qish, og‘zaki nutqni o‘stirish, yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish, ertaklar tahlili.

O‘qish darslarida asosan, darslikda adabiy matnlar bilan bir qatorda tarix, geografiya, odobnoma kabi fanlarga oid matnlar ham beriladi. Chunki o‘quvchilarga adabiy matnlar mazmun-mohiyatini tushuntirishda tasavvurlarini, dunyoqarashlarini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish, yaxshini yomondan ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish, ularning tuyg‘ularini tarbiyalash zarur. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Chunki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirib borish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni tarbiyalash bugungi ta’lim-tarbiya masalasining dolzarb vazifasidir. Shu sababli umumta’lim maktablarida o‘qish darslariga alohida e’tibor beriladi.

Adabiy ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining:
- bexato, ravon, ifodali o‘qishlari;
- o‘qiganlarini tushunish, tushunganlarini tushuntira olishi;
- ular asosida og‘zaki nutqni o‘stirish;
- yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda, asosan, o‘qilgan matnlardan didaktik xulosalar chiqarsh muhim sanaladi. Sinf o‘quvchilarining saviyasi, tayyorgarlik darajasiga ko‘ra 3-4-sinflarda matnlarni didaktik tahliliga keng o‘rin berish mumkin, shuningdek, estetik tahlil unsurlarini ham kiritsa bo‘ladi. Bu sinflarda she’rlar qofiyasini topish, qofiyaning she’r musiqiyligini ta’minlashdagi ahamiyatiga e’tibor berish, so‘z o‘yinlariga diqqat qaratish estetik tahlil chizgilari deyish mumkin.

O‘qish darsligida “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” (2-sinf) rukni ostida berilgan ertaklarda ham didaktik tahlilga keng o‘rin berish lozim. Masalan, “Tansihatlik – tuman boylik”, “Kenja o‘g‘il”, “Eng yaxshi sovg‘a”, “Aqlli bola”, “Hakka bilan tulki” (o‘zbk xalq ertaklari), “Tulki va xo‘roz” (eron xalq ertagi), “Somon, cho‘g‘ va loviya” (Aka-uka Grimmlar) kabi ertak qahramonlari orqali va ularning qilgan ishlari asosida ibratli xulosalar chiqarishga o‘rgatish zarur. Aslida, ertaklar xalq og‘zaki ijodi janrlari hisoblanadi. Olim D.Quronovning fikricha, “Ertak – xalq og‘zaki ijodidagi epik janr, cho‘pchak. Ertak barcha xalqlar og‘zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. Ertaklar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to‘qima salmoqli o‘rin tutadi”. [1:375] Ko‘rinadiki, xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir. Xalq tomonidan yaratilgan ko‘plab ertaklarda bolalarning o‘ziga xos hayoti chetlab o‘tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko‘p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g‘olib chiqadi. [2:33]

O‘zbek xalq ertaklaridan biri “Kenja o‘g‘il” ertagida otaning o‘g‘illariga har bir shahardan do‘st orttirishini o‘sha shaharlarda qo‘rg‘on qurishiga o‘xshatadi. Ha, albatta, bejizga xalqimiz “Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandir” deb aytmagan. Ertakdagi kenja o‘g‘ilning oqila va dono xotini cholning o‘g‘illariga qarata: “Turli shaharlarga borib, qo‘rg‘on solib kelinglar!” [3:134] degan so‘zlarining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglaydi va shu orqali cholning maqsadi

oydinlashadi. Ertak so‘ngida chol: “Har bir shahardan orttirilgan do‘st u yerga bir qo‘rg‘on qurish bilan teng! Mening maqsadimni faqat kenja o‘g‘lim tushunibdi”, deydi. Mazkur ertakning didaktik tahlili asosida o‘quvchilarga do‘st orttirish va do‘stni qadrlash zarurligi haqidagi g‘oyalarni singdirish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarga odamlar bilan muloqotga kirish va nutq odobi haqida ham fikrlarni aytib o‘tish lozim. Ertakni sinfda tahlil qilganda har bir o‘quvchidan shaxsiy fikrini so‘rash, “ertakdan qanday xulosa chiqardingiz” deb ularga murojaat qilish tahlilda yaxshi samara beradi. Yana shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilar ertaklarni o‘zlari mustaqil mutoala qiladilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ertaklar olamiga sayohati o‘quvchi ma’naviy dunyosini boyitishda muhim manba. Darslarda o‘quvchilarga ertaklardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish yosh avlodni axloqiy-ma’naviy jihatdan boyitishga, mustaqil fikrlashga undaydi.

**Adabiyotlar**

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, Akademnashr, 2013.

2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o‘qish. Toshkent, 2017.

3. G‘afforova T., Nurullaeva SH., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2018

# KOMIL INSON VA XALQ FAROVONLIGI G'OYALARI – TARAQQIYOT OMILI.

**Otadjanova Zaynab**
Toshkent shaxar Uchtepa tumani
78-son maktabning tarix fani
o'qituvchisi

**Annotasiya.** Maqolada komil inson tarbiyasi va uning bugungi kundagi zamon bilan moslashuvi haqida aytib o'tilgan**.** Komil insonrga O'zbekiston qo'yayotgan talablar bir tomonlama yuksak rivojlangan davlatlar bilan hamohang ekani aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar**: komil inson, jasurlik, shiddatlilik, halollik, yuksak ma'naviyatli inson

Qariyb uch ming yillik "Avesto" kitobidagi komil inson siymosiga qo'yilgan talablardan tortib, o'tgan payg'ambarlar,yunon faylasuf olimlari, bizning xududda o'tgan mutafakkiru valiylar hamda Evropa mutafakkirlarining komil inson to'g'risidagi fikrlari tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, haqiqiy inson sifatlarining eng ulug'lari: aqillilik, ya'ni aqlni mustaqil ishlata olish; bilimlilik-ko'p bilimga ega bo'lish, rostgo'ylik-faqat va faqat rost so'zlash, mehnatsevarlik- mehnat kishi ehtiyojiga aylanganlik holati, sabr-qanoatlilik, sahovatlilik-odamlardan moli tugul, jonini ham ayamaslik; jasurlik, shiddatlilik, halollik, ahloqiylik, salomatlik, vatanparvarlik, vafodorlik, shirin so'zlilik kabi hislatlar ekan. Bunday ijtimoiy sifatlar majmuini hozirgi zamon odamlari uchun ahloq kodeksi desa bo'ladi. Bu sifatlarga ega bo'lgan odamning dunyosi obod bo'lib, bu dunyoda xalq mehrini qozonib baxtli bo'lsa, bu dunyodan vidolashgandan keyin, oxiratda ruhi abadiy rohat va farog'atda bo'ladi. Bugunning komil insonlariga O'zbekiston qo'yayotgan talablar bir tomonlama yuksak rivojlangan davlatlar bilan hamohang ekani, ikkinchi tomondan, ma'naviyat intellektning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Endi barkamollik biz uchun fazodagi, tarixdagi yoki kelajakdagi marra emas. Komil insonlarni "hozir ham shu erda", ma'naviy tarbiya ishlarini ilmiy asosga qurib etishtirish qudratiga va tizimiga egamiz. Buning uchun shaxsni kamolotga eltuvchi:

-fazilatlar ma'nosini anglash;

-ularga ega bo'lish;

-ularga amal qilib yashash

Degan uch metodologik mezon asoslab berildi.

Bugun O'zbekiston nafaqat raqobatbardosh avtomobillarni, sanoat mahsulotlarini, ilm-fan yutuqlarini, balki hech kimdan kam bo'lmagan, barkamol insonlarni etishtiruvchi mamlakatga aylandi.

Hazrat Navoiyning "Barchasidin g'araz inson edi" degan purhikmat satri bor. O'zbekiston etishgan bu yutuqlar dunyoning barcha millat va dinlarining maqsudini ifodalaydi. CHunki ular insonni komil qilish, azizlash yo'lidagi yutuqlar bo'ldi. SHuning uchun minnatdor avlodlar bu ishlarni 50, 100, 1000 yildan keyin ham chuqur minnatdorlik, xurmat bilan eslaydi. Zero, azizlar azizlanganlarni azizlaydi. Jahon bo'ylab bolalarimiz erishayotgan yuksak marralar bizni ana shunday xulosaga olib kelayotir. Komil insonning o'n uchta ijtimoiy sifatlarini eslatib o'tamiz. Bularga; aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog'lom, milliy g'urur, vatanparvarlik, baynalmilal, insonparvar, jasur, shiddatli, sabr-qanoatli va saxovatli degan sifatlar kritilgan.

Komil inson xaqida yuqorida bayon etilgan fikrlarni jamlasak quyidagi xulosa kelib chiqadi;

-Komil inson-insonlarning eng mukammali, eng oqila va eng donosi, ya'ni eng aqillisi,

-Komil inson Iloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga etkazuvchi ulug' homiydir;

- Komil inson martabada Aqli avvalga teng; Olloh avval Aqli kullni, ya'ni Komil insonni yaratadi, keyin u tufayli boshqa mahluqotlar yaratildi;

-Komil inson ruhi azaldan ma'lum, u Tangri taolo yartagan eng qudratli ruhdir.

-Komil inson shu sifatlari bilan mutloq ilohiy hislatlarni jamlagan kayhoniy mavjudlikdir, u oddiy inson suratida ko'rinsa ham, lekin ma'nan koinotni qamrab olgan, hamisha bedor va hamma narsadan xabrdor bir zotdir.

-SHu martabda u Ollohning erdagi xalifasi bo'la oladi.

-Komil inson kishilik jamiyati ichidan etishib chiqadigan mo''tabar zotdir. Uning martabasi azaldan aniq bo'lgan emas, balki ahloqiy va ma'naviy poklanish jarayonida kamolotga erishadi.

-SHuning uchun har bir pok ahloqli, iloxsevar shaxs komillikka intilishi va shu yo'lda nasiba

olishi mumkin.

-Komillikning belgisi Haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z niyati, so'zi, amaliy ishlari bilan odamlarga qanchalik naf keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, Xudo yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir.

Agar o'tgan yigirma yillik davrga nazar solsak, bu-yangi davlat va jamiyat poydevorini qurish, totalitar mafkuradan qutilib, ma'naviy yangilanishlar orqali o'zlikka qaytish, milliy-ma'naviy tiklanish davri bo'ldi, desak xato bo'lmas. Eng katta yutug'imiz-dinu iymonni qalbda saqlagan holda dunyoviy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishini, odamlarning haq-huquqini tanib borish, teokratik tuzumning holakatli yo'l ekanini anglab borishdir. Bizning yo'limiz-milliy istiqlolni mustahkamlash, butaraqqiy dunyo tajribasini o'zlashtirib, yuksak ma'naviyatli insonlar, erkin fuqarolar jamiyatini qurish. Buning uchun esa birinchi navbatda ta'lim tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, milliy g'oyani ongu shuurga singdirib, chin vatanparvar, etuk salohiyat va aqliy iqtidorga ega odamlarni voyaga etkazish lozim bo'ladi. Quvonchlisi shuki O'zbekistonda dunyoni yangicha idrok etadigan, haq-huquqi uchun kurashadigan, o'z taqdirini xalq, vatani taqdiri bilan bir deb bilib, faoliyat ko'rsatayotgan yangi avlod shakllanmoqda.

Xullas kalom, inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, Rahmon va shayton, xayru sharr chegarasida yartailgan inson degan bu mubham xilqatni anglash, uning rahmoniy va shaytoniy quvvatlari qachon, qaerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanini tushunishga jiddu jahd qilganlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T. 2006y. 180 bet
2. Ziyomuhammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. T. 2006 y. 195 bet

# BOSHLANG'ICH TA'LIM SINFI O'QUVCHILARINI O'QITISHDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI

**Raximova Diloram Yuldashevna**
Xorazm viloyati Urganch shahar 4-son umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Elektron pochta: raximovadiloram1967@gmail.com
**Bekchanova Mardona Baxtiyarovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar 4-son umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Elektron pochta: mardonabekchanova@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lim sinfi o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarini mazmunli tashkil etish usullari va to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan interfaol metodlar haqida tavfsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** kompitensiya, sport seksiya, tezis, aktyorlik qobiliyati.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda maktab oldida turgan asosiy talab – yosh avlodga mustahkam bilim berish, ularning barcha fanlarni chuqur egallashi o'zlashtirgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olishidan iborat.




Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi natijasida mustaqil fikrlovchi, tafakkuri va iqtidorini to'la namoyon qiluvchi barkamol avlodni tarbiyalash umummilliy maqsadga aylandi. O'z – o'zidan ayonki, ushbu jarayonda o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri va mazmunli tashkil etish muhim o'rin egallaydi.

Bugungi kunda xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish, ma'naviy- ma'rifiy, madaniy tadbirlar samaradorligini oshirish o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga qaratilgan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi o'laroq yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarida sinfdan va darsdan tashqari fan to'garaklari, sport seksiyalari faoliyat ko'rsatayapti.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish boshlang‘ich ta’limning kompetensiyaviy yodashuv asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarning nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilishda darsdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi.



Boshlang‘ich ta’lim o‘qish darsligida asosan she’rlar, kichik – kichik hikoyalar, ertaklar berilgan. Sinfdan tashqari tashkil etilgan “Qo‘g‘irchoq teatri” to‘garagida o‘quvchilarning o‘qishi savodxonligini oshirish bilan bir qatorda aktyorlik qobiliyatlari ham shakllantirib boriladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar “Husnixat” to‘garagiga jalb qilinadi. Bunda o‘quvchilar nafaqat chiroyli yozishni, balki o‘zlari ham kichik – kichik hikoyachalar yozishni organadilar.

Sinfdan tashqari to‘garaklarda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish o‘quvchi bilimining o‘sishida, tafakkur dunyosining kengashida, xotirani charxlashda muammoga kreativ yondashishga muhim sabab bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi ona tili to‘garagida mavzularni o‘z fursatda takrorlash uchun “Svetafor” metodidan foydalansa, o‘quvchilar bilim sifatining o‘sishida yuqori natijaga erishadi.

“Svetefor” metodidan foydalanish tafsiloti .

Katta bir bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng o‘qituvchi u bo‘yicha tezislarni tayyorlaydi (5-7 ta mavzuning murakkabligiga qarab) . Tezislar navbatma –navbat doskaga yoziladi, (tasviri tushiriladi yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo‘yiladi). O‘quvchilarga o‘ylash uchun vaqt beriladi. So‘ng tezis bilan rozi bo‘lgan har bir o‘quvchi yashil kartochkani ko‘taradi; rozi bo‘lmagan - qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo‘lishni xohlayotgan o‘quvchilar sariq kartochkani yuqoriga ko‘taradi. Ishtirokchilar fikri bir –biriga mos keladigan bo‘lsa, o‘qituvchi navbatdagi tezisga o‘tadi. Agar tezis muhokamani talab qilsa ishtirokchilardan o‘z qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang‘ich sinf darsliklari.
2. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.- Toshkent 2004.
3. www.ziyonet.uz elektron sayti.

# XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

**Qalandarov Umarbek Sobir o'g'li**
Urganch tumani 28-son maktabning
matematika fani o'qituvchisi
Telefon: +998 (94) 313-70-94
Umarbek010494@gmail.com
**Bobojonova Sanobar Qadamboyevna**
Bog'ot tumani 44-son maktabning
boshlangich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 (91) 430-50- 51
Babajanova_5051@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xalqaro baholash dasturlari va ularni ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda avzalliklari haqida.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, milliy markaz, yo'l xarita, xalqaro aloqalar.

Dunyo ta'lim tizimida tan olingan va juda ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilar:

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

Progressin International Readingand Literacy Study(PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

Trendsin International Mathematics and Science Study (TIMSS)- 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

The Teachingand Learning International Survey(TALIS)- rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun.

Xalqaro baholash dasturlarini mamlakat ta'lim tizimiga joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish vazifasi davlat inspeksiyasi huzurida yangi tashkil etilgan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi zimmasiga yuklatilgan.

Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilangan:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

-ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik

ko'rish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Xalq ta'limi vazirligi 2019 yil 1 fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021 yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash

Dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish va zifalarini ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oily ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish, xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib,

Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash singari vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Milliy markazning murojaatiga asosan uni belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi PISA vaTALIS xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining ishtiroketishi yuzasidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlik shartnomalarining imzolanishini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari. // Molodoyuchyonы, 2016 yil. 9-son.

2.Abduraimova M.Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.

3. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.TDPU, 2000.

4. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.

# SHIRINMIYA ILDIZIDAN GLITSERRIZIN KISLOTASINING MONOAMMONIYLI TUZI OLISH VA XOSSALARINI O‘RGANISH.

**N.Qayumov**
Uychi tuman 25-sonli
maktab kimyo fani o‘qituvchisi
**M.Mirzaxoshimov,**
magistr Uychi tuman 9-sonli
maktab kimyo fani o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida ko‘plab insonlarni allergiya kassalligi qiynab kelmoqda. Shu jumladan bizni O‘zbekiston aholisi xam bu kasaldan holi emas. Mazkur maqola Yurtimizda o‘sadigan shirinmiya o‘simligidan ajratib olingan ekstraktdan allergiyaga qarshi dori –darmon sifatida foydalanish mumkinligini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** shirinmiya , glitsirrizin kislotasi, monoammoniyli tuzi, terpenoid, saponinlar, ekstrakt, xromatografiya

Tuksiz (oddiy) qizilmiya (chuchukmiya, shirinmiya) - Glycyrrhiza glabra dukkakdoshlar - Fabaceae oilasiga kiradi. Bu o‘simlik sho‘r tuproqli cho‘llarda, cho‘llardagi ariq, kanal va daryo bo‘ylarida, begona o‘t sifatida ekinzorlarda o‘sadi. Asosan O‘rta Osiyoning cho‘l va Yarim cho‘l tumanlarida, Qozog‘iston, Shimoliy Kavkaz, Zakavkazeda hamda Ukraina, Moldova, Belorus, Rossiyaning Ovrupo qismlning janubida (Azov dengizi bo‘yi, Don va Volga daryolarining quyi va o‘rta qismida) katta xududlarida ko‘plab uchraydi. Mahsulot Ural daryosining vodiysida, Dog‘iston, Turkmanistonda va O‘zbekistonda (Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida) hamda Janubiy Qozog‘istonda o‘sadi.

Shirinmiya o‘smiligi qimmatbaho dori vositalari, oziq-ovqat, texnik va boshqa mahsulotlar olish hamda ishlatilishiga ko‘ra tabiiy xomashyo manbai sifatida ko‘pchilik ilmiy tadqiqotchilarning jalib qilmoqda. Ushbu o‘simlikdan olingan biologik faol moddalri xozrgi vaqitda yetarli darajada o‘rganilgan terpenoidlar va fenol birikmalar qatoriga kiradi. Glitserrizin kislotasi va uning hosilalari terpenoid saponinlar bo‘lib, ular haqida 150 dan ortiq ixtro manbalari ma’lum.

Glitserrizin kislotasining monoammoniyli tuzi o‘simlik hom ashyosidan olingan yangi biologik aktiv moddalrning qatoriga kiradi. Uning kimyoviy formulasi $C_{42}H_{61}O_{16}NH_4^+ \cdot 4H_2O$. Glitserrizin kislotasining monoammoniyli tuzi “Glitserram” dori vositasining asosini tashkil etadi.

Ushbu dori vositasi glitsirrizin kislotasi-shirinmiya ildizi saponinlari bo‘lib, meditsina amaliyotida shishlaga, allergiyaga qarshi ishlatiladi. Bu dori vositasi bolalardagi o‘rtacha bronxial astma kasalliklarini davolashda, og‘ir holatlarda steroid vositalar bilan birgalikda qo‘llash samarali natija beradi. Undan tashqari glitsiram dori vositasi teri kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. SHuningdek Glitsiram dori vositasi qo‘shimcha ravishda terapiyada o‘sma kasalliklarni shishlariga samarali ta’sir etadi hamda mielotrop va kardioprotektiv ta’sirga ega.

Glitserrizin kislotasining monoammoniyli tuzi oziq-ovqat sanoatida mahsulotlarni shirin qilish va tam berishda foydalaniladi.

Bizning tadqiqotimizda avvaldan ma’lum metodika asosida shirinmiyya ildizi quritib, maydalab $NH_4OH$ 0,5% ekstrakti olindi va quyidagi sxema, bo‘yicha bajarilgan ishlar ketma-ketligida glitsirizin kislotasi uchammoniyli tuzi sintez qilinadi. Sintez qilingan glitsirizin kislotasi uchammoniyli tuzini konussimon kolbaga solib muzsirka kislota eritmasida qayta kristallab glitsirizin kislotasi monoammoniyli tuzini cho‘ktiriladi. Hosil bo‘lgan kristallar filtirlanadi va spirt bilan bir necha marta yuvib quritiladi. Olingan glitsirizin kislotasi monoammoniyli tuzi 3,80g ni taskil etdi.

**Glitserrizin kislotasining monoammoniyli tuzini shirinmiyya o‘simligi ildizidan olish sxemasi.**



Dastlabki shirinmiyya ildiziga nisbatan hisoblananda glitsirizin kislotasi monoammoniyli tuzini miqdori 6% ni tashkil etdi.

Olingan na'munani kapillar nayga solib suyqlanish haroratini o'lchash qurulmasida o'rganilgada glitsirizin kislotasi monoammoniyli tuzining suyuqlanish harorati 224-228°C ekanligi aniqlandi.

Olingan na'munani etil spirtida eridi va molekulaning tarkibida optik aktiv uglerod atomi (xiral) borligi sababli poyarometrda aniqlangada optik burilish burchagi quyidagicha namoyo bo'ldi: $[\alpha]_D^{20}$+65±2°(s 0,04; 25% EtOH).




Olingan na'munani suyqlanish harorati, optik burlish burchagi, eruvchanligi va yupqa qatlam xromatografiya natijalari adabiyot ma'lumotlari bilan solishtirilganda glitsirizin kislotasining monoammoniyli tuzi ekanligini isbotlaydi.

Namangan viloyati Mingbuloq tunidan terilgan shirinmiyya o'simligi ildizidan birinchi marta glitsirizin kislotasining monoammoniyli tuzi ajratib olindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tadjibayeva A.D. " Tayyor dorilar texnologiyasi" Toshkent-2006 . 81-82-bet.

2. Ilicheva T.N., Pokrovskiy A.G., Fedyuk N.V., Abdullayev S.M., Olkin S. Ye. "Immunofermentnaya test-sistema dlya viyavleniya glitserrizinovoy kisloti" Eksperimentalnaya I klinicheskaya farmakalogiya 2001. №5.-66-68-bet.

3. Krasova E.G., Bashura P.S., Muravyov I.A. "Farmatsiya" .1978. T.27. 32-35-bet.

4. Karomatov inomjon djurayevich. "biologiyai integrativnaya meditsina". Elektronniy nauchniy jurnal . №8. 4-bet.

5. www.chistaya-linia.ru

# IJODKOR SHAXSNI TARBIYALASH VA FAOLLIGINI OSHIRISH

**Qazaqova Matluba**
Urganch tumani 28-son
maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotasiya**. Ushbu maqolada Shaxs ijodiy faolligini oshirish uning ana shunday tipdagi inson sifatida shakllantirishning eng muhim, zaruriy shartligiga to'xtalib o'tilgan. Yoshlarni ijodini qo'llab quvvatlashning ahamiyati aytilgan.

**Kalit so'zlar**: iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy, ijodkor inson, ijtimoiy faol, ma'naviy komil, badiiy-estetik ijod

O'zbekiston Respublikasi o'tgan davr ichida g'oyat katta ijtimoiy bosqichga ko'tarildi. Uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida tub sifat o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. Bular ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, yangi tipdagi shaxsning shakllanishi jarayonida namoyon bo'lmoqda. Zotan, davlatimizning qomusi Respublikamizning Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, umumfuqarolik, demokratik jamiyatimiz taraqqiyotining so'nggi maqsadi – yangi tipdagi shaxs – ijodkor insonni kamol toptirishdir. Shunga ko'ra, bosh Qomusimizning 13-moddasida «inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», – deb belgilab berilgan.

Umuminsoniy tamoyillarga asoslangan demokratik jamiyatda barpo etilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalardagi tub sifat o'zgarishlari yangi tipdagi shaxsni – intellektual ijodkor, ijtimoiy jihatdan faol, ma'naviy tomondan barkamol insonni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shaxs ijodiy faolligini oshirish uning ana shunday tipdagi inson sifatida shakllantirishning eng muhim, zaruriy shartidir. Shaxs ijodiy faolligini oshirish, rivojlantirish muammosini qayd etilgan yo'nalishda o'rganish quyidagi nazariy va amaliy ahamiyatga molik xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Mustaqil O'zbekistonda qaror topgan demokratik, fuqaroviy davlat umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi. Bunday jamiyat tizimining negiz elementlarini yangi tipdagi – ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy komil inson, barkamol shaxs tashkil etadi. Yangi tipdagi shaxsni shakllantirish vazifasi jamiyatimiz ijtimoiy taraqqiyoti yo'nalishining maqsad va ehtiyojlari bilan belgilanadi;

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohatlar yangi tipdagi shaxsni shakllantirishning muhim jihati – ijodiy va badiiy ijod faolligining ortib borishining obyektiv sharoit va subyektiv omillarini yuzaga keltiradi. Chunki islohatlarning barcha bosqichlardagi vazifalar har bir kishining o'z ijodiy faoliyatini namoyon ettirishi uchun zaruriy sharoitlar yaratishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Shaxs ijodini rivojlantirishning obyektiv sharoitlari va subyektiv omillari o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas, balki huquqiy, demokratik jamiyat taraqqiyotida badiiy madaniyat rolining ortib borish qonuniyati bilan belgilanadi va amal qiladi. Bu esa shaxs ijodining o'sib borishi jarayonida namoyon bo'ladi. Faqat shunday huquqiy davlat tizimidagina jamiyatda shaxs badiiy ijodini o'stirish, uning qobiliyatlarini ishga solish, ro'yobga chiqarish, o'z ehtiyojlarini qondirish tarzida amal qilishining obyektiv sharoiti va subyektiv omillari yaratiladi. Barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ko'rsatish va ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki keng imkoniyatlarni yaratib berish kafolatini ishonchli ravishda o'z zimmasiga oladigan davlat huquqiy mexanizmini yaratish bizning vazifamizdir. Badiiy ijod umumiy ijodiy faoliyatning maxsus tipi bo'lib, o'zaro birlikda obyektiv sharoit va subyektiv omillarni taqozo etadi. Lekin uning jamiyat hayotida madaniyat fenomeni sifatida amal qilishi boshqa ijod tiplari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lish zarurligi bilan taqozo etilgan. Shunga ko'ra, ijod barcha kasb egalari: ishchi, dehqon, ziyoli, injener-texnik xodimlar, ishlab chiqarishdan tashqaridagi barcha kishilar uchun birdek zarur bo'lgan ma'naviyat komponentidir. Mazkur ijod tipi, ayniqsa, jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, ilmiy-madaniy, texnikaviy sohalarida moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etuvchi kishilarning faoliyati tarkibida muhim tizim tashkil etuvchi komponent bo'lib hisoblanadi.

Shaxs badiiy ijodi faolligining ortib borishi jamiyat badiiy madaniyati, hayotining dialektik birligida amal qilishining ifodasidir. Shaxs badiiy ijodi faolligida uning amaliy o'zgartiruvchilik faoliyati va ichki ma'naviy dunyosi o'zaro aloqaga kirishadi. Bu o'ziga xos ma'naviy, amaliy

ijodiyot usuli tarzida namoyon boʻladi. Ijtimoiy-estetik ideallarni oʻzida mujassamlashtiruvchi san'at shaxs badiiy ijodini rivojlantirishning muhim omillaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Ilmiy ishning maqsad va vazifalarini tahlil qilish va bu boʻyicha chiqarilgan umumiy xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

Oʻtmishdan qolgan ma'naviy qadriyatlarni izlab topish, avaylab-asrash yangilarini yaratish, tarqatish vazifalari bilan shugʻullanuvchi ijtimoiy institutlarning faoliyatini shaxs badiiy ijodini rivojlantirishga yoʻnaltirish lozim. Buning uchun ularning faoliyatlarini «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari orqali yaxlit tizim boʻyicha boshqarish, ularning faoliyatiga koʻmaklashuvchi va moddiy yordam koʻrsatuvchi homiylar bilan ta'minlash kerak.

«Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari huzurida badiiy ijod masalasi bilan shugʻullanuvchi maxsus boʻlimlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Respublika Badiiy Akademiyasining joylardagi boʻlimlarini tashkil etish va ularni mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash lozim. Kishilarni, xususan, yoshlarni badiiy qadriyatlarni oʻzlashtirishga keng jalb qilish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish ettirish imkoniyatini yaratishni tashkillashtirish va bu uchun maxsus «Badiiy ijod» xayriya jamgʻarmalarini tashkil etish samarali natijalar beradi.

Badiiy tarbiyaning boshqa tarbiya yoʻnalishlari bilan oʻzaro aloqadorligini hisobga olish asosida uni uzluksiz tizimli tarzda amalga oshirishni yoʻlga qoʻyish. Bunday tizimlilik uchun oila, mahalla, mehnat jamoalari oʻrtasida oʻzaro vorislik, hamkorlik asosiy tamoyil qilib olinmogʻi zarur, deb hisoblaymiz. Bunda mahallalarda badiiy havaskorlik toʻgaraklari, folklor dastalarini tashkil etish. Xalq ommasini maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda badiiy-estetik qadriyatlarni oʻzlashtirishga jalb qilish, ularga doimiy izchil ravishda badiiy bilim, ma'lumot berishga erishish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mansurova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.:Oʻzbekiston, 1996. - 190 b

# MAKTABDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Qosimov Babaxan G‘apparovich**
Bog‘ot tumani 31- maktab
Babayev San’at Yo‘ldoshevich
Bog‘ot tumani 29- maktab
matematika fani o‘qituvchilari

**Annatosiya:** Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

**Kalit so‘zi:** Milliy, madaniy, malaka, pedagogik, ijodiy, ko‘nikma, o‘quv.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko‘rib chiqamiz.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodi. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z bilimlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo‘ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5

2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.

3. Tolipov O‘. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005. 4. Sherqulov. M . Ma’ruza matni dan, Toshkent: 2012.

# KOMPYUTER VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN BOSHLANG‘ICH SINFLARDAGI MATEMATIKA DARSLARIDA FOYDALANISH

**Quldashova Saodat,**
Navoiy viloyati Karmana tumani
1-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Kompyuter o‘quv materiallarini ifodalash va o‘quvchilarga uzatish usullarini etarlicha darajada kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, video va boshqa bir qator effektlarni ta’lim jarayonida qo‘llash evaziga turli muhit va vaziyatlarni yuzaga keltirish mumkin bo‘lib qoldi.

O‘quvchilar ta’rif, teorema, isbot, qoida va formulalarni eslab qolishlariga to‘g‘ri keladi. Mantiqan bir-biriga bog‘langan matematik bilimlar zanjirini eslab qolishga o‘rgatib, o‘qituvchilar ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga yo‘l ochadilar. bunda quyidagicha topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- ikki xonali sonlarni eslab qoling;
- matematik terminlarni yodlang;
- so‘zlar zanjirini yodla;
- xotiradagi ma’lumotlar bo‘yicha rasm chizing;
- rasmlarni eslab qolng va qayta chizing - ko‘rish orqali diktant yozing; - eshitish orqali diktantlar yozing.

Matematika darslarida bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus masala va mashqlardan muntazam ravishda foydalanib, kichik yoshdagi o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini shakllantiradi va rivojlantiradi, matematik madaniyatini shakllantiradi, matematik tayyorgarlik darajasini yuqoriga ko‘taradi, bolalarga ularni o‘rab turgan olamdagi eng sodda qonuniyatlarni anglab olishga va o‘zlariga bu olamda dadil yo‘l topishlariga, maktabda olgan matematik bilimlaridan kundalik hayotdagi turli masalalarda faol qo‘llashni o‘rganadilar.

O‘qituvchining ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, rivojlantirish, orttirish va mustahkamlash, shuningdek faoliyatlarini ijodiy va mahsuldor qilish bo‘yicha mahorati o‘z fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni boy, rang-barang, qiziqarli qilib o‘tkazishiga bog‘liq.

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchilarni motivlashni kuchaytirish imkonini bera oladi. Hattoki, oddiy Kompyuterda ishlashning o‘zi ham o‘qishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘la oladi. Bundan tashqari, Kompyuterlar o‘quv masalalarini murakkablik darajalariga ko‘ra taklif etadi va bu jarayonni to‘la boshqara oladi, to‘g‘ri echimlarni rag‘batlantirishi esa motivlashtirishda ijobiy rol’ o‘ynaydi.

Bundan tashqari, Kompyuter o‘qishga bo‘lgn bitta yomon munosabatni, ya’ni tushunmaslik hamda bilimlardaishlar eekan, o‘quvchi zarur yordamlarni olgan holda masalani oxirigacha hal qilishga xarakat qiladi. Motivlashtirish manbalaridan biri – bu qiziqarlilikdir. Bu o‘rinda Kompyuterning imkoniyatlari cheksiz. Bu erda asosiy e’tiborni qiziqarlilikka qaratib, o‘quv maqsadalaridan chetga chiqib ketmaslikka xarakat qilish zarur.

Kompyuter o‘quvchilarni ma’lum bir o‘yin vaziyatiga o‘xshash vaziyatlarni yuzaga keltirgan xolda bolalarning o‘quv faoliyatini boshqarish usullarini o‘zgartirishga imkon beradi. Bunda o‘quvchilarga ma’lum bir shaklda yordamchi ma’lumotlarni olish uchun so‘rovnomalar berishga o‘rgatadi. O‘quvchilar uchun mo‘ljallangan masalalarning tiplari ham o‘zgaradi va modellashtirish, algoritmlar qurish, dasturlash kabi holatlar tez-tez uchraydigan bo‘lib qoladi.

Kompyuter o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishni sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tara oladi va ta’lim jarayonini moslashuvchan qila oladi. Kompyuter hamma o‘quvchilarning barcha javoblarini nazorat qiladi, aksari hollarda nafaqat ularning hatolarini qayd qiladi, balki xatolikning turini etarlicha darajada aniqlaydi. Bu esa o‘quvchiga yo‘l qo‘yilgan xatolikni tezda bartaraf etishga imkon beradi. Agar Kompyuter o‘quvchilarga past baho qo‘ysa, ular bu xatoliklarni bartaraf etishga zudlik bilan kirishadilar. Bu erda o‘qituvchining o‘quvchilarni tartibga chaqirishiga ham ehtiiyoj qolmaydi. CHunki, o‘quvchi agar ishdan chalg‘isa, vaqti tugab qolishini va 10-15 sekunddan keyin navbatdagi yangi masala taklif qilinishini his qiladi va butun diqqat-e’tiborini o‘zi ishlayotgan masalaga qaratadi.

Ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinflardagi matematika fani bo‘yicha mashg‘ulotlarda Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni haqiqatdan ham zamonaviy darajada tashkil qilinishiga olib keladi, ta’lim jarayonini individuallashtiradi, natijalarni nazorat qilish va ularning haqqoniy hamda o‘z vaqtida bo‘lishiga imkon beradi.

# GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

**Qurbonov Odil Baxrom o‘g‘li**
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti
geografiya ta’lim yo‘nalishi 3- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru
**Azirqulov Rustam Alisher o‘g‘li**
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti
geografiya ta’lim yo‘nalishi 3- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotasiya:** Ushbu maqolada geografiya ta’limida innovatsion pedagogik texnologiya asosida o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, ya’ni interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalar, interfaol ta’lim.

Respublikamizning mustaqillikka erishish geografiya ta’limida ham keskin o‘zgarishlar yasadi. Maktabda geografiya fanini o‘qitish mazmuni tubdan o‘zgardi va boyidi. Uni chuqur o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratidi. Tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qachonki o‘quvchi o‘zi yashab turgan o‘lka geografiyasini mukammal bilsagina, boshqa o‘lkalar geografiysini bilishga qiziqishi ortadi. O‘qituvchilarning ko‘p yillik tajriba va kuzatishlaridan yana shu narsa ma’lum bo‘ladiki shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelinganligi ma’lum. Bunday usul o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko‘rsatish qobilyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi mumkin. Endilikda fan texnika va innovatsion texnalogiyalarni rivojlantirish natijasida o‘quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar Innovatsion pedagogik va axborot texnalogiyalari dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish , etibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Pedagogogik olimlarning ko‘p yillar davomida ta’lim tizimida: Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday O‘qitamiz savollarga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin? Degan savoliga ham javob qidirdilar. Bunday fikrni tug‘ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnalogiya yo‘nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnalogiyalardan foydalanishga alohida e’tobor berilayotganing asosiy sababi quyidagilar.1Pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantintiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilganligida.2 Pedagogik texnalogiyalar o‘quv tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini yaratadi. 3 Pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim tarbiya jarayoning maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undashadi. Innovatsiya ( inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish nimanidir o‘zgartirish demakdir. Innovatsion pedagogik texnalogiyalar ta’lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol(“Inter” –bu o‘zaro “act”-xarakat qilmoq )-o‘zaro harakat qilish(yoki kim bilandir suhbatda, muloqatda bo‘lish)ni anglatadi. Interfaol ta’limning mohiyati o‘quvchilarni bir-biridan o‘rganishiga yo‘naltirilgan ta’lim ekanligida. Interfaol ta’lim, interfaol uslublar muntazam muloqatga asoslangan uslublar tizimi bo‘lib, o‘quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta’lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning uslublari-bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushinish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta’lim metodlari va ularning turlari. O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad va davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o‘quvchi tamonidan bilim qabul qilinsa va tushinib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina oqitish muvaffaqiyatli kechadi deb

hisoblasa bo‘ladi. Bugungi kunda an’anaviy ta’limni zamonaviylashtirish yo‘lida birgina Odatda o‘qitishda bir necha tehnologiyalarning elementlari birdaniga qo‘llaniladi, chunki pedagogik texnologiya bu o‘quv jarayoni to‘liqligicha egallovchi loyiha yahlitlik, natija ya’ni o‘quv jarayoni inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo‘naltirilgan jarayondir.

**Xulosa qilib aytganda**, ta’lim tizimida o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu aniq ketma-ketlikdagi yahlit pedagogik jarayoni bo‘lib, o‘quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natijani berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

**Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Xasanov I.A., G‘ulomov P.N. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., 2006.
2. Xasanov I.A., G‘ulomov P.N., Qayumov A.A. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi (2- qism). – T., 2010.
3. Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. G.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taq. et. diss. avt. –T.,2011. 27

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

**Rahmatov Yusufbek**
FarDU magistranti

**Annotatsiya**: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish va rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar**: nutq o'stirish, fikr, tafakkur, propedektiv mashq, nutq madaniyati.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi». Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Demak, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi va takomillashtiradi.

Propedektiv mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo programmasining bosqichli izchillik prinsipi asosida tuzulishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til hodisalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. SHe'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi

yordamida guruhlaydilar, ularni oʻzaro taqqoslab, oʻxshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, oʻz navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni oʻstiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil boʻladi. Bu tushunchalar ta'lim jarayonida yo narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, oʻrik, olxoʻri, gul, oʻt* kabi), yo ularning belgisini (*mevali, mevasiz; achchiq, nordon, shirin; qizil, oq* kabi), yo harakatini (*daraxt oʻsadi, qush uchadi, bulbul sayraydi* kabi) ifodalovchi soʻzlar bilan bogʻlanadi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda oʻqituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. Oʻqituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashgʻulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli soʻzlashi, shuningdek, har doim oʻquvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali soʻzlashga, xatosiz, chiroyli yozishga oʻrgatadi, tilga sezgirlikni uygʻotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 - бет
2. Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку. - М.: «Просвещение», 1965. 297-бет.
3. Qosimova. K. Boshlangʻich sinflarda imlosi qiyin soʻzlarni oʻrgatish.T.: 1964.
4. Safarova. R. Nutqiy koʻnikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 1997. №5. 10-11-betlar.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMINI OSHIRISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING ROLI

**Rajabova Mehriya Saloyiddinovna**
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
14-son umumta'lim maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaring bilimini oshirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning roli, uni tashkil qilish, olib borish va rivojlantirish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sinfdan tashqari mashg'ulot, tafakkur, ta'lim, dars, to'garak, bilim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismlaridan biri bu sinfdan tashqari ishlar bo'lib, bunda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar boshlang'ich sinflarda ko'pincha sinf rahbari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladigan mashg'ulotlardir. Dars mashg'ulotlarida o'qituvchining 30-35 ta o'quvchiga tushuntirishi bilan ko'pchilik yangi mavzuning mohiyati va qoidalarini to'la anglay olmaydi.

Bugungi kun o'qituvchisi har tomonlama bilimli, izlanuvchan, jonkuyar, mehnatsevar, fidoiy bo'lmog'i, o'z ustida tinmay izlanishi lozim. Aks holda, o'quvchilarning fanga qiziqishlarini oshira olmaydi. Buning uchun, har bir fan o'qituvchisi 45 daqiqalik darsi bilan birgalikda yaxshi tayyorgarlik bilan o'tkazilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga ega. Maktab kursi bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turlari xilma-xil bo'lib ularga quyidagilar kiradi: fan to'garaklari, olimpiadalar, fan turnirlari, haftaliklar, bellashuvlar, devoriy gazetalar, noyob ko'rgazmali qurollar yasash musobaqalari, ilmiy kechalar, olimlar bilan uchrashuvlar, uch avlod uchrashuvlari, ekskursiyalar, mustaqil ishlar va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning barchasi o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiribgina qolmay balki, ilmiy, dunyoviy, mantiqiy bilimlarini, dunyoqarashini boyitadi.

To'garaklarni avvalambor, sinflar kesimida tashkil qilish, olib borish va bu to'garaklarga shu sinflarda dars beradigan tajribali ustozlar rahbarlik qilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg'ulotlarni boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu yoshda o'quvchilarda biror fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish hali aniq, yaxshi shakllanmagan bo'lib, fikrlari tarqoq bo'ladi. Mazkur muammoni bartaraf qilishga esa to'garak mashg'ulotlari orqali erishish mumkin.

Har bir to'garak o'z rejasi, jurnaliga ega bo'lishi va doimiy yuritib borilishi, nazorat qilinishi lozim. To'garak rejasini tuzishda uni 40-60 minut hajmdagi mashqlarga bo'lib, har bir mashg'ulotni 3-5 qismdan iborat qilib o'tish lozim.

Dars mashg'ulotlarida o'rganilgan bilimlarning barchasini o'zlashtirish imkoniyati yo'qligini hisobga oladigan bo'lsak, ayniqsa sinfdan tashqari tadbirlarning ahamiyati nihoyatda katta ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz. Agar o'quvchi, tinglovchi hech bo'lmaganda bir marta o'zi mustaqil ravishda birorta masalani hal qilsa, u albatta, unutilmas hayajonli damlarni boshidan kechiradi va g'alaba nashidasini suradi, tafakkuri boyiydi. Bunday "kichik g'alaba" lar, ayniqsa, bolalik chog'larida yuz bersa, inson bu onlarni hayotining oxirigacha xotirasida saqlab qoladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ustozlari bilan birgalikda birorta qiziqarli masala yechib, matn yoki she'rni yod olib, uni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyin, o'zlari mustaqil ravishda fan bilan jiddiy shug'ullanish, sinfdan tashqari mashg'ulot o'tadigan fan darsini intizorlik bilan kutish oddiy futbol, kompyuter va boshqa o'yinlar kabi maroqli bo'lishi mumkinligini anglashlari mumkin. Buning natijasida ular uchun o'sha fan sevimli fanga, kelajakda o'zlari mazkur fanning sehrli olamining qiroli yoki qirolichasiga aylanishlari ajab emas.

O'quv jarayonida dasturda ko'rsatilgan katta hajmdagi materiallarni berish qiyin, chunki vaqt chegaralangan, shuning uchun ham sinfdan tashqari ishlarni oqilona tashkil etish o'qituvchilardan katta ijodiy tashabbuskorlikni va mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlikni talab etadi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning darslik bo'yicha egallagan bilim, malaka va ko'nikma,

layoqatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish bilan birga ularning bilish faoliyatini aktivlashtiradi, tafakkurini, kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi o‘quvchilarni tarbiyalash, o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonidir. Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun-qoidalari bo‘lganidek, bola tarbiyasining ham o‘ziga xos bir qator muhim qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu qoidalar sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. O‘qituvchilar o‘quvchilar tarbiyasini hayot bilan bog‘lar ekanlar, ularga o‘zlarida imon-e’tiqodni tarbiyalash, mantiqiy mushohada qilish qobiliyatini, tafakkurni boyitish imkonini beradilar.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni davr talabiga javob beradigan holda o‘tkazish, yoshlarimizni erkin mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashga, mushohada qilishga o‘rgatish, o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy, insoniylik sifatlarini tarbiyalash, jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish va shakllanayotgan milliy mafkurani o‘quvchi – yoshlar ongiga mukammal yetkazish kerak.

Mustaqil yurt kelajagi uchun qayg‘uruvchi yoshlarni, insoniyat taraqqiyoti uchun kurashuvchi ongli, mushohadali insonlarni, ko‘paytirishimiz, sinfdan tashqari ishlar samaradorligini oshirishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
2. R.Mavlonova Pedagogika.
3. X. Ibragimov SH. Abdullayeva Pedagogika
4. S.Alixanov. Matematika o‘qitish metodikasi.
5. www.uzedu.uz

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

**Raxmetova Ro'zigul Yusupovna**
Xorazm viloyat Bog'ot tumani
26-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda vatanparvarlik tuyg'usini singdirish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, barkamol, o'quvchi, vatan, vatanparvarlik, ona vatan.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, umumta'lim maktablariga tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdan iboratdir. Huddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.

O'quvchilarning faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati-o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalarni qo'yishi shart. Ularning har biri o'ziga hos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Umumta'lim maktablariga tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilik hayoti, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2 sentyabr, Ko'z bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8 mart, Navro'z bayrami, gullar, mehrjon, hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu tadbirlar uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi.

O'qituvchisi o'quvchilarga vatanparvarlik tuyg'ularini singdirar ekan, Vatan ostonadan, oiladan, mahalladan boshlanishini, Vatan tushunchasi har bir insonning yuksak darajadagi his-to'yg'ulari, sadoqatli, fidoiy mehnati, o'zaro izzat-hurmat kabi insoniy fazilatlarida namoyon bo'lishini anglatib bormog'i lozim. Bu o'rinda respublika sportchilarining Xalqaro sport maydonlaridagi, ayniqsa, Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki, g'alabasi ana shu hislatlar tufayli ustuvor ekanligini anglatib borish joiz. Ayniqsa, yurtimiz bayrog'ini uzoq o'lkalarda viqor bilan ko'tarilishi, madhiyamizning baland yangrashi, sportchilarning ona-Vatan sharafi uchun kurashgan va hissa qo'shganligining timsoli ekanligini bolaga yoshligidanoq o'rgatib borish zarur. Buning boisi shundaki, o'shanday g'olib sportchilar, ularning murabbiylari, qolaversa sport tashkilotlari, jamiyatlari xodimlari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutahassislarga taqlid qilish hissini shakllantirish kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan bu kabi ishlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilishlari, (albatta o'qituvchi va ota-onalar ko'magida) shoirlarning vatan haqidagi she'rlarini yod olishlari, o'lkashunoslik mo'zeylariga sayohat qilishlarini uyushtirish lozim. Chunki, mana shu ishlar orqali o'quvchilarning vatanga e'tiqod haqidagi tushunchalari kengayadi.





O‘quvchilarni vatanga e’tiqodli insonlar etib tarbiyalashning muhim shakllaridan yana biri milliy xalq o‘yinlaridir. Maktab sharoitida o‘yinlarni tashkil qilish bolalarni yanada maktabga yaqinlashtiradi, ular o‘zlarining sevimli mashg‘uloti, ya’ni o‘yinlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Shu bilan birga dars jarayonida bolalarda hosil bo‘lgan zerikish va toliqish holatlarining oldi olinadi. Bizga ma’lumki, ushbu yoshdagi bolalarning diqqati beqaror bo‘ladi, tez-tez qaytariladigan o‘yinlar ham ularning zerikishiga olib keladi. Shu sababli biz pedagoglar o‘z darslarimizda yangi pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etsak, o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, dars samaradorligi ham oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat**

1. 1. Xoliqov A Pedagogik mahorat – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,
2. Boshlang‘ich ta’lim jurnali.
3. www ziyonet. uz

# BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGI.

**Rizoqulova Zumrad Ibodullayevna**
Navoiy viloyati Navbahor tumani
29-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar „Ta'lim to'g'risida"gi qonunda hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilganidek, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda.

**Kalit so'zlar.** Matematika didaktikasi, ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematika, metodologik.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasi bo'yicha umumiy psixologik-pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinflar o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, unga ta'limiy tarbiyaviy faoliyatdan ajralgan holda qarash mumkin emas. Ikkinchi tomondan , boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi maktab matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir yoki matematikadan tayyorligidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) o'qitish metodikasida o'zining munosib aksini topishi lozim. Boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan , bilimlarning boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuasini yaratadi, ikkinchi tomondan , zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. 6— 10 yoshli davr bolalarining fikrlash qobiliyatlari va tasavvurlari shakllanishida eng mas'ul va muhim davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Bolalikning mana shu davrida shakllantirilmagan bilimlar poydevorini keyinchalik to'ldirish juda qiyin. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang'ich ta'lim metodikasining asosiy vazifalaridan biri — o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlash, bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta 'sirlarini jadallashtirishdan iborat. Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalar nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etilishi mumkin. Bu bilimlar ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematika va ularning xususiyatini o'z ichiga oluvchi metodologik o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. O'qitishning mazmuni va o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etadigan u yoki bu o'quv varianti uchun eng samarali usullarini qo'llashni bilishi, darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarurdir. Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinflar o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida matematika o'qitish metodikasida bajariladigan topshiriqlar orqali egallanadi. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o 'zida o 'qitish amaliyotida yuzaga keladigan va nazariy bilimlardan foydalanilishni talab etadigan turli-tuman metodik masalalar yuzaga keladi. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. Darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini o'qituvchi tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Shu sababli, mazkur qo'llanmada keltirilgan metodik masalalar va shular jumlasidan darsda bevosita yuzaga keladiganlari ham iloji boricha turli usullar bilan hal etilishi lozim . O'quvchilarning xato javoblari munosabati bilan yuzaga keladigan metodik masalalarga alohida e'tibor berilishi lozim . Xatoliklar mohiyatini aniqlash va tushuntirish muhim ta 'lim iy vazifani bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlar muhim ahamiyatga ega: o'yin orqali o'qitish jiddiy tarbiya shaklidir. Mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan o 'rganilgan materialni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. M. Ahmedov , N. Abdurahmonova , M.Jumayev . Matematika. O'qituvchi kitobi. T., „Uzinkomsentr", 2003.
2. N. U. Bikbayeva , R. I. Sidelnikova , G.A.Adambekova . Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., „O'qituvchi", 1996.
3. www.ziyouz.com

# O‘QUVCHILAR ONGIDA IMMUNITETNI OSHIRUVCHI DORIVOR O‘SIMLIKLAR HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

**Санаева Муниса Иламоновна**
ТФИ АЛ биология ўқитувчиси

**Annotatsiya: Dorivor o‘simliklar** - odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar — giyohlardir. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zveroboy o‘simligi, qichitqi o‘ti, qizilmiya, nay o‘ti, jyenshen, buzina plyus, exinatseya, mushuk panjasi, astragal, aloe

Salkam bir yarim yildan buyon dunyo koronavirusga qarshi kurashmoqda. To‘g‘ri vaksinalar ishlab chiqarila boshlandi, hademay insoniyat tafakkuri koronavirusni yengish usulini topar balki. Insoniyat kasallikdan o‘zini himoyalashga kirishdi. Kimdir ovqatlanish ratsioniga o‘zgartirish kiritgan, kimdir immuitet ko‘taruvchi dorilar iste’moliga e’tibor qaratgan, yana boshqasi jismoniy faollikni oshirgan. Immunitetni oshirishda odamlar qadim zamonlardan tabiat ne’matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o‘tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning «Al-qonun» asarida 476 ga yaqin o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Bugungi sog‘liqni saqlash dolzarb bo‘lgan davrda ham dorivor o‘simlikla xususiyatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish juda katta ahamiyatga ega. Bunda dastlab o‘quvchilarga dorivor o‘simliklar haqida qiziqarli ma’lumotlarni berish va berilgan ma’lumotlarning o‘quvchilar ongida chuqur joy olishligi uchun interfaol usullardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Dorivor o‘simliklarning 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta’sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab-alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar 2)farmakologik ko‘rsatkichlariga qarab-tinchlantiruvchi, og‘riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta’sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar.

**Immunitetni ko‘tarishga yordam beruvchi 10ta o‘simlik**

**1. Aloe o‘simligi eng qadimiy dorivor giyohlardan biri hisoblanadi**. Aloe verani malham sifatida surish bilan birga uni iste’mol qilish ham mumkin. Agar avval aloe iste’mol qilmagan bo‘lsangiz, sekin-asta uni taomnomangizga qo‘shish tavsiya etiladi. Aloe o‘simligi Xalqaro ilmiy kengashning sertifikatiga ega. U haqida hatto Ibn Sino va Hippokarat ham yozgan. Aloe sharbati 200dan ortiq faol komponentni o‘zida jamlaydi. Ularning orasida mikro va makroelementlar, vitaminlar, fermentlar va aminokislotalar bor. Har biri inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**2. Astragal immun tizimini mustahkamlaydi.** Bu o‘simlikni asosan ildizi uchun yig‘ib olishadi, chunki u ko‘plab davolovchi xususiyatlarga ega. Siz astragalni choy yoki sho‘rvaga qo‘shib iste’mol qilishingiz mumkin. Bundan tashqari, bu giyohni kapsula, ekstrakt va kukun ko‘rinishida ham xarid qilsa bo‘ladi. Astragal immun tizimini mustahkamlaydi va hattoki tumovni yengishga yordam beradi.

**3. “Mushuk panjasi” viruslar bilan kurashishga yordam berib, immun tizimini rag‘batlantiruvchi kimyoviy moddalarni o‘zida mujassam qiladi**. Ushbu dorivor o‘simlik qon bosimini pasaytiradi, siydik haydovchi sifatida ta’sir qiladi hamda organizmga ortiqcha suyuqlikdan xalos bo‘lish imkonini yaratadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu o‘simlik hattoki saraton hujayralarini o‘ldirishga qodir. “Mushuk panjasi” og‘riqlarni (ayniqsa artritda) bartaraf etishga yaxshi yordam beradi. Bu dorivor giyoh osteoartrit va revmatoid artritdan xalos qilishi mumkin.

**4. Exinatseyadan shamollash, tumov va boshqa infeksiyali kasalliklarni davolashda foydalaning.** Anginada u bilan tomoq chayilsa, samarali natijaga erishiladi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, exinatseya yuqori nafas yo‘llarini davolashda ham qo‘l keladi. Shuningdek yaralar, kuyish, ekzema, psoriaz, UF-nurlanish, oddiy gerpes virusi, ari chaqishi kabi teri kasalliklarini davolashda ushbu giyohdan foydalanilgan.

**5. Buzina plyus .** Bu o‘simlik immun tizimini juda yaxshi mustahkamlaydi, shuningdek shamollashni kamaytiradi, nafas yo‘llarini tinchlantiradi, antioksidant kuchga ega. Ushbu giyoh tumov og‘ir kechishining oldini oladi. Ba’zi dorivor o‘simliklardan farqli o‘laroq uning siropi

shirin ta’mga ega.

**6. Jyenshen holsizlik bilan kurashadi va organizmni qo‘shimcha quvvat bilan ta’minlaydi.** Bu o‘simlik asosan insonga quvvat berishi bilan mashhur bo‘lsa-da, u bir qator boshqa xususiyatlarga ega. U past qon bosimi, muntazam charchoqlik, ishtaha yo‘qligi, ishchanlik faoliyatining kamayishi, bepushtlik, asab tizimi kasalliklarida ham tavsiya qilinadi.

**7. Nay o‘tining moyi balg‘am ko‘chishiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.** U astma, artrit va jarohatlarning bitishida yaqindan yordam beradi. Nay o‘tini tabletka, kapsula, choy, quritilgan o‘t va damlama shaklida iste’mol qilish mumkin.

**8. Qizilmiya.** Qizilmiya oshqozon-ichak yazvasining oldini olishi va uni bartaraf etishi mumkin. Shuningdek u yo‘g‘on ichakni tozalaydi, jig‘ildon qaynashida yordam beradi, immunitetni ko‘taradi.

**9. Qichitqi o‘ti tabiiy antigistamin preparat hisoblanadi.** Ushbu giyoh turli allergiyalarni davolashda, organizmni mustahkamlashda hamda yallig‘lanishda samarali natija ko‘rsatadi. Shuningdek u jigar, buyrak va o‘pka kasalliklarini davolashda yaqindan yordam beradi.

**10. Zveroboy o‘simligi antidepressiant sifatida xizmat qiladi.** Bu o‘t ba’zi mamlakatlarda bolalar va o‘smirlardagi ruhiy tushkunlik holatlarida buyuriladi. Shuningdek, bu giyoh asab zo‘riqishi natijasida yuzaga keladigan og‘riqlarni bartaraf qiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlar berilgach oquvchilar bilimi quyidagi topshiriq orqali mustahkamlanadi. Bunda dorivor o‘simliklar va ularning xususiyatlarini oquvchi juftlash kerak

| Organism uchu ahamiyatli tomoni | Osimlik nomi |
|---|---|
| A)Asab zo‘riqishi natijasida yuzaga keladigan og‘riqlarni bartaraf qiladi.<br>B)Yo‘g‘on ichakni tozalaydi, jig‘ildon qaynashida yordam beradi<br><br>C)Past qon bosimi, muntazam charchoqlik, ishtaha yo‘qligi, ishchanlik faoliyatining kamayishida tavsiya etiladi<br>D)Osteoartrit va revmatoid artritdan xalos qilishi mumkin.<br>E) 200dan ortiq faol komponentni o‘zida jamlaydi<br>H) Ekzema, psoriaz, UF-nurlanish kabi teri kasalliklarini davolashda ushbu giyohdan foydalanilgan.<br>G) Nafas yo‘llarini tinchlantiradi, antioksidant kuchga ega | **1**.Zveroboy o‘simligi<br>2.Qichitqi o‘ti<br>3. Qizilmiya<br>4. Nay o‘ti<br>5. Jyenshen<br>6. Buzina plyus<br>7. Exinatseya<br>8. Mushuk panjasi<br>9. Astragal<br>10. Aloe |

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulova, M.Umaraliyeva , I.abduraxmonova. Biologiya. 11-sinf. T.: «Sharq», 2018.
2. htt://www. Ziyonet.uz
3. htt://www. biologiya.ru

# SINF RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH USULLARI

**Sharopova Zuxro Sharifovna**
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
(+998916460876)

**Annotatsiya:** Sinf rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga sinf rahbari boshchilik qiladi. Sinf arahbarlari oldida juda qiyin vazifa

**Kalit so‘zlar:** Sinf rahbari, tarbiya, ta’lim, jamoa, bilim, ko‘nikma, malaka, maqsad, vazifa

– tarbiyaviy maqsadlarda o‘ylangan har bir narsani bolalar o‘zlarining shaxsiy fikr va g‘oyalari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo‘yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?

Sinf rahbarlari o‘tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o‘quvchilar tarbiyasiga ko‘rsatgan ta’sirini har kuni tahlil qilishlari, o‘zlari erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni qayd qilishlari kerak. SHunday qilib, rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o‘quvchilarni o‘rganish yuzasidan olib borilgan barcha ishlar yakunida sinfga pedagogik tavsifnoma yoziladi. Mazkur tavsifioma sinf jamoasiniig o‘ziga xos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Har bir sinf rahbari o‘z-o‘zini boshqarishning saylab qo‘yiladigan o‘quvchilar qo‘mitasi hamda bolalar va yoshlar tashkilotlari bilan birga ishlab, sinf jamoasiga rahbarlik qilish yuzasidan olib boriladigan amaliy ishlarda bu talabni ro‘yobga chiqaradi.Tajribali sinf rahbarlari o‘zining kuzatishlari va xulosalarini alohida varaqlarga qisqacha qilib yozib boradi. Bular maxsus jildlarda saqlanadi. To‘plangan ma’lumotlar o‘quvchilar jamoasi hayotini, uning erishgan yutuqlari va kamchiliklarini keyinchalik tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Sinf rahbari o‘quv yili oxirida sinf jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e’tibor beradi. Bunda rejada belgilangan vazifalarni qanday hal etilganligini, sinf ijtimoiy hayotida qanday ishtirok etganligini, mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo‘lgan va an’anaga aylanishi kerakligini, o‘quvchilar o‘rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, sinf faollarining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro‘-e’tibori va boshqa masalalarni atroflicha tahlil qilish muhimdir.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.

Bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo‘yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb gaplash ishlari (kasblar ro‘yxatini tuzib chiqish, kasb haqida burchak tashkil qilish, mehnat ahillari bilan uchrashuvlar, o‘quvchilarga anketalar tarqatish, javoblarni tahlil qilish, qiziqishlar kartasini to‘ldirish, kasb haqida insho yozdirish, o‘quvchilarning texnik ijodiyoti ko‘rgazmasini tashkil qilish, sinfdan tashqari o‘qishni tashkil qilish), fan o‘qituvchilari bilan birgalikda adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish, o‘qilgan asarlar yuzasidan suhbat uyushtirish, sinfda adabiy ko‘rgazma tashkil qilish, kutubxona bilan aloqa bog‘lash va hokazolar), sinfda ko‘rgazmali tashviqot ishlari olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil etish va hokazolar).

Xulosa: Sinf rahbari tajriba orttirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziqa boshlaydi. Uni sinfdagi ishlar qanchalik muvaffaqiyatli o‘tgani emas, balki ular o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatgani, sinfning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi emas, balki ishtirok etish sabablari qiziqtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y

# PEDAGOGIKA FANI METODOLOGIYASIGA BIR NAZAR.

**Sulaymonova Ra'no Dustbekovna**
Guliston davlat universitetida o'qituvchi

**Annotatsiya**.Mazkur maqolada pedagogika fanining metodologiyasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** metodologiya, badiiy, sharqona, namoyondalar, tarbiya, ta'lim, tafakkur, mafkura

Pedagogika fani mustaqil O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatuvchi fandir. Pedagogika fani O'zbekiston Respublikasida ilmning ustuvor sohasi sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham, pedagogika fanining metodologiyasi sifatida Jahon va Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, tasavvuf ta'limoti namoyondalarining badiiy va ilmiy asarlari, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini o'z ichiga olgan manbalar, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risda»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmui e'tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan pedagogika fanining metodologiyasini pedagogik amaliyotga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samaralinatijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Ular shaxsning o'quv-biluv faoliyatini liberallashtirish yo'llari, ta'lim mazmunini tanlash va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta'limi nazariyasi, ta'limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg'unlashtirish konsepsiyasi, ta'lim-tarbiya jarayonining fiziologik qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz aytganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining ob'ekti va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining ob'ekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta'minlovchi emas, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlaydigan keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh ob'ekti va sub'ekti sifatida qaraladi. Bundan tashqari pedagogika fani oldiga yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkil iy shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh hususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishinio'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l- atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lishi shart. Ana shu fazilatlarga ega bo'lgan odamni tarbiya ko'rgan odam deyiladi.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdagi taraqiyotini bilish kerak. Masalan, pedagogika tarixi o'tmishda ta'lim-tarbiya borasida qanday kurashlar bo'lga ni va qanday qilib ijobiy yoki salbiy yakunlangani, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni va metodlari qanday o'zgarib borganini, tarixda ijod etgan olimlarning pedagogik

g'oyalari va ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. -diss.-T., 2000.-298 b.
2.Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari. — T.: o'qituvchi, 1991.-200 b.
3. Ochilov.M. Muallim — qalb me'mori. — T: O'qituvchi, 2001. -429b.
4.Rizayev.O. Pedagogika tarixi-T.: «Cho'lpon», 1993 yil.
6. Usmonov R. Saodatnoma.-T.: «O'qituvchi», 1995 yil.
7. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). — T.: O_zbekiston, 1995. - 246 b.

# INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN PEDAGOGIK DASTURIY VOSITA YARATISH TEXNOLOGIYASI

**Tangirov Xurram Ergashevich,**
Jizzax davlat pedagogika instituti katta oʻqituvchisi
(+998936502580, xurramtangirov@gmail.com)
**Bekkelov Temur Nurilla oʻgʻli,**
Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi
(+998974840155, temurbekkelov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab informatika va axborot texnologiyalari fani mavzularini oʻqitishda, AutoPlay dasturi yordamida pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi va undan foydalanish metodikasi keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** informatika va axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, AutoPlay dasturi.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasidagi islohotlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda, ayniqsa, ta'lim tizimiga joriy qilinayotgan zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida qulayliklar yaratib bermoqda. Shu jumladan, fanlarni oʻqitishda pedagogik dasturiy vositalar yaratish va ulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday ekan, informatika va axborot texnologiyalari fanidan ham pedagogik dasturiy vositalar yaratish va ulardan dars jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun AutoPlay dasturini oʻzlashtirish lozim va ushbu dastur yordamida elektron darslik darajasidagi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish mumkin.

Ushbu maqolada, ya'ni quyida AutoPlay dasturi yordamida informatika va axborot texnologiyalari fanidan pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasini koʻrib chiqamiz.

Dastlab, AutoPlay dasturi ishga tushiriladi:




va yuqoridagicha oyna hosil boʻladi: Bu yerda AutoPlay dasturi 3 ta boʻlim bilan hosil qilinadi:

1) "Создать новый проект" boʻlimida biz yangi loyiha hosil qilamiz.

2) "Восстановить последний проект" boʻlimi - oxirgi loyihani chaqirish.

3) "Открыть проект" boʻlimida avvalgi bajarilgan ixtiyoriy proyektni chaqirishimiz mumkin boʻladi.

Biz yangi proyekt (loyiha) hosil qilamiz va quyidagi oyna hosil boʻladi:



Bu yerda turli xil ko‘rinishdagi tayyor shablonlardan foydalanishimiz mumkin. Ammo biz o‘zimiz bo‘sh ish maydonni hosil qilamiz, ya’ni birinchisini tanlaymiz. OK tugmasini bosamiz va AutoPlay dasturining oynasi hosil bo‘ladi.




Yuqoridagi ko‘rsatilgan belgi orqali biz o‘zimizga kerakli bo‘lgan tugmalarni joylashtirib olamiz. Turli shakldagi va turli rangdagi tugmalar mavjud. Siz albatta o‘zingizga yoqqanini tanlab olishingiz mumkin. Shuningdek, keying tugmalar yordamida rasm va matnlarni joylashtirish mumkin:




“Страница” menyusidan “Добавить” bo‘limi tanlanib **page3** hosil qilib olamiz:



Bo‘sh **page3** ga tugmalar joylashtirib ularni bajarish xususiyatiga qarab nomlab olamiz. Keyingi bosqichimizda yanga yangi “page” larni hosil qilib testlarni joylashtirb chiqamiz.




Bu orqali har bir mavzuga tegishli testlartni joylashtirib chiqamiz. Xuddi shu tartibda “Hot Potateos” tuzilgan har bir mavzu yuzasidan tuzilgan krosswordlarni ham joylashtirib chiqamiz.




Krosswordni ishlash uchun siz berilgan raqamlar ustiga chertsangiz unga mos savol paydo bo‘ladi. Vanihoyat dasturni ishga tushirsak, quyidagi ko‘rinish paydo bo‘ladi.




**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tangirov X.E., Mamatqulova U.E. Umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resuslaridan foydalanish // “Умумий ўрта таълим тизимида табиий фанлардан электрон ресурсларни яратиш ва уларни тадқиқот қилиш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий конференция материаллари. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 2020 йил 24-25 ноябрь. 59-61 бетлар.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O‘QITISH

**Tangirova Gavhar Ergashevna,**
Forish tumanidagi 12-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
(+998936502188, xurramtangirov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarda matematikani kompyuter yordamida, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, boshlang‘ich sinf, matematika, zamonaviy axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, kompyuterli texnologiyalar.

Bugungi kunda yurtimizda joriy qilingam ta’lim tizimida boshlangich sinflarda matematika fanini sifatli o‘qitishning ahamiyati juda katta. Respublikamiz hukumati o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ta’lim va tarbiyani turmushning oshib borayotgan talablari darajasiga yetkazish vazifasini qo‘ydi. Hammamizga ma’lumki, boshlang‘ich sinflar 4 yillik ta’limda o‘qiydilar. Boshlang‘ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o‘tish munosabati bilan, yangi metodik tizim ishlab chiqildi [2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy fikrlashlari kerak.

O‘quvchilarning biror-bir sohani yoki predmetni faol egallashi uchun faqatgina nazariy bilimgini yetarli bo‘lmasdan, balki masalani hal etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar ham shakllangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun maktab darsliklari mavzusini faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy ko‘rinishda, yani ko‘rgazmali qurollar, harakatli tasvirlar orqali o‘tish va o‘quvchilar tasavvurlarini kengaytirish lozim. Buning uchun esa matematika darslari uchun elektron ishlanmalar yaratish zarur hisoblanadi. Yaratilgan ushbu elektron ishlanma ana shunday imkoniyatlarni yaratadi [1].

Ta’limga kompyuterli o‘qitish texnologiyasini joriy qilishning didaktik samaradorligi deganda, kompyuter va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha o‘qituvchi faoliyati samaradorligi tushuniladi.

Buni o‘quv jarayonida kompyuterli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashning didaktik samaradorligini o‘lchash va baholash, o‘quv jarayonining sonli va sonli bo‘lmagan ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumlashtirish va bir statistik ma’lumotni boshqasi bilan taqqoslash orqali amalga oshirish mumkin.

Axborot-komunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi, medetsina, qishloq xo‘jaligi, biznesni yo‘lga qo‘yish, sport, kino, musiqa sohalariga qulayliklar yaratib kelmoqda. Axborot-komunikatsiya texnologiyalarining san’at, musiqa, kino, sohalarida kirib kelishi esa jahonda yurtimizning umumiy san’at sohasida tutgan o‘z o‘rnini egallashda yordam berdi.

Ma’lumki boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitish rasm, musiqa, atrofimizdagi olam, odobnoma fanlarini o‘qitishga qaraganda biroz murakkabroq. Aynan mana shu fan 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilaridan aqliy mehnat talab qiladi.

Matematika fanini o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor matematik tushunchalarni o‘rgatish bilan bir qatorda formulalar yordamida hisoblash ishlarini to‘g‘ri amalga oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, berilgan masalani hal qilishda, avvalo, qo‘yilgan shartni va noma’lumni aniqlab olish kerak. Shunga monand matematik model qurib olinadi va tenglama shakliga keltiriladi. Tenglamani yechish orqali esa noma’lumni aniqlaymiz va qo‘yilgan masalaning shartiga e’tibor qaratamiz. Chunki, noma’lumni aniqlaganimiz bilan qo‘yilgan masalani hal qilgan bo‘lmaymiz. Demak, qo‘yilgan masalani tasavvur qilib, ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak bo‘ladi. Bu jarayon, ya’ni tasavvur qilish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hali unchalik darajada shakllanmagan bo‘ladi. Natijada matnli masalalarni hal qilish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiyinchiliklar vujudga keladi.

Boshlang‘ich ta’limning matematika olamiga nazar solsak, dastlab o‘quvchilar son va raqam tushunchalari, ularning yozilishi, o‘qilishi bilan tanishadilar. So‘ngra qo‘shish ayirish amallari o‘qitiladi. Dastlab bir xonali sonlar, so‘ng ko‘p xonali sonlar uchun o‘qitiladi. Eng ahamiyatlisi

shundaki, har qanday 7, 8, yoshli bola sonlarni qo‘shib ayirishda qiynalishi mumkin. Lekin o‘yinchoqlar, mevalar, daftar yoki qalamlar sonini qo‘shib ayirish haqida gap ketganida, ularning tarqoq fikrlari bir nuqtaga keladi. Bolalarni 4+2=? Misoldan ko‘ra 3 ta olxo‘riga 2 ta olxo‘rini qoshganda qancha olxo‘ri hosil bo‘lishi qiziqtiradi.


= 6

Demak, 3 + 2 = 5 bo‘lishini biladilar.

7, 8 yoshli bola tayyor sonlar yordamida tuzilgan masalani yecha olishda qiynalishi mumkin. Biroq bolalar o‘zlarini qiziqtirgan suratlar (mevalar, o‘yinchoqlar, parrandalar, dengiz hayvonlari) yordamida tuzilgan masalalarni qiziqish bilan tinglaydilar va ishlashga harakat qiladilar. Suratlar orqali o‘zlari yangi masalalar ham tuza oladilar.

Berilgan masalani ikki xil usulda yechamiz. Dastlab faqat raqamlardan iborat holda yechishni ko‘rsatamiz. Bunda o‘quvchilar ancha qiynaladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfning 1-2 sinf o‘quvchilari qiyinroq tushunadilar.

Agarda ikkinchi usul, rasmlar yordamida masalaning yechimini ko‘rsatsak, o‘quvchilar tezroq va yaxshi tushunadilar.

Ikkala holat ko‘rsatilsa, o‘quvchilarning e’tiborini rasm usulda berilgan masala tortadi. Matn ko‘rinishida berilgan masalaga esa o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmasi tufayligina qaraydilar.

Misol. Azizda 2 dona nok, 1 dona olma, 3 dona gilos va 2 dona olxo‘ri bor edi. Azizdagi barcha mevalar sonini aniqlang.


= 7

Sonni bir necha birlik orttirish va kamaytirishga doir masalalar yig‘indi va qoldiqni topishga doir masalalarda kengroq kiritiladi. Bu holdagi sodda masalalarni qarashga tayyorgarlik ularni kiritishdan oldin boshlanadi. Bu ish ushbu munosabatlarni o‘rnatishdan iborat. Agar predmetlarni berilgan gruppasiga bir yoki bir nechta predmet qo‘shilsa bu dastlabki predmetlar sonini orttiradi, agar ayirilsa bu dastlabki predmetlar sonini kamaytiradi. Bu munosabatlar bir xil ko‘rsatma materiallar yordamida o‘rgatiladi. Didaktik materiallar bilan ish ko‘riladi, bolalar ushbu ko‘rinishdagi amaliy mashqlarni bajarishadi:

1. “3 ta kvadrat qo‘ying, ularga yana 2 ta kvadratni yaqinlashtiring” kvadratlar qancha bo‘ladi?
2. Qanday bildingiz?
3.Kvadratlar ko‘paydimi yoki kamaydimi?

Shundan keyin syujetli rasmlar bo‘yicha ishlashga o‘tish mumkin. Rasmlar bo‘yicha ham didaktik o‘yinlar puxtalash uchun beriladi. Bilimlarni tekshirishda masala o‘quvchi taffakurini rivojlantirish haqida fikr yuritish kerakli amallarni to‘g‘ri tanlash hisoblash ko‘nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Aslini olganda hamma o‘quvchi zehnli buni yuzaga chiqarish, berilgan misol va masalalarni soddaroq tushintirish biz o‘qituvchilarning vazifasi. Aytmoqchimizki, bolalarga matematikani o‘qitishda suratlardan foydalanilsa, ko‘proq tushuncha bera olamiz va tezroq maqsadga erishishga yo‘naltirgan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf matematika darslarida matnli masalalarni yechishda rasmlardan foydalanib yechishni o‘rgatish o‘quvchilar tasavvurlarini kengaytiradi, ko‘rgazmalilikni oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tangirov X.E., Yakubova N. Boshlang‘ich sinflarda matematikani rasmlar yordamida o‘qitamiz // “Бошланғич таълимнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Андижон: АнДУ. 2012 йил 26 апрел. 54-55 бетлар.
2. Xolmuratova N.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ilk matematik tushunchalarni o‘qitish metodikasi // Архив Научных Публикаций JSPI, 2020.

# O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Tillayev Boburbek Rashidovich**
Bog‘ot tumani 2-son maktabning
tarix fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 299-01-94
bobur shohtillayev@gmail.com
**Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna**
Urganch shahar 22-son maktabning
matematika fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 601-26-25
mayliyeva s_22@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari hamda interfaol metodlardan samarali foydalanish haqida.

**Kalit so‘zlar:** Tayanch kompetensiyalar, interfaol yondashuv, loyihalash metodi, muammoli modulli ta’lim metodi, shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, klaster.

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim texnologiyalarini tanlashda o‘quv fani o‘qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so‘ng, o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o‘tish metodi, usuli tanlanadi.

**Interfaol yondashuv.** O‘qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O‘quvchilarning o‘zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

**Loyihalash metodi.** Loyihalash metodi - o‘quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladigan o‘qitish tizimidir.Ta’lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.)masalalar bilan bog‘liq  loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o‘quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi, shart hisoblanadi.

Loyihalash metodi orqali o‘quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma’suliyatni his etish; o‘ziga ishonch; o‘qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko‘ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko‘ra bilish; tashxislash; motivatsiya.

**Muammoli modulli ta’lim metodi.** Muammoli modulli ta’lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o‘qitishning turli modellarining didaktik asosini tashkil etib, o‘qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo‘llash usulari bilan farqlanadi. U o‘quv predmetini nisbatan kichik bo‘laklarga – modullarga bo‘lishni ifodalaydi.

**O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.**

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsgaaylanadi. Individ tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

**Loyihalash metodi** - o‘quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladigan o‘qitish tizimidir.ta’lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog‘liq  loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o‘quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi, shart hisoblanadi. Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma’suliyatni his etish; o‘ziga ishonch; o‘qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko‘ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko‘ra bilish; tashxislash.

**KLASTER** (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni

yig‘ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar ”yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni ”asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu ”yo‘ldoshlarda” ”kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. Ғoyalarni ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti

**BBB Jadvali** - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. ”Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va ”Nimani bilishni hohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limini to‘ldiradilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Interfaol metodlar:mohiyati va qo‘llanilishi (Metodik qo‘llanma) -T.: “TDPU nashriyoti”, 2012

2. Pedagogik mahorat. Mavlonova R.,Abdurahimova D. T:. Fan va texnologiyalar. 2012-yil

3. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovsiyasi va intergatsiyasi. O‘quv qo‘llanma R.A.Mavlanova, N.X.Raxmankulova T. G‘.G‘ulom, 2013 y

# BOLALAR PSIXOLOGIYASINING VAZIFALARI VA UNI O'RGANISH TAMOYILLARI

**Toshtemirova Nigora Ibrohimovna**
Andijon viloyati Jalaquduq tumani
46-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi va
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya**:Ushbu maqolada bolalar psixologiyasining vazifalari va uni o'rganish tamoyillari, bolalar psixologiyasi fanining metodlari haqida malumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** bolalar psixologiyasi, psixika, vazifa, taraqqiyot, obyektiv, kuzatish.

Bolalar psixologiyasida asosiy e'tibor bola tug'ilganidan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongining qanday rivojlanishiga qaratilgan, ya'ni har bir shaxs uzoq bolalik davrni boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayon va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib o'rganiladi va uni ontogenetik (tug'ilgandan ulg'aygungacha o'sib yetilish davri) taraqqiyot yo'li deyiladi.

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi omillarni ham o'rganadi. Bolalar psixologiyasi bu muammolarni hal qilishda mustaqil fan sifatida o'ziga xos vazifalarni hal etmog'i lozim.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalar turadi. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalari uning nazariy muammolarini yechishga qaratilgan. Jumladan, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni, ya'ni bolalarning idrokiga, sezgi - tuyg'ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o'rganish.
2. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik jarayonlari xususiyatlarining nervfiziologik asoslarni o'rganish.
3. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab berish.
4. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo'lgan qonuniyatlarni o'rganish.
5. Bola shaxsiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rganish.
6. Bolani maktab ta'limiga tayyorlash.
7. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish.
8. Ta'lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish.
9. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish.
10. Ta'lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir. Uning amaliy vazifalariga turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota-onalar, ya'ni jamoatchilar o'rtasida keng yoyishdan iborat.

Bolalar psixologiyasining amaliy vazifasi - keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga, yoshlik xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo'lish yo'llariga doir, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo'lmoqlarini ta'minlashdan iborat. Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, ro'znoma va gazetalarda maqolalar yozish, radio va teleko'rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma'ruza, suhbat va bahslar uyushtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bola psixikasini o'rganishda o'qituvchi bir qator tamoyillar - qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo'ladi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat;

**1. Obyektivlik tamoyili** - bu o'qituvchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Masalan: mashg'ulot davomida "bola oynadan tashqariga qarayotgan edi", - deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqidagi ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Lekin, "bola e'tiborsiz",- deb aytish hodisa-ning talqinidir. Hodisaning o'zi bilan uning talqinini aralashtirib yubormaslik kerak, chunki yuqoridagi misolda ham bola oynaga qarab turgan bo'lsada, tarbiyachining so'zlariga katta e'tibor berayotgan bo'lishi mumkin.

**2. Sababiylik tamoyili** - bu bola shaxsi va ongida yangi sifatlarning hosil bo'lishini ta'minlovchi barcha shart-sharoit va omillarni imkon qadar o'rganishni talab qiladi. Masalan: mashg'ulot

davomida bola tez-tez oyna tarafga qaragan bo‘lsa, bu hodisaning iloji boricha sababini aniqlash kerak: ko‘chadagi biror narsa bola e’tiborini o‘ziga tortdimi? Mashg‘ulotda bola charchab qoldimi? O‘tilayotgan material bolaga yaxshi tanishmi? va h.k.

**3. Sinchkovlik va muntazamlik tamoyili** - bu bola psixikasining shakllanish jarayoni, bunda psixolog va pedogoglar ta’siri sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi.

Ushbu tamoyillarga muvofiq oldindan:

a) tadqiqot joyi va bajariladigan ish mazmuni aniqlanishi kerak;

b) tadqiqotda o‘rganiladigan sinaluvchilar tanlanmasi tuzilishi lozim;

d) tadqiqot qaysi vaqtda va qanday vaqt oralig‘ida o‘tkazilishini belgilash zarur.

Ushbu bandlar belgilangach, ulardan chetga chiqmaslik kerak, ya’ni qandaydir subyektiv sabablar bilan shoshilinch xulosalar chiqarmaslik, tadqiqotni bevaqt tugatish hollariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Aks holda obyektivlik tamoyili buzilgan bo‘ladi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy metodlaridan biri kuzatish metodidir. Kuzatish metodi 2 ga bo‘linadi: 1) obyektiv; 2) subyektiv kuzatish metodi.

Bolalar psixologiyasida subyektiv, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanilmaydi. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlaridan biri obyektiv, ya’ni bolalarni tashqaridan kuzatib o‘rganish metodidir. Obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida kishilarning turli psixik jarayonlari hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini ularning turli-tuman faoliyatlarida tabiiy sharoitda mavzuli tarzda kuzatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.T.Nishanova va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.
2. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya.
3. V.A.Krutetskiy Pedagogik psixologiya asoslari.
4. www.google.uz

# TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHARQ DIDAKTIKASINING RIVOJLANISHI

**Turabova Xusnobot Doniyor qizi**
Navoiy viloyati Karmana tumani 30-sonli umumta'lim
maktabi matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayonida sharq didaktikasining rivojlanishning umumiy va o'ziga xos jihatlari, tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini muttasil oshirib borish, haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, ilmu ma'rifat, mahsuli, ijtimoiy, yondashuv, metodlar, axloqiy, irodaviy, taqlidchanlik, estetik.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi.Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi.Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bularning birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqat o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, komfortga intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi,ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

- doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;
- bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmay qo'ymaslik;
- topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar.

Az-Zamaxshariyning fikricha, tarbiyanlanganlikning o'nta nishonasi farqlanadi:

- birinchisi – xalq to'g'ri topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi – o'z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi – birovdan ayb qidirmaslik;
- to'rtinchisi – yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;

Beruniy insonning kamolotga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va aqlini peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa

moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olish zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liq. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. U.Maxkamov. «Axloq-odob saboqlari». Toshkent, 1994 y.
2. M.Fayzullaeva, Z.Raximova "Yaxshi odatlar gulshani" Toshkent-2011y.

# BADIIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH

**Turg‘unova Zuxra Maxammadjon qizi**
Namangan viloyati Uychi tumanidagi
7-umumiy o‘rta ta’limmaktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya;** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda badiiy asar matni ustida ishlash metodikasi tahlil etilgan.
**Kalit so‘zlar**: badiiy asar, matn, mazmun, asar, tahlil, o‘quvchi, vazifa.

Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi o‘quvchilarda asarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O‘qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o‘zaro bog‘liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g‘oyasini aniqlash hisoblanadi. Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog‘liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi: 1. Tanlab o‘qish. Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa asarning mazm unini oydinlashtirish, sabab- natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o ‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, 4-sinfda „Oltin kuz“ matnidan „Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismlarni topib o‘qing”, „Baqa va taqa” ertagidagi „Taqachining nasihati berilgan joyni topib o‘qing” kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Tanlab o‘qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o‘qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o‘quvchilarda yaxshi o‘qishb sifatlarini o‘stirish bilan birga ulaming ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o‘stirishga yordam beradi. Eng oddiy tanlab o‘qish asar mazmuni yuzasidan bo‘ladi. Masalan, 4-sinfda ***„Toshkentnoma”*** (M.Shayxzoda)asari yuzasidan tanlab o‘qish uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

— She’rdan o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing.

— Yoz faslining zo‘rligi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing.

2. O‘quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o‘z so‘zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan izchillikda bo‘lishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo‘naltirilganiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Asar mazmunini o‘zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.
2. Asar tilini o‘rganish va o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o ‘qituvchi asar g‘oyasini tushunishda o‘quvchilarga yordam berishni ko‘zda tutsa, savol sabab-natija tarzida bo‘ladi. Anvar Obidjonning „Odobli bo‘lish osonmi?” ertagi (4-sinf) g‘oyasi o‘quvchilarni salomlashish odobi bilan tanishtirish, ularda muomala madaniyatini tarbiyalashdir. Ertakdagi asosiy fikrni aniqlash uchun o‘qituvchi ***„Anvar Obidjon aytmoqchi bo‘lgan salom berish mavridlarini o‘zso‘zingiz bilan aytib bering”, „Nima uchun echki sichqonga nasihat qildi?”, „Toshbaqaning sichqoncha haqidagi fikrini gapirib bering”*** kabi savol-topshiriqlardan foydalanishi mumkin.

**Adabiyotlar;**

1.Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. — T.: 1980.
2. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari (1 –sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - T.: 1999.

# ZAMONAVIY PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI

**Tursunov Jo‘rabek**
Samarqand davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi va uning shakllari, pedagogning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** ta’lim, pedagog, kompetentlik, malaka, qobilyat, faoliyat

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining ajralmas sifati uning kasbiy kompetentsiyasi, ya’ni «o‘z faoliyatining ma’lum bir sohasidagi ongi va vakolati» bo‘lishi kerak (V. I. Dahlning lug‘ati). Psixologik lug‘atda kasbiy pedagogik kompetentsiya «o‘qituvchining ma’lum bir qadriyati, ideal va pedagogik ongi «deb nomlangan. Ta’limning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq pedagogik kompetensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Mustaqil ravishda o‘qish;
2. Ularning malakasini oshirish yoki to‘liq qayta tayyorlash;
3. Vaziyatni va o‘zingizning imkoniyatlaringizni tezda baholang;
4. Qarorlar qabul qilish va ular uchun javobgar bo‘lish;
5. O‘zgaruvchan yashash va mehnat sharoitlariga moslashish;
6. Faoliyatning yangi usullarini ishlab chiqish yoki eskisini optimallashtirish uchun o‘zgartirish.

Umumiy ma’noda «kompetensiya» - tegishli faoliyat sohalarida va muayyan turdagi muammolarni hal qilishda talablarga, belgilangan mezonlarga va standartlarga rioya qilish, zarur faol bilimlarga ega bo‘lish, natijalarga ishonchli erishish va nazorat qilish qobiliyati. Shunday qilib kompetensiyani shaxsiyat kategoriyasi sifatida ko‘rish mumkin; kompetensiya - bu vakolatning «anatomiyasi». Vakolatli mutaxassis (shu jumladan o‘qituvchi) mehnat faoliyatini tashkil etishga zamonaviy yondoshish nuqtai nazaridan tanqidiy fikrlash bilan ajralib turishi kerak, Keling, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi kontseptsiyasining bir nechta ta’riflarini ko‘rib chiqamiz : Qobiliyat - bu bilim, qobiliyat, ko‘nikma, shuningdek ularni shaxsning faoliyati, aloqasi, rivojlanishi (o‘zini rivojlantirish) da amalga oshirish usullari va vositalari. (Mitina L.M.) Kompetintlik - bu o‘qituvchining ishi, unda pedagogik faoliyat, pedagogik aloqa etarlicha yuqori darajada amalga oshiriladi, o‘qituvchining shaxsiyati amalga oshiriladi, maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining kompetentsiyasi, bir tomondan, uning kasbiy bilim va ko‘nikmalarining nisbati bilan, ikkinchi tomondan, kasbiy pozitsiyalar, psixologik fazilatlar nisbati bilan ham belgilanadi. (Markova A.K.)

Qobiliyat - bu xodimning odatdagi va o‘ta og‘ir sharoitlarda o‘z vazifalarini samarali va aniq bajarishi, yangi narsalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi va o‘zgargan sharoitlarga tezda moslashishi. (Vesnin V.R.) Kompetensiya - bu ta’lim jarayonini barpo etishning o‘zgaruvchanligi, maqbulligi va samaradorligini ta’minlaydigan insonning bilimlari, ko‘nikmalari, xususiyatlari va fazilatlari majmuini o‘z ichiga olgan murakkab ta’lim. (Adolf V.A.)

Kompetentsiya - bu kasbiy va pedagogik kompetensiyalar majmui. (Solovova E.N.) Yuqorida aytib o‘tilganidek, kompetensiya bu kompetensiyaning o‘ziga xos «anatomiyasi» dir, kompetensiyaning mohiyatini yanada ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri keladi. Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahorati va uning kasbiy kompetentsiyasi darajasini baholashning eng dolzarb muammolarini hal qilish uchun u yoki bu darajada qo‘llaniladigan turli xil diagnostika texnikasi mavjud. Bir tomondan, o‘qituvchini «bilim-ko‘nikma-mahorat» formulasiga kiritish mumkin emas va o‘qituvchi qalbining barcha olijanobligini, takrorlanadigan ta’lim jarayonida uning ishining noyob daqiqalarini o‘lchaydigan vosita yo‘q. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish - bu kasbiy tajribani assimilyatsiya qilish va modernizatsiya qilishning jadal jarayoni bo‘lib, individual kasbiy fazilatlarni rivojlanishiga, kasbiy tajribani to‘plashga olib keladi, bu doimiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Kasbiy kasbiy kopetensiyani shakllantirishni quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin: ehtiyojni anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish (maqsadlar, vazifalar, echimlar), o‘zini namoyon qilish, tahlil qilish, o‘zini tuzatish.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish tsiklik jarayondir, chunki pedagogik faoliyat jarayonida kasbiy mahoratni doimiy ravishda oshirish zarur va har safar sanab o‘tilgan bosqichlar takrorlangan, ammo yangi sifatda. Umuman olganda, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni biologik

jihatdan belgilanadi va o‘z hayotini va shu sababli o‘z rivojlanishini ongli ravishda tashkil etadigan shaxsning sotsializatsiyasi va individualizatsiyasi bilan bog‘liq. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni atrof-muhitga ham juda bog‘liq, shuning uchun aynan atrof-muhit kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantirishi kerak

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘oziyev E.G‘.Umumiy psixologiya T.:2010

2. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari Ped.fan diss.T.:2010

3. www.ziyonet.uz

# MEHNAT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARALI VOSITA SIFATIDA

**Usmonova Masturaxon Solijonovna**
Farg'ona tumani 20-o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
usmonovam@gmail.ru

**Annotatsiya:** Maqola boshlang'ich sinflarda mehnat darslarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning faolligini oshrishda ulardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishanadi.

**Kalit so'zlar:** samaradorlik, pedagogik texnologiyalar, milliylik va umuminsoniylik tamoyillari, insonparvarlik va demokratiya prinsiplari, ijodkorlik va tashabbuskorlik

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlshtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni unumli mehnatga o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi oldiga qo'ygan ta'limiy maqsadiga erishishishda asosiy omil vazifani o'taydi. Pedagogik texnologiya mohiyat-ye'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq, pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Mehnat darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan maqsad–tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning unumli mehnat darslarida qo'llashning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Dars jarayonida berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyadan tashkil topgan unumli mehnat darslari boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya bilan tashkil etilgan boshlang'ich sinf mehnat darslari avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda o'quvchilarda hamkorlik, g'amxo'rlik, sinfdoshlarini hurmat qilish va e'zozlash orqali bolalarda tahsil olish, ijod bilan shug'ullanish va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirish boshlang'ich sinf mehnat darslari unumdorligini oshiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni ortishiga zamin yaratadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T:, 2010.
2. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii. – T. 1999.
3. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T. 2000.
4. Rozikov O., Og'aev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – Toshkent «O'qituvchi» 1999.
5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – T., 2003.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.

# SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINING MUHIM MEZONLARI

**Xadjaliyeva Dilraboxon Alijonovna**
Farg'ona tumani
55-sonli o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail: xadjaliyeva_dilrabo@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada sinfdan tashqari o'qish darslarining vazifalari, tashkillash asoslari va unga rahbarlik mezonlari tadqiq etilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslarini amalga oshirishdagi ma'lum talablar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish, o'quvchilar faolligini oshirish, asarni yaxlit holda o'qitish, suhbat metodi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).
2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'Iib, ular fikr almashuv, kilobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.
3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichida o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.
4. Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun ,,Senga asardagi nimalar yoqdi?", ,,Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?" kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.
5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmast hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumotlar to'plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.
6. Har bir dars kirish suhbati bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.
7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tadbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham mavjud bo'lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi, sinfdan tashqari o'qish darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

**1.Kitobni targ'ib qilish.** Sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

**2.Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv.** O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy

kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat oʻtkaziladi.

**3. Sinfdan tashqari oʻqishga yuzasidan ommaviy ishlar.** Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik koʻriladi.

**4. Kutubxonaga aʻzo boʻlish.** 1-sinf oʻquvchilari oʻqituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a’zo boʻIadi. Bu jarayonda oʻqituvchi va ku-tubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq boʻIadi.

**5. Oʻquvchilarning oʻqiganlarini hisobga olish.** Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf oʻquvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qoʻshib yozadilar. *3*~4-sinflarda oʻqigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va oʻz mulohazalarini ham qoʻshishlari mumkin.

Oʻquvchilarning oʻqigan kitoblari ogʻzaki tarzda ham hisobga olinadi: ular oʻqiganlari yuzasidan sinfdan tashqari oʻqish va sinfda oʻqish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Sinfdan tashqari oʻqish darslarining xususiyatlari:

birinchidan, sinfdan tashqari oʻqish tizimining bosqichlari bilan;

ikkinchidan, oʻquv vazifalari va dastur bilan;

uchinchidan, oldinga qoʻyilgan tarbiyaviy vazifalar bilan;

toʻrtinchidan, oʻquvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

Sinfdan tashqari oʻqish darslarida oʻqilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali oʻqish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gʻulomov A. Ona tili oʻqitish printsiplari va metodlari. T., Oʻqituvchi. 1992.
2. Gafforova T., Sh. Nurullaeva, O. Haydarova. Boshlangʻich sinflar uchun ona tili va oʻqishdan didaktik materiallar. T., 2004. 3-77 b.
3. Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga oʻrgatish asoslari. T. Oʻqituvchi, 2003.

# MAKTAB INFORMATIKA FANI MAVZULARINI O‘QITISHDA ELEKTRON ISHLANMADAN FOYDALANISH

**Xaitov Fayzulla Norbutayevich,**
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti
(+998941942674, haitov1955@mail.ru)
**Sodiqova Fotima Hamid qizi,**
Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi
(+998975224930, sodiqovafotima@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab informatika fani mavzularini o‘qitishda, xususan, “SMM loyihalari bilan tanishish” mavzusini o‘qitishda CourseLab dasturi yordamida yaratilgan elektron ishlanmadan foydalanish metodikasi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** informatika va axborot texnologiyalari, elektron ishlanma, CourseLab dasturi, SMM loyihalari.

Elektron ishlanmalar zamonaviy axborot texnologiyalarning mahsuli bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. CourseLab — bu Internet tizimida, masofaviy ta‘lim tizimlarida, kompakt disk yoki boshqa har qanday saqlash qurilmalarida ishlatish uchun mo‘ljallangan interaktiv ta‘lim materiallari (elektron darsliklar) tayyorlash imkonini beruvchi dasturiy vositadir.

Ushbu elektron ishlanma CourseLab dasturida yaratilgan bo‘lib, uni ishga tushirish uchun dastlab elektron ishlanma saqlangan papkaning **index.html** fayli ishga tushiriladi. Natijada quyidagi shaklda 8-sinf Informatika va axborot texnologiyalari darsligining muqova qismi namoyon bo‘ladi.




Kirish buyrug‘i bosiladi CourseLab dasturi yordamida SMM loyihalari bilan tanishish va uning imkoniyatlari yoritib berish.




Mavzular ro‘yxati chiqadi har bir mavzu ichiga murojat qilib ular bilan birma bir tashishib chiqsh imkonini beradi va undagi imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi.Mavzuni ustiga borib bosilganda quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi.




Mavzu bayoni ochiladi va bu orqali oʻquvchilarga mavzu bayoni haqida maʼlumot beriladi. Bundan tashqari chap burchakda mavzuni yanada yaxshiroq tushuntirish taqdimot boʻlimi ham bor. Oʻquvchilarga yanada tushunarli boʻlish imkonini berdi. Unga kirish uchun taqdimot tugmachasiga murojat qilamiz.

Taqdimot orqali oʻquvchilar yanada mavzu bayonini chuqurroq oʻrganib olish imkonini beradi. Mavzuni oʻquvchilar qay darajada oʻzlashtirilganligini bilish uchun ularga test, krasswordlar boʻlimi ham tashkil qilingan.ularga kirish uchun qaytish buyrugi bosilib kerakli buyruqlarga murojaat qilamiz.



Test boʻlimiga kirgandan soʻng oʻquvchi oʻzlashtirish darajasini tekshirish maqsadida testni ishlab natijasini bilish mumkin. Ishlab boʻlgach qaytish tugmasiga murojat qilib, kiyingi boʻlimga oʻtamiz yaʼni, krossvord boʻlimiga murojat qilamiz.




Krossvord boʻlimiga kirib oʻquvchi mavzu yuzasidan tuzulgan krossvorddagi savollarga javob berib bilimini sinab koʻriladi. Shu tariqa barcha mavzularda bu imkoniyatlar mavjud boʻlib, bosqichma bosqich kirib oʻrganilib boradi. Soʻngra menulardan foydalanib ekrandagi tugma bosilib bosh menyuga utiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumtaʼlim maktablari Informatika va axborot texnologiyalari

fani mavzularini o'qitishda CourseLab dasturida yaratilgan elektron ishlanmadan foydalanish o'quvchilarda dasturlashga bo'lgan qizqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Fayziyeva M.R., Sayfurov D.M. "Informatika va axborot texnologiyalari" // 8-sinflar uchun darslik: – Toshkent: "Tasvir", 2020. – 112 b.
2. https://courselab.com - CourseLab dasturining internet manzili

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

**Xakimova Ilmira Fanilovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son umumta'lim maktabining
rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
**Satlikov Yuriy Atanazarovich**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son umumta'lim maktabining
texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida dars o'tishda interfaol metodlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** dars, ta'lim-tarbiya, qonun, metod, uslublar, jaaryon, o'quvchi, rivojlanish.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shunday ekan hozirgi kunda ta'limning sifat va samaradorlikni ta'min etuvchi eng mas'uliyatli davri boshlandi. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Maktablarning moddiy bazasi kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Yangi–yangi maktablarni qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash, zamonaviy asbob – uskunalar, jixozlar, texnika vositalari, informatsion axborot vositalari, kompyuterlashtirish, axborot –resurs markazlari bilan ta'minlanmoqda. O'qituvchilar va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish, tabaqalashgan holda moddiy, ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlari yaratilmoqda.

Zamonaviy ta'lim dasturlarida hozirgi kunda dars o'tishda quyidagi metodlardan keng foydalaniladi:




**Passiv usul.** O'quvchi o'qituvchining so'zidan, aytib berishi, hikoya qilib berishi, ma'ruzasi, og'zaki tushuntirishi, bayon etishidan o'quv materiallarni eshitadi, ko'radi, o'zlashtirishga harakat qiladi. O'quv materiali uy vazifalarni qo'llanma, masala, mashqlar to'plami, darsliklardan o'qib o'rganiladi. Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida muloqat, aloqalar munosabatlari tizimli o'rnatilmagan. O'quvchi o'z darajasida – qobiliyali, qiziqishi, istak, hoxishi asosida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini standartlar darajasida o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

**Faol usul.** An'anaviy usuldan keng foydalaniladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini bayon etishda bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma materiallar yordamida ta'sirchan qilib tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan Nazoratfikr almashadi. Muloqat o'rnatadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechadi. Uy ishlarini ham mustaqil ishlash, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta'lim mazmunini bir muncha yuqori o'zlashtirishga erishadi.

**Interfaol usul.** O'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlari uchun ijodiy muhit, o'zaro axborot berish va olish uchun

sharoit yaratadi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muxokama etadilar va yechadilar, vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida o'z bilimlarini bir – birlariga namoyish etadilar. Bir – birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Chizmalar, yozma konspektlar yuritadilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflaridek xis etadilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. Yana qo'shimcha ma'lumotlar to'plash uchun qo'shimcha adabiyotlarga, internet orqali ma'lumotlar to'plashga kirishadilar.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqati asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda dars jarayonlarini o'quvchilarni qiziqtirgan holda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalangan holda o'tish zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1."Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. onun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.

# BOSHLANG‘ICH SINFDA IZOHLI O‘QISH JARAYONI

**Xamidova Dilnoza Ilyosovna**
Furqat tumani 31-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail:xamidova@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qishni tashkil etish, o‘quvchilarga izohli o‘qish medodikasini qo‘llash orqali natijali t’limga erishish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, o‘qitish usullari, izohli o‘qish.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta’lim sohasida ham bir qator o‘zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta’lim sohasida erishilgan yutuqlami saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta’limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o‘tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan o‘rinli foydalanish - ta’lim samarasini ta’minlashga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta’kidlangan. Boshlamg‘ich ta’limda pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. O‘qitish metodi deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshlang‘ich sinfda o‘qitish usullari har ikkala faoliyatning:

a) o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) o‘quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llanadigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. Boshlang‘ich singda o‘qish metodikasi kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O‘qish darsining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishida bo‘ladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodi asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir izchil o‘qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga e’tibor berilmagan. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan. Hozir maktablarda boshlang‘ich sinflarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: izohli o‘qish nima? Izohli o‘qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni - ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga o‘rgatishni alohida ta’kidlaydi va uni - Izohli o‘qish‖ deb nomlaydi. Izohli o‘qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida ham badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bo‘g‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. Proffessor Asqar Zunnunov o‘qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o‘quvchilarning oldin bilimlarni o‘zlashtirishiga, so‘ng yod olishlariga e’tibor berilishi ta’lim jarayonida izohli o‘qish deb nomlanganini ta’kidlaydi. Demak, izohli o‘qish deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytiladi. Izohli o‘qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g‘oyani anglashni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinfda *Izohli o‘qish* quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvofaqqiyatli bo‘ladi:

-o‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish;

o‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning taassurotlarga asoslanish;

-o‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqazo qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonaliev U. Ta’lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. – «Xalq ta’limi», 1999-yil
2. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999-yil
3. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999
4. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000-yil
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Karshi «Nasaf», 2000-yil

# BOSHLANG‘ICH SINFLARGA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI O‘STIRISH

**Xomidova Shaxnoza Razikdjanovna**
Marg‘ilon shahar 19-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail:xomidova@mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish hamda nutq ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida olib boriladigan amaliy ishlar yuzasidan fikrlar yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, til, nutq, nutq o‘stirish.

Ta’limning yangi mazmuni o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xat-savodga o‘rgatish, lug‘atni boyitish nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga erishmoq lozim. Xat savod o‘rgatish ta’limning muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish, chiroyli yozish hamda o‘qiganlarini so‘zlab berish o‘rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so‘zlarga, so‘zni bo‘ginlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so‘zda tovushlarning birin-ketinligiga e’tibor berishni ham bilib olishlari ta’minlanadi. Bolalarning nutqni o‘stirishda kesma harflar bilan ishlashga o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bog‘inlar tuzishga tez o‘rganadilar. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni turli ko‘rinishdan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib bo‘g‘inlab, ongli to‘g‘ri va ravon o‘qishda o‘rganadilar. O‘quvchi avval ichida bo‘g‘inlab o‘qish, so‘ng ovoz chiqarib so‘zni butunicha aytish yozuv bilan uzviy bog‘lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og‘zaki va yozma nutqning baravar rivojlantirishga yordam beradi. O‘qish darslarida o‘quvchilar so‘zdagi harflarni bir-biriga bog‘lab yozish, so‘z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbo kitobida berilgan tartibda yozishga o‘rgatiladi. Xat savod o‘rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o‘xshash tomonlarini farqlab bosma harflarni yozma ravishda ko‘chirib yozishga ham o‘rgatish foydalidir. Chunki ular ko‘pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo‘yadilar. Shunday paytda ular e’tiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to‘g‘ri va chiroyli bo‘lishiga erishmoq lozim. Bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so‘zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o‘rgatishda so‘z tarkibidagi harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishi hamda qo‘shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e’tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o‘quvchilar bilimining kelgusida pishiq- puxta bo‘lishiga mustahkam zamin yaratadi. Savod o‘rgatish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

-ta’limning didaktik jihatlariga e’tibor berib, uni so‘nggi yutuqlar bilan to‘ldirib borish;
-o‘quvchilarning yosh va fiziologik jiqatlariga e’tibor berish;
-ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo‘llash;
-o‘qish va yozishning uzviyligiga e’tibor berish;
-alifbo va unga qo‘shimcha materiallardan ijodiy foydalanish;

Maktabda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga o‘z xalqining adabiy tilini o‘rgatish demakdir. Adabiy til esa normaghtirilgan qonun-qoidali til. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni ana shu adabiy tilda so‘zlashga odatlantira borish kerak. O‘qituvchining nutqni o‘stirish jarayoni bola maktabga 1-qadam qo‘ygan kunidan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini o‘stirishga e’tibor berishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni matnni to‘g‘ri, ifodali, ravon talaffuz etishiga katta e’tibor berishi kerak. Bu ko‘nikmaga dastavval nutqning ixcham, sodda va ravon mazmundor bo‘lishi kiradi. Shuning uchun har bir grammatika va imlo darsida nutq o‘stirishi o‘qituvchining diqqat markazida turishi, o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va so‘z boyligini kengaytirish birinchi darajali vazifa qilib qo‘yilishi shart. Savod o‘rgatish jarayonida bir turdagi mashg‘ulotlar uzoq davom etsa o‘quvchilar tez charchab qoladi. Shuni hisobga olib, mashg‘ulotlarning turi va usullarini o‘zgartirib

turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dastlabki mashg‘ulotlar ta’sirchanlik va mo‘jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo‘lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o‘qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod ta’limning adabiy til meyorlariga rioya qilgan holda olib borilishi qisqa va lo‘nda, ta’sirchan va tabiiy, ravon nutq egallanishi uchun zamin yaratadi. O‘quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o‘qituvchi ko‘p izlanishi, bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lmog‘i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva Q, Nazarov K, Yo‘ldosheva Sh. “Savod o‘rgatish metodikasi” T.”O‘qituvchi” 1996.
2. Ro‘ziboyeva O‘. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari unli va undosh tovushlarni o‘rganish bilan og‘zaki nutqni o‘stirish” T. 1996.
3. Qosimova K. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” T.”O‘qituvchi” 1985.

# FIZIKA FANINI O‘QITISHDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADIGAN PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR

**Xudaynazarov Yoqubboy**
Norbek G‘ofurovich
Bog‘ot tumani 31-maktab
fizika fani o‘qituvchilari

**Annatostiya:** Ta’limda pedagogik texnalogiyalar asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zi:** Interfaol, pedagogik, o‘quv, metod, fizika, ijodiy, kasb.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi “2004-2009-yilllarda maktab talimini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 5 asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib, uning 2,3 va 4 bandlarining ijrosi umumiy o‘ratalim maktablari direktorlari va barcha fan o‘qituvchilari qatorida fizika fani o‘qituvchilari zimmasiga ham ulkan vazifalar yukladi. Bu albatda, fizika fani o‘qituvchlaridan o‘z kasblariga ijodiy yondashishni va o‘quvchilarni o‘qish bilan birga uqishga, kuzatuvchanlikka o‘rgatishni talab qiladi. Ma’lumki ta’lim jaroyonida innovatsion tehnalogiyalar va interfaol metodlardan tadbiq etishga qiziqish tobora keng tus olmoqda.

Innovatsiya so‘zining ma’nosiga e’tibor bersek u (inglizcha-innovation) yangilik yaratish demakdir. Interfaol usullar-bu o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Ya’ni o‘quvchilar ko‘nikmani qanday egallaganlarini bilib, fikrlari umumlashtiriladi.Amaliy boshqaruv qismida o‘qituvchi «hamrohinga o‘rgat» metodidan foydalanish mumkin. Bu metod o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va hatolarini bartaraf etishga o‘rgatadi. Darslarda interfaol usulda o‘tkazish o‘qituvchilardan ko‘p mehnat talab qilsada, o‘quvchilarni shijoatkorlikka undab, fikrlarini vaqtdan unimli foydalangan holda tez, aniq, lo‘nda ifodalashga zamin yaratadi. Talimda interfaol metodlarini qo‘llashning asosiy maqsadi o‘quvchilarni faol talim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, umumtalim maktablari fizika fani bo‘yicha o‘quv materiyallarini puxta o‘zlashtirishda faoliyatini oshirishdan iboratdir. Interfaol metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol munosabati, bir-birini to‘liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo‘lmasin, qayerda o‘qitilmasin darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O‘qituvchi darsda tegishli muammolarga o‘quvchilarni jalb etish, ularning harakatini faollashtirish va natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlash lozim. Fizika darslarida o‘qivchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda “Hamkorlikda o‘qitish” texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara berishini biz o‘z tajribamizda juda ko‘p bora kuzatganmiz. Chunki fizika fanining har bir mavzusi hoh u nazariy bo‘lsin, hoh u amaliy bo‘lsin, muammoli savollarga duch kelasiz. O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlarga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib qoidalari va o‘quvchilarini tushuntiradi, ya’ni u mashg‘ulotni bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich o‘quvchilardan diqqat e’tiborni talab qilishini, mashg‘ulot davomida ular guruxli va jam bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008
2. Karimov I.A. Ta’lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasida fikr va mulohazalari.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar amaliyoti – T.: Iste’dod, 2010.- b.
4. Yusupov A., N.Turdiyev “Fizika: 9-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma”-Toshkent-“Ma’naviyat”-2003 yil
5. Ne’matova N.N. Fizikadan ma’ruzalar matni. Buxoro-XXI asr 11. Haydarova O.Q.Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.
6. Fizikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanining majmuasi. Jizzax. 2014y 13. O‘zbekiston

# TA'LIMDA O'QUVCHILARNI O'ZLASHTIRISH KO'RSATGICHINI OSHIRISH MEXANIZMI

**Xudoyberdiyev Shuhrat, Xoliqov Azimjon**
Namangan shahar Namangan davlat
universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi" yo'nalishi talabalari**:**

**Annotatsiya:** axborot texnologiyalarini rivojlangan davrida yashamoqdamiz. Zamondan ortda qolmaslik uchun jahon standartlariga javob bera oladigan yetuk mutaxasislarga ega bo'lishimiz zarur. Bunga faqat yuksak ma'naviyatimizni yo'qotmagan holda, yosh avlodning tarbiyasi va bilimlarini o'zlashtirish ko'rsatgichlarini oshirish xisobiga erishishiumiz mumkin. Shuning uchun ham ushbu maqolada asosiy e'tiborni "**Ta'limda o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatgichini oshirish mexanizmi"** ga qaratdik.

**Kalit so'zlar: "**Mexanizm", "Ustoz-shogird".

"Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qanday sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, bahtli bo'lishi uchun keng imkoniyatlarni safarbar etamiz deya nutqlarida ta'kidlab o'tgan edilar. Hozir biz yoshlar uchun juda ko'p imkoniyat va yengilliklar yaratilganki bulardan oqilona foydalanish, yaxshi bir yetuk kadr bo'lib yetishib chiqish, vatanimizga oz bo'lsada o'z xissamizni qo'shish biz yoshlarni qo'lida.

**"Mexanizm" haqida tushuncha.**

Barcha o'quvchi talabalar o'z o'qituvchi, murabbiy va ustozlari tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotlarni birday qabul qilish, o'zlashtirish ko'nikmalaridan yiroq. Chunki, ayrim talaba va ustoz-murabbiy o'rtasida psixologik to'siq mavjud bo'ladi. Yurtimizda, xalq orasida azal-azaldan**" "Ustoz-shogird** an'analariga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu an'anaga asoslanib, Namangan viloyati miqyosida ta'lim tizimini rivojlantirish, mashg'ulot o'tishning o'zgacha usullarini joriy qilish, mashg'ulotlarni o'quvchi, talabalar tomonidan tez va mukammal o'zlashtirish, hamda sifatli, tajribali kadr-mutaxasislarni tayyorlash (yetkazib berish)ga ko'maklashish maqsadida ushbu toifa o'quvchi talabalarni o'z auditoriya, guruhlaridagi (sinf xonalaridagi) iqtidorli talabalarga biriktirilishi nazarda tutilgan. Bu jarayonda iqtidorli talaba o'ziga biriktirilgan talabaga o'zi tushungan axborotni kengaytirib izohlab beradi. Bu jarayondan keyin, talabalar o'zlarini nisbatan erkin xis qilib, tushunmagan savollariga javob olishi uchun, qayta-qayta savol berishdan tortinmaydilar. Iqtidorli talabalar mashg'ulotni ustozlaridan o'zgacha (adabiy-kitobiy tilda, talabalarni qabul qilishi qiyin bo'lgan yoki ularning so'z boyligida mavjud bo'lmagan so'zlar bilan emas) qabulm qilishiga qulay bo'lgan sodda va oddiy (misol va izohlar) tarzda o'tishadi.

Mashg'ulotlar tugagach, fanlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish, tanlangan kasblariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida yuqori bosqichda tehsil olayotgan iqtidorli talabalar tomonidan, pastki bosqich talabalariga u yoki bu fanlaridan mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

**"Mexanizm"ni xayotga tadbiq qilish natijasida nimalarga erishiladi?**

Yuqorida keltirilgan takliflarni xayotga tadbiq qilish natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

-o'quvchi, talabalar tomonidan fanlarni yaxshi o'zlashtirishlariga;

-jamoani tinglash, jamoa bo'lib ishlash imkoniyatlari (kriteriyalari) oshishiga;

-guruh va jamoada ahillik oshishiga, bir-birlariga nisbatan hurmat kuchayishiga;

-fikrlash qobiliyatini tiniqlashishi, tezlashishi va kengayishiga;

-mashg'ulot o'tadigan talabaning pedagogik, rahbalik, boshqaruvchanlik qobiliyatlarining oshishiga;

-magistraturaga o'qishga nomzod tanlash osonlashishiga;

-talabaning bekorchi vaqtlari kamayishi, oldi olinishi va foydali ishga yo'naltirilishiga;

-ko'cha-ko'yda besamar yurishlari oldi olinishuga, ko'proq vaqt "jamoat" nazorati ostida bo'lishlariga va eng asosiysi ularning hulqi, fe'l-atvorini ijobiy va salbiy t5omonlari qiziqishlari hamda mavjud muammolari chuqurroq o'rganilishiga;

-noqonuniy diniy, ekstremistik oqim, uyushma va guruhlar ta'siri ostiga tushishlari oldi olinadi.

**Xulosa:**

"Ta'limda o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatgichini oshirish mexanizmi" innovatsion g'oyasi

ikki: **1)** ochiq, oshkor, hamma bilishi mumkin bo‘lgan va **2)** yashirin, cheklangan kontingent bo‘lgan bo‘limlardan iborat.

Birinchi bo‘limning maqsadi ta’lim tizimini rivojlantirish, mashg‘ulot o‘tishning yangi uslublarini birinchilardan joriy qilish, mashg‘ulotlarni o‘quvchi talabalar tomonidan tez va mukammal o‘zlashtirish hamda sifatli, tajribali kadr-mutaxasislarni tayyorlash (yetkazib berish)ga ko‘maklashish edi va bu masala atroflicha yoritildi.

Ikkinchi bo‘limning maqsadiga to‘xtalsak. Texnika va texnalogiyalarning yuqori rivojlangan davrida yashamoqdamiz.

O‘zbekiston respublikasi 28-yillik mustaqilligiga ega bo‘lgan yosh, lekin rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Xalq ichida bir naql bor: “Katta baliq kichik baliqni ovlaydi (yeydi)”. Biz istaymizmi yo‘qmi, davlatimizning erishayotgan yutuqlarini ko‘rolmaydiganlar ham topiladi. Ular jamiyatimizning asosini tashkil qiluvchi yosh avlod onggoga internet orqali ta’sir qilib, ularni turli jinoyatlarga undagan holda, jahon hamjamiyati oldida davlatimiz obro‘sini tushirish, erishayotgan yutuqlariga to‘siq qo‘yish, imkon tug‘ilsa davlatni parchalash kabi qabih ishlarga qo‘l urishlari ham ehtimoldan holi emas. Bunday holatlarni biz Ukraina, Iroq, Livan, Liviya, Suriya, Afg‘oniston va boshqa davlatlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Prezidentimiz tomonidan yoshlarga xorijiy davlatlariga chiqib o‘qish, ishlash, sayohat qilish kabi imkoniyatlar yaratildi. Bular to‘g‘risida ma’lumot olish maqsadida internet tarmog‘idan foydalanayotgan, dunyoviy, diniy va xuquqiy bilimlari shakllanmagan yoshlarimiz, o‘zlari bilmagan holda, noqonuniy diniy, ekstremistik oqim, uyushma va guruhlar ta’siri ostiga tushib qolmoqdalar.

Gapning indallosini aytganda, o‘quvchi va talabalarga o‘z tengdoshlari, do‘stlari (sirdoshlari) tomonidan qo‘shimcha mashg‘ulot, to‘garaklar tashkillashtirish natijasida ularning yashirin dardlari, muammolari eshitiladi. Muammolarni hal qilish va undan chiqish yo‘llari tushuntiriladi. Shu yo‘sinda, ularning hulqi, fe’l-atvorini ijobiy va salbiy tomonlari, qiziqishlari hamda mavjud muammolari chuqurroq o‘rganiladi. Barcha qonunbuzqarlik va jinoyatlarni boshlanish jarayonida oldi olinishi muhimroq. Axir talabalarning deyarli 4, 6, … yil umri oliygohlarda o‘tadi. Undan keying davr mustaqil hayotdir. **“ Har bir talaba oliygohdan mustaqil hayotga-toza fikr, puxta bilim, mukammal reja va sobit6 qadam bilan o‘tishi zarur! ”**. ushbu so‘zlar biz talabalar qalbida muxrlanmog‘i kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “ Umumiy pedagogika ” Toshkent-2018
2. Prezident qarorlari ( ziyo.net)
3. Prezidentimizni anjumanda so‘zlagan nutqlari
4. Buyuk inson, faylasuflarning hikmatli so‘zlari

# AXBOROT XAVFSIZLIGIDA SHIFRLASH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.

**Yo‘ldasheva Gulbahor**
Farg‘ona Davlat Universiteti katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Shifrlash - bu avtorizatsiya qilingan foydalanuvchilarga unga kirish huquqini taqdim etishda ruxsatsiz shaxslardan yashirish uchun ma'lumotni qayta o'zgartirish. Asosan, shifrlash uzatilayotgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar.** Maxfiylik, axborot xavfsizligi, transformatsiya, algoritm, ma'lumot, avtorizatsiya, Shifrlash.

Har qanday shifrlash algoritmining muhim xususiyati bu algoritm uchun mumkin bo'lgan to'plamdan ma'lum bir transformatsiyani tanlashni tasdiqlaydigan kalitdan foydalanish hisoblanadi. Agar foydalanuvchilarda haqiqiy kalit bo'lsa, ular avtorizatsiya qilinadi. Butun murakkablik va aslida shifrlash vazifasi bu jarayon qanday amalga oshirilganligidadir. Umuman olganda, shifrlash ikkita tarkibiy qismdan iborat - shifrlash va parolni ochish. Shifrlash axborot xavfsizligining uchta holatini ta'minlaydi Maxfiylik Shifrlash ma'lumot uzatish yoki saqlash paytida ruxsatsiz foydalanuvchilardan ma'lumotlarni yashirish uchun ishlatiladi. Butunlik Shifrlash ma'lumot uzatish yoki saqlash paytida o'zgartirilishining oldini olish uchun ishlatiladi. Aniqlik. Shifrlash ma'lumot manbaini autentifikatsiya qilish va ma'lumotni yuboruvchiga unga ma'lumot yuborilganligini rad qilishining oldini olish uchun ishlatiladi. Shifrlangan ma'lumotni o'qish uchun qabul qiluvchi tomonga kalit va dekolifator kerak (shifrlash algoritmini amalga oshiradigan qurilma). Shifrlash g'oyasi shundan iboratki, buzg'unchi shifrlangan ma'lumotlarni ushlagan va ular uchun kalitga ega bo'lmagan holda uzatilgan ma'lumotni o'qiy olmaydi va o'zgartira olmaydi. Bundan tashqari, zamonaviy kriptotizimlarda (ochiq kalit bilan) ma'lumotlarni shifrlash, shifrlash uchun turli xil kalitlardan foydalanish mumkin. Biroq, kriptovalyutaning rivojlanishi bilan siz yopiq matnni kalitsiz shifrlash imkonini beradigan texnikalar paydo bo'ldi. Ular uzatilgan ma'lumotlarning matematik tahliliga asoslangan. SHifrlash dasturlari fayllar xavfsizligini ta'minlashda yoki qattiq disklarda shifrlangan ma'lumotlar xajmini yaratishda ishlatiladi. Bu ma'lumotlarni rasshifrovka qilish uchun, odatda, parolni kiritish yoki shaxsiy kalitlarni ishlatish talab etiladi. Barcha axborotlarni shifrlangan fayllarda yoki arxivlarda saqlanishi kerakli fayllar to'plamini arxiv uchun nusxalashni yengillashtiradi, chunki ular endi ma'lum joyda joylashgan bo'ladi. Shifrlashning standart usullari (Milliy yoki xalqaro) shifrlarni yechishga mustaxkamlik darajasini oshirish uchun shifrlashni bir nechta etaplar (qadamlar) amalga oshiradi, bularning har birida tanlangan kalitga (yoki kalitlarga) qarab shifrlashni turli klassik usullari ishlatiladi. Shifrlashning prinsipial har xil ikkita standart usullari mavjud:  shifrlash va shifrlarni yechishda (simmetrik shifrlash yoki ochiq kalitli tizimlar –• Private – key sistems) bir xil kalitlarni ishlatib shifrlash.  Shifrlash uchun ochiq kalitlarni va yopiq kalitlarni shifrlarni yechish uchun• (simmetrik bo‘lmagan shifrlash) foydalanib shifrlash. Shifrlashni standart usullarini qo‘llashda algoritmlarning aniq matematik ifodalash juda qiyin. Foydalanuvchilar uchun birinchi navbatda har xil usullarning ishlatish xususiyatlari muhim (shifrni yechishda mustaxkamlik darajasi, shifrlash va shifrni yechish tezligi, kalitlari tartibi va tarqatish qulayligi). Shifrni yechishda eng yuqori mustaxkamlikni cheksiz uzunlik maskalarni qo‘llaganda ta'minlanadi, bu esa ketmaketliklar tasodifiy generatori bilan hosil bo‘lgan (aniqrog‘i psevdo-tasodifiy). Bunday generator apparatli yoki dasturli vositalari yordamida oson hal qilinadi masalan, bu esa teskari bog‘lamali siljish registr yordamida halaqit qilishga chidamli ikkilik kodni hisoblashda qo‘llaniladi. SHifrlash – akslantirish jarayoni: ochiq matn deb ham nomlanadigan matn shifrmatnga almashtiriladi. Deshifrlash – shifrlashga teskari jarayon. Kalit asosida shifrmatn ochiq matnga akslantiriladi. Ko'pchiligimiz ma'lumotlarni uzatmasdan oldin shifrlash zarurligini tushunamiz. Shifrlash bu oddiy matnni (ya'ni oddiy ma'lumotlar) shifrlangan matnga (ya'ni maxfiy 8 ma'lumotlar) tarjima qilish jarayoni. Shifrlash jarayonida oddiy matnlar kalit va algoritm yordamida shifrlangan matnga tarjima qilinadi. Ma'lumotni o'qish uchun, kalit va algoritmdan foydalanib, shifrlangan matnni hal qilish kerak (ya'ni oddiy matnga tarjima qilingan). Shifrlash algoritmi - bu kalitning raqamli qiymatlari va oddiy matn qatoridagi belgilarning raqamli qiymatlari uchun qo'llaniladigan matematik operatsiyalar ketma-ketligi. Natijalar shifrlangan matndir. Kalit kattaroq bo'lsa, shifrlangan matn xavfsizroq bo'ladi. Har qanday shifrlash algoritmi bilan hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy

muammo bu kalitlarni taqsimlashdir. Xavfsiz aloqani o'rnatish uchun kalitlarni ularga kerak bo'lganlarga qanday etkazasiz? Muammoning echimi kalitlar va algoritmlarning xususiyatlariga bog'liq. Shifrlash Qabul qilgich kalit juftligini hosil qiladi va ochiq kalitni yuboruvchiga uzatadi. Yuboruvchi tasodifiy nosimmetrik kalitni yaratadi va undan katta hajmdagi xabarni shifrlash uchun foydalanadi. Yuboruvchi xabarni simmetrik kalit bilan shifrlaydi. Yuboruvchi nosimmetrik kalitni qabul qiluvchining ochiq kaliti bilan shifrlaydi. Yuboruvchi shifrlangan nosimmetrik kalit va shifrlangan xabarni bog'laydi. Yuboruvchi shifrlangan xabarni qabul qiluvchiga uzatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Akbarov D. Ye. “Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi” – Toshkent, 2008
2. Axborot texnologiyasi. Axborotning kriptografik muhofazasi. Ma'lumotlarni shifrlash algoritmi. O'z DSt 1105:2009.
3. www.ziyouz.com

# MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR KITOBXONLIGI

**Yusupova Feruzaxon Murtozoxonovna**
Farg'ona pedagogika kolleji direktori,
**Maxmutaliyeva Zulfiya Alijonovna**
Farg'ona pedagogika kolleji
maxsus fan oqituvchisi

**Annotatsiya:** maqola maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari o'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan.
**Kalit so'zlar**: kitobxon, badiiy adabiyot, sujet, bolalar kitobxonligi, bolalar adbiyoti.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar pedagogikasida bolalarni har tomonlama kamol toptirishda tarbiyaning asosiy xillari: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va estetik tarbiya ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Alohida tizimni tashkil etuvchi bu tarbiya xillari bir-biri bilan uzviy bog'langan trazda amalga oshirilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda «estetik tarbiya» tushunchasi bilan birga, badiiy tarbiya tushunchasi ham qo'llanadi. Badiiy tarbiya deganda bolalarni san'at turlari: badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, kino, teatr va boshqa san'at asarlari vositasi bilan tarbiyalash nazarda tutiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning psixofiziologik va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar kitobxonligi pedagogik–psixologik xususiyatlariga ko'ra uch davrga bo'linadi. SHunga ko'ra 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligining xususiyatlaridan biri bola yetti yoshga to'lguncha atrofdagi hayotiy yangiliklarni tez ilg'aydigan bo'lib o'sa boshlaydi. Bu ishlarni faqat bolani kelajakka tayyorlash, deb tushunish kamlik qiladi. CHunki bolalik inson uchun navqironlik fasli hamdir.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar, hali maktabga bormay turib, oqilona harakat qiladigan, tevarak-atrofni mustaqil kuzatadigan, kattalar yumushiga qarashadigan, ravon so'zlab, fikr yurita oladigan birmuncha bilim va malaka orttirgan bo'ladi. Bolaning ana shunday darajaga yetishishida, xususan, uning jismoniy, aqliy va ahloqiy kamolotida xalq, Vatan oldidagi burchni tushunishida, go'zallikni his qila olishida, xunuk narsalardan jirkanib, yomonlik va yovuzlikdan nafratlanishida so'z san'atining o'rni beqiyos.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mustaqil ravishda kitob o'qishni bilmaydilar, lekin ularning tasavvurlarini shakllantirish, intilish va qiziqishlarini hisobga olish o'ta muhim. Bunda maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachilari katta rol o'ynaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi asosan tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan bola dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, bizni qurshab turgan olamni bilishga, uni o'rganishga intiladilar. Bu davrda tarbiyachilar badiiy asarlardan parcha o'qib berishlari lozim. Bolalarga o'qib beriladigan har qanday badiiy asarning hajmi qisqa va mazmuni sodda bo'lishi talab etiladi.

Bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bolalar adabiyotini rivojlantirishdan iborat. Rus olmi V.Belinskiy bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerakligini alohida ta'kidlagan. Chunki yetuk olimlar bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini, avvalo, bolalar yozuvchilarining kattalar yozuvchilaridan farqli qobiliyatida, deb bilganlar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi har bir guruhga mansub bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiyati, o'ziga xos tabiati, qiziqish doiralari asosida adabiyotlar tavsiya etiladi. Masalan, adabiyotshunos olim P. SHermuxammedov shunday yozadi: "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozilgan asarlar o'ziga xosligi bilan alohida ajratib turadi". Har bir guruhga mansub bolalar uchun so'zlab yoki o'qib beriladigan asarlar mazmuni , g'oyasi, syujet, kompozitsiya va boshqa tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir yosh davrida bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotida qiziqarlilik, soddalik, aniqlik, syujet, kompozitsiya, obrazlilik, tip, badiiy nutq va uning sirlari kabi o'ziga xos xususiyatlar bor. To'qima uydurma , xayoliy tushda bo'lishi va voqealarning an'anaga aylangan ifodalar (boshlansa tugallanma)

bilan tasvirlash , bo'rttirish (mubolag'a) kabi usullarning qo'llanishi va boshqalar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ertagiga ham xos xususiyatlardir. Lekin bu xususiyatlar ifoda usullari, tasvir ifoda vositalari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ertaklarida boshqacha qo'llanadi. Bulardan tashqari, kichkintoylar uchun yaratilgan ertaklarda o'z g'oyalari, qahramonlari, syujet va kompozitsion qurilish, obraz va xarakter yaratish usullari, tili va boshqa unsurlari o'rta yoshdagi maktab o'quvchilariga bag'ishlangan ertaklar uchun emas, hatto bog'chadagi yosh xususiyatlariga ko'ra guruhlarga bo'lingan bolalar nuqtai nazaridan ham farq qiladi. Bu xil o'ziga xoslik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus yozilgan adabiy ertaklarda ham mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'qib beriladigan asarning umumiy xususiyatlaridan biri syujetning nihoyat darajada qiziqarli bo'lishidir. Darhaqiqat, shunday asargina bola diqqatini o'ziga jalb etadi. Adabiyotshunos olim S. Mamajonov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: «Kichkintoylarga bag'ishlanadigan asarlar syujetining muhim xususiyatlaridan biri uning o'quvchi diqqatini tutib turuvchi qiziquvchanligidir. Chindan ham badiiy asarlarning syujeti qiziqarli bo'lsagina, u o'z vazifasini to'la bajarishi mumkin. L.Tolstoy aytganidek, kitobxonni zerikarli voqealar tasviri orqali dunyoni bilib olishga majbur qilib bo'lmaydi».

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari o'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya. Toshkent, 1981. 11-bet.
2. Mamajonov S. Tiriklik suvi Toshkent 1986. 8- bet.

# TA'LIM JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Zoyirova Shaxnoza Teshayevna**
Qiziltepa tumani 17- umumiy o'rta
ta'lim maktab tarbiya fani o'qituvchisi
Telefon:+998944858519
akmalibodov63gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim-tarbiya berishda ajdodlarimizning ma'naviy merosining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan hayotiy tajribalar, insonlarga xos bilim va hissiyotlar milliy qadriyatlar ma'naviy me'rosimiz xalqimiz ongiga ta'lim-tarbiya orqali singib boradi.O'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning o'rni katta.Maqolada milliy madaniy merosimizning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati bayon etilgan.
**Kalit so'zlar:** ilm-ma'rifat, ma'naviyat, ma'naviy-madaniy me'ros, ta'lim-tarbiya.

Barkamol avlodni tarbiyalash – yoshlarning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir. Davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik yuksakligiga, komillik darajasiga bog'liq. Faqat milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyati va ilgor texnologiyalarni egallagan yoshlargina o'z oldiga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin. Ta'lim har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatning ko'rsatkichi va taraqqiyotning asosidir. Bugungi kunda yoshlarni komil inson ruhida tarbiyalash hamda ularni yo'liga to'siq bo'layotgan barcha illatlarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li – ilm va ma'rifatdir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilashga, yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'lim va tarbiyaning o'zaro mustahkam bog'liqligini, ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emasligini alohida ta'kidlaydi: " Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi". Umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy me'rosimizni hayotga tadbiq etish va yoshlar ongiga singdirishda ta'lim tizimi uzviy ravishda bog'liq. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan hayotiy tajribalar, insonlarga xos bilim va hissiyotlar milliy qadriyatlar ma'naviy me'rosimiz xalqimiz ongiga ta'lim-tarbiya orqali singib boradi.

Hozirgi kunda xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladigan ijtimoiy tizim ishlab chiqilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va davlat dasturlari shular jumlasidandir. Ta'lim sohasidagi aniq maqsad sari yo'naltirilgan siyosatning amalga oshirilishi jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi ustuvor yo'nalishi sifatida mantiqan Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturining qabul qilinishiga olib keldi. Jahon amaliyotida o'xshashi bo'lmagan mazkur dastur tarixiy hamda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi tajribasi, shuningdek, rivojlangan demokratik mamlakatlarni ta'lim sohasidagi yutuq va tajribalarini e'tiborga olgan holda loyihalashtirilgan.

Ma'naviy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovati bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelajakdagi orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, hayotda sayqal topgan moddiy va ma'naviy boylik, jamiyat a'zolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishning tayanch vositasi bo'lgan.

Xalqimiz orasida asrlar davomida benihoya, ma'naviy me'ros va milliy qadryatlar shakllanib kelgan. U bizning uzoq tariximiz, tilimiz, dinimiz, qadimiy shaharlarimiz, yodgorliklarimiz, san'at va adabiyotimiz, ilm-fan ifodasida namoyon bo'ladi. Yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berishda, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, albatta, ularga murojaat etamiz. Milliy ma'naviyatimizni yanada yorqinroq sahifaga ko'tarishda, ma'daniy me'rosimizning dunyo taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishida,ilm-fan sohasidagi yutuqlarimizni dunyo tan olishida, buyuk ajdodlarimizning hissasi katta.

Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Al Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyk siymolarning ma'naviy me'rosi mana necha asrdirki, jahon ta'limotiga asos solib kelmoqda. Bu ham milliy ma'naviyatimizning dunyo ilm-

fani va madaniyatiga qanday ta'sir etayotganini tasdiqlovchi bir dalildir. Madomiki, madaniy me'rosimizning namunasi dunyo ta'lim taraqqiyotining rivojiga shuncha ta'sir o'tkazgan ekan, biz ta'limni isloh qilishda avlodlarimizga, buyuk ma'naviyat egasi bo'lgan ajdodlarimizning amalga oshirgan ishlarini, tajriba va qo'llanma sifatida singdirib bormog'imiz darkor.

Ma'naviyat – ta'lim sifatini oshirishda eng mukammal dastur. Bu hayotiy tajribalar asosida o'z isbotini topgan. Va, ayni kunda, ma'naviy va milliy qadryatlarsiz ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiy asarlar yaratish bilan birga o'z mablag'idan ko'priklar, hammomlar, karvonsaroylar, kutubxonalar, madrasalar, yo'llar qurdirgan. Bugun butun dunyo ali bu ulug' zotni yuksak qadrlaydi. Sababi, uning yozma asrlari ham, bunyodkorlik ishlari ham ma'naviyat va ma'rifat o'chog'ini yoqa oldi. Moskva, Tokio, Ozarbajon, kabi davlatlarda bu shaxsning haykallarining qad rostlashi, umuminsoniy qadryatlarimizning ustuvorligini jahonga yoymoqda. Insonparvar adiblarimizdan yana biri Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining asarlarida, hayot yo'llarida o'chmas chizgilarni aks ettirdi. Xalqni ilm-u ma'rifatli qilish uchun o'z mablag'idan maktab ochdi, o'quv qo'llanmalar yaratdi va ularni bepul tarqatdi. Nochor oilalarga g'amxo'rlik qildi. Ana shunday ezgu ishlarni amalga oshirgan ajdodlarimiz talaygina. Demak, bizning ota-bobolarimiz o'sha qadim zamonlarda ham hayot haqiqatini chuqur anglagan holda, muayyan qonun-qoida, an'analar, umuminsoniy qadryatlarga amal qilib yashagan.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ,buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. www.ziyo.net.uz sayti

2. V.Qo'chqorov,O .Mahmudov, Z.Zamonov Ma'naviyat asoslari. T.:Yangiyo'l poligraf servis 2017.

3. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.T.: Ma'naviyat,2008.

4. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015.

5. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Sharq nashriyoti. 1999-yil,6-soni

# THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN FURTHER DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE LEARNING

**Allamuratov Gafur Ashurovich**
Teacher of TSPU named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan

**Аннотация.** Бу мақола дарсда ва дарсдан ташқари мулоқотни осонлаштиришда кўприк вазифасини ўтовчи замонавий технологиялардан қай усулда фойдаланишни, турли мулоқат усуллари билан алоқа қилишни, мустақил бўлиш даражасини ва ўзаро алоқани сақлашни тадқиқ этади.

**Калит сўзлар:** сўнги метод, англаш, коммуникатив фаолият, навбатдаги, этник бўлиниш, мобил қурилмалар, сақлаш, боғланиш, ўзаро алоқа, сайт, келажакда эришиш, имло қўллаш.

**Annotation.** This article studies the using of modern technologies as a bridge to facilitate communication inside and outside the classroom, to make links with different communities, to offer a level of being independent and to keep a contact with each other.

**Key words**: latest method, conception, communicative activities, further, ethnicity division, mobile devices, retention, bridge, interaction, web-based, subsequently acquire.

In its early days, communicative language teaching was widely promoted as suitable for all contexts, but a lot of questions have since been raised about what it really means, what versions of it (any) are relevant to specific learning situations. Experiences in Asia, where educational traditions and current realities often contrast strongly with those where communicative language teaching originated, have provided a major impetus for further development of the methodology in question and its application.

Communicative language teaching now serves not so much as a label for a specific approach language teaching originated, have provided a major impetus for further development of the methodology in question and its application. Communicative language teaching now serves not so much as a label for a specific approach but as an umbrella term to describe all approaches that aim to develop communicative competence in personally meaningful ways. It also provides a framework for defining issues that research and exploratory practice need to address in the years ahead.

The communicative perspective in language is primarily about what we study. It suggests that when we learn a language we are primarily learning not language structures but language functions. These communicative functions came to play a central role in syllabus design and methodology. The English language teaching world came to be dominated by so-called ‘functional’ or ‘communicative’ courses, in which students would practice expressing functions such as ‘making suggestions’ and then use them in ‘communicative activities’ like a pair work, role play, discussion, the use of authentic materials.

At the same time, the communicative perspective on learning focuses attention on how we learn and especially on our natural capacities to ‘get’ language simply through communication and without the direct help of a teacher. These two versions of communicative language teaching have very different implications for how language is best learnt in the classroom and for the role of a teacher. Both versions require a teacher to be a creator and organizer of communicative activities. And for these reasons the teacher can implement modern technologies in the process of teaching in order to improve communication skills. For instance, mobile devices offer many communication possibilities. Within the classroom, they allow easy communication among students from a wide range of backgrounds. With the help of this way, information can easily be passed across the language and ethnicity divisions of a classroom. The following are some examples, which can show how these modern techniques can be used as an aid to communication.

Skype can be used to encourage students to communicate with their teacher and with each other. First they initially answer their questions using this service, with tutors facilitating the conversations, but soon students become independent and much of the communication is found to have taken place well out class time.

Another example can show how learners created their own learning resources from videos they had taken (this could be anything, for instance, the process of cooking a dish or creating a spread

sheet), and then used them to describe the process to their class. A teacher then used learners' own resources to teach grammar points which could be practiced repeatedly both in and outside the classroom by playing the videos.

Learners' interview skills were improved by role-playing a formal job interview, during which photographs were taken. Afterwards, they used Microsoft Photo Story software, to create a visual digital story from the photographs which were projected onto a whiteboard to allow peer critique and group learning. It could then be used as a pictorial prompt in an extension activity, or sent to the teacher for analysis and feedback given from e-mail. Many teaching opportunities can be planned using mobile devices ability to take photographs of events, articles or labels, which can be used as prompts for later written work. The voice recording feature on mobile devices was used for recording, comparison or descriptions of places or persons. Learners then listened to each other's voice recording and assessed for pronunciation and use of various grammar points.

"When using modern techniques or mobiles for communication, many teachers commented that communication dynamic in the classroom had changed from a top-down, teacher-led, approach where ideas were shared. Students felt better able to contact other students for help, rather than being teacher-dependent. In this way, the possibilities that mobile devices afford for communication lessen the loneliness experienced by many English speaking language students" [1; p138]

Extending the learning experience beyond the classroom becomes a goal of many the 21stcentury projects. "Modern technologies or digital tools make it easy for students to share their work and exchange ideas with diverse audiences, including family members and peers, local community members, and even the much wider world".[2;p175 ] For some learning process, integrating technology helps students reach an authentic audience.

The facilities provided by mobile devices can offer a highly-developed level of independence to the use and help to provide a bridge with society at large. Much of this is related to the user being able to search the internet for information. For example: Journey planners and map applications offer greater independence to the user, allowing them to find out information for themselves, often accessed whilst they are on the move.[3; p117−125]

We can suggest thatall the technologies available with the students can be used as the devices that provide a bridge to facilitate communication inside and outside the classroom, to make links with different communities, to offer a level of independence and to keep in contact with their country of origin. These devices can, of course, be a powerful teaching and learning devices too. The findings of two case studies of the use of such devices by learners have been described using the "bridge" metaphor. What is clear that learners coming to classes proficient in the use of their modern technologies naturally acquire to some extent, a collection of skills which previously needed to be taught. This raises questions as two whether changes will be required in the future to the National Curriculum to reflect such digital literacy. What is important is that teachers should keep abreast with technological development and be are aware of the learners' skills, abilities and overall literacy in IT. In addition, this will be a kind of a starting point of a teacher for improvement and further development of the language skills of their learners'.

**The list of used literature:**

1. D.Mallows.Innovations in English language teaching for migrants and refugees. London: Brand and Design, 2012.−138p.

2. J.Screvener. Learning Teaching. MacMillan: London, 2010.−175p.

3. D.Crabbe.Learning opportunities: Adding learning value to tasks. ELT Journal 62/2: 2007.117−125p.

4. Pawling,E. Modern languages and CD-ROM-based learning. British Journal of Technology, 1999-30(2), 163-175.

# МАЪНАВИЙ МЕРОСИМИЗДА ШАХС ИНТЕЛЛЕКТИ

**Ботирова Дилафрўз Бозоровна,**
Тошкент давлат шарқшунослик университети
“ Педагогика ва психология” кафедраси ўқитувчиси
Телефон: +998911345973
dilafruzpsixolog@yandex.ru
**Зияева Муборак Фахриддин қизи**
Тошкент давлат шарқшунослик университети
хитой инглиз йуналиши 3 босқич талабаси

**Аннотация:** Мазкур мақолада миллий ва маънавий меросимизда шахс интеллектини педагогик психологик асослари ёритилган. Шунингдек шахс интеллекти хамда илм олиш борасида мутафаккирларнинг қарашлари таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Шахс, миллий қадрият, тарбия, билим, фаолият, илм,дунёқараш, кўникма, касбий махорат

Инсон камолоти, энг аввало, унинг ўзига боғлиқдир. Шу боис миллий дастурда шахс ва унинг камолотини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Шахс кадрлар тайёрлаш тизимининг бош субъекти ва объекти, таълим соҳасидаги хизматларнинг истеъмолчиси ва уларни амалга оширувчидир***[1]***

Шахс узлуксиз таълим жараёнида дунёвий, илмий билимларни ўзлаштиради, фан асосларини пухта эгаллайди, ишлаб чиқариш соҳалари билан танишади, шунингдек, ўзида ижтимоий таъсирлар ёрдамида маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялаб боради. Шахсда ўзлаштирилган билим, фаолият кўникмалари ва ҳаётий тажриба асосида касбий маҳорат ҳам шаклланиб боради. Ўз-ўзини англаш туйғусига эга бўлиш, таълим соҳасидаги хизматлардан тўлақонли, самарали фойдалана олиш, илмий ва касбий билимларни пухта ўзлаштиришга эришиш шахсга етук мутахассис бўла олиши учун пойдевор яратади. Инсон билимларни ўзлаштирар экан, борлиқда тирик мавжудотнинг яратилиш тарихигача бўлган маълумотларни ўзлаштира олади, уларни яратади, илмий жиҳатдан асослайди. Билим олишга интилиш, маърифатли бўлиш ўзбек халқи, миллатининг руҳиятида устувор ўрин тутувчи омил саналади. Маърифатлилик – фақатгина билим ва малакага эга бўлиш эмас, айни вақтда чуқур маънавий ахлоқ ҳамдир. Билимли, комил инсон қиёфасида ана шундай хислатларга эга шахслар намоён бўлади. Бундай қарашлар миллий меросимиз бўлган шарқ мутафаккирлари меросида тўлиқ акс этган. Шарқ мутафаккирлари ўз асарларида билиш ҳамда инсон ақлий тафаккури масалаларига алоҳида ўрин берган. Хусусан, Абу Наср Форбий инсон томонидан борлиқни англаниши, табиат сирларини англашида илм-фаннинг ролини ҳал қилувчи омил сифатида баҳолайди. Абу Наср Форобийнинг эътирофича, инсон ақли, фикри унинг руҳий жиҳатдан юксалишининг маҳсулидир.

Алломанинг мазкур фикрларини давом эттирган ҳолда Абу Райҳон Беруний қуйидагиларни илгари суради: «Инсон нарса ва ҳодисаларнинг фақат ташқи сифати ҳамда хусусиятлари ҳақида билим олмай, балки тафаккури, ақли туфайли нарса ва ҳодисаларни таққослайди, бир-бири-билан солиштириб кўради, ўз билимларининг чинлигини аниқлайди»***[2]***

Абу Али ибн Сино ўз асарларида билим тушунчасига шарҳ бериш билан бирга билимнинг чуқур ўзлаштирилиши донишмандлик эканлигини алоҳида қайд этади: «Илм нарсаларнинг инсон ақли ёрдами билан ўрганилишидир. Билим деб эса, нарсаларни идрок қилишга айтилади. Бу шундайки, инсон ақли уни хато ва йўлдан тоймасдан туриб унга эришиши керак бўладиган нарсадир. Бордию, бу далиллар очиқ-ойдин бўлсаю, исботлар чинакамига бўлса, у ҳолда бунга ҳикмат – донишманлик дейилди»***[3]***

Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» («Саодатга бошловчи билим») асари таъбир жоиз бўлса, билимнинг моҳияти, унинг ижтимоий ҳаётдаги аҳамияти, инсон камолотини таъминлашдаги роли, ёзувликларни бартараф этувчи восита эканлиги тўғрисидаги қомус саналади. Алломанинг фикрича, билимли бўлиш эзгу ишлар тантанасини таъминловчи гаров бўлиб, унинг ёрдамида ҳатто осмон сари йўл очилади:

Ушбу фикрларни ифода этганда аллома нақадар ҳақ эди. Зеро, орадан тўққиз-ўн аср вақт ўтгач, инсон нафақат осмонга уча олди, балки коинотни ҳам забт этишга муваффақ

бўлди..Алишер Навоий билимларни изчил, узлуксиз ўзлаштириш зарурлигини уқтиради. Шунингдек, илм ўрганиш машаққатли юмуш бўлиб, уни ўрганишда айрим қийинчиликларни енгиб ўтишга тўғри келиши, бу йўлда чидамли, қаноатли, бардошли бўлиш орқалигина мукаммал билимга эга бўлиш мумкинлигини таъкидлайди. Абдулла Авлоний эса инсон ақлий камолоти хусусида тўхталар экан, қуйидагиларни баён этади: «Илм дунёнинг иззати, охиратнинг шарофатидир. Илм инсон учун ғоят муқаддас бир фазилатдур, зероки, илм бизга ўз аҳволимизни, ҳаракатимизни ойна каби кўрсатур, зеҳнимизни, фикримизни қилич каби ўткир қилур, илмсиз одам мевасиз дарахт кабидур» Аллома билим инсонни жаҳолатдан қутқаришнинг энг самарали воситаси эканлигига ҳам урғу беради: «Илм бизни жаҳолат қоронғусидан қутқарур, маданият, маърифат дунёсига чиқарур, ёмон феъллардан, бузуқ ишлардан қайтарур, яхши хулқ, одоб соҳиби қилур. Бугун ҳаётимиз, саломатлигимиз, саодатимиз, сарватимиз, маишатимиз, ҳимматимиз, ғайратимиз, дунё ва охиратимиз илмга боғлиқдур»*[4.]*

Ўқувчи дунёқарашини шакллантиришнинг бир неча мақбул шакл, метод ва воситалари бўлиб, улар сирасида маънавий-ахлоқий, ижтимоий-ғоявий, иқтисодий, ҳуқуқий, эстетик ва экологик мавзуларда ташкил этилувчи суҳбатлар, баҳс-мунозаралар, маърузалар, муаммоли вазиятларни яратиш асосида ўқувчиларни фикрлашга ундовчи амалий тренинглар, дебатлар, мустақил ишлар, шунингдек, ишчанлик ўйинлари янада самарали саналади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури //Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001.
2. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент, Давлатнашриёти, 1966
3. Ҳошимов К. ва бошқалар. Педагогика тарихи. – Тошкент, Ўқитувчи, 2010.
4. Авлоний А. Одоб бўстони ваахлоҳгулистони. – Тошкент, Ўқитувчи, 1994

# ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ОРЗУЛАРИ УШАЛГАН ДАВР

**Кучкарова Камила Мирожидиновна.**
Фарғона "Темурбеклар мактаби" ҳарбий академик
лицей ўқитувчиси

**Аннотация:** Бу мақолада муаллиф таълим тизимида туб бурилиш жараёни жадал кетаётган паллада, таълимни тубдан ислоҳ қилиш, чет эл тажрибасини халқаро баҳолаш дастурлари (ПИСА ва ТИМСС), Президент мактаблари, Темурбеклар мактаблари, Мухаммад Ал Хоразмий ва Ибн Сино каби мактабларни тажрибасини ҳаётга қўллаш таклифини берган.

**Annotation:** In this article, the author proposes to implement the experience of schools such as the Presidential Schools, Temurbek Schools, Muhammad Al Khorezmi and Ibn Sino Schools, in the period of radical transformation of the education system, radical reform of education, international evaluation programs (PISA AND TIMSS).

***Қанча кўп билимли бўлсак,***
***шунча қудратли бўламиз.***
***Шавкат Мирзиёев***.

Ўзбекистонда таълим – тарбия тизимини тубдан ислоҳ этишда қаратилган эътибор туфайли, таълим босқичма-босқич шакл ва мазмун жиҳатдан бутунлай янгиланди ва бу жараён юзага келаётган талаб ва эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда давом этмоқда. Бугунги кун талаби замонавий кадрларни тайёрлаш, таълим сифатини ошириш, ўқув жараёнида иноватцион янгиликларни жорий етиш зарур. Бу борада мамлакатимизда таълим соҳасида изчил сиёсатлар олиб борилмоқда, чекка қишлоқларда ёшларни нафақат замонавий, балки юксак малакавий педагог-устозлар билан таъминланмоқда. Юртбошимиз томонидан Президент мактаблари, Темурбеклар мактаблари, Мухаммад Ал Хоразмий ва Ибн Сино каби мактабларни очилиши ҳамда 2019 йил 28 июндаги № ПҚ – 4375 қарори ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда педагогик кадрларни танлов асосида саралаб олиниши таълимдаги туб ислоҳотлардан биридир. Бу каби ютуқ ва муваффақиятлар, сўнги йилларда олий таълим тизимида эришилаётган ижобий нанижалар Ўзбекистоннинг ҳар бир фуқаросига ифтихор бағишлайди.

Ёшларимиз орасида қанча билимли кўп бўлса, шунча қудратли бўламиз. Шундай кўламли ислоҳотларимизни охирига етказишимиз, фарзандларимизни замон талаблари асосида камол топтириш учун энг юксак педагогларни жалб этишимиз, уларнинг билим ва тажрибасини мунтазам ошириб боришимиз зарур.

Юртбошимиз томонидан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича "Ҳаракатлар стратегияси" да Давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштириш, Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштириш, Ижтимоий соҳани ривожлантириш, Хавфсизлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат, уларнинг ҳуқуқлари, манфаатларини ҳимоя қилиш борасида қатор ҳуқуқий база яратилди. 2016 йил 14 сентябрда "Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида" ги қонуннинг қабул қилиниши эса бу борадаги, хусусан, ёшларни ижтимоий ва маънавий жиҳатдан юксак даражада камол топишига қаратилган давлатнинг муҳим йўналишлари белгилаб берди ва уни амалга оширишнинг қонуний асосини яратиб берди.

2021 йилда Ёшларга оид давлат сиёсатида туб бурилиш амалга оширилмоқда. Бу йилга Ёшларни қўллаб қуватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили деб ном берилиши бежиз эмас.

Таълимдаги ҳар қандай хато фаровонликдан узоқлаштиради. Таълимга эътибор келажакка эътибордир. Биринчи президентимиз таъкидлаганидек, "бугун хорижлик меҳмонлар, аввало, фарзандларимиз таълим-тарбия олаётган мактаблар ва лицей, маданият ва спорт масканларига бормоқда. Улар ёшларимизда яратиб берилаётган шарт-шароитлар билан яқиндан танишмоқда. Шу ўринда яна бир бор таъкидлашни истардим: ёш авлод –

бизнинг келажагимиз уларга ҳар томонлама пухта таълим-тарбия берсак, Ватанимизнинг келажагини, унинг келгуси тараққиётини ва равнақини таъминлаган бўламиз. Болаларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлса бошқа армонимиз қолмайди.

Дархақиқат ёшларимизни маънавий юксалтириш ва уларни бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича Президентимиз илгари сурган 5 та муҳим ташаббус соғлом турмуш тарзини ўргатишда ва тарбияси борасида ҳуқуқбузарликларни олдини олишда, иш билан банд қилишда муҳим ўрин тутади. Ёшларни мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъат, спорт соҳаси, ёш китобхонликни кенг тарғибот қилиб маънавиятини оширишда Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари дастурларининг ёшларни онгида ижобий натижаларни бераётганлиги муҳим аҳамият касб этмоқда.

**Адабиётлар:**

1. w.w.w.pedagog.uz
2. w.w.w.ziyonet.uz

# СИЁСИЙ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

**Қурбанова Сарвиноз**
Урганч тумани 28-сон
мактабнинг 10- синф ўқувчиси
**Қурбанова Ёқутжон**
Урганч тумани 28-сон
мактабнинг 9-синф ўқувчиси,
**Пўлатова Сабрина**
Урганч тумани 28-сон
мактабнинг 8-синф ўқувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада сиёсий таълим ва тарбиянинг ёшлар ҳаётида тутган ўрни ва унинг аҳамияти ҳақида тўхталиб ўтилган. Сиёсий таълим инсонпарварлик қадриятларининг улуғ ланишига, шахс табиий ҳуқуқлари ва эркинлигининг ҳимоялашга қаратилиши айтилган.

**Калит сўзлар:** Сиёсий етуклик, шахс, сиёсий онги, тарбия ва таълим, ғоя, феномен, демократия.

Сиёсий етук шахснинг шаклланиши ва ривожланиши учун жамиятда ижтимоий адолат норма ва принциплари, функцияларининг рўёбга чиқиши кифоя эмас. Сиёсий етуклик шахснинг сиёсий онги ва фаолияти бирлигини таъминлаш натижасида ҳосил бўладиган феномендир. Шу сабабли сиёсий ижтимоийлашув жараёнининг устувор йўналишларидан бири сиёсий тарбия ва таълим билан боғ лиқдир.

Тарбия шахснинг ривожланиши жараёнини англатади. Унинг уч томони мавжуд: 1) шахс онги ва фаолиятига мақсадга мувофиқ таъсир кўрсатиш жараёни; 2) шахс онги ва фаолиятига стихияли таъсир жараёни; 3) ўз—ўзини тарбиялаш жараёни. Тарбиянинг асосий мақсади шахс онгига жамиятда мавжуд бўлган норма, қадрият ва тажрибаларни сингдириш, шу жамиятда фаолият кўрсатишга тайёрлашдан иборат.

Сиёсий таълим-шахс сиёсий онгини шакллантириш, ижтимоий-сиёсий фаолият кўрсатиш малакаси ва кўникмасини вужудга келтириш, бир сўз билан айтганда, шахс сиёсий маданиятини оширишга қаратилган жараёндир. Унинг тарихи демократия тарихи билан бевосита боғлиқ. Чунончи, автократик давлатларда халққа сиёсий таълим беришнинг ҳожати йўқ эди. Чунки аксарият фуқаролар сиёсий ҳаётдан йироқ эдилар, кундалик ижтимоий муомала учун эса ўз табақасининг анъаналари ҳамда нормаларини ўзлаштириб олиш кифоя эди. Шахс ўзининг давлат билан ўзаро муносабатларини стихияли тарзда ўзлаштириб борарди.

Сиёсий таълим инсонпарварлик қадриятларининг улуғ ланишига, шахс табиий ҳуқуқлари ва эркинлигининг ҳимояланишига таянади, яъни унинг диққат марказида инсон туради.

Сиёсий тарбиявий ишларнинг моҳиятини шахс онгининг умумий таркибида етакчи ўринга эга бўлган ва муҳим аҳамият касб этадиган сиёсий онгни шакллантиришгина ташкил этмайди. Турли қарашлар ва ғояларнинг назарий жиҳатдан ўзлаштирилгани ҳали инсон ғоявий -сиёсий позициясининг мустаҳкамлигидан далолат бермайди. Бу ғоялар ва қарашлар «ўлик капиталигича» қолавермаслиги учун эътиқодга айланмоғи лозим, чунки эътиқод шахсни маълум қадриятларга бўйсундиради, ҳаётий позициясини шакллантиради. Шунинг учун сиёсий тарбия сиёсий онгни тириш ва сиёсий онглиликни тарбиялаш билан чекланмасдан, сиёсий билимларнинг шахс сиёсий эътиқодига айланишини ҳам таъминламоғи даркор. Ўқув масканидан кейин амалга ошириладиган сиёсий тарбиянинг мухим вазифаларидан бири ана шундан иборат бўлади. Ушбу вазифани рўёбга чиқариш учун энг аввало шуни унутмаслик лозимки, инсон онгининг ўзгариши қатор объектив ва субъектив омилларга боғ лиқ. Бир томондан, меҳнат шароитлари ва меҳнат жараёнида вужудга келадиган ижтимоий муносабатлар, оиладаги вазият инсон рухиятига ўз таъсирини ўтказса, иккинчи томондан, шахс онги тарбиявий таъсир остида ҳам ўзгариб боради. Тарбия жараёнида ўзаро боғлиқ бўлган турли вазифаларни ечиб бориш учун тарбиянинг услуб ва воситаларини тўғри танлаш, сиёсий тарбия принципларига қатъий амал қилиш зарур. Бунинг учун эса мавжуд объектив шарт -шароитлар ва субъектив омиллар инобатга олиниши даркор.

Сиёсий тарбиянинг турли принциплар асосида амалга оширилиши унга мақсадли,

системали характер ато этади. Ўзбекистонда жамиятни инсонпарварлаштириш жараёнида сиёсий етук шахсни шакллантириш мақсадида амалга оширилган сиёсий тарбия энг аввало давлат сиёсати билан боғ лиқ бўлиши, инсонпарварлик ғояларига асосланиши, шахс ҳаётий позициясини шакллантириш ва уни сиёсий фаолиятга тайёрлашга қаратилган бўлиши, унинг сиёсий фаоллигини ошира бориши лозим. Ушбу принциплар ижтимоий муносабатларнинг характери билан шартланган бўлиб, шахсдаги маълум қарашларини эътиқодга айлантириш имконини беради. Бундай принциплар йиғ индиси тушунтириш, ишонтириш ва мажбурлаш каби аҳамиятли услубларни вужудга келтиради.Ўқув масканларидаги сиёсий таълим жараёнида айниқса тушунтириш услубига бирламчи эътибор берилса, ундан кейин сиёсий эътиқодларни шакллантириш мақсадида амалга ошириладиган сиёсий тарбияда ишонтириш услуби бирламчи аҳамиятга эга. Сиёсий тарбия ижтимоий тарбиянинг бошқа йўналишларига ҳам ўз таъсирини ўтказади, чунки шахснинг ҳар қандай фаолияти онглиликка асосланган бўлади. Онглилик эса сиёсий тарбия маҳсулидирунинг асосида жамият ва миллат манфаатларини англаш ётади. Шу сабабли «ҳар бир тарбиявий ишимиз сиёсий тарбия билан йўғ рилган бўлмоғи лозим, башарти бунинг акси экан, унда бундай тарбия самарасиз бўлади. Сиёсий тарбия айниқса меҳнат тарбияси билан бевосита боғ лиқ. Шунинг учун ҳам машҳур педагог А.С.Макаренко: «Инсонни қанчалар меҳнат қилишга мажбурламанг, айни пайтда у сиёсий ва ахлоқий жиҳатдан тарбияланиб бормас экан, ижтимоий -сиёсий ҳаётга иштирок этмас экан, бу меҳнат ижобий натижаларга олиб келмайдиган нейтрал жараён бўлиб қолаверади. Тарбия воситаси бўлмиш меҳнат умумий системанинг бир қисми сифатидагина фойдалидир», - деб ёзган эди.

